

S. Qozoqov

SHAXS VA JAMIYAT

(AL va KHK o'quvchilari uchun uslubiy qo'llanma)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIIY FAKULTETI

**«O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH
NAZARIYASI VA AMALIYOTI» KAFEDRASI**

SHAXS VA JAMIYAT
(AL va KHK o'quvchilari uchun uslubiy qo'llanma)

Namangan-2017



Mas'ul muharrir:

t.f.n N.Gofurov

Tuzuvchi:

S.Qozoqov

Taqrizchilar:

s.f.n. A.Abdulazizov

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi” kafedrası dotsenti
s.f.n. X. O'rinboev Nam M.P.I.
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

Ushbu uslubiy qo'llanmada «Sotsiologiya» fanining katta bo'limlaridan biri bo'lgan jamiyat va shaxs mavzusiga bag'ishlanadi. Bunda jamiyat tushunchasi, tuzulishi, ijtimoiy tizimlari, shaxs tushunchasi, shaxs va oila kabi mavzular yoritilgan va uning ahamiyati bayon etilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariга mo'ljallangan shu nomdagi o'quv qo'llanmasiga mos ravishda tuzilgan. Qo'llanma akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Ushbu qo'llanma Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2017 yil 22 fevralning 6- sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.



KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, ta'limda uzviylikni va uzluksizlikni ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim jarayoniga ko'plab yangiliklar olib kiritilmoqda. Yangilanish, mamlakat, siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, modernizatsiyalashtirish jarayoni barcha sohalar kabi ijtimoiy fanlarni o'qitish, ularning mazmun-mohiyati davr talablari asosida qaytadan o'zgartirish vazifasini qo'ydi.

Mustaqillik tufayli milliy tafakkurga keng yo'l ochilib, ijobiy o'zgarishlar qilindi. O'zbekistonda faylasuf va sotsiolog olimlar tamonidan jamiyat siyosiy hayoti, ijtimoiy munosabatlarida ro'y bergan o'zgarishlarni chuqur, mufassal yoritish hamda sotsiologiyaning ilg'or nazariy va amaliy tajribalaridan keng foydalanish asosida darslik, o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Shu jumladan, sotsiologiyaning asosiy yo'nalishi "Shaxs va jamiyat" fanidan ham bir qator adabiyotlar yaratilgan bo'lib, ular kirill alifbosi asosida nashr etilgan. Ushbu uslubiy qo'llanma akademik litsey va kasb-xunar kolleji o'quvchilariga lotin alifbosi asosida tayyorlangan bo'lib, ular uchun qulaylik yaratadi.

1-mavzu. "Shaxs va jamiyat" kursining mazmuni va vazifalari

1. Fanning mazmuni va vazifalari. Fanlar taraqqiyotida differentsiatsiya va integratsiya jarayonlari

Ma'lumki, bizga hozircha ma'lum bo'lgan dunyo uch qismdan, ya'ni: a) qum zarrasidan tortib galaktikagacha bo'lgan moddiy borliq, ya'ni tabiatdan b) tabiatning rivojlanib o'ziga xos yashash tarzini o'tayotgan, hozircha faqat erda kuzatilgan va inson jismi bilan borliq bo'lgan ko'rinishi – jamiyatdan hamda v) ana shu ikkala borliqning inson ongidagi in'ikosi bo'lmish ma'naviy borliq – ya'ni ruhiyat dunyosidan iboratdir. Shu ma'noda olamni o'rganuvchi fanlarni shartli ravishda uch yo'nalishga bo'lish mumkin: tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik va ma'naviyatshunoslik. Ularning har biri, o'z navbatida, yana bir qancha yo'nalishlar va turlarga bo'linib ketadi. Masalan, tabiatshunoslik ximiya, fizika, biologiya, geologiya va boshqalarga bo'linsa, jamiyatshunoslik tarix, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, estetika, ma'naviyat asoslari va shu kabilarga bo'linadi, ma'naviyatshunoslik esa – axloqshunoslik, psixologiya kabi fanlarni o'z ichiga oladi. Shuni unutmaslik kerakki, ushbu fanlarning har biri ham o'z navbatida, bir necha fanlarga bo'linib ketadilar. Masalan, ximiya – anorganik va organik ximiyaga, fizika – mexanika, elektrodinamika, optika, kvant mexanikasi va boshqalarga, biologiya – botanika, zoologiyaga bo'linadi va hokazo. Shu bilan birga bu fanlar ham, o'z navbatida, yanada kichikroq, ammo yanada aniqroq fanlarga bo'linadilar. Fanlar taraqqiyotidagi ushbu jarayon ularning yanada boyib, inson bilimining esa yanada chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi. Ilmiy tilda bunga fanlar differentsiatsiyasi deb ataladi.

Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarning har biri yana bir qancha fanlardan tashkil topadi, ular ham o'z navbatida yanada "kichikroq", "chuqurroq" qismlarga bo'linib ketadi.

Fanlar taraqqiyotida differentsiatsiyaga teskari bo'lgan, ammo fanlarning yanada rivojlanayotganidan dalolat beruvchi boshqa bir hodisa ham yuz beradiki, unga fandagi integratsiya jarayoni deyiladi. Bunda aksincha, fanlarning o'z ichida yanada chuqurlashuvi emas, balki bir necha fanlarning o'zaro qo'shilishi yuz beradi. Aslini olganda bu hol real dunyodagi bir-biri bilan bog'langan jarayonlarni aks ettiradi, ya'ni ularning in'ikosi sifatida amal qiluvchi fanlar ham o'zaro qo'shilib ketadilar va o'ziga xos "sintez", "aralashma" fanlar hosil bo'ladi. Bunga biofizika, iqtisodiy kibernetika, biogeoximiya, radioastronomiya, iqtisodiy geografiya, astrobiologiya, fizik ximiya va boshqa fanlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. "Shaxs va jamiyat" predmetining mazmuni va uning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni

Mavjud fanlarning asosiy ko'pchiligi insonning o'zini har xil nuqtai nazarlardan tadqiq qiladi. Biologiya va tibbiyotga oid fanlarda u jonli organizmlarning biri sifatida o'rganilib, fiziologik, jismoniy, anatomik, gigienik, genetik va boshqa tomonlardan tavsiflanadi. Psixologiyada esa odamning ruhiy

olami, uning xotirasi, hissiyotlari, intilishlari, tafakkuri va shunga o'xshash jihatlari o'rganiladi. Tarix fanida esa uning tarixiy taraqqiyoti va kamoloti ko'rib chiqiladi. Siyosatshunoslik, dinshunoslik, falsafa va boshqa fanlar ham insonni o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadilar. Xullas, fanlar kompleksi birgina insonning o'zini har jihatdan o'rganadi va unga har xil ta'riflar beradi. Shu nuqtai nazardan insonning o'zini bir necha tushunchalar ifodalashini ko'rishimiz mumkin: odam, inson, organizm, individ, banda, tana, shaxs va boshqalar.

Jamiyat haqida ham yuqoridagi kabi fikrlarni aytishimiz mumkin. Uni ham turli fanlar o'z nuqtai nazarlaridan o'rganadilar va uning ham ko'plab, ba'zan bir-biriga mutlaqo mos kelmaydigan ta'riflari mavjud. Siz ular haqida tarix, huquqshunoslik, iqtisodiyot asoslari kabi predmetlarni o'rganish paytida muayyan tushuncha hosil qilgansiz. Masalan, "kitobsevarlar jamiyati", "ovchilar jamiyati", "faylasuflar jamiyati", "kiborlar jamiyati" kabi tushunchalarga duch kelgan paytimizda "jamiyat" so'zi ostida yagona qiziqish, biralikda faoliyat ko'rsatish, bir-biriga ko'maklashish maqsadida birlashgan kishilar guruhini anglaymiz. "Ibtidoiy jamiyat", "feodal jamiyati", "burjua jamiyati" yoki "amerika jamiyati" iboralari esa insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarini yoki aniq bir mamlakatni aks ettiradi. Mazkur tushunchani yanada umumlashtiradigan bo'lsak, u tabiatdan ajralib chiqqan, ammo baribir uning bir qismi bo'lib qoladigan kishilar hamjamoasini, bir-biri bilan turli-tuman va murakkab munosabatlarga kirishadigan Er yuzidagi barcha kishilar yig'indisini anglatadi.

Kishilarning o'zaro aloqalari va munosabatlari natijasida jamiyat hayotida bir biridan farqlanadigan, ammo bir-biriga faol ta'sir qiladigan nisbatan mustaqil bo'lgan bir qancha qismlar, bo'laklar, elementlar amal qiladi. Ularning birgalikdagi faoliyati jamiyatning bir butun va doimiy o'zgarishda bo'lgan dinamik tizim sifatida amal qilishini ta'minlaydi. Umuman olganda "tizim" iborasi deyarli barcha narsa, ob'ekt va hodisalarni tavsiflaydi va ularning nisbatan kichikroq qismlardan, bo'laklardan, elementlardan tashkil topganini hamda ular o'rtasida muayyan aloqalar, bog'lanishlar mavjudligini bildiradi. Tizimning normal amal qilishida uning turli qismlari o'rtasidagi aloqa va munosabatlar belgilovchi rol o'ynaydi. Dinamik, ya'ni o'zgarishda bo'lgan tizim juda ko'p, ba'zan son-sanoqsiz doimiy o'zgarishda bo'lgan qismlar va elementlardan iborat. Ularning har biri o'z navbatida yanada kichikroq bo'lgan tizim va elementlarga ajraladi, yoki aksincha, har bir tizim unga nisbatan kattaroq, kengroq hodisaga nisbatan element sifatida amal qilishi mumkin.

Jamiyat mustaqil bo'lgan, lekin nisbatan torroq, (ko'pincha fanda "podsistema" deyiluvchi) kichikroq, *ijtimoiy hayot sohalari* deb ataluvchi tizimlardan iborat. Masalan, iqtisodiy (moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar), ijtimoiy (guruhlar, tabaqalar, sinflarning munosabatlari), siyosiy (davlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar faoliyati), ma'naviy (axloqiy, diniy, madaniy, falsafiy, ilmiy tizim va hokazo). Bularning har biri murakkab hodisa bo'lib, o'z navbatida yanada kichikroq, torroq elementlardan, qismlardan tashkil topadi. Shuning uchun har xil tadqiqotchilar jamiyatni har xil nuqtai nazardan: kimdir tashkilotlar sifatida, kimdir – ijtimoiy munosabatlar sifatida, kimdir –

kishilar guruhlari sifatida, kimdir – ijtimoiy birliklar aloqadorligi sifatida o'rganadilar.

Jamiyatning asosiy elementlaridan biri sifatida inson jamiyat hayotida qandaydir (masalan, mehnat, kasaba tashkiloti, etnik, diniy va shu kabi) jamoalarning a'zosi sifatida ishtirok etadi. Bu ma'noda jamiyat jamoalarning jamoasi sifatida yuzaga chiqadi. Ana shu jamiyatni o'rganuvchi fanlar ham jamiyatning o'zi singari turli-tuman bo'lib, ular jamiyatni turli nuqtai nazardan ochib beradilar. Masalan, tarix fani turli-tuman konkret tarixlarga ajratiladi. Bunga u yoki bu mamlakat tarixi, har bir fan tarixi, har bir kashfiyotlar tarixi, har bir mamlakatdagi turli hududlar, shaharlar tarixi, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, partiyalar tarixi, qo'yingki, har bir oila va shaxs tarixi misol bo'lishi mumkin. Bularning har biri o'z ob'ekti bo'lmish narsa yoki hodisani paydo bo'lishidan tortib u qachongacha bosib o'tgan vaqt mobaynida boshidan kechirgan barcha voqealarni xronologik ketma-ketlikda aks ettiradi. "Shaxs va jamiyat" o'quv predmeti jamiyat yoki inson to'g'risidagi muayyan masalalarni ko'rib chiqayotgan paytda ularning tarixidagi o'ziga xosliklar, turli voqealarning mazkur hodisalar rivojiga ko'rsatgan ta'sirini e'tiborga olishi, ya'ni ularning tarixini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Chunki u yoki bu mamlakat o'rtasidagi hozirgi munosabatlar o'rganilayotganda ularning uzoq tarix davomidagi o'zaro munosabatlarida yuz bergan hodisalar albatta ta'sirini ko'rsatadi. Ularni e'tibordan chetda qoldirmaslik esa hozirgi paytdagi munosabatlaridagi ba'zi "noaniq", "tushunarsiz" holatlarni to'g'ri anglashda yordam beradi. Bunga misol tariqasida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarga bundan 550-600 yil ilgari yuz bergan voqealar ko'rsatgan ta'sirini yoki Markaziy Osiyo hamda Arab dunyosi, Mug'ulistonning o'zaro munosabatlariga ularning uzoq tarixining ta'sirini ko'rsatishimiz mumkin.

Yoki "Iqtisodiyot asoslari" va "Shaxs va jamiyat" predmetlarini bir-birining bilimlari va tushunchalarisiz to'liq tushunish qiyin. Chunki jamiyat hayotining turli sohalari va inson faoliyati iqtisodiy qonunlar ta'siri ostida yuz beradi va, aksincha, iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar jamiyatning siyosiy, huquqiy, ma'naviy o'zgarishlar ta'sirida kechadi. Ular doimo bir-birini taqazo qiladi. Ularni inkor etish yoki tan olmaslik ham insonga, ham jamiyatga salbiy ta'sir etadi.

Insonni juda ko'plab fanlar o'rganadi. Masalan, uning jismoniy-fiziologik xususiyatlari biologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, genetika kabilar tomonidan, hatti-harakatlari axloqshunoslik, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Aslini olganda fanlarning barchasi u yoki bu darjada inson masalasini o'z ichiga oladi. Shu ma'noda inson, uning tabiiy va ijtimoiy borlig'i ko'plab fanlarning o'rganish mavzuini tashkil etadi.

Insonni o'rganishda uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy hodisalarga yaxshilik, yomonlik, vijdon kabi axloqiy xususiyatlar nuqtai nazaridan yondoshish etika predmetining mavzuini tashkil etadi. Xuddi shularga nafosat, chiroylilik, xunuklik, ulug'vorlik, fojealilik, kulgililik nuqtai nazaridan yondoshilsa estetik bilimlar hosil bo'ladi. "Shaxs va jamiyat" predmeti esa bu hodisalarni birdaniga ham axloqiy, ham estetik, ham siyosiy, ham huquqiy va boshqa ijtimoiy bilimlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Shu ma'noda ushbu fan inson va jamiyat haqidagi

alohida fanlarning o'ziga xos birlashuvi, sintezi hisoblanadi va unda ana shu sohalariga doir bilimlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Demak, "Shaxs va jamiyat" fanida faqat inson va jamiyat haqidagi konkret fanlarni o'rganish asosidagina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Binobarin mazkur fan jamiyat va inson haqidagi fanlardan olgan bilimlarni umumlashtirishga, ularning istiqboli qanday bo'lishi to'g'risida muayyan xulosalar chiqarishga yordam beradi. Bu esa har bir kishining mazkur fanni o'rganish orqali dunyoda kechayotgan voqealarni tushunishini va unda ularni tahlil qilish ko'nikmalari hosil bo'layotganini anglatadi. Ushbu fanning eng asosiy xususiyati ham ana shundadir.

3. Jamiyat taraqqiyotiga formatsiyaviy va sivilizatsiyaviy yondoshuvlar

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, insoniyatning taraqqiyoti juda uzoq davom etgan jarayon bo'lib, ko'p bosqichlarni o'z ichiga oladi. Tarixchilar, faylasufflar, iqtisodchilar, siyosatchilar va jamiyatning turli-tuman sohalarini o'rganuvchi boshqa ilm vakillari ana shu taraqqiyot bosqichlarini bir qancha belgilarga ko'ra bir-biridan ajratib o'rganishadi. SHuning uchun hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining bosqichlari haqida bir-biridan farq qiladigan bir qancha qarashlar mavjud. Bularning biri ijtimoiy taraqqiyotga ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning ketma-ket bosqichlari sifatida nazar tashlasa, ikkinchisi uni sivilizatsiyalarning o'ziga xos sintezi sifatida talqin qiladi, uchinchisi jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini bir-biridan texnologiyalar taraqqiyotiga ko'ra ajratishni taklif etadi, to'rtinchisi esa madaniyatlarning o'ziga xosligini asosiy belgi sifatida olg'a suradi va hokazo. Albatta, bunday yondoshuvlarning har birida o'ziga xos mantiq, o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos ijobiy jihatlar, hamda, aytish mumkinki, ularning e'tiboridan chetda qolgan jihatlar, kamchiliklar mavjud. Aslini olganda ularni yaqin-yaqinlargacha bo'lgani kabi, bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki umuman olganda jahon taraqqiyotiga turli nuqtai nazarlardan yondoshish sifatida qaragan ma'qulroq. Ana shunda ehtimol ular bir-birini to'ldirar, qaysidir muammolarni bir necha bor tafakkur silsilasidan o'tkazishga, ularni turli jihatlardan izohlashga imkon berar. Shu ma'noda ba'zan ijtimoiy fanlarda o'zini namoyon qilayotgan ba'zi bir og'machilik kayfiyatlariga, moda bo'lgan so'z o'yinlariga berilishdan ko'ra, muammoga turlicha qarab, ularni tahlil qilish, ko'r-ko'rona tanqidbozlik yoki maqtovlardan ko'ra natijasi ilm-fanni olg'a etaklaydigan nazariy va amaliy natijalar olingani ma'qul.

Jamiyat taraqqiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar ketma-ketligi sifatida yondoshuv asosan XIX asrda dialektik va tarixiy materializm nazariyasining g'oyasi sifatida vujudga keldi. Uni ko'pincha iqtisodiy determinizm deb ham atashadi. Chunki unda jamiyat hayotida iqtisodiy sohaning etakchilik va belgilovchilik roliga alohida ahamiyat beriladi. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasiga ko'ra jamiyat hayotida insonning ishlab chiqarish faoliyati, iqtisodiy soha, ishlab chiqarish quollariga munosabat, xullas mulkchilik munosabatlari asosiy ahamiyatga ega. U jamiyat hayotining qolgan barcha sohalarini belgilab beradi. Shuning uchun Er yuzining istalgan mintaqasida, istalgan paytda har qanday jamiyatni xarakterlaydigan, insoniyatning barcha davri, barcha ijtimoiy tizimlar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qonunlar mavjuddir. Ular orqali

istalgan jamiyatni tahlil qilib, xarakterlab berish mumkin. Bular asosan materialistik dialektikaning hamda siyosiy iqtisodning asosiy qonunlaridir. Shu ma'noda formatsiyaviy yondoshuv jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini tushuntirib beradi. Bu yondoshuvga asoslanib insoniyat jamiyatidagi ayrim qaytarilmas xususiyatlar, u yoki bu xalq ma'naviyati, madaniyati, tarixiy rivojlanishi, ruhiy-psixologik xususiyatlari, uni boshqa xalqlardan ajratib turuvchi jihatlar, uni aynan o'sha xalq qilib turgan muayyanliklarni tushuntirib bo'lmaydi. Aksincha bunda jamiyatni, undagi biror hodisa va jarayonlarni tushuntirishga bo'lgan ana shunday nuqtai nazarlarga «o'ng», «so'l» va boshqa «yorliqlar» yopishtirilishi xarakterlidir. Bunday fikrlarni bayon etuvchilarning taqdiri esa ko'pincha fojiali tugagan paytlar ham bo'lganligi yaqin tariximizdan bizga ma'lum.

Albatta, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo'lib o'rganishning ham o'ziga yarasha o'ri bor. U ijtimoiy taraqqiyotning umumiy, takrorlanuvchi tomonlarini, yo'nalishlarini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega. Ammo bu uning tarixiy jarayonni tahlil qilishga qodir bo'lgan yagona usul ekanini bildirmaydi. Afsuski bu haqiqatni bizning jamiyatimiz juda kech angladi.

Jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsiyaviy (ba'zi mualliflar bu iborani "tamaddun" deb atashadi) yondoshuv esa, aksincha, yuqorida eslatib o'tilgan umumiy qonuniyatlar, umumiy xususiyatlarni emas, aksincha har bir xalq, millat, elat va undan ham kichikroq bo'lgan ijtimoiy birlashmalarning qaytarilmas jihatlarini, ta'bir joiz bo'lsa, ularning «mentaliteti»ni, ruhiyati, ma'naviyati, madaniyati va shu kabilardagi o'ziga xosliklarning ahamiyati borligini ta'kidlaydi.

Ana shu yondoshuvga asoslangan holda planetamizning turli-tuman nuqtalarida vujudga kelgan xalqlar, millatlar va elatlarning tarixida kuzatilgan va kuzatilayotgan madaniy, diniy, ilmiy, xullas, intellektual «portlash»larning tabiatini va xususiyatlarini anglash mumkin. Masalan, qadimgi Misrdagi sivilizatsiyalar va piramidalar qurilishi masalasi, Lotin Amerikasidagi inklar sivilizatsiyasi, Qadimgi Hindiston, Xitoydagi sivilizatsiyalar, hozirgi zamonda – Janubiy Koreyaning iqtisodiy rivoji, Yaponiya, Malayziya, Singapur va boshqa Janubiy Sharqiy Osiyo mamalakatlaridagi keskin olg'a sakrashlarning sivilizatsiyaviy asoslarini ana shu yondoshuv orqali tushuntirib berish mumkin.

Lekin jamiyatni o'rganishda shuni e'tiborga olish kerakki dunyoda bir-biridan tarixiy taraqqiyotining o'ziga xosliklari bilan farq qiladigan, turfa xislatlarga ega bo'lgan xalqlar va davlatlar mavjud ekan, ularning manfaatlari turlicha ekanligini, ana shu manfaatlarni anglash darajasi ham turlichaligini, ularning barchasi u yoki bu darajada siyosiy o'zlashganini tan olmay iloj yo'q. Buning natijasida ularning in'ikosi bo'lmish barcha "mafkuraviy omillar turli xalqlar, madaniyatlarining o'zaro aloqasiga, o'ziga xosligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi" tabiiydir. Bu sivilizatsiyalarning ko'p hollarda ichki va tashqi o'zaro nizolar, kurashlar, bo'linishlar, taxt talashishlar, manfaatlar to'qnashuvining ta'siriga uchraganligini, uchrayotganligini va bundan buyon ham uchrashini tushunishimizga yordam beradi.

"Sivilizatsiya" iborasi lotin tilidagi civilis - davlatga, fuqaroviylikka xoslik, fuqaroga monandlikni bildiradi va bir-biridan farq qiluvchi bir necha ma'nolarga ega. 1) Mazkur tushunchaga tarixiy yondoshuvga ko'ra u insoniyat hayotining **yovvoyilik va vahshiylik** bosqichlaridan keyingi, sof insoniy ma'nodagi **ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi**, bir so'z bilan aytganda **madaniylashuv** davrining boshlanishi va keyingi barcha davrlarni anglatadi. Bunda ko'proq tarixiy jarayonning nisbatan farqlanuvchi ikki bosqichini bir-biridan farqlash ko'proq ahamiyat kasb etadi. Ayni yondoshuvda formativiyalar umumsivilizatsiyaviy taraqqiyotning bosqichlariga aylanib qoladilar. 2) Keng tarqalgan boshqa yondoshuvga muvofiq sivilizatsiya moddiy va ma'naviy madaniyat, ijtimoiy rivojlanishning turli darajalari, bosqichlarini anglatadi. Bunda insoniyatning ana shu vahshiylikdan keyin boshlangan taraqqiyotini xronologik ketma-ketlikda yoki geografik mazmundan yoxud ijtimoiy hayot sohalari xususiyatlaridan kelib chiqib tushunish va ulardan har birining o'ziga xosligiga urg'u berish ko'proq ahamiyatga ega (masalan, antik va hozirgi sivilizatsiya, Sharq va G'arb sivilizatsiyasi, Babil, Rim va Turon sivilizatsiyasi, agrar va industrial sivilizatsiya, islom va xristian sivilizatsiyasi va h.k.). Asosiysi, shu paytgacha tarixda bo'lganidek ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan, ularning har biri o'ziga xosliklarga, noyobliklarga, qaytarilmas jihatlarga ega ekanligiga e'tibor qaratishimiz muhim. Barcha narsa va hodisalarga har tomonlama nazar tashlash tamoyilidan kelib chiqib, ushbu yondoshuvlarning har ikkisi ham to'g'riekanligini ta'kidlashimiz kerak.

Yuqorida keltirilgan yondoshuvlarning turlichaligiga misol tariqasida quyidagilarni ilova sifatida keltiramiz:

I. N.Ya.Danilevskiyning (1822-1885) fikricha har bir sivilizatsiyani jamiyatning "madaniy-tarixiy tipi" sifatida qarash mumkin. Har bir tipning yadrosini o'ziga xos g'oyaga va vazifalarga ega bo'lgan "tarixiy xalq" tashkil etadi. Shu ma'noda u sivilizatsiyalarni xronologik ketma-ketlikda quyidagi tartibda joylashtiradi: 1) misrliklar sivilizatsiyasi, 2) xitoy sivilizatsiyasi, 3) assiriya-babil-finikiyaliklar, xaldey yoki qadimiy semitlar sivilizatsiyasi, 4) hind, 5) eron, 6) yahudiy, 7) yunon, 8) rim, 9) yangisemit yoki arab, 10) german-roman yoki evropa sivilizatsiyasi. "Ana shu madaniy-tarixiy tiplarni tashkil etuvchi xalqlarigina insoniyat tarixida ijobiy arboblardir; ularning har biri o'z ruhiy tabiatlarining xususiyatlarida va o'z yashash tarzlarining tashqi xususiyatlarida mujassamlashgan ibtidoni mustaqil ravishda rivojlantirdilar hamda shu bilan insoniyatning umumiy xazinasiga o'z hissalarini qo'shdilar".

II. Ingliz sotsiologi A. Toynbi (1889-1975) ham mustaqil lokal sivilizatsiyalar mavjudligi g'oyasini yoqlagan. Ularning har biri, Toynbining fikricha, vujudga kelish, rivojlanish, cho'qqiga erishish, vayron bo'lish va yo'qolish bosqichlarini bosib o'tadi. Shu ma'noda har qanday sivilizatsiya to'liq doira yasab tarix sahnasini tark etadi. Sivilizatsiyalar rivoji, uning fikricha, "chaqiriq - javob" qonuni asosida sodir bo'ladi. Tarix jamiyatga doimo "chaqiriqlar" tashlaydi. Unga mos keluvchi "javoblar", vujudga kelgan muammolar echimi ijodiy fikrlovchi ozchilik - elita tomonidan amalga oshiriladi. Elita mavjud chaqiriqlarga javob topish qobiliyatini yo'qotsa o'zining jamiyatdagi hurmatini

yo'qotadi va uni kuch bilan saqlab qolishga intiladi. Ana shunda ijtimoiy birlikka putur etadi, ajralish yuz beradi. Bu esa sivilizatsiyani halokatga olib keladi. Uning qarashlari, ayniqsa sivilizatsiyaning bosqichlari va uning doirasimonligi haqidagi fikrlari O.Toffler (1928 y. tug'ilgan) va U.Rostou (1916 y. tug'ilgan) tomonidan iqtisodiy nuqtai nazardan yanada takomillashtirildi. Jumladan, O.Toffler jamiyat taraqqiyoti uning boshlanishidan to nihoyasigacha uch bosqichni bosib o'tadi, deydi. Bular a) an'anaviy jamiyat (industrialgacha bo'lgan davr), b) industrial jamiyat, v) axborotlashgan jamiyat (postindustrial jamiyat)lardir.

III. O'zbekistonning bir qator tarixchilari ham bu masalaning o'ziga xosligini ta'kidlamodalar. Ma'lumki, sho'rolar davri tarix fanida kishilik jamiyati tarixini 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm)ga bo'lib o'rganish uslubi qo'llanildi. Olimlarning fikricha jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini 5 ta formatsiyaga bo'lib o'rganish endilikda zamon talabiga to'g'ri kelmay qoldi. Chunki O'rta Osiyo xalqlari tarixi misolida oladigan bo'lsak, quldorlik tuzumi maxsus ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya sifatida bizda bo'lmagan. Sotsialistik jamiyat esa tarix taqazo etmagan xayoliy bir uydirma bo'lib chiqdi. O'rta Osiyo sharoitida ana shu 5 ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning faqat uchtasigina (ibtidoiy jamoa tuzumi, feodal jamiyati va kapitalistik munosabatlarning dastlabki bosqichlari) yuz berganligini ta'kidlash mumkin. Sovet davri jamiyati esa kolonial davlat kapitalizmi shaklida rivojlandi. Eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunimizga qadar bo'lgan jarayonni davrlashtirish masalasi hozirgacha o'zining to'liq ilmiy echimini topgani yo'q. Sivilizatsion davrlashtirish asosida insoniyat tarixida yuz bergan madaniy yuksakliklar yotadi. Shu ma'noda kishilik tarixi o'z taraqqiyot yo'lida 5 marta sivilizatsion yuksalishlarni boshidan kechirdi. Birinchi sivilizatsiya miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda Evfrat va Dajla, Nil va Hind daryolari havzalarida yuz berdi. Shuning uchun u tarixga "Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi" nomi bilan kirdi. Uning ta'sir doirasi miloddan avvalgi 3-ming yillikning oxirlarida Xurosonga va 2-ming yillik boshlarida Movarounnahrda yoyildi. Ikkinchi jahon sivilizatsiyasi miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida Gretsiya va Rimda yuz berdi. U tarixda "Antik davr sivilizatsiyasi" nomi ostida ma'lum. Uning ta'sir doirasi makedoniyalik Aleksandrning Qadimgi Sharqqa tomon harbiy yurishlaridan so'ng O'rta Osiyoga kirib keldi. U "Osiyo-Evropa ellinizm sivilizatsiyasi" shakllanishiga olib keldi. Uchinchi sivilizatsiya o'chog'i Movarounnahr va Xuroson bo'lib, ushbu hududlarda milodiy IX-XIII asrlarda yuz berdi, uning ta'sirida Evropa uyg'ondi. To'rtinchi sivilizatsiya XIV-XV asrlarda Evropa va Osiyoda yuz bergan uyg'onish davri bilan bog'liq. Beshinchi sivilizatsiya butun jahonni qamrab olgan XX asr sivilizatsiyasidir. Sivilizatsiyalar oralig'ida notekis rivojlanishlar, turg'unliklar, inqirozlar yuz berib turgan. Shuning uchun kishilik tarixi sivilizatsiyalarning uzluksiz tarixidan iborat emas.

IV. Hozirgi paytda tarafdorlari ko'p konsepsiyalardan biri planetamizning yagonaligi, "umumiy uy" ekanligini asoslashga yo'naltirilgan **yagona sivilizatsiya** konsepsiyasidir. Buning isboti sifatida bu qarash tarafdorlari Er yuzi bo'yicha - a) jahon xo'jaligi va bozorining mavjudligi, b) global muammolarning umumiyliigi,

v) jahon fanining mavjudligi, g) dunyoda harbiy muvozanat borligi va shu kabilarni ko'rsatadilar.

Takrorlash uchun savollar

1. Olamni o'rganuvchi fanlar qanday yo'nalishlarga bo'linadi?
2. Ijtimoiy fanlarda ro'y beruvchi differentsiyasiga oid misollarni aytib bera olasizmi? Ijtimoiy fanlar integratsiyasiga oid misollarni?
3. "Shaxs va jamiyat" fani rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi qaysi fanlarni ko'rsata olasiz?
4. Jamiyat taraqqiyotiga formativ yondoshuv nimani anglatadi?
5. Ijtimoiy taraqqiyotni sivilizatsiyaviy yondoshuv qanday tushuntiradi?
6. Jamiyat hayotining qanday sohalari mavjud?

2-mavzu. Inson bioijtimoiy mavjudot

1. Inson hayotida fizik-ximik, biologik-fiziologik tomonlarning o'rni va ahamiyati.

Inson shunday bir borliqki, tabiatda undan ulug' va mo'tabar boshqa biron bir mavjudot yo'q. Inson tabiat yaratgan ja'mi mo'jizalarning sultoni, jumla jahon deb ataluvchi tabiatning gultojidir.

Inson muammosi ko'plab ijtimoiy va aniq fanlarning o'rganish manbaidir. Jumladan, iqtisodiyot nazariyasi va sotsiologiya, biologiya va tibbiyot, psixologiya va etnografiya, tarix va geografiya kabi qator fanlar insonni u yoki bu jihatdan tadqiq qiladilar, uning xarakterli tomonlarini ochib beradilar.

Shuni aytish kerakki, inson haqida to'liq, chuqur, har tomonlama va keng bilim beradigan biror bir maxsus fan yo'q. Lekin inson haqida turli fanlar berayotgan ma'lumotlarni umumlashtirish, ularni bir butun sistema sifatida ishlab chiqish ehtiyoji mavjud.

Shunday ekan, insonni birdaniga bir necha jihatdan xarakterlanishi mumkin. U o'z tanasi, jismining xususiyatlariga ko'ra dunyodagi son-sanoqsiz narsalar kabi jismoniy, fizik jism sanaladi. Fiziologik xususiyatlari, kun kechirishi, ovqatlanishi, avlod qoldirishi va hokazolarga ko'ra esa u erdagi jonivorlar, hayvonot dunyosi vakillaridan biri sanaladi. Ammo u fikrlashi, mehnat qilishi, yaratuvchiligiga ko'ra esa alohida hilqat bo'lib, ayni ana shu jihatlarning odami, inson, shaxs deb atalishiga, ijtimoiy hodisa ekanligiga asos bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, insonni dunyodagi boshqa jismoniy, fizik-kimyoviy, biologik hodisalar bilan bog'lab turuvchi, ularning umumiylikni ta'minlovchi asoslar ham, uni ana shu hodisalardan ajratib turuvchi, faqatgina unga xos bo'lgan asoslar ham mavjud. Hozirgi paytda fanda insonni **bioijtimoiy mavjudot** deb tasavvur qilish kengroq tarqalgan. Bunda ko'proq uning biologik va ijtimoiy tomonlariga, tog'rirog'i ularning birligiga ko'proq e'tibor beriladi. Ana shu nuqtai nazarni quyidagi bir-ikki holatni esdan chiqarmagan holda to'g'rideb atash mumkin: *birinchidan*, inson tanasi jismoniy hisoblanuvchi qismlardan iborat, shuningdek unda ximiyaviy qonuniyatlarga bo'ysunuvchi jarayonlar yuz beradi, ya'ni u o'ziga xos fizik jism va kimyoviy moddadir, shulardan kelib chiqib uni

fizikoximik xususiyatli tanaga ega bo'lgan bioijtimoiy mavjudot deyilsa to'g'riroq bo'ladi; *ikkinchidan*, faqatgina inson emas, balki boshqa ko'plab jonivorlar ham ijtimoiy deb ataluvchi yashash shakllariga bo'ysunadi. Shu ma'noda «bioijtimoiy» atamasida insonga torroq nazar tashlangan, undagi ba'zi jihatlar ana shu atama doirasidan tashqarida, diqqatdan chetda qolgan, deyish mumkin.

Inson undagi barcha turli-tuman tabiiy jihatlari va xususiyatlari bilan birga tabiatning mevasi hisoblanadi, shu bilan birga u o'ziga tabiiylikdan farq qiluvchi madaniyatni ham uzviy ravishda singdirgan. Shu ma'noda u Erdagi tabiat evolyutsiyasining gultoji hisoblanadi. O'ziga xos madaniy xislatlarga ega bo'lishiga qaramay bu mavjudot tabiat qonunlari doirasidan tashqariga chiqmaydi.

Antik falsafadan tortib hozirgi kungacha insonning tabiatini aniqlashga muayyan e'tibor berilgan. Masalan, kiniklar inson tabiatini tabiiy yashash tarzi hamda moddiy ehtiyojlar va istaklarni cheklashda ko'rganlar, Epikur esa uni inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan sezgilarda, Seneka va stoiklar esa – aqlda ko'rishgan. Marksizm ta'limotida esa insonning ijtimoiy mohiyatiga urg'u berilgan.

Inson tabiiy-ilmiy izlanishlar ob'ekti sifatida uch aspektda ko'rib chiqiladi: 1) vujudga kelishi jihatidan; 2) undagi tabiiylikka oid va ijtimoiylikka oid tomonlarning o'zaro munosabati jihatidan; 3) insonning turli-tuman xususiyatlarini maxsus tabiatshunoslik usullari bilan o'rganish jihatidan. *Birinchi yo'nalish – antropologiya* – odam qachon, nimadan, qanday qilib vujudga kelganligini va uning hayvonlardan qanday farqi borligini o'rganadi. *Ikkinchi yo'nalish – sotsiobiologiya* – inson faoliyatining genetik asoslarini hamda insonda fiziologik, psixik va ijtimoiy tomonlarning o'zaro munosabatini o'rganadi. *Uchinchi yo'nalish* esa inson tanasi, miyasi, uning ongi, ruhiyati va shu kabilarni o'rganuvchi *tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar fanlardir*.

Umumiy odam bolasi paydo bo'lganidan buyon va toki u mavjud ekan, unda bir-biridan farq qiladigan ikki ibtido mavjud. Uning vujudi, tanasi talablari odamni dunyodagi boshqa barcha jonivorlar, hayvonlar olamiga, tabiatga yaqinligini, ular bilan umumiy tomonlarini anglatadi. Insonning ma'naviy, ruhiy barkamollikka erishish istagi esa unda ruhiyatga xos asos ham bor ekanligini bildiradi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda esa, bu uning ayni paytda ilohiyotga taalluqli hilqat ekanligini ham anglatadi. Ana shu ma'noda, bir tomondan, insoniyat, shu jumladan har bir odam, tirik modda sifatida Erning muayyan moddiy-energetik jarayonlari doirasi, ya'ni biosfera bilan chambarchas bog'langan. U hech qachon jismoniy jihatdan ana shu jarayonlardan hattoki biror minut ham mustaqil, alohida bo'la olmaydi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda kishilar o'z tanalarining tarkibi jihatidan Er yuzidagi boshqa jonzotlar bilan aynan bir xildirlar. Ularning barchasi ximiyaviy elementlarning kombinatsiyalaridan iborat. Ular fizik jism sifatida fizik qonunlarga buysonadilar. Organizmlardagi o'zgarishlar esa ximiyaviy jarayonlar hisoblanadi. Boshqa tomondan esa, u o'zining ana shu jismiy cheklanganligi bilan yashashdan qoniqmaydi. U aqlga, ma'naviyatga, ruhiyatga taalluqli asosga ega bo'lganligi tufayli orzu-umidlar, maqsadlar, «har tomonlama

asoslangan» g'oya va nazariyalar ishlab chiqish orqali yanada mukammalroq, yanada barkamolroq bo'lishga va o'z atrofidagi moddiy borliqni ham ana shu «ma'naviy» modellarga moslab qayta qurishga intiladi.

Shu jihatdan ko'p asrlardan buyon insonni o'rganuvchi tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelayotgan insondagi ma'naviy tomon, uning ruhiyati, ta'bir joiz bo'lsa, uning "o'zligi" (ba'zi manbalarda "Men") nima ekanligi ham haligacha to'liq aniqlanmagan bo'lib, ilmiy izlanishlar ob'ekti hisoblanadi. Haqiqatan ham, bizning ichki dunyomiz, bizning ruhimiz, "Men"imizning o'zi nima? U qanday vujudga keladi? U qayerda joylashgan?

"Men ko'ryapman", "Men eshityapman" kabi fikrlardan shu narsa aniq bo'ladiki, kimdir ko'ryapti, eshityapti. Ana shu kimdir menman. Demak, "Men" – bu ana u narsaning kitobligini, bu narsaning esa guldastaligini tushunadigan, ularni farqlaydigan odamdир. Inson tug'iladi, o'sadi va o'zini "men" deb ataydigan bo'ladi. Aynan u quvonch va og'riqni, jahl va zavqni his qila oladi. U o'zini "Men" deb ataydi, o'zining dunyoda mavjudligini anglaydi hamda dunyodagi barcha boshqa narsa va hodisalarni "Men emasman" deb o'zidan ajratadi. Aslini olganda bizning o'zimiz ham, shuningdek, bizdan boshqa kishilar ham o'zini "Men" deyishga qodir bo'lgan, faoliyat ko'rsatuvchi, fikrlaydigan jismoniy tanalardir.

"Men ko'ryapman" degan ibora nimani anglatadi? Qat'iy ravishda ta'kidlash mumkinki, jismimiz, tanamiz ko'rmoqda. Demak, bizning ko'rishga, eshityishga qobil bo'lgan jismimiz, tanamiz – "Men"imizdir. Boshqacha so'zlar bilan aytganda o'zini boshqalardan ajrata oladigan, ulardan farqli ekanligini hamda o'zining alohidaligini his qila oladigan tana, jism qisqacha "Men" degan kishilik olmoshi bilan ataladi. Bizning fikrimizcha, o'zbek tili xususiyatlarini e'tiborga oladigan bo'lsak, mazkur tushunchani insonning "Meni" deb emas, insonning "o'zligi" deb atagan ma'qulroq.

Inson dunyodagi eng yuksak rivojlangan jonzoт. Unda tana, jismiylik bilan chambarchas bog'langan "ong", "jon", "ruh", "o'zlik", "ma'naviyat" va boshqa so'zlar bilan ataluvchi tomonlar ham bor. Keling, ana shular nima ekanligini tushunishga harakat qilaylik. Obrazli qilib aytadigan bo'lsak, odamdagi sezgilar "ma'naviylik"ning "eshik-derazalari" hisoblanadi. Chunki sezgilar, hissiyotlarsiz ruhiyatning o'zi bo'lmaydi, boshqacha aytganda, har qanday fikr his-tuyg'ular "kiyimida" yuzaga chiqadi. "O'zlik"ning navbatdagi pillapoyasi tuyg'ular, keyingisi esa tasavvurlardir. Aynan tasavvurlar inson ongi, tafakkurida mavjud mazmunning mavhum shakldaligini ta'minlay olish qobiliyati hamdir. Shu ma'noda fikrlar, tafakkur, aqlimiz, uning barcha murakkabligi (orzular, xayollar, g'oyalar, fantaziyalar, xotiralar, iroda, istaklar, qadriyatlar va shu kabi abstraktlik "kiyimini kiya oladigan" "o'zligimiz"ning boshqa elementlari) tasavvurlar bilan birlashib, omixta, ba'zan mahzun, ba'zan quvnoq, ba'zan jahldor, ba'zan yana boshqa bir kayfiyatlarni namoyon etadi.

Ong, tafakkur inson "o'zligi"ning yuksak bosqichi, u hissiyot, tuyg'u va tasavvur negizida, ularning natijasi sifatida vujudga keladi. Tafakkur faqatgina aks-in'ikos emas, u ijod hamdir. U tabiatda "sof" holda mavjud bo'lmagan qadriyatlar ijodidir. Masalan, "Cho'li iroq"ni tinglashda bizda vujudga keluvchi hayot navolari cholg'u asboblardan yangrayotgan akustik tebranishlarda mavjud emas, yoki,

O'rol Tansiqboevning "Chorvoqda oqshom" kartinasi, Levitanning peyjazlarida aks etayotgan mahzunlik xolstga surilgan bo'yoqlar ximiyasida yo'qdir. Ular bizning ma'naviyatga oid ongimiz xususiyatlari, "o'zligimiz"da mavjuddir, xolos. Shu ma'noda inson ongining, "o'zlik"ning sirliligi shundaki, tabiatdagi, fizik, ximik va boshqa xususiyatlar qanday qilib go'zallik, yaxshilik, foydalilik, onomus, haqiqat, adolat kabi inson hayotining asosi va maqsadlariga aylana oladilar? Bu masala insonning o'zi kabi qadimiydir, toki inson bor ekan u doimo yangi tortishuvlar mavzusi bo'lib qolaveradi.

2. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida. Inson, individ, shaxs tushunchalari.

Odanning hayvonot olamidana ajralib chiqishi notirik tabiatdan tiriklikning kelib chiqishiga o'xshash buyuk bir hodisadir. Lekin bu sohada hali anchagina afsonaviy va sirli muammolar yo'q emas.

Antroposotsiogenez masalasini ob'ektiv ravishda tadqiq qilish hayvonot va insoniyatni bir-biridan ajratib turadigan asosiy belgilar *mehnat, til, tafakkur* tushunchalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu borada asosiy so'z marksizm asoschilarigacha ham aytib o'tilgan edi, ular esa o'zlarigacha mavjud bo'lgan ilmiy yutuqlarni umumlashtirib bera oldilar. Masalan, buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida odam jamoaviy mavjudot, degan fikrni uchratish mumkin, amerikalik ma'rifatparvar B. Franklin (1706-1790) ham odamni mehnat qurollari yaratuvchi maxluq, degan fikrni aytgan edi.

Ba'zibir ilmiy farazlarga ko'ra eng dastlabki oddiy ishlab chiqarish qurollarining vujudga kelishi juda uzoq davom etgan jarayondir. Bu o'rinda shuni unutmashlik kerakki, antroposotsiogenez jarayonida mehnatning roli masalasini naturalistik, ayniqsa mexanistik tarzda izohlash mutlaqo noto'g'ri. Bunga bir butun jarayon sifatida yondoshmoq kerak. Bordi-yu, biz agar avvalo "mehnat" paydo bo'lib, keyin "jamiyat", undan keyin "til", "tafakkur", "ong" deb qaraydigan bo'lsak, mutlaqo xato qilgan bo'lamiz.

Yana shunday qarashlar ham borki, ularga ko'ra ong paydo bo'lgunga qadar sodir bo'lgan qurol ishlab chiqarish faoliyati qadimgi odamlarning poda-poda, gala-gala yashashlariga ta'sir qilib, ularning asta-sekin jamiyatga birlashishlariga olib kelgan. Masalan, eng dastlabki ishlab chiqarish qurollari *ov qilishga* (binobarin, hayvonlarni o'ldirishga) mo'ljallangan. *Bu qurollar yordamida qadimgi ajdodlarimiz orasida ko'tarilgan to'qnashuvlar bostirib turilgan.* Bunday janjallar, to'qnashuvlar asosan erkaklar orasida urg'ochilar (ya'ni ayollar)ni himoya qilish, "urg'ochilar galasi"ni qo'riqlash shaklida yuz bergan.

Eng asosiy masala shunda ediki, endigina tug'ilib kelayotgan mehnat gala-gala bo'lib yashayotganlar dunyosida o'z rivojini topishi kerak edi. Uni keng qo'llay bilish yo'l-yo'riqlarini o'rganish kerak edi. Va bunday jarayon... million yillar evaziga... o'zaro uyushgan kishilik jamiyatini vujudga keltirdi.

Insonning ikki xil tabiatga egaligi (binar xususiyatlilik) unga ikki tomondan nazar tashlaganda namoyon bo'ladi. Bir tomondan, inson oziq-ovqat eyish, suv ichish, avlodni davom ettirish, xavfsiz bo'lishga intilish kabi ehtiyojlariga ko'ra biologik mavjudot sanaladi. Shu ma'noda unda boshqa hayvonotlar kabi genetik mustahkamlangan qaytarilmas o'ziga xoslik va noyobliklar, instinktlar mavjud. Bu

jihatdan inson hayvonlardan o'rganishga, bilishga qobilligi, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatlari tufayli o'z hatti-harakatini o'zgartirishi bilan farq qiladi.

Boshqa tomondan esa, inson o'zining tafakkurini, individual xarakterini va atrof-muhit haqidagi bilimlarini boshqa kishilar bilan bo'ladigan muloqotlari yordamida doimo rivojlantirib boradi. Boshqa odamlarning ta'sirisiz inson hayvonlar darajasida qolgan bo'lardi. Demak, uni boshqa individlar bilan aloqadorliklari tufayli, odamlar jamoasi qurshovida tarkib topgan ijtimoiy mavjudot deyish mumkin.

Ijtimoiy voqelikni o'rganayotganda inson tabiatining ana shu xususiyati doimo hisobga olinishi kerak. Chunki u ba'zi hollarda o'zidagi biologik ehtiyojlar va instiktlar boshqaruvida bo'ladi, boshqa vaziyatlarda esa uning hatti-harakati madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning belgilovchiligi ta'sirida yuz beradi.

Inson tabiatining ikki xilligi uning mohiyatini, insondagi asosiy xislatlarni ifodalovchi tushunchalarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Insoniyat jamiyatining a'zolari haqida gapirganimizda biz turli nuqtai nazarlardan kelib chiqamiz va bunda turli tushunchalardan foydalanamiz.

Eng ko'p uchraydigan tushuncha *individ* tushunchasidir. Bu tushunchadan foydalanganda insoniyat jamiyatining alohida bir a'zosini ajratib ko'rsatamiz. Bunda insonning sifatleri e'tiborga olinmaydi, ular ikkinchi planga ketadi. Shuning uchun "individ" deganda uning shaxssizligini ta'kidlaymiz, bu tushuncha orqali istagan har bir kishi aks ettirilishi mumkin.

Biz ko'pincha inson shaxsi haqida gapirganimizda *"individuallik"* tushunchasini ham ishlatamiz. Shuni aytish kerak-ki, bu tushuncha shaxsning bir butunligini, uning hamma tomonlarini aks ettirmaydi, balki insonning o'ziga xos jihatlarni, uni boshqalardan ajratib turuvchi, faqatgina ana shu insonda mavjud bo'lgan xususiyatlarni, noyob xislatlarni bildiradi. Masalan, "yorqin individuallik" so'zlari o'sha so'z qaratilgan kishida o'ziga xos sifatning bir nechasi namoyon bo'lganligini bildiradi. Aslini olganda har qanday inson dunyoda yagona va qaytarilmasdir.

"Shaxs" tushunchasi individ o'zida boshqa kishilar bilan muloqotdagina tarkib topdiradigan alohida sifatlar borligini ko'zda tutadi. *Ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lgan individ sifatida ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirgan insondagi ijtimoiy xususiyatlarning bir butunligi, yaxlitligi shaxs tushunchasida aks etadi.* Demak, har qanday jamiyatda odamning sotsial struktura va ijtimoiy jamoalar tomonidan qamrab olinganligi, ularga kirganligi nuqtai nazaridagina insonga shaxs sifatida qarash mumkin. Har bir shaxsning o'zi bir olamdirdir. Shu ma'noda Gyote: «Har bir inson butun bir dunyodir. Bir shaxsning vafoti bilan butun bir olam yo'q bo'ladi», deganida benihoya haq edi.

3. Shaxsning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Shaxsning tarkib topishi juda ko'p ta'sirlar ostida kechadi. Ular tabiiy atrof-muhitning xususiyatlari yoki insonni o'rab turgan ijtimoiy xarakterdagi turli hodisalardir. Ularning eng muhimlari quyidagilardir:

1. Shaxsning tarkib topishiga eng avvalo u tug'ilgan paytda olgan *individning genetik xususiyatlari* ta'sir ko'rsatadi. Avlodlardan irsiyat yo'li bilan o'tgan xususiyatlar inson xarakteri, uning dunyoni qabul qilish va boshqalarni

baholashi kabi tomonlariga ta'sir ko'rsatib, shaxs tarkib topishining asosi hisoblanadi.

2. Inson shaxsi tarkib topishiga *jismoniy qurshov* katta ta'sir ko'rsatadi. Bunga atrofimizdagi tabiiy muhit iqlimini ko'rsatish mumkin. Turli iqlimda yashovchi kishilar bir-biridan farq qilishadi. Masalan, tog'da, cho'l'da yoki tropik changalzorlarda yashovchi kishilar hayoti va yurish-turish shakli, dunyoni qabul qilishi yoki faoliyatlari bilan farqlanadilar. Hatto bir urug', elat yoki millatga mansub kishilar bir birlaridan ularning qurshovi xususiyatlariga ko'ra keskin farqlanadilar. Buni ularning odatlari, an'analarida ochiq kuzatish mumkin.

3. Inson shaxsi tarkib topishiga ta'sir qiluvchi uchinchi omil *madaniyatning ta'siridir*. Har qanday madaniyat muayyan ijtimoiy normalar va qadriyatlar yig'indisiga ega. Ular muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruh uchun umumiy hisoblanadi. Shu sababli har bir madaniyat vakillari ana shu normalar va qadriyatlar tizimiga nisbatan sabr-toqatli bo'ladilar, ular o'z madaniyatlariga tegishli va unga yaqin kishilar bilan aloqaga, hamkorlikka tez va engil kirishadilar.

4. Shaxs tarkib topishiga *ijtimoiy (sotsial) qurshov* ham ta'sir qiladi. Ana shu omilni individda shaxsiyatga oid sifatlarni vujudga keltiruvchi asosiy omil deb hisoblash mumkin. Ijtimoiy voqelikning ta'siri ijtimoiylashuv (sotsiallasuv) jarayoni orqali amalga oshiriladi. Sotsiallasuv jarayonida individ o'z guruhiga tegishli normalarni o'zlashtiradi va ana shu individda uning o'ziga xosligini, yagonaligini, qaytarilmasligini ifodalovchi shaxsiy "o'zligi" vujudga keladi. Shaxs bir necha shakllarda, masalan, taqlid qilish, boshqa kishilarning ta'siri, turli hatti-harakat shakllarini umumlashtirish orqali ijtimoiylashishi mumkin. Individning jamoaviy madaniy normalarga ijtimoiylashuvi muvaffaqiyatsiz amalga oshgan taqdirda mojarolar va ijtimoiy chetlanishlar, og'ishlar, tartibsizliklar yuz berishi mumkin.

5. Shaxs tarkib topishining beshinchi omili *insonning shaxsiy tajribasidir*. Bu omil ta'sirining o'ziga xosligi shu bilan ifodalanadiki, har bir kishi o'z hayoti davomida turli xil vaziyatlarga tushadi va bunda boshqa kishilar va atrof muhitning ta'sirini his qiladi. Ana shunday vaziyatlarning ketma-ketligi har bir kishi uchun qaytarilmas ahamiyatga ega, u yuz bergan ijobiy yoki salbiy vaziyatlardan kelib chiqib kelgusi vaziyatlarga tayyorgarlik ko'radi. Shaxs tarkib topishida insonning o'ziga xos, qaytarilmas individual tajribasi katta ahamiyatga ega.

4. Jamiyat hayotida insonning o'rni. Buyuk shaxs maqomi.

Jamiyat unda yashayotgan va birgalashib faoliyat yuritayotgan kishilarning o'zaro munosabatlari tufayli rivojlanadi. Minglab yillar davom etgan uzoq tarix davomida er yuzidagi har bir xalq, har bir millat, har bir davlat uning taraqqiyotiga ozmi-ko'pmi ta'sir qilgan ko'plab kishilar nomini tilga olishi mumkin. Shu yo'nalishda fikr yuritish bizni kishilarning jamiyat hayotiga ta'siri haqidagi masalani ko'rib chiqishga olib keladi.

Bu masalaga kirishishdan ilgari shuni eslatib o'tish joizki, muayyan xalq, millat yoki davlat uchun o'z xizmatini singdirgan, uning tarixida iz qoldirgan va shu bilan birga o'z nomini ham tarixda qoldirgan konkret shaxslar ana shu xalq, millat yoki davlat bilan yonma-yon mavjud bo'lgan boshqa xalq, millat, davlatlar

uchun ham xuddi shunday ahamiyat kasb etadi, deyish katta xatodir. Aksincha, biror xalq, millat yoki davlat uchun dohiy hisoblanuvchi kishilar, boshqa xalq, millat yoki davlatlar uchun salbiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu o'rinda misol tariqasida qadimgi grek hukmdori Aleksandr Makedonskiyning yoki mug'ul xalqi vakili Chingizxonning, fransuz imperatori Napoleonning yoki fors hukmdori Kirning, o'zbek sarkardasi Amir Temurning yoki somoniylar davlati asoschisi Ismoil Somoniyning va boshqa ko'plab nomi tarix sahifalarida qolgan kishilarning faoliyatiga ular tegishli bo'lgan xalq va ularga tobe bo'lgan xalqlar vakili sifatida nazar soladigan bo'lsak, ularning tarixdagi o'rni va faoliyatiga beriladigan baholar bir xil bo'lmaydi, albatta. Shu ma'noda tarixda barchani qoniqtiradigan, hamma uchun umumiy bo'lgan baho bo'lmagan, yo'q va bo'lmaydi ham. Insonlarga, ularning faoliyatiga, u yoki bu jamiyatga beriladigan baholar xususida ham xuddi shunday deyish mumkin.

Ana shu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, jamiyat tarixida har bir kishi o'ziga xos o'ringa, ahamiyatga ega. Ular orasida esa o'z xalqi, millati, jamoasi, jamiyati, davlatiga o'zining bilimi, faoliyati bilan boshqalardan ko'ra ko'proq xizmat qilgan, ta'sirini o'tkazgan kishilar ham mavjud. Atoqli shaxs, buyuk arbob yoki buyuk shaxs maqomi ana shunday kishilar faoliyatini, ularning ahamiyatini e'tirof etish uchun ishlatiladi.

Har bir jamiyat, har bir alohida, nisbatan mustaqil, o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi jamoa, xalq unga mos keluvchi shaxslarni vujudga keltiradi. Shu ma'noda shaxs jamiyatning mahsuli.

Jamiyatning tarixiy taraqqiyotini ko'zdan kechirar ekanmiz davlat tizimi xususiyatlari ham ma'lum ma'noda shaxsning vujudga kelishi va uning tarixdagi roliga ta'sirida o'z o'rniga egaligini ko'ramiz. Davlat boshqaruv shakllarining monarxiyaga, ya'ni yakka hukmronlikka asoslangan shakllarida alohida olingan shaxslarning ahamiyati katta bo'lgan. Buni tarixdan ko'plab misollar bilan tasdiqlash mumkin.


Takrorlash uchun savollar:

1. Insonni qanday fanlar o'rganadi?
2. Inson va jonivorlar uchun umumiy bo'lgan qanday xususiyatlar mavjud?
3. Insonni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi qanday xislatlarni ko'rsatib bera olasiz?
4. Insonning "o'zligi"ni qanday ta'riflash mumkin?
5. "Individ" va "individuallik" tushunchalari nimani aks ettiradi?
6. "Inson" va "shaxs" tushunchalarining bir-biridan qanday farqi bor?
7. Shaxsning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatuvchi qanday omillar mavjud?
8. Shaxs jamiyat tarixida qanday rol o'ynaydi?

3-mavzu. Qadimgi dunyoda ijtimoiy fikrlar

1. Qadimgi Misr va Mesopotamiyada inson va jamiyat haqidagi qarashlar.

Ma'lumki insoniyat madaniy taraqqiyotining sarchashmalarini dastlab qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Qadimgi Gretsiya va Rimda uchratamiz.



Qadimgi Misr. Qadimgi Misrdagi kishilarning dunyo, jamiyat, inson va insoniy munosabatlar haqidagi qarashlarini miloddan oldingi III – II ming yilliklarda ushbu xalqning afsonalarida, Plutarxning "Isida va Osiris haqida", Gerodotning "Tarix" asarlarida uchratamiz.

Qadimgi dunyo kishilarining, shu jumladan, qadimgi misrliklarning dunyoqarashi o'zining afsonaviyligi (mifologik xarakteri) bilan ajralib turadi. Ularning qarashlarida borliq va olamning amal qilishi (ontologiya), insonning dunyoni bilish imkoniyatlari masalalari (gnoseologiya) hali o'zining qat'iy va tugallanganligiga etib kelmagan (bunga antik Gretsiyada erishiladi). Ular dunyoning vujudga kelishi, tabiiy tartibot mazmuni, inson mavjudligining mazmuni nimada ekanligi to'g'risidagi dastlabki tabiiy savollarga ko'proq afsonalar tarzidagi javoblardir. Afsonaviy dunyoqarash esa ko'pincha diniy dunyoqarash bilan uyg'unlashib ketadi. Plutarxning fikricha, misrliklar Ra xudosini dunyoning yaratuvchisi deb hisoblashadi. Bu xudo shuningdek Osiris, Isida, Seta va boshqa xudolarni hamda dastlabki insonlarni yaratgan. Vaqt o'tishi bilan qarib va kuchsizlanib qolgan Ra xudoriga boshqa xudolar va kishilar bo'ysunmay qo'yishadi. Ana shunda Raning tashbusi bilan xudolar kengashi chaqiriladi va unda kishilarni jazolashga qaror qilinadi. Uni amalga oshirish Xator xudoriga topshiriladi, u erga tushib kishilarni halok qilishga kirishadi. Nihoyat Ra kishilarga rahm qiladi va qirg'inbarotga chek qo'yiladi. Qartayib qolganligi bois Ra podshohlik qilishdan voz kechadi. Radan so'ng ketma-ket uning uch juft farzandlari - juft xudolar podshohlik qilishadi. Podshohlik qilgan so'nggi juft xudolar – Osiris va Isida hisoblanadi. Ular kishilarni yaxshi xulqli qilib tarbiyalashga intiladilar va ular orasida madaniyatni keng yoyishga harakat qiladilar. Osirisning vafotidan so'ng podshohlik qilish yarim xudolarga o'tadi. Ulardan so'ng esa podshohlik qilish kishilarga nasib etadi.

O'zlarining hukmronligini yanada mustahkamlash maqsadida shohlar o'zlarini u yoki bu xudoning o'g'li deb e'lon qiladilar. Misrda hukmdorlar firavn deb atalgan. Qadimiy podshohliklar davrida firavn shaxsini ulug'lash, uni xudoning o'g'li deb e'lon qilish, to'g'rirog'i uni erdagi xudo deb bilish o'sha davr uchun tabiiy holat edi. Yuz berayotgan barcha siyosiy hodisalar er va osmondagi xudolar istagining ko'rinishi deb tushunilardi. Bu haqda Misrdagi piramidalarining ichki devorlarida hozirgacha saqlanib qolgan yozuvlar, firavnlr sha'niga to'qilgan gimnlar dalolat beradi. Shunday yozuvlardan bizgacha saqlanib qolganlaridan biri – "Ptaxotepning nasihatlaridir". U mil.o. III ming yillikda yaratilgan bo'lib, shu nomdagi vazirning nomidan olingan. Unda kishilarning tengsizligiga tabiiy hodisa sifatida qaraladi. Past tabaqadagi kishi yomon, yuqori tabaqa kishisi esa yaxshi, ahamiyatli, muruvvatli kishi deb hisoblanadi. Past kishi yuqori tabaqadagi kishiga bo'ysunishi lozim. Ayni holda yuqori tabaqa kishisi past tabaqa kishilariga rahmshafqat qilishi lozim, ularni xo'rmaslik va ularga yomonlik qilmaslik kerak. Bu Misrda o'sha paytda ko'pxudolik – politeizm mavjudligidan dalolat beradi. Firavn Amenxeton IV (Exnaton) davriga kelib (mil.o. 1419-1400 yillar) Quyosh xudosi hisoblanmish Atonga yagona xudo sifatida sig'inish joriy qilingan.

Mesopotamiya. Miloddan avvalgi IV ming yillikda Tigr va Evfrat daryolari atrofidagi vodiylar (Meopotamiya deb atalgan) dastlabki quldorlik davlatlari

vujudga kelgan hududlar hisoblanadi (hozirgi Iroq, Eron, Suriya, Quvayt hududlari). U erda avval Akkad shahar-davlati, so'ngra Ur shahar-davlatiga asos solingan. Ana shu davlatlar negizida miloddan oldingi II ming yillikning dastlabki yuz yilligida Bobil (Vavilon) shahar-davlati qad ko'taradi. Bobil davlati o'z taraqqiyotining cho'qqisiga miloddan oldingi XVIII asrda, Xammurapi podshohligi davrida erishadi. Bu podshohning hukmronligi davrida mashhur Xammurapi qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur qonunlar xudolarning irodasi sifatida taqdim qilingan.

Xuddi shu davrda gullab-yashnagan Shumer quldorlik davlatida ham mavjud ijtimoiy munosabatlar xudolarning irodasi sifatida tushuntirilgan va ularni o'zgartirish insonlarning qo'lidan kelmasligi uqtirilgan. Uning yorqin ifodasi "Xo'jayinning qul bilan suhbatlari" nomli falsafiy asarda o'z ifodasini topgan. Unda ham mavjud tartiblarga qarshi chiqish xudolar irodasiga qarshi chiqish hisoblangan, podshoh irodasini, mavjud davlat tuzumini o'zgartirish mumkin emas, deb xulosa chiqarilgan.

2. Qadimgi Hindiston va Xitoydagi ijtimoiy fikrlar.

Qadimgi Hindiston. Qadimgi Hindiston insoniyat madaniy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan mamlakatlardan biri sanaladi. Agarda hozirgi paytgacha noaniqlik qolayotgan, yaratilish davri miloddan oldingi 2500 – 1700 yillarga taalluqli hindu (xarrap deb ataluvchi) madaniyatiga nazar solsak uning naqadar qadimiy ildizlarga egaligiga imon keltirasan kishi. Bizga ma'lum bo'lgan manbalarga esa miloddan oldingi 1500 – 600 yillarda yaratilgan Vedalar, keyinroq yozilgan Upanishadlar, hind eposlari "Mahobhorat", "Ramayana" kiradi.

Vedalarning yaratilishi Qadimgi Hindistonga shimoldan oriylarning kirib kelishi, ularning ko'chmanchi chorvachilikdan o'troq dehqonchilikka o'tishi, dastlabki davlatlarning vujudga kelishidek murakkab ijtimoiy voqelik bilan birgalikda kechgan.

Shuni eslatib o'tish joizki, oriylar miloddan oldingi ikkinchi ming yilliklarda Bolqondan Eniseygacha va shimoliy Xitoygacha bo'lgan hududda yashaganlar. Miloddan oldingi ikkinchi ming yillikning so'nggi choragida ular iqlimning o'zgarishi sababli o'z joylaridan to'rt tarafga qarab ko'cha boshlaganlar. Ularning ba'zi qabilalari Evropaga kelishgan va ulardan yunonlar, lotinlar, keltlar, tevtonlar kelib chiqqan, degan ilmiy fikrlar mavjud. Oriylar va ularning Evropadagi qarindoshlari (germanlar, slavyanlar, greklarning ajdodlari) majusiy (butparast, ya'ni ko'p xudolarga sig'inuvchilar) bo'lishgan hamda o'simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalarini muqaddaslashtirishgan. Oriylar terisi qora xalqlar orasida tarqala boshlagach, o'zlarining qonini toza saqlashga alohida e'tibor berishgan, shu maqsadda ularda kishilarning tabaqaviy bo'linishi vujudga kelgan. Hindistonda ular to'rt tabaqani vujudga keltirganlar: *ruhoniylar-braxmanlar, harbiylar-kshatriylar, dehqonlar-vayshilar, xizmatkorlar-shudralar.*

Bu esa jamiyat hayotining ierarxiasini (ya'ni kishilar ijtimoiy qatlamlarining munosabatini) aks ettirgan qarashlarni ham vujudga keltirgan. Shuning uchun Vedalarda kishilarning 4 varnaga (tabaqaga) bo'linishini davrning aksi sifatida tushunmoq kerak. Bu quyidagicha izohlangan: *Olam kosmosdek*

gigant masshtabga ega va ayni paytda o'zida "barcha narsani – shu jumladan o'tmish va kelajakni ham ifoda etuvchi" ibtido – Purushaning turli qismlaridan bunyod bo'lgan. Undan Er, osmon, Quyosh, Oy, o'simliklar, xayvonlar, insonlar, ijtimoiy guruhlari (varnalar), ibodatga oid predmetlar va gimnlar vujudga kelgan. "Uning ovozi braxmanlarga (ya'ni ruhoniylarga), qo'llari kshatriylarga (ya'ni harbiylarga), sonlari vayshilarga (ya'ni dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlarga) va oyoqlari shudralarga (ya'ni qora xalqqa) aylandilar".

Ularning diniy e'tiqodlarida ma'budlarga qurbonlik keltirish alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ana shunday paytda kuylanadigan marosim qo'shiqlari, tantanali gimnlar, qurbonlik urflari keyinchalik hind oriylarida alohida Vedalar sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday Vedalar to'rttadir – Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Atxaraveda.

Miloddan oldingi VI asrda Shimoliy Hindistonda **buddizm** vujudga keldi. Uning asoschisi (taxminan e.o. 583-483 yillarda yashagan) Siddxartxa Gautama hisoblanadi. U 29 yoshida uyini tashlab ketadi va bir necha yillik sargardonlik hayotidan so'ng hayotning mohiyatini tushunish darajasiga erishadi. U keyinchalik Buddha (*O'yg'ongan*) nomini oladi. Uning ta'limoti markazida to'rt haqiqat g'oyasi yotadi. Unga muvofiq insonning mavjudligi *azob-uqubat chekish* bilan chambarchas bog'langan. Tug'ilish, kasalliklar, qarilik, o'lim, yaxshilik va yomonlikka duchor bo'lish, istaklarga erishishning qiyinchiligi – bularning barchasi azob-uqubat chekishga olib keladi (1). Azob-uqubatlarning sababi xursandchilik va orzuga erishishga *chanqoqlikdir* (2). Azob-uqubat sabablarini yo'qotishga ularga erishishga chanqoqlikni yo'qotish orqali sodir bo'ladi (3). Azob-uqubatlarni yo'qotishga sakkiz pillapoyani bosib o'tish bilan erishiladi – to'g'rifikrlash, to'g'riechim, to'g'rinutq, to'g'rihayot, to'g'riintilish, to'g'rie'tibor. Bunda hissiy huzur-halovatga asoslangan hayot kechirish ham, shuningdek, zohidlaricha befarqlik va o'z-o'zini qiynashga asoslangan hayot ham rad etiladi (4). Ularning har biri yanada murakkab tuzilgan qismlardan iborat. Masalan, to'g'rihayot budda axloqining quyidagi *besh nasihati (tamoyili, qoidasi)dan* iborat: tirik jonivorlarga yomonlik qilmaslik, begona (mulkni) olmaslik, taqiqlangan jinsiy aloqalardan tiyilish, yolg'on va dabdabali nutq so'zlamalik va mast qiluvchi ichimliklarni iste'mol qilmaslik.

Qadimgi Xitoy. Qadimgi Misr va Hindistondan farqli ravishda qadimgi Xitoydagi ilk falsafiy fikrlarda diniy xarakter kuchli emas. Bu erda ijtimoiy axloq va ma'muriy amaliyot hamma vaqt mistik abstraksiyalar va shaxsning oxiratda yaxshi yashashga umididan ko'ra katta ahamiyatga ega bo'lgan. Agar hind va misrlik kishi o'z hayotining mazmunini kelgusi hayotida yaxshi yashash umidida ruhlarga bog'lasa (shu ma'noda asketik hayot tarzi, yoga mashqlari, monaxlikka berilgan bo'lsa), xitoylik kishi birinchi navbatda doimo moddiy hayotga, o'z hayotiga e'tibor bilan qaragan. Bu erda umum tan olingan qoidalarga rioya qilib yashash, narigi dunyoda emas, balki mana shu dunyoda yaxshi hayot kechirish uchun yashash oliy maqsadlar sifatida qabul qilingan.

Xitoyda ham oliy ilohiy ibtido – Osmon tan olinadi. Ammo u Yaxve, Iesus, Braxman yoki Buddha emasdir. U oliy umumiylik bo'lib, abstrakt (mavhum), qat'iy va sovuq, insonga befarq ibtidodir. Uni sevib bo'lmaydi, u bilan birlashib

ketilmaydi, unga taqlid qilib bo'lmaydi va unga mahliyo ham bo'lolmaydiz. Xitoy diniy-falsafiy dunyoqarashida milodning boshlarida Hindistondan kirib kelgan Budda va Dao (qonun yoki Haqiqat va Oliyjanoblikka eltuvchi Ulug' Yo'l ma'nolarini bildiradi) ham mavjud. Ammo ular Xitoyda Osmondek katta ahamiyatga ega emas.

Qadimgi Xitoyning yana bir o'ziga xosligi shundaki, bu erda ruhoniylk hech qachon katta ahamiyatga ega bo'lmagan. Bu erda Hindiston yoki Misrdagi kabi barcha hurmat bilan qaraydigan ruhoniylar tabaqasi bo'lmagan. Konfutsiychilikni tarqatuvchi kishilar esa asosan ruhoniylk rolini emas, aksariyat hollarda ma'muriy va amaldorlik vazifalarini bajarishgan, diniy amallar ular uchun hech qachon birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lmagan.

Miloddan oldingi II ming yillikning o'rtalarida Xuanxe daryosi bo'ylarida shahar tipidagi In sivilizatsiyasi vujudga kelgan. Xuddi shu paytda Hindistonda oriylar sivilizatsiyasi vujudga kela boshlagan edi. Xuddi oriylardagi kabi inlar ham ko'plab xudolar va ruhlarga sig'inishar va ularga qurbonliklar keltirishardi. Asta sekinlik bilan ko'plab xudo va ruhlar orasidan inlar qavmining ibtidosi va sarkadas Shandi oliy xudo ahamiyatiga ega bo'lgan. In sulolasining hukmdorlari Shandining avlodlari va davomchilari sifatida tan olingan. Ajdodlarga sig'inish va ularga ham qurbonliklar qilish odati bo'lgan. O'sha paytdan saqlanib qolgan yozuvlar guvohlik berishicha, hatto odamlar ham qurbonlik qilingan: "Aidodimiz Genga syan qabilasidan uch yuz kishini qurbonlik qilyapmiz".

Shan-In davri ko'pga cho'zilmadi. Miloddan oldingi 1027 yili boshqa qabilalar chjou qabilasi boshchiligida ularni tor-mor qiladi. Asta-sekinlik bilan Chjou qabilasi e'tiqod qiladigan Osmon barcha boshqa xudo va ruhlarni siqib chiqaradi. Chjou podshohlari Osmon o'g'illari sifatida tan olinadi va bu an'ana, ya'ni davlat boshlig'ini Osmon o'g'li deb tan olish Xitoyda hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Ulug' Osmon oliy xudodan ko'ra ko'proq aqlning, maqsadga muvofiqlikning, adolatning va oliyjanoblikning sintezi sifatida odamlar ruhiyatidan o'rin olgan. Osmonga qarindoshligini yanada kuchaytirish uchun Chjou hukmdorlari o'z mamlakatini "Osmon ostidagi mamlakat" deb atay boshladilar.

Ana shu paytdagi fikrlarga muvofiq inson ikkita – moddiy (po) va ruhiy (xun) jonga ega. Birinchisi inson vafot qilganda tana bilan erga kiradi. Uning narigi dunyoda qiynalmay yashashi uchun marhum bilan birga uning narsalarini, xotinlarini, xizmatkorlarini ham ko'mib yuborishar edilar. Ikkinchi jon esa osmonga yo'l oladi va u erda egasining hayotda tutgan mavqeiga muvofiq o'z joyiga ega bo'ladi. Qadimgi Xitoy jamiyatining past tabaqalarini asosan dehqonlar tashkil qilgan. Ular asosan Erga e'tiqod qilishgan va ular orasida sehgarglik, shamanlik ko'proq tarqalgan. Ruhlariga e'tiqod qilish ularda hosil bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha suv taqchilligida yomg'ir chaqirish an'analari shaman ayollar bajarishardi. Agar ularning hatti-harakatlari foyda bermasa, ularni qurbonlik qilishgan. Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda ruhoniylk vazifalari hukmdorlar va ularning mansabdorlari tomonidan bajarilgan. Xalq orasida esa shamanlar, folbinlar ularning ehtiyojlarini bajarib turishgan.

Miloddan oldingi VIII – V asrlarda Chjou davlati chuqur krizisni boshidan kechiradi. Patriarxal-urug'chilik qoidalari tanazzulga yo'l tutadi, o'zaro kurashlarda aristokratiya halokatga uchrab, bir mamlakat bir qancha markazlashgan davlatlarga bo'linib ketadi. Hukmdorlar va ularning qarindoshlari, mansabdorlar davlat uchun kurashda hech narsadan qaytmasdilar, hattoki o'z qarindoshlarini ham qirib yuborish hodisalari hech kimni ajablantirmasdi. Ana shularning barchasi jamiyatda yangi davrga, uning yangi qoida va an'analarga tanqid ruhini, o'tmishga qaytish intilishlarini vujudga keltirdi. Biroq bu intilishlar barcha tan oladigan avtoritetlarga suyanmog'i lozim edi. O'tmishning ana shunday yarim afsonaviy avtoritetlarini Konfutsiy o'z ta'limoti orqali ko'rsatib berdi.

Konfutsiy (Kun-Szi, mil.o. 551-479). U o'z davrining ijtimoiy voqeligini tanqid qildi va o'tmish davrlarni ko'kka ko'tarib barcha kishilar intilishi lozim bo'lgan barkamol, komil inson (*szyun-szi*) idealini ko'tarib chiqdi. Barcha kishilar taqlid qilishi lozim bo'lgan yuksak axloqli *szyun-szi*, Konfutsiy fikricha, quyidagi ikki sifatga - insoniylik va burch (insof) hissiga ega bo'lishi lozim. Insoniylik Konfutsiy tomonidan juda keng tushunilgan va unda quyidagi sifatlar - oddiylik, adolatlilik, vazminlik, yaxshi xislatlilik, beg'arazlik, insonni sevish va hokazolar aks etishi aytilgan. Insoniylik (jen) – oliy, deyarli erishib bo'lmaydigan idealdir, u barcha konkret etuklik, takomilliklarning yig'indisi bo'lib, unga faqat o'tmishda yashaganlar erishgandilar; mazkur kishilar qatoriga Konfutsiy o'zini va ancha erta vafot etgan shogirdi Yan Xueyni ham kiritadi. Ammo barkamol inson bo'lish uchun jening o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun burch hissi (*i*) ham bo'lishi zarur va u boshqacha emas, aynan ana shunday hatti harakat qilishga ichki ishonchdan kelib chiqadi. Burch – axloqiy majburiyat bo'lib, u insonparvar kishining o'ziga qo'yadigan talablarini bildiradi. Burch hissi odatda hisob-kitob bilan emas, bilim va oliy tamoyillar bilan belgilanadi. "Oliyjanob kishi burch haqida o'ylaydi, past kishi esa foydani", - deydi Konfutsiy. Shuning uchun Konfutsiy "*i*" tushunchasiga bilimga intilish va o'tmishdagilarning donoligini anglashni ham qo'shadi. Bundan tashqari, Konfutsiy tomonidan barkamol inson sodiqlik va sofdillik (*chjen*), odoblilik, odat va an'analarni bajarish kabi xislatlarga ham ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi.

Ana shu tamoyillarga rioya qilish oliyjanob *szyun-szini* haqiqiy insonlikka olib keladi, u yoshligida shahvoniy intilishlardan (suqlanishdan), etukligida janjaldan va keksaligida xasislik-qurumsoqlikdan o'zini tiyishi lozim. Haqiqiy *szyun-szi* ovqatga, boylikka, foydaga va hayotiy gulayliklarga befarq bo'lishi kerak. U o'zini butunlay oliy maqsadlarga, kishilarga xizmat qilishga va haqiqatni izlashga bag'ishlashi kerak.

Shunday qilib, Konfutsiyning "oliyjanob kishisi" – ijtimoiy ideal bo'lib, insonga tilanadigan yaxshi fazilatlar kompleksidan iborat. Konfutsiyning hurmati osha borishi bilan uning mazkur abstrakt-xayoliy ideali barcha uchun, ayniqsa miloddan oldingi III asrdan milodning III asrigacha Xitoy konfutsiylik imperiyasi sifatida nom chiqargan Xan davri olim-mansabdorlari, ma'mur-byurokratleri uchun namuna (etalon) vazifasini bajargan.

Ko'rinib turibdiki, Konfutsiy haqiqatan ham o'z atrofidagi mavjud adolatsizlikka zid ravishda oliy axloq uchun kurashuvchi, yaxshi xislatli oliyjanob

inson idealini yaratishga harakat qilgan. Ammo hayotda ko'pincha yuz berganidek, uning ta'limoti rasmiy tus ola borgan sari uning mazmuni emas, balki o'tmishga ko'r-ko'rona intilish, yolg'ondakam soddalik va xushfazelatlik kabi tashqi shakliy tomonlar oldingi o'ringa chiqa boshlagan. O'rta asrlarda Xitoyda har bir kishining ijtimoiy tabaqaning qaysi darajasini egallaganiga qarab bajaradigan hatti-harakatlarining qat'iy ishlab chiqilgan qoidalari va stereotiplari paydo bo'ldi va mustahkamlandi. "Xitoy marosim va udumlari" tushunchasida ko'pincha ana shunday qat'iy hatti-harakatlar yig'indisi ko'zda tutiladi. Hayotning har qanday davrlari, har qanday voqea, xursandchilik va g'amginlik paytlari, tug'ilish va o'lim, maktabga borish va mansabga ko'tarilish – hamma hammasi uchun qat'iy belgilangan va bajarilishi majburiy bo'lgan yurish-turish qoidalari amal qilgan. Xan davrida ana shu udumlar jamlanib yurish-turish kodeksi bo'lgan Litszi traktati ishlab chiqildi. Shunday qilib, Konfutsiyning szyun-szi ta'limoti kuchli byurakratik apparatga ega bo'lgan markazlashgan imperiyaning maqsadlariga uyg'unlashtirildi va ana shunday asoslarda keyinchalik xitoy davlatchiligining hashamatli binosi qurildi.

Konfutsiyning jamiyat haqidagi ta'limoti. Konfutsiyning fikricha jamiyatni (davlatni) ilohiylashtirilgan imperator va mutafakkirlar, adabiyotchilar va mansabdorlardan iborat guruh boshqarishi lozim. Konfutsiy davlatni katta bir oila sifatida tushungan, uning boshqaruvchisi – "Osmon o'g'li" bo'lib, u xalqning ham otasi, ham onasi hisoblanadi, fuqarolar esa uning o'g'illaridir. "Osmon osti mamlakati" qanday bo'lishi kerakligi haqida shunday deydi: "Ota ota bo'lmog'i, o'g'il - o'g'il bo'lmog'i, podshoh – podshoh bo'lmog'i lozim". Bu dunyodagi betartiblik va kaosda hamma narsa o'z o'rniga ega bo'lishi kerak, hamma o'zining burchi va majburiyatini bilishi va o'zining ishini bajarishi kerak, degan fikrni anglatadi. Ana shu taxlit tuzilgan jamiyatda ikki asosiy kategoriyadagi: *yuqori darajadagi* - fikrlaydigan va boshqaradigan kishilar va, *past darajadagi* – mehnat qiladigan va bo'ysunadigan kishilar mavjud bo'lishi kerak. Ana shunday ijtimoiy tartibotni Konfutsiy ham, uning shogirdi va konfutsiychilikning ikkinchi asoschisi Men-szi (mil.o. 372-289) va ularning barcha izdoshlari ham afsonaviy o'tmish donoligidan boshlanuvchi, abadiy va o'zgarmas narsa deb hisoblaganlar. Jamiyatning yuqori va past darajaga bo'linishi kishining boy yoki taniqli oilada dunyoga kelishiga emas, balki uning bilimdonligi va xushxulqligiga qarab belgilanishi kerak – ya'ni u kishining szyun-sziga qanchalik yaqin bo'lishi bilan bog'liq.

Bunday mezon (kriteriy, o'lchov) har qanday kishiga ijtimoiy pillapoyalarda yuqori darajaga ko'tarilishga imkon beradi. Amalda esa bu juda qiyin edi: chunki amaldorlar tabaqasi oddiy xalqdan engib o'tish juda qiyin bo'lgan to'siq – "ierogliflar devori", ya'ni savod darajasi bilan ajratib qo'yilgan edi.

3. Qadimgi Gretsiya va Rimdagi ijtimoiy g'ovalar tizimi.

Qadimgi Gretsiya. Qadimgi YUnonistonda dastlabki falsafiy fikrlar miloddan oldingi VII –VI asrlarda Milet maktabi donishmandlari qarashlari sifatida vujudga kelgan. Undan ilgari esa dunyoqarash tarzi boshqa xalqlarda bo'lganidek afsonaviy xarakterda edi.

Milet maktabi vakillari Fales (mil.o. 640-562), Anaksimandr (mil.o. 611-546), Anaksimenes (mil.o. 585-524)lar dunyoning, demakki insonning yaratilishini g'ayritabiiy ibtidolarga bog'lovchi afsonaviy qarashlarga zid o'laroq moddiy ibtido bilan bog'lashadi. Bunday moddiy asos Falesda – suv, Anaksimandrda – apeyron, Anaksimenesda – havodir. Masalan, Anaksimandrning fikricha, apeyronning quyuvlashuvi va suyuqlashuvidan issiqlik va sovuqlik ajralib chiqadi hamda er va uning ustini o'rab olgan olovsimon bulut yuzaga kelgan. Harakatchan havo olovsimon bulutni yorib o'tib uch xalqani yaratadi. SHunday qilib yulduzlar, quyosh va oyning uchta doirasi vujudga kelgan. Er harakatsiz holda dunyoning o'rtasida joylashgan. *"Dastlabki xayvonlar namlikda paydo bo'lishgan, ularda qobiqlar va paypaslagichlar mavjud bo'lib, qirg'oqqa chiqqanlaridan keyin qiyofalarini o'zgartirishgan"*. Odamlar esa hayvonlardan paydo bo'lishgan. Xudolar dunyo va insonning vujudga kelishida ishtirok etishmaydi.

Geraklit (mil.o. 540-480). Uning fikricha, barcha narsalarning ibtidosi olovdur. *"Dunyoni xudolardan ham insonlardan ham hech kim yaratmagan, u doimo goh alangalanib turuvchi, goh o'chayotgan olov bo'lgan, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi"*.

Geraklit kelib chiqishiga ko'ra aristokrat oiladan, shuning uchun ularni yoqlab chiqadi va hokimiyat ularning, ya'ni "yaxshilarning" qo'lida bo'lmog'i kerak, deb hisoblaydi. U bu yaxshilarni yoqlab shunday deb yozadi: *"Birgina eng yaxshi narsa hamma narsadan a'lo: abadiy shuhrat barcha o'tkinchilardan a'lo. Xalq hayvonga o'xshab qornini o'ylaydi"*.

Uning fikricha kishilar tabiatan tengdirlar. Ammo kimdir o'z hayotida olovning moddiy turiga bo'ysunadi, bunday kishilar ko'proq hissiyotlariga ko'ra harakat qiladilar, aksincha o'z hayotida aqlni ustun quyuvchi kishilar uchun olov logosdir, ya'ni aqlli va ilohiydir. Kishilar o'zlaridagi ana shunday logoslari (aqlari) bilan farq qiladilar. *"Qo'pol ruhga ega bo'lgan kishilarning ko'zlari va quloqlari yomon guvohlardir"*, - deydi u. Bundan uning aqliy bilishni hissiy bilishdan ustun qo'yishi ko'rinadi. Bu bilan yuqori tabaqa vakillari, yaxshi kishilar, aqlli kishilar oddiy xalqdan yuqori qo'yiladi. Demak, kishilar tabiatan teng bo'lsalarda, ammo haqiqatda baribir teng emaslar. Ularning ko'plari logos bo'yicha yashamaydilar, balki o'zlarining xohishi va fikrlari bo'yicha yashaydilar. Bunday kishilarning hayoti – "bolalarning o'yiniga" o'xshaydi, ya'ni ular o'z xohishlarining qulidirlar. U dunyoda barcha narsalar va munosabatlarning nisbiy ekanligini ko'ra olgan:

- *"Dengiz suvi ayni paytda ham toza, ham iflosdir: u baliqlar uchun foydali va kerakli, odamlar uchun esa iflos va zararli"*.
- *"Eng chiroyli maymun odamga nisbatan juda xunukdir"*.

Baxt tananing farog'atidan emas, balki to'g'ri fikrlash va to'g'ri gapirish hamda tabiatga muvofiq harakat qilmoq, unga quloq solmoqdan iborat. Olam hech kim – na xudolar, na kishilar tomonidan yaratilgan. Dunyo kabi xudolarning o'zi ham olovdan tashkil topgan.

Demokrit (mil.o. 460-370). Atomistik ta'limot asoschilaridan biri. Uning fikricha dastlabki kishilar suv va balchiqdan paydo bo'lgan. Kishilar chuvalchangga o'xshab, hech qanday ilohiy kuchsiz, erdan paydo bo'lishgan.

Hatto insonning joni ham dumaloq, tez harakatchan, mayda zarra (atom) lardan tuzilgan. Jon tana bilan birga o'ladi. Xudolar ham insonlar kabi atomlardan tuzilgan, ular ham insonlar kabi o'tkinchidir, faqat ular uzoqroq yashaydilar. Uning fikricha qo'rquv hissidan dinlar kelib chiqqan. U shunday deb yozadi: *"Kishilar o'zlarining aqlsizliklarini yashirish maqsadida butlarni o'ylab topganlar"*.

Demokrit jamiyatning "tabiiy ravishda" kelib chiqishini tabiiy ehtiyojlarni qondirishning sodda usuli sifatida tushuntirib bergan. Uning fikricha kishilar dastlabki paytlarda *"tartibsiz va hayvonlarcha yashaganlar... ular dalalarda kezib yurishar va eyishga yaroqli o'tlar hamda yovvoyi o'simliklarning mevalarini terib eyishardi. Yovvoyi hayvonlar hujum qilgan taqdirda ular birlashib bir-birlariga yordam berishardi. Qish paytida ular g'orlarda yashar va u erda uzoq saqlanadigan mevalarni saqlardilar. So'ngra ular olovni va boshqa narsalarni bilib oldilar, so'ngra esa san'at va birgalikda yashashga foydali bo'lgan narsalar kashf qilindi. Chunki ehtiyoj kishilarga barcha narsalarni anglatadigan ustozdir"*.

Yaxshi xislatli bo'lishning asosiy usuli ishonch va axloqiy tarbiyadir. Insonni majbur qilish yo'li bilan yaxshilab bo'lmaydi. Uning ijtimoiy qarashlari mulkdorlar sinfini, grek quldorlik demokratiyasini yoqlashga bo'ysundirilgan. Masalan, u qullarni odam deb hisoblamagan – ular jonli qurollardir va xo'jayinning buyrug'iga itoat etishlari kerak. Qullar u ilgari surgan axloqiy normalardan mahrumdirlar. Bu axloqiy normalar erkin kishilarga taalluqli. Quldorlik tuzumining qo'rg'oni – davlatdir. Davlatning emirilishi bilan barcha narsa o'ladi. Shu nuqtai nazardan u davlat qonunlarini buzgan kishilarni qattiq jazolash kerak, jazoga loyiq kishiga rahm-shafqat qilinmasligi lozim, deydi.

Uning fikricha barcha narsada me'yor bo'lishi lozim, u ezgu va baxtli hayot uchun zarurdir. Me'yordan ortiq lazzatga berilgan, chegarani bilmagan kishilar Demokrit fikricha axmoq va tentak bo'lib, o'z kulfatlariga o'zlari aybdordir. Faqat donishmand kishigina o'z ehtiroslarini engishi mumkin.

Barcha go'zallik o'rtachalikdadir, menga na mo'l-ko'pchilik, na etishmovchilik yoqadi, deydi Demokrit. U barcha narsada "oltin o'rta" yaxshidir, deydi. Jismoniy jihatdan o'z dushmani oldida kuchli bo'lgan kishi emas, balki o'z xohishlarini tiya oladigan kishi kuchlidir, degan edi u. Shunday kishilar borki, o'zlari shahar ustidan hukmron bo'ladilaru, lekin ayollari oldida qulga o'xshab ta'zim qiladilar.

Platon (mil.o. 427-347). Uning fikricha moddiy dunyo g'oyalar, ideyalar dunyosining soyasidir. Shuning uchun dunyodagi barcha narsa va hodisalar o'tkinchi, ular dunyoga keladi, o'zgaradi va tanazzulga yuz tutadi. G'oyalar esa doimiy, o'zgarmas va abadiydir.

Platon kosmologiyasi ham idealistik ruhdadir. Uning fikricha Kosmos yagona va sharsimon shaklga ega bo'lib, abadiy emas, balki yaratilgandir. Kosmosning markazida Er joylashgan bo'lib, u planetalar va ettinchi osmondagi qo'zg'almas yulduzlar bilan qurshalgan. Osmon jismlarini u jonli narsalar, xudolar deb qaragan. Ular jonli bo'lgani sababli harakatlana oladilar.

Platonning fikricha, davlat kishilarning o'z asosiy ehtiyojlarini qondira olmaganliklari natijasida vujudga kelgan. U o'z ijodida real amal qilayotgan jamiyatni tahlil qilishni emas, balki uning ta'limotining mantiqiy oqibati bo'lgan

ideal davlat g'oyasini yaratishga harakat qilgan. Ideal davlat uchta ijtimoiy guruhning jamiyati sifatida vujudga keladi. Ular hukmdorlar – faylasuflar, qo'riqchi-strateglar – harbiylar va ishlab chiqaruvchilar – dehqonlar va hunarmandlardir. Mazkur uch guruh ruhning, jonning uch qismiga mos tushishadi, ya'ni faylasuflarda jonning aqliy qismi ko'proq, harbiylarda uning iroda qismi belgilovchilik qiladi, dehqon va hunarmandlarga esa ruhning hissiyot va mayllari rahbarlik qiladi.

Platon tilga olgan to'rt yaxshi xislat ular o'rtasida quyidagicha taqsimlangan: *donolik* faylasuflar xislati, *jasurlik* harbiylar xislati, *o'rtachalik* mehnatkashlar xislati. To'rtinchi xislat *adolatlilik* esa ularning barchasi ustidan hukmronlik qilib turadi va ularning hech biriga maxsus tegishli emas.

Platon quyidagi amal qilayotgan davlat idora qilish shakllarini ko'rsatib o'tadi: aristokratiya (u aristokratik monarxiyadan aristokratik respublikani ustun qo'yadi), timokratiya (halokatga tomon borayotgan shakl, u harbiy kuchga tayanadigan bir necha kishilar hokimiyati), undan pastroqda savdogarlarga, sudxo'rlarga suyanuvchi bir necha kishilar hokimiyati bo'lgan oligarxiya, undan ham pastroqda qora xalq, ommaning hokimiyati bo'lgan demokratiya va nihoyat, aristokratiyaga qarshi turuvchi diktatura bo'lgan tiraniya. Platonning fikricha davlatning yomon shakllari, salbiy modellari timokratiya, tiraniya va oligarxiya hisoblanadi.

Timokratiya - harbiylar hokimiyati, Platonning fikricha ular faqat o'z tuban manfaatlarini o'ylaydigan ozchilik hokimiyatidir. Bunday boshqaruv tiraniya va oligarxiya davrida boylar va kambag'allar orasida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni yanada kuchaytirib yuborgan.

Tiraniya – faqat o'z manfaatini o'ylovchi bir kishining hokimiyati. Bunda yakka hokimiyatchilik tamoyili amal qiladi. Platon fikricha tiraniya – ideal davlat modelidan chekinishning eng yomon shaklidir. U yakka bir kishining xohish-istagiga asoslanadi.

Oligarxiya – bunda davlatga oz sonli, ammo kuchli urug'lar boshchilik qiladi. Platon fikricha oligarxiya aristokratiyaning buzilgan shaklidir. Bu shaklga Platon davlatning salbiy shakli sifatida baho beradi.

Ana shulardan kelib chiqib Platon o'z ideal davlatini amalga oshirishda tarbiyaning roli kattaligini ta'kidlaydi. Uning fikricha eng avvalo harbiylar va hukmdorlarni tarbiyalab etkazish kerak. Uning fikricha harbiylar va olimlar xususiy mulkka ega bo'lmasliklari lozim. Mazkur tizimda Platon odamlarning xudojuyligi va xudolarga sig'inishning ahamiyati kattaligini ta'kidlaydi. San'at taqlidga taqlid, ya'ni soyalarning soyasi, hisoblansada, davlatni mustahkamlash va dinni rivojlantirishda yaxshi usul sanaladi.

Platonning fikricha, adolat har bir odamning jamiyatda tutgan o'rnini (sotsial statusi)ga muvofiq o'z vazifalarini qat'iy bajarishdan iborat. Mavjud tuzumning barcha qonun-qoidalariga rioya qilmoqlikning o'zi adolatdir: har bir ijtimoiy tabaqaga mansub kishilar (a'yonlar a'yonlarcha, qullar qullarcha) faqat o'zlarining vazifalarini bajarishlari kerak. Mavjud qonun-qoidalarni buzishga yoki o'zgartirishga qaratilgan har qanday hatti-harakat adolatsizlik hisoblanadi. Demak, Platon fikricha, adolat har bir kishining jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab

beruvchi tamoyil sifatida jamiyatning yaxlitligini ta'minlovchi va uni mustahkamlovchi omil sanaladi.

Aristotel (mil.o. 384-322). Uning maktabini ko'pincha *peripatetiklar maktabi* deb ham atashadi (peripateo – sayr qilaman), chunki u o'z g'oyalari shogirdlari bilan sayr qilish jarayonida muhokama qilardi. Aristotel antik davrdagi bilimlarning ilk ilmiy tizimini yaratgan mutafakkirdir.

Uning fikricha inson *ijtimoiy mavjudotdir*. Davlat jamoalar ittifoqining rivojlangan shaklidir, jamoa esa – rivojlangan oiladir. Aristotel quldorlar sinfining vakili sifatida o'z ijtimoiy qarashlarida ularning fikrlarini aks ettiradi. Uning fikricha ba'zilarning taqdiriga tug'ilgandan hukmronlik qilish, ba'zilarga esa ijrochilik yozilgan bo'ladi. Ana shu tabiiy holatga jamiyatning qullar va quldorlardan tuzilganligi mos keladi. SHunday bo'lsada u haddan ortiq boyib ketishga jamiyatdagi mu'tadillikni buzish sifatida qarshi chiqadi.

Aristotel fikricha erkin kishilar jamiyati uch sinf vakillaridan tashkil topgan. Bular - haddan tashqari boyib ketganlar, ularning qarama-qarshisi bo'lgan haddan ortiq kambag'allar va ana shu sinflar orasida joylashgan o'rta tabaqadagilar. Davlatning mohiyati muayyan baxt-saodat (boylik)ka erishish uchun o'zaro birlashgan kishilarning siyosiy tashkilotidir. Uning fikricha uch xil yaxshi va uch xil yomon davlat shakllari bor. Monarxiya, aristokratiya va politiyalar davlatning yaxshi shaklini, tiraniya (monarxiyaning buzilgani), oligarxiya (aristokratiyaning buzilgani), demokratiya (politianing buzilgani) esa davlatning yomon shaklini tashkil qiladi.

Monarxiya (yoki podshoh hokimiyati) – Aristotelning fikricha eng qadimiy hokimiyat shaklidir, u bir kishining boshqaruvini anglatadi. Bunda boshqaruvchi hammaga mos keluvchi umumiy manfaatni ko'zlaydi.

Aristokratiya – ko'pchilik manfaati yo'lida xizmat qiluvchi kamchilikning hokimiyati.

Politiya – nisbatan mustaqil iqtisodiy mavqega, muayyan ta'lim senziga va to'liq siyosiy huquqlarga ega bo'lgan jamiyatdagi o'rta tabaqaga suyanuvchi davlat tizimi. Bu tizim Aristotel fikricha eng yaxshi davlat boshqaruv shaklidir. Chunki u boylarning manfaatlarini chegaralab turadi va jamiyatdagi kambag'al tabaqalarni ham davlat boshqarishda ishtirok etishini ta'minlaydi.

Aristotel fikricha aynan o'rta sinflar boshqaruvchi kuch bo'la olsalar, juda ham katta boylik va haddan ortiq kambag'allikdek qarama-qarshi qutblar o'rtasidagi ziddiyatni engishga qodirdirlar.

Aqlga monand (ya'ni yaxshi, "to'g'ri") davlat boshqaruv shakllarida (monarxiya, aristokratiya, politiya) hukmdorlar umumiy manfaatni maqsad qilib oladilar. **Aqlga monand bo'lmagan** (ya'ni yomon, "noto'g'ri") davlat shakllarida esa humdorlar o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylaydilar.

U ideal davlat deb qanchalik ko'p miqdordagi quldorlarga yaxshi hayot kechirishning maksimal imkoniyatini yaratib bera oladigan davlatni tushunadi. Erkin fuqarolar (kambag'allar) va qullar siyosiy huquqlardan mahrum bo'lishi kerak. Ideal davlat mehnat qurollari, er va qullarga xususiy mulkchilikka asoslanadigan davlatdir.

Shuni eslatib o'tish kerakki Aristotel barcha sohalarda, shu jumladan davlatda ham «oltin o'rta» qoidasiga rioya qilinishi lozimligini ta'kidlagan.

Qadimgi Rim. Miloddan oldingi III asrdan boshlab O'rta er dengizi atrofidagi hududda Rimning mavqei o'sa boshlaydi. U oddiy shahar respublikasidan qudratli imperiyaga aylanadi. Mil.o. II asrga kelib u qadimgi dunyoning asosiy hududlarini tasarruf eta boshlaydi. Qadimgi Gretsiya ham uning iqtisodiy va siyosiy ta'siri ostiga tushadi. Ana shu davrdan boshlab Rimda grek falsafiy fikri ta'sirida o'ziga xos maktablar, yo'nalishlar tarkib topadi.

Mark Tulliy Sitseron (mil.o. 106-45). Mashhur siyosatshunos va notiq. O'zining ijtimoiy qarashlarida Sitseron Rim jamiyati yuqori qatlamlarining vakili sifatida eng yaxshi jamiyat uch asosiy davlat shakllarining, ya'ni monarxiya, aristokratiya va demokratiyaning o'zaro sintezidan hosil bo'ladi, deb hisoblagan. Davlatning maqsadi, uning fikricha, fuqarolar uchun xavfsizlikni va mulkdan erkin foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Axloqiy masalalarda Sitseron stoiklar kabi insondagi fazilatlarni tahlil qilishga qaratadi. Inson aqlga ega mavjudot sifatida xudoga monand xislatlarga ega. U *hayotning barcha qiyinchiliklarini iroda kuchi bilan engishni* eng ulug' fazilat hisoblaydi. Bunda insonga turli falsafiy yo'nalishlar yordam beradi. Ular ana shunday fazilatlarga erishishda odamga turli usullarda ko'mak beradi. SHU ma'noda Sitseron barcha falsafiy maktab va yo'nalishlarning hissalarini bir butunlik sifatida yig'ishga maslahat beradi.

"O'z xalqiga oliy hokimiyatdan foydalanish imkoniyatini bera olgan jamiyatgina erkinlikning haqiqiy qo'rg'onidir", degan ajoyib fikr Sitseronga tegishlidir.

Tit Lukretsiy Kar (mil.o. 95-55). Grek faylasuflari Demokrit va Epikurning izdoshi va atomistik ta'limotning davomchisidir. Uning fikricha, Er va boshqa dunyolar tabiiy sabablarga ko'ra paydo bo'lishgan.

Lukretsiy jamiyat vujudga kelishini ham tabiiy rivojlanish oqibati deb hisoblaydi. Uning fikricha odamlar dastlab "yarim yovvoyi" holatda, uy-joy va olov nimaligini bilmay yashaganlar. Moddiy madaniyatning rivoji kishilar galasini jamiyatga aylantirgan. Uning fikricha jamiyat, ijtimoiy muassasalar (huquq, qonunlar) kishilar o'rtasida tuzilgan o'zaro kelishuv natijasidir.

Lukretsiy dunyoqarashi ochiq ateistik xarakterdadir. U nafaqat xudolarga bu dunyoda o'rin yo'q deb hisoblaydi, balki ularga har qanday ishonchga ham o'rin bo'lmasligi kerak, deydi. U o'limdan keyingi hayot va shu kabi diniy afsonalarni qat'iy tanqid qiladi. Uning fikricha xudolarga ishonch qo'rqinch va tabiiy hodisalar sababini bilmaslikning natijasidir.

Axloq sohasida Lukretsiy Epikurning *baxtli va xotirjam hayot kechirish tamoyilini* davom ettiradi. Baxtga erishish yo'li bilimdir. Inson baxtli hayot kechirish uchun qo'rquvdan, xususan, xudo oldidagi qo'rquvdan xalos bo'lishi kerak.

Epikurchilik va stoiklar ta'limoti Rimda nisbatan uzoq vaqt saqlanib qoldi. Biroq 313 yilda xristianlikning rasmiy davlat diniga aylanishi bilan Lukretsiy ta'limoti va stoiklar dunyoqarashi quvg'in ostiga olinadi.

Rim stoiklari orasida ko'zga ko'ringanlari Seneka, Epiktet va Mark Avreliy hisoblanadi.

Seneka (mil.o. 4 – milodiy 65). Rim imperiyasidagi "senator"lardan keyingi ikkinchi qatlam bo'lmish "chavandozlar" qatlamiga mansub. U imperator Neronning tarbiyachisi bo'lgan. Neron hukmronligining ikkinchi yili unga bag'ishlab "Rahmdillik haqida" asar yozadi. Unda Seneka Neronni hukmdor sifatida mu'tadil bo'lishga va davlat ishlarida respublika ruhini saqlashga chaqiradi. 64 yilgi yong'indan so'ng u ham ayblanib, davlat ishlaridan chetlashtiriladi va o'z joniga qasd qilib, vafot etadi.

Uning deyarli barcha asarlari axloqiy masalalarga bag'ishlangan. "Jahl haqida", "Baxtli hayot haqida", "Bo'sh vaqt haqida", "Yaxshi fazilatlar haqida" va boshqa asarlarida Seneka inson va insoniy munosabatlar, xislatlar to'g'risidagi fikrlarini bayon qiladi.

Senekaning fikricha borliqdagi barcha narsa va hodisalar *qat'iy zaruriyat hukmi ostida* bo'lib, bu narsa xudoning irodasi bilan belgilangan. Inson tabiat bilan monand yashashi lozim. Inson hayotining qanday kechishi uning taqdiri qanday belgilanganiga bog'liq.

Seneka yashab turgan davrda fuqarolik huquqlarining cheklanishi va respublikaga xos fazilatlarining kamayishi uni kelajakka shubha bilan qarashga olib keladi. "Hayot uch davrga bo'linadi: o'tmish, hozir va kelajak. Ular ichidan biz yashab turgan davr qisqadir; endi yashashimiz kerak bo'lgan davr esa shubha ostidadir, faqatgina biz yashab bo'lgan davr muayyandir. Faqat ugina mustahkam, unga taqdir ta'sir qilmaydi, ammo uni hech kim orqaga qaytara ham olmaydi".

Seneka inson hayotida boylik to'plash, hurmat-e'tibor va mansabga intilishni qoralaydi. "Kishi qanchalik balandlasha boshlasa, u shunchalik halokatga yaqinlashadi", deydi u ijtimoiy mavqe haqida. Lekin uning o'zi o'zining ana shunday chaqiriqlariga rioya qilmagan va o'z davrining eng boy-badavlat va Rimdagi hayotga ta'sir qiluvchi kishilardan biri bo'lgan. Shu ma'noda uning hayotini "Mullaning aytganini qil, ammo qilganini qilma" maqoliga qiyoslash mumkin. Ana shu jihatga uning e'tiborini qaratganlarida u bunga "Baxtli hayot haqida" asarida shunday javob beradi: "... barcha faylasuflar o'zlari qanday yashayotganlari haqida emas, balki qanday yashash kerakligi haqida gapiradilar. Fazilatlar haqida gapiraman, ammo o'zimizni haqida emas. Gunohlarga qarshi kurashaman, bunda esa o'zimizning shaxsiy gunohlarimga ham qarshi chiqaman, qachonki ularni engib o'tsam, qanday yashash kerak bo'lsa, shunday yashayman".

Seneka hayotning mazmuni ruhiy jihatdan absolyut tinchlanishga erishishda deb biladi. Bunga erishish yo'llaridan biri o'limdan qo'rqishni engishdir. Buning uchun inson faol hayotdan chetlashishi va o'z individual hayotiga, faqatgina o'zigagina taalluqli bo'lgan masalalarga e'tibor qaratishi kerak.

Mark Avreliy Antonin (121-180). Rim imperatori, stoiklarning taniqli vakili. Uning hukmronligi davrida yuz berayotgan ijtimoiy krizislar ancha kuchaygan. Hukmron tabaqalar mavjud tartibotlarni o'zgartirishga harakat qilishmagan. Stoiklar axloqiy ta'limotiga mavjud tartiblarni saqlab qolish usuli sifatida qaralgan. Mark Avreliy "inson hukmiga bo'ysunadigan yagona narsa –

uning fikrlaridir", deb hisoblagan. "O'z qalbingga qara! U yaxshilik manbaidir, unga e'tibor bera olsak, u buloq suvi kabi to'xtovsiz oqadi".

Mark Avreliy dunyo to'xtovsiz o'zgarishda deb hisoblaydi. Inson intilishlarining maqsadi yaxshi fazilatlariga erishishdir. U inson o'z fikrlarini, hatti-harakatini adolatga bo'ysundirishi lozim deb hisoblagan. Aslini olganda Mark Avreliy so'nggi stoik hisoblanadi. Keyinchalik uning qarashlaridagi insonning o'z-o'zini dunyoviy aqlga, logosga, xudoga bo'ysundirishi lozimligi haqidagi fikrlari keyinchalik xristianlik ta'limotiga bo'ysundirilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qadimgi Misr va Mesopotamiyadagi ijtimoiy fikrlar qanday xarakterda bo'lgan?
2. Odamlar orasidagi tengsizlik Qadimgi Hindiston braxmanlari tomonidan qanday izohlangan?
3. Buddizmdagi to'rt haqiqat g'oyasining mazmunini tushuntirib bering.
4. Qadimgi Xitoy dunyoqarashi boshqa Sharq mamlakatlari dunyoqarashidan nimasi bilan farqlanadi?
5. Konfutsiyning ijtimoiy fikrlaridagi asosiy g'oyaning mazmuni nimada?
6. Qadimgi Gretsiya va Rim ijtimoiy fikri taraqqiyotiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning ta'limotlari va ularning tarixiy xizmatlarini tushuntirib bering.

4-mavzu. O'rta Osiyo mutafakkirlarining inson va jamiyat haqidagi ta'limotlari

1. *O'rta Osiyoda islomgacha bo'lgan ijtimoiy fikrlar: zardushtiylik, moniylik, mazdakivlik*

Markaziy Osiyoning islomgacha bo'lgan davrdagi tarixini, xususan ijtimoiy hayot haqidagi tarixini o'rganish uchun qadimgi yozuvlar, zardushtiylikning "Avesto" nomli muqaddas kitobi, qadimiy O'rxon-runiy matnlari, xitoy manbalari, qadimgi grek mualliflari Gerodotning "Tarix" va Strabonning "Geografiya" asarlari hamda shu kabi bir qator manbalar katta ahamiyatga ega.

Ba'zi farazlarga ko'ra, Avesto taxminan miloddan oldingi IX asrdan IV asrga qadar tuzilgan. Avesto zardushtiylik hukmronlik qilgan turli mamlakatlarda yaratilgan. Dastlabki qarashda Avesto go'yo sof diniy kitobdek tuyuladi. Ammo bunday emas, unda ikki jihatni: diniy-mifologik va falsafiy jihatlarni bir-biridan farq qilmoq zarur.

Avesto ta'limotiga ko'ra, dunyoda ikki kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari mavjud bo'lib, ular bir-birlariga abadiy va murossasiz dushmanlik qilib keladilar. Yaxshilik kuchlariga Axura Mazda, yomonlik kuchlariga Anxra Manyu boshchilik qiladi. Insonning hayotini, uning baxli yoki baxtsiz bo'lishini ana shu kurashning natijasi belgilab beradi. Bir tomondan, zardushtiylik falsafasida inson sub'ekt sifatida emas, balki xudo ta'sir ko'rsatadigan ob'ekt sifatida ish tutadi, ya'ni insondan yo'l boshchilar, podshohlar va kohinlarning "o'ta insoniy" obrazlari keltirib chiqariladi. Bu jihatdan zardushtiylik xristianlik va iudaizm bilan o'xshashdir. Bu ikkala dinda ham insonni xudo "o'z tani va joniga" o'xshatib

yaratgan, go'yo inson va xudo aynan bir xildir. Ikkinchi tomondan, inson sudolarning xizmatkori, samoviy va duyoviy hokimlar xohish-irodasini bajo keltiruvchi rolda maydoga chiqadi. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, zardushtiylik xohish-iroda va tanlash erkinligini inkor etmaydi.

Kishilar o'z analiy ishlari, axloqiy sifatlari bilan yaxshilikka moyil ekanliklarini ko'rsatishlari va bu bilan yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ruhlarga ko'malashishlari lozim. Zardusht yomonlikka ixlos qo'yganlar uchun ahadul-abad azob-uqubatlar tayyorlab qo'ygan. Ana shu sababdan ham inson o'z zimmasiga muayyan majburiyat olar ekan, uni ado etish uchun javobgar bo'lishi darok.

Avesto mehnat moddiy noz-ne'matlar manbai bo'lganligi uchungina emas, balki mehnat axloqiy xususiyat, yaxshilik manbai deb bilganligi uchun ham insonni mehnat qilishga chaqiradi. Zero, zardushtiylik etikasiga ko'ra, saxovatli bo'lish uchun inson birinchi galda mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-ne'mat yaratishi zarur. SHU boisdan ishyoqmaslik barcha nuqsonlarning koni, deb qaralishi tasodifiy emas.

"Don ekan kishi, taqvadorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, u imonni oziqlantirib turadi..." ("Yasna", 32). Bu qonunni bajarish 10 ming marta ibodat qilish bilan baravar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish – demak erdagi yovuzlikni yo'qotishdir, chunki "don etilganda devlarni ter bosadi, tegirmon paydo bo'lganda devlar gangib qoladilar, un chiqqanda devlar sarosimaga tusha boshlaydilar, non paydo bo'lgan paytda devlar qo'rqqanlaridan zo'r berib dod soladilar" ("Yasna", 32).

Mehnatning favqulodda ulkan ahamiyatga ega ekanligi xususida Avestodan ko'p fikrlarni keltirish mumkin. Unga ko'ra inson oliy mavjudot sifatida mehnat qilish, moddiy noz-ne'matlar yaratish va etishtirish qobiliyatiga ega. Bordi-yu, u ana shu qobiliyatni ro'yobga chiqarmasa, unda o'z insonlik mohiyatidan mahrum bo'ladi, yolg'onchilik va yovuzlik kuchlariga ma'qul tushadigan yovvoyiga aylanadi. Mehnat insondagi insoniy ko'rsatgichdir, u insonning axloqiy xulq-atvoriga baho berishda mezon bo'lib xizmat qiladi.

Zardushtiylik etikasining xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, Avestoda ko'pgina axloqiy tushunchalar insoniy tus berilgan abstraksiya shaklida bayon etiladi. Yaxshi fikr – Axura Mazdaning xususiyati, yovuz fikr – Anxra Manyuning xususiyati. Yovuz ruhlar – devlar, jinlar, iblis va boshqalar – gunohlar, adashishlar, illatlar va hokazolarning insoniy shaklda berilishidir.

Avestoda axloq-odob qoidalari quyidagi uchlikda: Humata (Yaxshi fikr), Hukta (Yaxshi so'z), Hvarshta (Yaxshi ish)da ifodalanadi. "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman" ("Yasna", 14), deb ta'kidlaydi Axura Mazda.

Insonning fikri, uning so'zlari va ishlariga bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: Voxu Mana ("Ezgu fikr") va Ako Mana ("Yovuz fikr") ta'sir ko'rsatadi. "Barcha fikrlar, so'zlar va ishlar ichida aslida Ezgulik va Yovuzlik yotadi" ("Yasna", 30).

Avesto tadqiqotchilarining fikricha, yaxshi fikr deganda ilohiy qonun ruhidagi, yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlik va xavf-xatar ostida

qolganda ko'maklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda yashash, do'stlikka nisbatan musaffo bo'lish g'oyalari tushuniladi. Inson o'z fikr-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va jaholatga berilmaydi, chunki bunday holatda u yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolatni unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

Fikr, so'z va ishning birligi ibtidoiy insonning ajralmas xislati edi. Uning axloq to'g'risidagi tasavvurlari – o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langandir. Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so'zlari uning ham so'zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Individualizm ibtidoiy insonga yot edi. Xullas, u jamoaga, jamoa esa unga mansub bo'lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarining uyg'unligi – urug'chilik jamiyatining xarakterli belgisidir.

Vaqt o'ta borishi bilan ilgari axloqiy tushunchalar shaxsiy mazmun kasb eta boradi. Masalan, ancha keyingi davrlardagi zardushtiylikda "yaxshi so'zlar" deganda ahdlangan rioya qilish, berilgan so'zning ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo'lish, qarzlarni to'lash, o'g'rilik va talonchilik qilmaslik, o'zgalarning molini o'ziniki qilib olmaslik, buzuqlikdan o'zini tiya bilish va hokazolar tushunilgan. Zardushtiylikning bu xildagi yo'l-yo'riqlari urug'chilik tuzumining emirilish davriga xosdir.

Milodning III asriga kelib, ya'ni Zardushtiylikdan ming yil keyin Eronda moniylik (manixeychlik) vujudga keladi va u III-XI asrlar mobaynida Shimoliy Afrikadan Xitoygacha bo'lgan ulkan hududda tarqaladi. VIII-IX asrlarda u Markaziy Osiyoda mustahkam o'rin egallaydi va uyg'urlarning davlat dini darajasiga ko'tariladi.

Moniylikning asoschisi 216-276 yillarda yashagan forsiyzabon Moniy hisoblanadi. U o'z qarashlarini Zaratushtra, Budda va Iesus Xristos qarashlarining davomi deb hisoblaydi. Moniylik jism va ruhning, yaxshilik va yomonlikning, yorug'lik va zulmatning o'zaro munosabatlarini bir necha bosqichlar mobaynidagi o'zaro ta'sirini tadqiq qiladi va hayotning ana shu bosqichlardagi o'ziga xosliklarini tushuntirib berishga intiladi.

Moniylik fikricha inson moddiylik (zulmat)ning ijodi bo'lib o'ziga ruhni (yorug'lik uchqunlarini, ijobiylikni) qamab olgan. Ammo u materiyaning quyoshda ilg'agan dastlabki inson obrazida yaratilgan. Shuning uchun ham u o'zida dunyodagi boshqa moddiy jism va jonivorlardan farqli ravishda ko'proq ilohiylik xususiyatlariga ega. Inson tanasida qamab olingan ruhni qutqarish uchun Muqaddas ota inson qiyofasini olgan o'g'li Iesusni yuboradi. U kishilarga zulmatdan qutilish yo'li bo'lmish "bilimlarni", ya'ni Moniylikning mazmuni haqidagi ilmlar majmuini etkazib beradi. Shundan so'ng insoniyat o'z-o'zini qutqarish yo'lga o'tadi.

Moniylik fikricha dunyo – ziyo va zulmatning kurash maydoni, insonning vazifasi yovuzlikni yo'qotish va ezgulikka ko'maklashishdir. Moniy ta'limotiga ko'ra jamiyat ikki toifa kishilardan – mumtoz zodagonlar (qashshoqlikda yashovchi aslzodalar), ya'ni kam miqdordagi moddiy ne'matlar bilan qanoatlanuvchi, turmush qurmaydigan, zohidlarcha yashovchi kishilardan hamda mehnatkash va savdogarlar toifasidan iborat.

Moniy fikricha dunyo ikkitadir: biri – kishilar real tarzda yashaydigan dunyo bo'lib, unda adolatsizlik, zulm, zo'ravorlik hukm suradi; ikkinchi dunyo – "ziyo dunyosi", "abadiy mu'jizakor" dunyo bo'lib, uning ilohiy qobig'i go'yo olmosdan yasalgan, u hech qachon emirilmaydi va yovuz niyatli kishi unda yura olmaydi.

Moniyning fikricha Ziyo va Zulmat, Yaxshilik va Yomonlik dunyosi o'rtasida murosasiz kurash boradi. Ana shu kurashda Yaxshilik g'alaba qilmog'i uchun inson o'zining barcha fikrlari, ishlari bilan yaxshilik kuchlariga yordam ko'rsatishi lozim. Moniy ta'limotiga ko'ra inson sof musaffolikka, "gunohlardan xolilikka" faqat tarkidunyo qilib hayot kechirish orqaligina erishishi mumkin.

V asr oxiri – VI asr boshlarida, Qubod podsholigi davrida (488-531) Eronda vujudga kelgan xalq harakatiga rahbarlik qilgan eron zardushtiylarining bosh kohini Mazdak ibn Hamadonning (470-529) qarashlari keng tarqalgan. U o'z ta'limotida odamlar azaldan teng bo'lgan, degan g'oyani ilgari suradi. Ular o'rtasidagi keskin dunyoviy farqni imkoni boricha yo'qotish va qisqartirishni, katta boylarning er va mol-mulkini tortib olib, kambag'allarga bo'lib berish fikrini targ'ib qildi. Ular odamlarni xudo teng yaratgan, shuning uchun ular ne'matlarni teng taqsimlashi kerak, degan fikrga tayanib ba'zilar ko'p to'plangan boyliklarni tortib olish qonuniy, zero ular ortiqcha narsalardir va noqonuniy yo'l bilan to'plangan, deb hisoblaganlar.

Tarixiy manbalarning xabar berishicha, mazdakchilar mulk borasida keskin farqqa chek qo'yish talabiga amal qilishgan va buni amalga oshirganlar. Mazdak ta'limoti qon to'kilishini faqat bir sabab bilan, ya'ni yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasini ta'minlash maqsadida oqlash mumkin deb hisoblagan.

Hayotiy ne'matlarni taqsimlashda adolatni joriy qilish, shu yo'l bilan tengsizlikka barham berish va uni yo'qotish talablari tufayli Mazdak ta'limoti keng tarqaldi, mehnatkashlar uni qo'llab-quvvatladi va u ko'pgina mamlakatlarda ommaviy ta'limotga aylandi. Unda ijtimoiy zulmga qarshi kurash muqaddas vazifa sifatida targ'ib etildi. Mazdakiya harakati tarixda katta rol o'ynadi. Bu harakat qariyb 20 yildan ko'proq davom etdi. Mazdak ta'limoti ko'p asrlar mobaynida Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda xalq qo'zg'olonlarining g'oyaviy bayrog'i bo'lib xizmat qildi. Masalan, Abumuslim, Muqanna va Bobek qo'zg'olonlari mazdakizm ta'limotining kuchli ta'siri ostida ko'tarilgan edi.

2. O'rta Osivolik atoqli ilm-fan namoyondalari ta'limotida inson va jamiyat masalalari

VIII-IX asrlar davomida Mavorounnahrda yangi, islom dini kirib keladi. Keng xalq ommasining tashqi bosqinchilar va mahalliy feodallarga qarshi uzoq vaqt mobaynida olib borgan shiddatli kurashi (Mazdak ta'limotidan ilhomlangan Muqanna rahbarligidagi qo'zg'olon mazkur kurashning cho'qqisi bo'lgan edi) mag'lubiyatga uchradi. Ana shu ulkan hududda islom hukmron mafkuraga aylandi.

IX-X asrlar Markaziy Osiyoning taraqqiyotida muhim davr bo'ldi. Arab xalifaligi hukmronligi tugatildi va mahalliy markazlashgan davlatlar tashkil topdi.

Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari tomonidan dunyo ilm-fani, madaniyati rivojiga durdona bo'lib qo'shilgan yangiliklar vujudga keltirildi.

Abu Nasr Forobiy (872-950) -o'z ta'limoti asoslarini qadimiy grek va arab faylasuflarining asarlariga tayangan holda yaratgan mutafakkir. U Aristotelning "Metafizika" asariga sharhlar yozgan va shu tariqa uni Evropaning keyingi avlodlariga saqlab qolgan. Chunki IX-X asrlarda Evropada din, sxolastikaning keng va mustahkam hukmronligi tufayli Aristotelning dunyoqarashi u erlarda noma'lum bo'lib qolgandi.

Forobiyning tabiiy-ilmiiy, falsafiy va ijtimoiy qarashlari jahon fanining rivojida muhim rol o'ynadi. Uning qarashlari boy va rang-barang bo'lib, mohiyat e'tibori bilan o'z zamonasida taraqqiyparvar va ilg'or bo'lgan.

Forobiy o'simliklar, hayvonot olami va kishilar dunyosi bir-biridan tubdan farq qilishini qayd etadi. U o'zining "Falsafaning asosiy g'oyalari to'g'risida" degan asarida insonning muhim fazilati – uning so'zlovchi mavjudot ekanligidir, deydi. Uning fikricha barcha kishilar tana tuzilishi bo'yicha bir xildir, biroq ular xarakter nuqtai nazaridan muzdek suv qaynoq suvdan, oq ko'ylak qora ko'ylakdan farq qilganidek, bir-biridan farq qiladi, deydi. Forobiy Aristotelning inson ijtimoiy hayvon, degan fikriga qo'shiladi.

Forobiyning inson va jamiyat haqidagi fikrlari uning "Fozil shahar aholisi" asarida keng bayon qilib berilgan. Uning fikricha "Aql va nafs insonning boshlang'ichidir... ammo bu boshlang'ichlar odamzotning shu tabiiy boshlang'ichlar (ya'ni moddiy borliq) ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishi uchun kifoya qilmaydi, chunki inson insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash, ishlash (kasb-hunar)ga muhtojdir".

Uning fikricha inson doimo kamolotga intiladi. "Lekin bu... quruq intilish bilangina cheklanib qolmasdan, balki tabiiy mavjudotdagi juda ko'p predmetlardan foydalanish yo'li bilan yoki shu tabiatda bo'lgan juda ko'p ishlarni amalga oshirish bilan qo'lga kiritiladi... Bir kishining o'zi yolg'iz, birovning yoki ko'pchilikning yordamisiz kamolotga erishuvi mumkin emas,- deydi Forobiy, - har bir insonning tug'ma tabiatida va unga lozim bo'lgan har qanday ish-harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko'pchilik bilan munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish xususiyati bor, odamzot jinsidan bo'lgan har qanday insonning ahvoli shu, u har qanday kamolotga erishuvida boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir". Shunday qilib, inson o'z ijtimoiy vazifalarini ado etish uchun boshqa kishilar bilan muloqotga muhtojdir.

Forobiyning fozil jamoa qurish haqidagi ta'limotiga adolat g'oyasi asos qilib olingan. Unda adolat jamiyatdagi barcha kishilar uchun baxt-saodat eshiklarini ochib beruvchi, barcha uchun kerakli va foydali bo'lgan buyuk ne'mat ekanlagi ta'kidlanadi. Uning yuzaga chiqishi uchun muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar, eng avvalo, yuksak axloqiy va ma'naviy asoslar ustiga qurilgan fozil jamoa bunyod etilmog'i lozim. Fozil jamoada odamlar faqat sa'y-harakatlari, fazilatli ishlari, hamjihatlik va o'zaro hamkorlik bilan baxtga erishadilar. Jamiyat hayotida hamkorlik, hamjihatlik, osoyishtalik va farovonlikning vujudga kelishi adolatdandir. Demak, adolat fozil hukmdor rahbarligidagi mukammal davlatchilik faoliyati natijasida yuzaga chiqadigan ezgu ishlar natijasidir.

Forobiyning fikricha, hamma uchun baxt-saodat eshiklarini ochish imkoniyatini vujudga keltirish fozil jamoaning o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsadidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun donolik va aql-farosat bilan ish olib borish lozim. Fozil jamoaning boshqa nomukammal jamiyatlardan farqi shundaki, uning fuqarolari insonning hayotiga bog'liq bo'lgan fazilatli narsalarga erishish maqsadida bir-biriga ko'maklashadilar, jamiyat hayotida o'zaro ishonch, mehr-muhabbatni qaror topishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni amalga oshiradilar. Chunki ularning maqsadi bitta – baxtga erishmoq. Shu bois fozil jamoaning mavjudligi – ijtimoiy adolatning qaror topganligining ifadasidir.

Forobiy adolatning barcha sohalarga tarqalishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha "adolat – bu avvalambor barcha jamoa a'zolari qaramog'idagi ijtimoiy ne'matlarning (to'g'ri) taqsimotidir, undan tashqari, kishilararo taqsimlangan ne'matlarni saqlab qolish hamdir. Bunday ne'matlar qatoriga farovonlik, boylik, izzat-ikrom, har bir odamning jamiyatda tutgan o'rni va fuqarolarning turmushiga aloqador boshqa ne'matlar kiradi. Chunki jamoa a'zolarining har biri o'zining mehnatiga muvofiq holda bu ne'matlardan tegishli hissasini olishi kerak. Shu bois agar biror kishiga bu ne'matlar kamroq taqsim etilsa, unga nisbatan adolatsizlik bo'ladi. Mabodo bu ne'matlarning taqsim qilinishida bir odamning ulushi ko'payib ketsa, u chog'da boshqa jamoa a'zolarining haqiga nisbatan adolatsizlik sodir bo'ladi".

Ma'lumki, Forobiy o'sha paytdagi hukmron tasavvurlarga muvofiq dunyoning, shu jumladan, insonning xudo tomonidan yaratilganini inkor qilmagan. Ammo inson hech narsaga qodir bo'lmagan, kuchsiz narsa emasdir, u tabiatdagi eng yuqori jonzotdir hamda aql-idroki tufayli dunyoni anglab oladi va o'ziga zarur narsalarni yaratadi, deydi u. Uningcha barcha kishilar bir-biri bilan tug'ilish jihatidan tengdirlar, ularning taqdiri ko'p jihatdan o'zlariga bog'liq. Biroq atrof-muhit, tarbiya va shaxsning axloqiy kamol topishiga bog'liq holda inson yoki yaxshi, yoki yomon yo'lga kirib ketishi mumkin. Bu ko'p jihatdan tarbiyachilarga va tarbiyaga mas'ul bo'lgan davlat boshqaruvchilariga bog'liq. Forobiy ma'rifatli podshoh va davlatda oqil qonun-qoidalarning mavjudligi bilan tabiatan bir xil yaratilgan kishilar har tomonlama kamol topishi mumkinligiga ishongan. Uning bu fikrlari umuman olganda xayoliy tuyulsa-da, ammo ana shu fikrlar bir necha yuz yillar keyin Evropa mamlakatlaridagi ma'rifatparvarlar tomonidan ko'tarib chiqilganligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) - o'rta asrlarning mashhur qomusiy ilm sohibi, deyarli barcha ilmlar sohasida qalam tebratgan, juda ko'plab kashfiyotlar qilgan. O'sha davrdagi hukmron qarashlarga muvofiq Beruniy dunyoning yaratishi masalalarida rasman diniy dunyoqarashni tan olgan bo'lsa-da, ko'pgina masalalarda uning qarashlari chuqur ilmiyligi va o'ziga xosligi bilan ajralab turadi.

Beruniy fikricha inson tabiat taraqqiyotining gultojidir, chunki "inson turi barcha hayvonlardan etukroqdir... unga erni yaxshilash va unda boshqarishni amalga oshirish uchun... tafakkurdek kuch ato etilgan". Shuning uchun, deydi Beruniy, u o'ziga berilgan maqsadga mos bo'lishi uchun yuqori darajada ma'lumotli bo'lishi kerak. Uning fikricha, insonning ma'naviy qiyofasi u yashayotgan ijtimoiy muhitdan kelib chiqadi.

Beruniy jamiyatning vujudga kelishi asosida kishilarning moddiy ehtiyojlari turishini ta'kidlagan edi. "Inson unda ko'plab ehtiyojlar mavjudligi, o'zini himoya qilish usullarining kamligi va dushmanlarining ko'pligi bois o'ziga o'xshash kishilar bilan o'zaro ko'maklashish hamda uni va boshqalarni ta'minlashga qodir ishlarni amalga oshirish uchun jamiyatga birlashishga majbur bo'ladi".

Beruniy asl insoniy xislatlar qatoriga muruvvatlilikni kiritadi. Muruvvatli kishi, uning fikricha yuksak madaniyatli, dono, bilimli, axloqiy etuk, ilg'or dunyoqarashga ega insondir. Ana shunday kishilar boshqalarga yaxshi munosabatda bo'ladilar, ortiqcha zebu-ziynatlarga intilmaydilar, dehqonchilikmi, hunarmandchilikmi, savdogarchilikmi bo'lmasin, o'z mehnati evaziga kun kechiradilar. Ular doimo sabr-toqatli, muloyim, qat'iy va sodda-oddiy kishilardir.

Davlat rahbarlari to'g'risidagi fikrlarda Beruniy o'z davridagi qarashlar doirasidan chiqib ketolmagan. Jumladan, u jamiyatdagi ko'pgina yomonliklar, zulm va adolatsizliklar mamlakatga hukmdorlik qiluvchi kishining shaxsigacha bog'liqligini ta'kidlab, jamiyatning yaxshilanishini ma'rifatli, dono hukmdor boshqarishi bilan bog'lagan. Bunday hukmdorning asosiy vazifasi yuqori doiradagilar bilan past tabaqadagilar, kuchlilar va kuchsizlar orasida adolatni tiklashdan iborat deb tushungan. Uning fikricha davlat hokimiyatini boshqarishning nasldan-naslga o'tkazilishi o'zini oqlaydi. Shunday bo'lsada, u kishilar o'rtasidagi shafqatsizlik, noinsoniy munosabatlarni tanqid qiladi.

Beruniyning ulug'ligi yana shundaki, u turli irqqa, dinga mansub bo'lgan va turli hududlarda yashaydigan kishilar, xalqlar o'rtasidagi do'stlikka katta e'tibor beradi. U aynan xalqlar do'stligida ijtimoiy taraqqiyotning kuchini, insoniy baxt-saodatning asosini ko'radi. Uning fikricha haqiqiy do'stliksiz haqiqiy baxtning bo'lishi mumkin emas.

Beruniy o'z davri diniy dunyoqarashi doirasidan chiqib, umuminsoniy ahamiyat kasb etadigan axloqiy sifatlarga ega inson haqida ham fikr yuritadi. Uning fikricha, olijanoblik faqatgina diniy qoidalarni ijro etishdangina iborat emasdir (bu narsa, har qanday musulmon uchun zaruriy talabdir). Oliyjanoblik har kim faqat o'ziga va o'ziga yaqin kishigagina emas, balki barcha kishilarga yaxshilik tilasagina o'zining to'liq mazmunini ko'rsatadi.

Abu Ali ibn Sino (980 - 1037) o'z ta'limotida asosan tibbiyot va tabiiy fanlarga ko'proq o'rin beradi. Ijtimoiy hayot haqida uning maxsus asari saqlanib qolmagan, ammo biz bu haqdagi uning qarashlari to'g'risida boshqa asarlariga suyanib fikr yuritishimiz mumkin. Uning fikricha, kishilar normal hayot kechirishlari uchun ularni birlashtirib va boshqarib turadigan, qonun yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqaruvchiga ehtiyoj sezadilar. Bu boshqaruvchi (yoki payg'ambar) kishilarga qanday yashash va faoliyat ko'rsatishlari kerakligi haqida ko'rsatmalar ishlab chiqishi, ularni hayotga tatbiq etishi, vafotidan keyin esa ularga qoldirishi lozim. Payg'ambar o'z o'rniga kimnidir xalifa sifatida qoldirishi kerak. Bordiyu u bunday qilmagan bo'lsa, xalifani saylash lozim. Yangi dohiy, rahbar davlat boshlig'i sifatida rahbarlik sifatiga ega bo'lishi, mustaqil bo'lishi, aqlli, axloqiy pok, bilimlarda ham kuchli bo'lishi kerak.

Ibn Sino kishilarning tabiatan teng emasligini tan olgan va ular o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikka ham shunga binoan tabiiy hodisa sifatida qaragan. Kishilar o'z holatlarini anglashi va shunga qanoat qilishlari kerak.

Ibn Sino jamiyat hayoti mehnatning boshqaruvchilar, tartib posbonlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi taqsimotiga asoslanishini, shunga asosan jamiyat tarixiyali tuzilishga ega ekanligini aytadi. Jamiyatda eng past darajada qullar turadi (uning fikricha geografik muhit ta'sirida turklar va efioplarga qul bo'lishi mumkin, ya'ni ular "o'z tabiatiga ko'ra quldirdi"). Foydali mehnat har bir fuqaroning burchidir; mehnat qilishga qodir bo'lmagan va ishlab chiqarish sohasidan boshqa ish bilan shug'ullanuvchilarni (masalan, tartib posbonlarini) davlat boqishi kerak. Davlat xazinasini mulk va foyda soliqlari, shuningdek o'g'rilar, qartabozlar kabi huquqbuzarlarga solinadigan jarimalar hisobiga to'lib boradi.

Uning fikricha jamiyat hayotida nikoh munosabatlari birlamchi ahamiyatga ega. Davlat boshlig'i eng avvalo nikoh haqidagi qonunga ahamiyat berishi kerak, chunki nikoh avlodning davom etishiga, jamiyat fuqarolarining kelajagiga bevosita daxldordir. Ijtimoiy hayotda mehnat qilmaslik, o'g'rilik, sarroflik, qartabozlik va boshqalar taqiqlangani kabi, nikohda ham buzg'unchilik qat'iy taqiq osiga olinishi lozim. Ajralishlar mumkin qadar qiyinlashtirilishi kerak: ayollar uchun bu masala sud orqali echilishi, erkaklar uchun nikohni bekor qilish uchun katta jarimalar joriy qilinishi kerak. Bu sohada tushunmovchiliklar, meros masalalarida ochiqlik bo'lishi uchun nikohga kirish masalalari ochiq bo'lishi kerak.

Erkak, oila boshlig'i oilaning holati uchun javobgardir, u yo'qligida oila ishlaridagi javobgarlik ayol, xotinga yuklanadi. Ibn Sino oilaviy tarbiya, bolalarning kelajagi masalalariga katta e'tibor bilan qaraydi. Uning fikricha oilaviy tarbiya eng avvalo bolalarga bilim berish, ularga aniq bir hunar berishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunda bolalarning layoqatlariga e'tibor berilishi, ulardan imkon bo'lmagan narsani talab qilishga intilmaslik kerak.

Kishining oliy axloqiy darajaga erishganligi uning o'z hatti-harakatlarini, yaxshilik ko'rsatishini o'zi uchun, o'z maqsadiga erishish uchun emas, biror narsaga ta'ma qilish uchun emas, yaxshi yoki iliq tasavvur tug'dirish uchun emas, balki hech qanday ta'malarsiz bajarganligida ko'rinadi. Uning fikricha, inson eng oliy baxtga o'zidagi hayvoniy xislatlar, kuchlarni aql kuchiga bo'ysundirgan taqdiridagina, xayolan odatdagi istaklar dunyosidan oliy istaklar dunyosiga uchib o'tgan taqdiridagina erishadi.

Mana shular ham ko'rsatib turibdiki, Ibn Sino Forobiyga o'xshab "Fozil shahar" haqida maxsus asar qoldirmagan bo'lsa ham, uning inson, uning xislatlari qanday bo'lishi, ana shunday jamoada yashaydigan kishilarning qanday bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlarida ular yakdildirlar.

3. Markaziy Osiyolik mashhur mutasavvufilar ijodida shaxs va jamoa munosabatlari, ijtimoiy adolat masalalari

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (809-870) nomi islom olamida alohida hurmat bilan tilga olinadi. Uning "Al-Jome' as-Sahiyh" (Ishonchli to'plam) va "Al-adab Al-mufrad" (Adab durdonalari) degan shoh asarlari butun

musulmon olamiga tanilgan. Mazkur asarlarda uning jamiyat hayotining turli jabhalari, kishilarning o'zaro munosabatlaridagi murakkab masalalarga oid fikrlari to'plangan. Ular islom dinining asoschisi Muhammad alayhissalomning hayotda uchraydigan murakkab masalalar borasida aytgan fikrlari, sa'y-amallariga asoslanib tuzilgan ko'plab hadislarni ham o'z ichiga olgan. Shular asosida biz mazkur allomaning dunyoqarashi, ijtimoiy fikrlari haqida so'z yuritishimiz mumkin.

"Al-Jome' as-Sahiyh" (Ishonchli to'plam) to'rt jilddan iborat bo'lib islom olamida muhaddislar tuzgan hadis kitoblarining eng ishonarlisi va mukammali hisoblanadi. To'plamga 600 ming hadisdan 7275 ta sahiyh hadislar kiritilgan. Imom al-Buxoriy to'plamining e'tiborli jihati shundaki, unda Muhammad alayhissalom hadisi shariflaridan tashqari fiqh, islom marosimchiligi, odob-axloq, ta'lim-tarbiya hamda o'sha davr tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir ma'lumotlar ham mavjud.

Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahiyh" (Ishonchli to'plam) kitoblari o'zbek tiliga tarjima qilinib "Hadis" nomi bilan to'rt jildda nashr qilindi. Bu kitoblar imon-e'tiqodimiz va ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishiga, yoshlarni odob-axloqli qilib tarbiyalashga, ayniqsa, ularda halollik, poklik, rostgo'ylik, adolat, yaxshilik, saxiylik kabi fazilatlarini qaror toptirish va mustahkamlashga benihoya ko'p xizmat qiladi.

U yozgan kitoblar orasida "Al-adab Al-mufrad" (Adab durdonalari) degan hadislar to'plami alohida qimmatga ega. Bu ulug' kitob musulmonlarni yaxshi odob-axloq ruhida tarbiyalashga o'n ikki asrdan beri xizmat qilib kelmoqda. Bu asarga 1322 ta hadis va xabarlar jamlanib, ular 644 bobda bayon etilgan.

Bu kitobga kirgan hadislarda ota-onani hurmat qilish, keksalar va yoshlar orasidagi munosabatlar, qavm-qarindoshchilik odobi va qoidalari, ziyorat qilish, ayollarni e'zozlash, xushomadgo'ylik va maddohlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, johillik va zulmkorlik, do'stlik va sadoqat, sharm-hayo va uyatchanlik kabi insoniy va g'ayri insoniy fazilatlarining eng mayda zarralaridan tortib, eng katta axloqiy tushunchalarigacha so'z boradi.

Abu Iso at-Termiziy (824-892) Surxondaryoning hozirgi Sherobod shahrida tug'ilgan. Yoshligidan hadis mutolaasiga kirishib, ularni to'play boshlagan, ko'plab hadisci olimlar bilan muloqotda bo'lgan. U hadislarni to'plash va joyida o'rganish uchun mashaqqatli safarlarga chiqib, eshitgan hadislarini batartib yozib borgan. U Iroq, Isfahon, Xuroson, Makkai mukarrama va Madinai munavvarada o'z bilimini oshirgan. Nishopur shahrida ustoz Imom al-Buxoriy bilan uchrashib, u bilan muloqot qiladi. Undan fiqhi hadis ilmini o'rganadi.

At-Termiziyning fiqh - islom qonunshunosligi boblariga moslab yozgan "Sunan" nomli kitobi bu sohadagi tegishli mavzularni qamrab olganligi sababli "Al-Jome' as-Sahiyh" nomi ostida ham shuhrat topgan.

Islom olamida hadis kitoblarining birinchisi sifatida al-Buxoriyning, ikkinchisi - Muslimning "Al-Jome' as-Sahiyh"lari, uchinchisi sifatida at-Termiziyning "Sunani" umum e'tirof etilgan. Imom al-Ansoriy at-Termiziyning kitobini al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan ham ustun qo'yadi. Chunki, uning

aytishicha, al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan faqat olimlarga foydalanadilar, at-Termiziyning kitobi esa, har bir oddiy inson uchun ham foydalidir.

At-Termiziyning "Kitob ash-shamoili an-Nabaviya" risolasi ham juda mashhur bo'lib, islomshunos va tadqiqotchilarni o'ziga tortib keladi. Asarda keltirilgan hadislarida payg'ambar alayhissalomning nafaqat tashqi qiyofasi, shu bilan birga uning ichki dunyosi, axloqiy fazilatlarini ochib berilgan. Jumladan, uning kattalari kichiklar, ayollari erkaklar, boylari kambag'allar bilan o'zini bir xil muomalada tutishi, ro'zg'or va oila yumushlarida o'z ahli ayollariga astoydil ko'maklashishi, biror gunoh qilib qo'yan kishi uzr so'rasa, uning gunohini kechirgani, barcha odamlar bilan o'ta latofatli munosabatda va shirinsuxan bo'lgani, yo'lida uchragan barcha kishilarga birinchi bo'lib salom berib, hol-ahvol so'rashishlari ayon bo'ladi. Bu kitobni o'qigan barcha kishi payg'ambarimizning xulqlarini o'rganib, ana shunday xushxulq bo'lishga intilishi tabiiydir.

At-Termiziyning o'zi ham taqvador, xushxulq inson bo'lib, ko'p mehnat va ijod qilar, axloqsizlikni qoralar edilar. U kishi doimo ilm-fanni targ'ib qilar, kishilarni ilm olishga da'vat etardilar. Allomaning asrlar davomida fozilu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan odob-axloq, insof-diyonat, adolat va insonparvarlik singari g'oyalarni targ'ib va tashviq etuvchi asarlari davrimizning murakkab va ziddiyatli axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham ulkan ahamiyat kasb etadi.

Ahmad Yassaviy (1103-1166) Turkistonda so'fiylik ta'limoti asoschilaridan biri, turkiy tasavvuf she'riyatining buyuk vakili. U Abduxoliq G'ijduvoni bilan birga mashhur mutasavvuf Yusuf Hamadoniyning shogirdlaridan va uning davomchilaridan biri hisoblanadi. U 63 yoshga to'lgach, er ostida qurgan chillaxonaga tushib yana 60 yil yashagani haqida ko'plab fikrlar bor. Uning eng mashhur asari "Hikmat" kitobidir.

Ahmad Yassaviy axloq-odobga da'vat, g'ariblar ko'ngliga farog'at bag'ishlash, ayni paytda nodonlardan qochish, bu dunyoni ayshu ishrat deguvchilarni insofga chaqirishda haligacha ulug' da'vatchilardan biri bo'lib qolmoqda.

Yassaviychilik manzilma-manzil kezib yuruvchi so'fiylar tariqatidir. Uning mohiyatini zohidona xilvat tashkil etadi. Yassaviy o'z axloqiy qarashlarini – so'fiylik ta'limotini islom dini qonunlariga muvofiq bayon qiladi. Uning fikricha, bu dunyo – tabiatning mohiyatini olloh tashkil etadi, shu ma'noda bu dunyo komil emas, u dunyo esa komillik olamidir. Shu bois bu dunyoning havaslaridan ko'ngil uzib, u dunyo abadiyligiga mehr qo'yib yashamoq kerak. Insonning maqsadi Olloh vasliga etishish, o'zlikdan voz kechish va jannatdan o'rin olishga intilishdir. Buning uchun musulmon kishi islom qonunlarini bajarishi, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlaridan o'tishi, o'zlikdan voz kechishi, ya'ni jonni qafasdan – tanadan ozod qilishi, o'zni xilvatga solishi, fikr va zikrni Ollohgacha berishi shart.

Uning axloqiy qarashlarida poklik, adolat, insof, qanoat, Olloh ishq bilan yashash kabi insoniy fazilatlar kuylanadi. Ayni paytda kufr va iblis vasvasasi –

nodonlik, gumrohlik, jaholat, ta'magirlikni qattiq qoralaydi. Xususan, ijtimoiy hayotdagi tengsizlik va adolatsizlikka qarshi chiqadi.

Ahmad Yassaviy tariqatida axloqiy masalalar shu qadar teran tahlil qilinganki, ular zamonlar osha yashab kelmoqda. Iymon-e'tiqod bu tariqatning mag'zi-mag'ziga singib ketgan. Ma'naviy qadriyatlar qadrlanmasa, adolat ustunlari qulasa, olimlar haq so'zni aytmasalar, "turlik-turlik egonlar, kimxob chopon kiygonlar"dan xayr-saxovat, qiz-juvonlardan sharm-hayo ko'tarilsa, odamlardan mehr-oqibat qochsa, g'ofillik g'olib bo'lib, nodonlar ko'payadi.

U zolim podshohlar, vazirlar, riyokor darveshlar tufayli oyoq osti qilingan, ezilgan, turli balolar ostida qolgan jafokash xalq haqida qayg'uradi. Yassaviy ta'limotida "nodonlik" tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Insonning Haqni tanimasligi uning nodonligidir. Nodonlik kulfat keltiradi. Nodonlik – o'z-o'ziga yovuzlik qilishdir. Nodon kimsa eng katta gunohkor hisoblanadi. Yassaviyda "nodon" shu qadar pastnazar, malomatli, toshbag'ir bir kimsaki, hatto u bilan do'zaxga ham kirib bo'lmaydi, undan do'zax ham hazar qiladi.

Bahovuddin Naqshband (1318-1389) ozga qanoat qilish, xohish-irodaga ko'ra faqirona hayot kechirish talablari bilan dunyo mol-mulki va dabdabadan voz kechgan va shuni targ'ib qilgan. Naqshband axloqiy ta'limotida hurfikrlilikka keng yo'l berilgan. Bu tariqatda mehnat qilish, ilm olish, o'z mehnati bilan topilgan boylik halol bo'lishi, noz-ne'matlarni ko'pchilik bilan baham ko'rish, faqirona hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo ko'rish g'oyalari ilgari surilgan.

Naqshband ta'limoti birovlar hisobidan yashashni qat'iy rad etgan, faqat peshona teri, o'z qo'l mehnati bilan topilgan rizq-ro'zni halol deb hisoblagan. Uning asosiy shiori "Dil ba yoru, dast ba kor" ("Dil Ollohda, qo'l ishda"). Bahovuddin Naqshbandning o'zi ham bir parcha erda dehqonchilik qilgan va kosiblik qilib kun kechirgan. Uning izdoshlari ham hunarmandchilik, savdogarlik, adiblik, olimlik, me'morlik, hattotlik kabi kasb-korlik bilan shug'ullanib, halol yashashni targ'ib qilganlar. Naqshbandiylik har qanday tarkidunyochilikka, mulkdorlarning esa qashshoqlarni ezishiga qarshi chiqdi. Bu ta'limot darveshlikning ba'zi tomonlarini isloh qilib, ularning alg'ov-dalg'ov, notinch hayot tarzini butunlay o'zgartirib, osoyishta, bexavotir yashashlari, birovlarning qo'liga qaram bo'lmaslik uchun mehnat bilan shug'ullanishni targ'ib qildi.

Bahovuddin Naqshband tariqati insonni ma'naviy-ruhiy komillikka eltuvchi islomiy tariqatlardan shu bilan farqlanadiki, uning sohiblari moddiy olamga ham o'ta faol, xolis va insoniy munosabatda bo'ladilar. Naqshbandiy tariqati axloqiy tizimi avvalgi tasavvufchilardan bir oz farq qiladi. Mazkur ta'limotda inson tabiat ne'matlaridan lazzatlanishi, ammo bu lazzat hissi Ollohni esdan chiqarishga, u dunyoni unutishga xizmat qilmasligi, inson botiniy (ichki) Olloh bilan, zohiriy (tashqi) xalq bilan bo'lishi, uni sevishi lozim, deb tushuntiriladi.

Naqshband ta'limoticha, insonlardan xoli, xilvatda yashashda, yolg'izlikda ofat bordir. Jamoaga uyushish, birlashish – suhbat-anjuman vositasida ko'pchilik bilan aloqada, muloqotda bo'lish lozim. Birlik va hamjihat yashashlikning asosiy shartlaridan biri – o'z qo'l kuchi, mehnati bilan halol rizq-ro'z topib kun kechirish, tirikchilik qilishdir. Bu holat qul saqlash, xoja bo'lish, o'z manfaati uchun

o'zganing mehnatidan foydalanishni istisno qiladi. Qul bo'lishlik, xojalik bandalikka to'g'rikelmaydi. Hamma Oллоhning quli, xizmatkori.

Inson har bir qadamini o'ylab, fikrlab bosishi, bir ish qilishdan oldin har bir hatti-harakatini mulohaza: mushohada qilib ko'rish: ish so'nggida pushaymon bo'lmasligi: baxtsizlik: g'am-alamga yuz burmasligi kerak. Inson hayot qiyinchiliklari oldida qanoat, sabr-bardoshli bo'lishi lozim, buning uchun u faoliyatda bo'lishi, badan tan-sihatligi, aql quvvatini ishga solishi, har ishni tajribada sinab ko'rish, oz so'zlab, oz eyishi, xullas - nafsni jilovlashi, yomon ishlardan parhez qilishi, ya'ni inson o'z nafsiga hokim bo'lmog'i lozim.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan va ko'rib o'tishga ulgurmagan barcha mutasavvufklar mehnati o'laroq yaratilgan tasavvuf ta'limotining asosini taniqli olim N.Komilovning juda o'rinli ta'kidlashicha, "quyidagi tamoyillar tashkil etadi: a) ilohsevarlik, Xudoga muhabbat; b) o'z-o'zini tarbiyalash, haq va haqiqat sari jahd qilib, nafsni mahv etish uchun kurashish; v) hayotda hammaga ibrat bo'lib, pokiza axloq namunasini ko'rsatish; g) yuksak insoniylik sifatleri – karam, saxovat yo'lida mardlik qilish".

4. O'rta Osivolik mashhur davlat arboblariining ijtimoiy taraqqiyot, insoniy munosabatlarning murakkabligi haqidagi fikrlari

Markaziy Osiyoda 150 yil davom etgan mug'ullar istilosi davri tushkunlik va xarobalilar davri bo'ldi. Ming-minglab odamlar qirib tashlandi va yaratilgan madaniy boyliklar xarob qilindi. Bu davr mobaynida xalq ommasi bir necha bor bosqinchilar zulmiga barham berish uchun qo'zg'olonlar uyushtirdilar. Masalan, Xurosondagi milliy ozodlik kurashi natijasida vujudga kelgan Sarbadorlar davlati deyarli 45 yil yashadi. Amir Temurning amakisi Hoji Barlos tomonidan Shahrizabz va Qarshi shaharlarida bunyod etilgan va bir necha yil faoliyat ko'rsatgan davlat ham bo'lganligi tarixdan ma'lum.

Lekin Movarounnahr xalqlarining mug'ul istibdodidan ozod etilishi va mazkur mintaqada markazlashgan davlat tuzilishi Amir Temur (1336-1405) shaxsi va faoliyati bilan bog'liq. 1370 yilda o'z raqibi Amir Husaynni engib, Balxni bosib olgandan keyin Amir Temur Mavoraunnahming yagona hukmdori deb e'lon qilinadi. SHundan so'ng u ketma-ket Buxoro, Xorazm, Oltin O'rda, Eron, Iroq, Kavkaz orti, Kichik Osiyo, Misr va Hindiston kabi jami bo'lib 27 mamlakatni o'z saltanatiga birlashtirdi. Bu saltanat Balxash ko'li va Xitoydan to Qora dengiz sohillari, Kichik Osiyo, Suriya va Misrgacha, Orol dengizining shimoliy dashtlaridan to Hindistongacha bo'lgan yirik hududni o'ziga qamrab oldi. Bu milliy mustaqillik mazkur va qo'shni mintaqalardagi mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida chuqur o'zgarishlarni vujudga keltirdi. "Amir Temurdek adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdor, dovyurak sarkarda va uzoqni ko'ra oladigan buyuk allomaning tarix sahnasiga chiqishi, - deb qayd qilgan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov sohibqironning 660 yillik tavalludiga bag'ishlanib Toshkentda o'tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyada, - tasodifiy bir hol emas, balki tarixiy zaruriyat va zamona taqazosidir. Sohibqiron Amir Temur shaxsi va temuriylar davri Markaziy Osiyoda asrlar davomida

shakllanib qaror topgan madaniy-ma'naviy imkoniyatlar, yig'ilgan tarixiy tajribalar, boy an'analar va qadriyatlarning mahsulidir."

Amir Temurning buyuk xizmati shundan iboratki, u nafaqat Movarounnahr xalqlarini mug'ul bosqinchilaridan ozod qildi, shu bilan birga muayyan mintaqadagi feodal parokandalikka barham berib, markazlashgan saltanatni vujudga keltirdi. Mamlakatda nisbatan tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Bu esa iqtisodiy va madaniy rivojlanishga sabab bo'ldi. Ko'plab shaharlar qurildi, yangi-yangi saroylar, madaniy-maishiy obidalar, kutubxona va madrasalar barpo etildi. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, irrigatsiya sohalari taraqqiy topdi. Fanlar rivojiga misli ko'rilmagan e'tibor berildi.

Albatta, Amir Temur o'z davlati asosiga islom dini qoidalarini qo'yadi. "Temur Tuzuklari"da shunday ta'kidlaydi: "Davlat agar dinu tartib asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirmekim, uni ko'rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang'i-qasang'i odamlar tap tortmay kirib-chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini islom dini, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim". Amir Temur o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatida iymon-e'tiqodga suyangan odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu xalqining or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni ajoyib fazilat deb biladi, deb uqtirar edi.

Uning davlat ishlariga jalb qilinuvchilarning qanday sifatlarga ega bo'lishlari lozimligi haqidagi fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ularda Temur fikricha, eng avvalo quyidagi to'rt xislat mavjud bo'lishi talab qilinardi: 1) asillik, toza nasllik; 2) aql-farosatlilik; 3) sipohu raiyatning ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik; 4) sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Davlat ishlarining olib borilishida Amir Temur o'z fikrlarini boshqa kishilarning fikri bilan solishtirib ko'rishni ma'qul ko'rgan. Shuning uchun uning davlatida turli qurultoy va kengashlar o'tkazish doimiy ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun "Tuzuklarda" u o'z ishlarining to'qqiz qismini dono va tajribali kishilarning maslahatlari bilan, bir qismini esa qilich bilan echganligini alohida ta'kidlaydi.

Amir Temur davlatni boshqarishda armiyaning ahamiyatiga alohida e'tibor beradi. Umuman olganda uning ulug'vor saltanat tuzushida harbiy mahorati va armiyaga bergan e'tibori katta ahamiyatga ega bo'lganligi aksariyat tarixchi olimlar tomonidan e'tirof etilgan faktdir.

Amir Temurning buyukligiga uning oldiga tarix qo'ygan bir qancha masalalarni muvaffaqiyat bilan echgani sababchidir. Birinchi vazifa – Markaziy Osiyoning birlashtirilishi. Ikkinchi vazifa – 1395 yilda Oltin O'rdani halokatga uchratish bilan Rossiyani asoratdan saqlab qolishi. Uchinchi vazifa – 1402 yili Anqara yonida Boyazid I yakson qilish bilan Usmonli turk imperiyasini parchalab yuborishi va Evropani halokatdan saqlab qolishi.

Temur va Temuriylar davrining xarakterli belgilaridan biri shundan iborat ediki, shaharlar qurish gurkirab rivojlandi, fan va madaniyat gullab yashnadi.

Madaniyat va ilm ahllariga g'oyat katta e'tibor berildi. Shuning uchun bu davr Evropa olimlari tomonidan "Temuriylar Renessansi" deb ham ataladi.

Ulug'bek (1394-1449) zamonida aniq fanlar: matematika, falakiyot juda rivoj topdi, shuningdek, diniy bilimlarga, tibbiyot, tarix, axloq, nafosat va shu kabi fanlarga muttasil e'tibor berildi. Fundamental fanlarni rivojlantirish manfaatlari Ulug'bekni yangi oliy maktab – ilmiy tafakkur markazi barpo etish qaroriga olib keldi. Ana shu maqsadda Ulug'bek ayni bir vaqtning o'zida uchta madrasa: birinchisini 1417 yilda Buxoroda, ikkinchisini 1417-1420 yillarda Samarqandda va uchinchisini G'ijduvonda qurdirtdi.

Samarqandda 1428-1429 yillarda rasadxona qurilishi Ulug'bekning xizmatlaridan biri bo'lib, bu rasadxonani Ulug'bekning zamondoshlari o'z davrlarining eng yaxshi rasadxonasi deb bilar edilar. Ana shu rasadxona tufayli Ulug'bek 1437 yilda o'zining mashhur "Zichi Ko'ragoniy" yulduzlar jadvalini tuzish va tugallashga muvaffaq bo'ldi. Ulug'bek shunday ajoyib kutubxona yaratgan ediki, unda o'sha zamon fanining deyarli barcha sohalariga oid 15 000 kitob saqlanar edi. Ulug'bekning ilm-fan borasida amalga oshirgan ishlari to'g'risida materiallarning ko'pligi bois o'quvchilarni ana shu manbalarga murojaat qilishga maslahat beramiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) o'zbek xalqining yirik mutafakkiri, davlat arbobi, tarixchi, shoir va tarjimon. U temuriylar avlodidan bo'lib, Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solgan.

Taxt talashishlar va o'zaro urushlar natijasida o'z yurtida hokimiyatni saqlab qololmaydi va 1504 yildan va 1526 yilgacha Afg'onistonda o'z hukmronligini o'rnatadi. Shu davr ichida u bu erdagi tarqoq qabilalarni birlashtiradi, mamlakatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlaydi.

U 1526 yili Dehli sultoni Ibrohim Lodi qo'shinini engib, Dehlini egallaydi. Bobur bu erda markazlashgan kuchli davlat barpo qiladi. U mamlakat obodonchiligiga katta ahamiyat beradi, shaharlarni obod qiladi, sug'orish inshootlari qurdirtdi, bog'lar barpo etdi.

Bobur o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, falsafa, musiqashunoslikka katta hissa qo'shgan alloma hamdir. Uni jahonga mashhur qilgan asari "Boburnoma" hisoblanadi. Unda XV asr oxiri va XVI asrning 30-yillarigacha Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindistonda bo'lgan murakkab tarixiy voqealar bayon qilinadi. Bu asarda ana shu hududlar geografiyasi, o'simliklar (botanika) va hayvonot dunyosi (zoologiya) haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bu asardan tashqari Bobur aruz vazni va qofiyaga bag'ishlangan "Mufassal" asarini, huquqshunoslikka oid "Mubayyin" risolasini, musiqaga bag'ishlangan "Musiqiy ilmi" asarini yozgan va Xo'ja Ahrorning "Volidiya" asarini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Bobur boshqa mutafakkirlar kabi jamiyat haqida tugallangan ta'limot yaratgan emas. Ammo uning asarlarida, she'rlarida jamiyat, insonning jamiyatdagi o'rni, davlat va fuqarolarning o'zaro munosabatlari, davlatni boshqarish kabi masalalar haqida ilg'or g'oyalar, fikr-mulohazalar ko'p uchraydi. Boburning bu fikrlari uning uzoq yillar davomida o'z podshohligini tuzish, mustahkamlash, rivojlantirish tajribasiga tayangan holda aytilgani bilan qimmatlidir.

Bobur ijodi bilan mufassal shug'ullangan tadqiqotchilarning ta'kidlashicha Boburning podshohning elga imom, Ollohning xalifasi deb aytishdan maqsadi yakka hokimiyatchilik tuzumini madh etish emas, balki mamlakatni ko'pchilik bilan boshqarib bo'lmasligini, davlat va mamlakatning birligini, osoyishtaligini saqlash uchun hammaning podshohga itoat etishi kerakligini ta'kidlashdir. Aks holda "mulk vayron bo'luriga ne shak".

Bobur asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, u davlatni boshqarishning eng yaxshi shakli podshohlik deb hisoblaydi, buni uning 1508 yilda o'zini podshoh deb atashlari haqida farmon chiqarganidan ham bilish mumkin: *"Ushbu tarixqacha Temurbekning avlodini... mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdimkim... meni podshoh degaylar"*. U bir davlatga ikki kishi bosh bo'lishiga hech qachon imkon bermaslik kerakligini alohida ta'kidlaydi. Bunday hol guruhbozlikka, turli fitnalar avj olishiga, oqibatda esa mamlakat parchalanib xonavayron bo'lishiga olib keladi: *"Bir viloyatga ikki podshoh va bir cherikka ikki mirsipoh mujibi tafriqa va vayronlik va sababi fitna va parishonlikdur"*.

"Boburnoma"da u podshoh (mamlakat rahbari) quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi: najhati (omadi) baland, himmati arjumand (bag'rikenglik), viloyat olmog' (davlatni kengaytirish), viloyat saqlamog' (mamlakatni mustahkamlamoq), ma'murlug' (bunyodkorlik va mamlakatni farovon qilish), fuqaro va raiyatga mehribonlik, qo'shin haqida g'amxo'rlik, adolatparvarlik.

Shunisi e'tiborliki, Bobur islom e'tiqodiga rioya qilish masalasiga rasmiy davlat siyosati miqyosidagina yondoshadi. U o'qimishli kishi va olim bo'lganligi sabab bir dinni ikkinchi din ustidan ustun qo'ymaydi, ularning xalqlar hayotida muhim rol o'ynashini tushunadi. Shu ma'noda uning Hindiston sharoitida islomga u erdagi boshqa dinlar qatori bir ko'zda qaragani ham xalq orasida diniy asosdagi tushunmovchiliklarning vujudga kelishiga to'siq bo'lgan. Garchi uning asarlarida tasavvuf, xususan naqshbandlik tariqatining odamlarni kamtarlikka, mehnatsevarlikka, ma'naviy barkamollikka chaqirishiga nisbatan kuchli hurmat sezilsada, uni so'fiy shoirlar qatoriga kiritib bo'lmaydi.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodiyoti O'rta va Yaqin Sharq adabiy-ilmiiy merosi, jumladan, o'sha davrda o'z an'alariga ega bo'lgan turkiy adabiyot namoyondalari – Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy va boshqalarning faoliyati va bundan tashqari, hind va arab adabiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Navoiy falsafiy dunyoqarashi vahdati vujud, ya'ni borliqning birligi ta'limotiga asoslanadi. Uning fikricha, olam – xudodir, chunki ilohiyot (vujudi mutlaq) atrofda borliq (vujudi doira)da namoyon bo'ladi va o'z husnini tabiatda zuhur etadi. Navoiy dunyoqarashi panteistik ruhda bo'lib, olamdagi barcha narsa va hodisalarda ollohning izlarini ko'rish, tabiatni, moddiy narsa-hodasalarni, jumladan, insonni madh etish orqali xudoni ulug'lashdan iborat. Inson, Navoiy fikricha, xudoning tabiatda zuhur etilishining asosiy maqsadidir. O'z navbatida xudo ham insonning mahbubi, uning muhabbati ob'ektidir.

Ilohiyot atrofda barcha narsalarda zuhur bo'lar ekan, u insonning qalbida ham o'z aksini topadi. Shunday qilib, xudo har kimning qalbidadir, lekin uni aql (xirad) bilan anglash mumkin emas, uni anglashga inson aqli etmaydi. Uning

fikricha xudoni topish, sezish uchun insondan riyoziyat (qalbni tozalash), ma'rifat (dunyoni bilish, o'zlikni va demak, xudoni bilish) talab qilinadi. Inson unga o'zining amaliy harakatlari, axloqiy pokligi bilan etishi mumkin. Navoiy panteizmi mohiyat-e'tibori bilan insonparvarlik, tabiatni ulug'lash, insonni madh etishdan iborat. Inson, Navoiy fikricha, xudoning tabiatda zuhur bo'lishining asosiy maqsadidir.

Navoiy adolat g'oyasini chuqur insoniylik mazmunida talqin qiladi. Uning fikricha, hukmdorlar faoliyatining mezonini – adolat, ularning ma'naviy qiyofasining belgisi insoniylikdan iborat. Mamlakatni idora etuvchilarga avf, karam, javonmardlik fazilatlarini ham xos bo'lmog'i lozim. Shunday fazilatlariga ega bo'lgan shoh bilan raiyat (xalq) o'rtasida uzviy ravishda aloqa tiklanadi. Oljanob va himmatli shohga nisbatan xalqda vahima va qo'rqinch bo'lmaydi. Shu tufayli shoh o'z mamlakatidagi yaxshi ishlardan ham, yomon ishlardan ham xabardor bo'ladi. Bunday fikrlar Navoiyning "Hayratul abror", "Saddi Iskandariy" kabi asarlarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Alisher Navoiy ijtimoiy-siyosiy masalalar borasida Abu Nasr Forobiy singari ijtimoiy ta'limot yaratdi. U barcha davrlar uchun muhim bo'lgan mamlakatni boshqarish masalasiga e'tibor qaratdi. Navoiy buni vazir sifatida amaliyotga tatbiq etishga urindi. Uni mamlakatni yakka hukmronlik (ya'ni monarxiya usuli) bilan boshqarish ko'proq qanoatlantiradi. Navoiy "Saddi Iskandariy" va boshqa asarlarida shohni bog'bonga, mamlakatni esa bog'ga qiyoslaydi. Uning fikricha, agar bog'bon oqil, mehnatsevar bo'lsa, uning bog'i gullab yashnaydi. Agar podshoh oqil, ma'rifatli, bilimdon, adolatparvar bo'lsa, xalqini sevsa, unda mamlakat ham obod bo'ladi. Aks holda u xarobaga aylanadi.

Navoiy "Saddi Iskandariy"da ideal podsho obrazini yaratadi. Bu – Sharq xalqlari rivoyatlarida keng tarqalgan Iskandar Zulqarnayn obrazidir. Iskandar – etuk olim, donishmand podsho, iste'dodli sardor va xalqparvar davlat arbobi – islohotchidir. Ayni paytda Iskandarda komil insonga xos xususiyatlar ham tasvirlanadi: u dili va niyati pok, saxovatli, kamtarin va muloyim shaxs; dono podsho va dunyo sirlarini bilishga qiziquvchi aql-zakovat egasidir. Navoiy bu obrazni yaratarkan, o'zining ezgu maqsadi – jamiyatni hikmat, adolat bilan boshqarish kerak, degan ijtimoiy g'oyani ilgari suradi. Shu ma'noda "Saddi Iskandariy"da Navoiy insonparvarligiga xos siyosiy nazariya (ideal davlat qurish) va axloqiy nazariya (komil inson ta'limoti) bir-biriga uzviylashtirib ketgan.

Navoiy xalqlar o'rtasidagi do'stlikni tarannum etdi. Navoiy dostonlarining qahramonlari turli mamlakatlar, turli millat vakillaridir: SHirin – arman qizi, Farhod – chin o'g'loni, eronlik Shopur, hindi Ma'sud, Layli va Majnun arab eliga mansub, Iskandar va uning maslahatchilari bo'lmish Arastu, Buhrot, Suqrot kabilar – yunonlardir.

Navoiy nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham mehnatkash kishilarga xizmat qilish namunasidir. 1469 yilda Hirot taxtiga Navoiyning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro chiqadi. Navoiy avval muhrdor, keyin Amir lavozimida uning xizmatida bo'ladi. Ushbu davlatning 40 yil mobaynida saqlanib turishida Alisher Navoiyning xizmatlari katta. Juda og'ir vaziyatlarda ishlagan Alisher Navoiy davlat mustaqilligini, bexatarligini saqlab qolish maqsadida xalqqa

murojaatlar, pandu-nasihatlar qildi, shahzodalarning isyonlaridan norozi bo'lib ularga maktublar yo'lladi. Uning tevaragida mamlakat aloomalarining "qaymog'i" to'plandi. Shayx Abdurahmon Jomiy, Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Mahmud, shayx Suhayliylar Navoiyga yondosh bo'lgan ana shunday kishilar hisoblanadi.

Xondamirning ma'lumotlariga ko'ra Navoiy o'z mablag'i hisobidan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik, 9 hammom va ko'plab masjidlar qurdirgan. Uning "Ixlosiya", "Xalosiya", "Shifoiya" madrasalarida yuzlab ilmi toliblar tahsil olganlar.

Navoiy nasihatlaridan yana biri – bu mamlakatni idora etishda hokimlar amal qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalaridir. Navoiy Astrobod hokimi bo'lib turgan davrda Boyqaroning davlatni boshqarish ishlaridan xavotirga tushib, unga maktublar yozadi. Mamlakatni idora etishning hamma jabhalari qamralgan "Munshoat"da aytiladiki, ertalab kishilarning arz-dodi eshitilsa; ularga adolat qilinsa; kechqurunlari ovqat eb bo'lingandan so'ng qabulxonada arkoni davlat bilan mol-mulk ishlari muhokama qilinsa; arkoni davlat kundalik ishlardan hisob berib tursalar; chog'ir ichishdan qattiq saqlanilsa; bo'sh vaqtlarda kitubxonada qiroat qilinsa; arkoni davlatga, vazirlarga tarix kitoblari, xususan, "Zafarnoma"ni takror-takror o'qib turish buyurilsa; majlislarga taklif etilmagan kishilar kirgizilmasa; chegaralarning darvozalari qattiq qo'riqlansa; boshqa yurtlardan kelgan savdogarlarga hurmat-e'tibor ko'rgizilsa; gunoh qilganlar qattiq jazolansa va bu holat butun mamlakatga tarqatilsa...

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyatdagi kishilarning ma'naviyati, savodxonligi, mansabi, axloqiy fazilatlarini, ilmi va diniy maqomiga qarab toifalarga ajratadi va ularning tavsifini beradi. Ijtimoiy guruhlariga bo'lishning eng asosiy belgisi sifatida axloqiy omil belgilovchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan odamlar yaxshi va yomon xislatlilarga bo'linadi.

"Mahbub ul-qulub"da Navoiy kishilarning jamiyatdagi maqomiga qarab 34 guruhga ajratadi: sultonlar, beklar, vazirlar, sadrlar, yasovullar, soliq yig'uvchilar, navkarlar, cheriklar (navkarlar), savdogarlar, mirshablar, qorovullar, shayxlar, masjid imomlari, shayxulislomlar, so'fiylar, voizlar, muftiylar, darveshlar, dehqonlar, kosib va hunarmandlar, g'arib va muhtojlar, gadoylar...

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Navoiy olam obodligini dehqon mehnatida ko'radi va uni Odam Atoga mengzaydi: "Dunyo obodligi ulardan, olamlar shodligi ulardan. Har qayon qilsalar harakat, xalqqa ham ovqat etar, ham barokat... Kambag'allarning sharbat va sirkasi undan, davlatmandlarning emishi va a'lo sharbati undan... Qo'shchining undan murodi hosil, somonchi undan maqsadga vosil. Gadoylar u bilan to'q, xonadon undan ma'mur. Novvoyning tandiri u bilan issiq, unfurush bozori u bilan qiziq. Fuqaroning rizqi ro'zi, g'aribning kuch-quvvati don bilandur. Uni egan zohid huzur bilan toat qiladur... Tilanchi to'rvasi bir burda nondan muhayyodir, xazinachida daryo va kon moli undan tayyordir".

Navoiy fikricha, tijorat ahli – savdogarlar halol rizq topish uchun uzoq, mashaqqatli yo'llarni bosib o'tadi. Bir yurtdagi serob mollarni boshqa yurtga olib borib, u erdagi kamyoblikka barham beradi. Savdogarlar dehqon va hunar egalarining mehnati qadrsizlanib qolmasligini, bozor muvozanatini, yurt obodonligini ta'minlaydi.

Navoiy jamiyatdagi barcha tabaqa a'zolari teng ekanligini, ularning bir-biriga jabr o'tkazmasligi lozimligini ta'kidlaydi. Qonun oldida boyu kambag'al tengdir, deydi u. Navoiy asarlarida inson huquqlari, uning or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilinadi. Inson eng oliy mavjudotdir, shuning uchun u yuksak izzat-hurmatga loyiq, degan fikr Navoiy asarlarining mazmunini tashkil etadi.

5. Turkiston tafakkur ahlining ijtimoiy qarashlarida shaxs va jamiyat masalalari

XVII asrda ashtarxoniy hukmdorlar Abdulazizxon va Subxonqulixonlar davrida yashab ijod etgan, mavjud ijtimoiy tuzum, jamiyat hayoti, insonlarning turmush tarzi haqida o'z qarashlarini bayon etgan taniqli adiblardan biri **Turdi Farog'iydir**.

Turdi o'z asarlarini real obrazlar bilan boyitdi, ularni real hayot voqealari bilan bog'ladi, hukmron guruhlariga kuchli nafrat bildirdi, ularning yovuzliklarini fosh qildi, satirik g'azal va muxammaslar yozib, an'anaviy janrlarning takomiliga ham hissa qo'shdi.

Turdining shoh asari "Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari to'g'risida hajviya" muxammasida ana shu tilga olingan shaxslarning qabih hatti-harakatlarini fosh qildi. U xonni davr fojiasining bosh aybdori sifatida qaraydi. Subxonqulixon saroyida avjiga chiqqan fisqu-fasod, poraxo'rlik va razilliklarning haqqoniy manzarasini chizib, butun zulm o'chog'iga – saroy ahllariga, yurtni xarob qilgan "boyqushlar"ga, elni talagan "bo'ri"larga qarshi isyon ko'tardi, xalq manfaatini himoya qildi.

XVII asr sharoitida Buxoro xonligida turkiy, xususan o'zbek urug'lari o'rtasida o'zaro nizolar kuchaygan bo'lib, shoir ularning bir-biridan uzoqlashib, mamlakatning mayda bo'laklarga bo'linib ketishini ularning o'zlari uchun ham g'oyat xatarli deb bilar, xonlikning boshqaruv vakillarini muttaham, bebosh deb atashi esa achchiq haqiqatga asoslangan edi.

Boborahim Mashrab (1653-1711) ijodi so'fiylik taraqqiyotida katta iz qoldirgan. U ham boshqa so'fiylar singari o'zining xudoga – yaratganga bo'lgan muhabbatini, ishqini she'rlarida bayon etadi. Buni u ko'pincha majoziy shaklda – parvonaning shamga intilishi misolida izhor qiladi. Uning ijodi hayotiyligi va xalqchilligi, insonning shodligi va dard-alamlarini yorqin va real tasvirlashi bilan ajralib turadi.

Mashrab ijodidagi ijtimoiy mazmun va kuchli tanqidiy yo'nalish uning ilg'or dunyoqarashi, xalqchil falsafasi, o'z davridagi salbiy voqea-hodisalarga aniq tanqidiy munosabatidan shakllangan. Qalandarlik tariqatiga kirgan Mashrab shaharma-shahar, qishloqma-qishloq ko'chib yurardi. Uning biror shahar yoki qishloqqa kelishi izsiz o'tmasdi: uni oddiy xalq samimiyat va xursandlik bilan, hokim, amaldor va riyokor ruhoniylar esa hadiksirab, dushmanlik kzzi bilan qarshi olardilar. CHuqur ijtimoiylik va kuchli tanqidiy munosabat Mashrab ijodida ustvorlik qilgan hamda u yaratgan ko'pdan-ko'p asarlarning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Mashrab ijodida so'fiy adabiyotda asrlar davomida qaror topgan ramz-timsollar, tushuncha-iboralar – ishq, muhabbat, yor, jonona, gul, may, boda, visol va boshqalar vositasida amalga oshirilgan.

Mashrab ijodi mehnatkash xalqning, kambag'allarning nochor ahvoriga achinish, boy-amaldorlarning firibgarligi, poraxo'rlik, makr-hiylalar uchun darg'azablikning in'ikosidir.

XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan zabardast shoiralardan biri **Jahon otin – Uvaysiy** (1771-1845) hisoblanadi. Uning g'azallarida lirik qahramon kamtar, odobli, nazokatli, oqila, fozila, vafodor, iffatli va jozibali jonona sifatida namoyon bo'ladi. Uning she'rlarida o'sha davr ayollarining orzu-umidlari aks etgan. Barcha shod bo'lib, uning hissasi qayg'udan iborat bo'lsa ham, zamon kulfatidan ko'ngli dog' bo'lsa ham, yori jafo va sitam qilsa ham u yorga hamon sodiq qoladi. Shu bilan birga shoiraning ko'p she'rlarida mung, qayg'u ohanglari yangraydi, u o'zini tanho his qiladi.

XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon adabiy muhitida yashab, ijod qilgan, asli ismi **Mohlar oyim** bo'lgan **Nodira** (1792-1842) o'z lirik she'rlarida sevgi, vafo va sadoqatni ulug'ladi. Uning hayoti, faoliyatining ba'zi jihatlarini insonparvarlik va shafqatsizlik masalalari bilan bog'liq holda bahsmunozara darslarimizdan birida ko'rib chiqamiz. Hozir esa uning ijodidagi umumiy tomonlarni ko'rsatish bilan chegaralanamiz.

Nodira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo xislatlarini ma'rifat, ya'ni Olloh vasliga etishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharafli xislatlarni o'z ruhiga mukammal singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko'nglida asramog'ini obrazli tarzda ifodalaydi. Odamzot shu sifatlardan mahrum bo'lar ekan, u riyo yo'lga kirib ketadi.

Nodira o'z ijodida inson, tabiat va jamiyatni, insonning ro'hiy dunyosini juda go'zal va jonli misralarda ifodalab beradi. U o'z she'rlarida islom ruhi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug'ini qidiradi, o'zi bu yo'lda amaliy ishlarni bajaradi: "Ulamoyi din rivojlariga imdod etkurdim, to she'ri sharif rivoj topti, zuhd ahliga ixlos va aqida tan zohir qildim, to din va millat kamol topti. Fazlu donish qabilasiga shafqat va marhamatdin inoyatlar ko'rguzdimkim, e'tibor darajasig'a taraqqiy qilidilar. Soyil va gadolarni talablariga etkurib, karam va ehson eshikidin noumid yubormadim. Mushafi sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko'p yozdurdim. Barchasini xolisanlilloh vaqf qildim".

XIX asr Xorazm ilmiy va adabiy muhitining yirik vakillaridan biri **Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiydir** (1809-1874). Uning ijldida XIX asr Xiva xonligidagi ijtimoiy hayot o'z ifodasini topgan. Bu davrga kelib Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingandi. Xalq ikki yoqlama zulm ostida qolgandi. Ogahiy bundan qattiq qayg'uradi, xalqning hur, ozod yashashini orzu qiladi.

Ogahiyning ilm-fan, maktabning jamiyatda tutgan o'rni, aqliy va xulqiy tarbiya haqidagi qarashlari diqqatga sazovor. Uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni faqat ta'lim va tarbiya natijasidagina olishi mumkin. Shuning uchun u bola tarbiyasi bilan uning kichikligidan shug'ullanish lozimligini uqtiradi. Bola

tarbiyasi juda nozik ish ekanligini, bunda xatoga yo'l qo'yib bo'lmashligini, bola yoshlikda juda ta'sirchan, tez qabul qiluvchi bo'lishini aytib, u yaxshi fazilatni ham, yomon odatni ham farqiga bormasdan qabul qilaveradi, deb yozadi. Bola yaramas odatlarni kasb qilmasligi, yaxshi oila va jamoada tarbiyalanishi, badxulq odamlardan o'zini tortishi, ular bilan hamsuhbat bo'lmashligi darkor. Bola xushmuomala bo'lishi, salomlashish, ota-onani hurmat qilish, yolg'on gapirishga o'rganmasdan, doimo to'g'ri va rost gapirishni, shirinsuxanlikni puxta o'rganishi lozim. Bola boshqalar oldida o'zini kamtar tutishi, sergap va mahmadona bo'lmashligi, gapirishdan oldin puxta o'ylab olishi lozim.

Ogahiy insonning hayot go'zalliklarini, muhabbat zavq-shavqini to'lib-toshib tarannum etdi. U o'z asarlariga ijtimoiy fikrlarni mahorat bilan singdirib yuboradi. Rgahiyning yuksak insonparvarlik bilan sug'orilgan g'oyalari Xorazm xoni va shoir Feruzning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sir qiladi. Shoir xon Feruzga bag'ishlangan "Qasidai nasihat" asarida saltanatni boshqarish to'g'risida yo'l-yo'riqlar berib, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo'llarini ko'rsatib beradi. Shoiming fikricha, har qanday davlat boshlig'i hokimiyatni mustahkamlash uchun ijobiy fazilatlariga ega bo'lishi, podshohi himmatli, shijoatli, adolatli, g'ayratli, saxovatli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli, kambag'alparvar bo'lishi zarur. Ogahiy hukmdor shu fazilatlariga ega bo'lsa hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Shoiming fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog'i, aysh-ishratdan, fitna va g'iybatdan, g'aflatdan, yalqovlikdan, zulm-razolatdan, molparastlikdan yiriq bo'lishi lozim. Xiva xoni Muhammad Rahimxon – Feruz uning davlatni boshqarish to'g'risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib arxonalarga qo'ydirgan, ko' ezgu ishlarni amalga oshirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida mamlakatimiz ijtimoiy fikri tarixida alohida o'rin egallagan taniqli shaxslardan biri **Ahmad Donishdir** (1827-1897). Uning ijtimoiy qarashlari Buxoro amirligi sharoitida mavjud bo'lgan siyosiy tartiblar va harakatlarni, davlat boshqaruvi va tuzilishini, amirlikning ichki va tashqi siyosatini ochib berishga xizmat qiladi.

Ahmad Donish o'zining "Navodir ul-vaqoe" va boshqa asarlarida ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'layotgan tartib va munosabatlarni tanqid ostiga oladi. Buxoro xonligini Evropa davlatlari, jumladan, Rossiya bilan taqqoslaydi va uning iqtisodiy, madaniy sohalarida orqada ekanligidan kuyinadi. Uni qoloqlikdan chiqarish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzumda islohotlarni amalga oshirish zarurligini uqtiradi. Bu albatta, o'sha davr uchun g'oyat dadil fikrlar edi. U o'zi tuzgan loyihalarda davlat bir guruh kishilarga emas, balki butun xalq manfaatiga xizmat qilishi kerak, degan g'oyani asoslashga harakat qiladi.

Donishning fikriga ko'ra hukmdor muhim davlat ishlarini o'z atrofidagi davlat arboblari bilan maslahatlashib hal qilishi, maslahatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo'lishi, hukmdor ularning maslahatlariga quloq solishi va ular bilan hisoblashishi kerak, chunki ko'pchilikning aqli bir kishining aqlidan ortiqroqdir. Hukmdor bilimdon, ma'rifatli, odil va o'z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog'i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avval o'zini

fuqaro o'rnida, ularni esa o'z o'rnida tasavvur qilmog'i lozim. Bu adolatni ta'minlashga imkon yaratadi.

Tabiatan bilimga qiziquvchan bo'lgan Donish Sharq mutafakkirlari ta'limotini o'rganish bilan bir qatorda G'arbda tarqalgan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar bilan ham qiziqadi. Uning bu boradagi intilishlari ko'p jihatdan Buxoro amirining Rossiyadagi elchisi lavozimida ko'rsatgan faoliyati bilan ham bog'liq. Ammo uning bu yo'nalishdagi fikrlari tanqidga uchraydi va Donish saroydan chetlashtiriladi.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850-1903) o'z ijodida jamiyatda ma'rifat, ijtimoiy adolat va xalq farovonligini ta'minlovchi tartiblar o'rnatish zarurligini aks ettirdi va o'z zamonasiga ana shu jihatdan baho berdi.

Muqimiy zulm va jaholat ostida ezilgan mehnatkash dehqonlar va shahar kambag'allarining og'ir ahvolini, boylar, ruhoniylar va amaldorlarning o'zboshimchaligini va jabr-zulmni yorqin ifodalab berdi. U o'z mehnati bilan moddiy boyliklarni yaratayotgan oddiy xalq ochlik va qashshoqlikda yashayotgan bir paytda, boylarning ayshu-ishratda kun kechirayotgani bilan hech kelisha olmaydi.

Muqimiy zolimlarni fosh qilish bilan cheklanmadi, u jamiyatda hokimiyat "g'irchillama kovush va silliq salla"liklar qo'lida ekanligini tushunib etdi va xalqni mavjud tuzum adolatsiz ekanligini chuqurroq anglashga chaqirdi, xalqning bu tuzumga nisbatan g'azab va nafratini oshirdi. U o'z davridagi xonlik tuzumida mavjud bo'lgan turli tabaqalar, ijtimoiy kuchlar mavjudligini va ular orasida kurash borligini ko'ra oldi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1858-1909) she'riyati o'z zamonidan nolish, zorlanish bilan birga, erkinlikka va yorug' hayotga intilishni aks ettiradi. Masalan, uning "Sayding qo'ya ber sayyod" she'rida alam iztiroblari umumlashtirilgan, qullikka, zulmga norozilik tuyg'ulari bayon etilgan. Bu she'r ov va ovchi haqida yozilgan bo'lsa ham, jamiyat hayoti va jamiyatdagi erksizlik, qullik hodisalarini tasvirlaydi. Shoir kiyikning holini o'z holiga o'xshatadi. Bu bilan she'rda tasvirlangan voqea ijtimoiy hayotga, kishilar o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli ekanini ko'rsatadi.

Furqat bu she'rning har bandida bandga tushib qolgan kiyikning ahvolini tasvirlar ekan, voqelikning, hayotning biror tomonini chizib beradi. Bu she'rda uning ham kuchli, ham kuchsiz tarafi gavdalanadi. Shoirning kuchli tomoni – uning erkparvar, ozodlikni sevuvchi sifatida, qullikka, jabr-zulmga, haqsizlikka qarshi chaqirig'idir. Uning kuchsiz tomoni esa ozodlikni zolimdan so'rab olmoqchi bo'lishida, ya'ni ovchini kiyikka rahm qilishga chaqirishida ko'rinadi.

Shoir afsonaviy jannat bog'lari xayoli bilan emas, odamzot o'zi yashab turgan tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lib yashashni afzal ko'radi. Shunda ham yakka emas, balki do'stlar bilan birga tabiatdan bahramand bo'lishga chaqiradi. U hayotda shodlik bilan kun kechirish orzusi – insoniy, go'zal orzu ekanini aytadi. U do'stlar bilan shodlik va suhbat qilib yashash orzusi bo'lmagan kishilarni odam hisoblamaydi. Uning ushbu fikrlari ayni holda ba'zi tasavvufiy tariqatlardagi tarki dunyochilik qarashlariga qarshi chiqish hamdir.

Furqat faqat ilm, ixtironigina emas, ayni zamonda uning ijodkori bo'lmish insonni ham samimiy hurmat bilan sevgan va insoniy muhabbatni, erkinlikni ulug'lagan. Uning she'rlarida olijanob fikrlar, g'oyalar, go'zal hissiyot bilan yashovchi, jamiyat taraqqiyotini o'ylovchi, ilgariga, yangilikka intiluvchi, xalq uchun qayg'uruvchi inson gavdalanadi. Uning tushunishicha, aql, idrok insonning eng yaxshi fazilatidir.

Furqat o'z ijodida, bir tomondan, o'z davridagi jamiyat tuzumining hokim sinflar, zulmkorlar jabrini ayovsiz tanqid qiladi, jaholat, nodonlik ichida yashagan xalqning ahvoriga achinadi, uni bilim, ma'rifatga yaaqiradi, shu yo'l bilan qoloqlikni, zulmni tugatish yo'lini izlaydi. SHu ma'noda u optimist ma'rifatparvar, demokrat shoir sifatida maydongan chiqadi. Boshqa tomondan esa, o'z orzulari, umid-tilaklari amalga oshmaganidan kuyunadi, darbadarlikda, g'urbatda yurib umidsizlik kayfiyatiga tushadi, zamondan shikoyat qiladi. Bular Furqat ijodida XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi hayot, mehnatkash xalqning kayfiyati, ichki kechinmalari aks etganini ko'rsatadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan taniqli adib, shoir va olimlardan tashqari Gulxaniy, Anbar otin (1870-1915), Nozimaxonim (1870-1925), Sattorxon Abdug'afforov (1843-1902), Zavqiy (1853-1921), Avaz O'tar (1884-1919) va boshqalar o'zlarining asarlarida shaxs va jamiyat haqida jiddiy va ilg'or fikrlarni ilgari surdilar. Ularning har biri hayot sharoitlari va faoliyati, ayrim masalalarga turlicha yondoshishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Lekin ularning barchasining diqqat markazida mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloqligi sabablarini aniqlash, xalqni iqtisodiy va ma'naviy zulmdan ma'rifat yo'li bilan ozod etish masalalari turar edi.

6. *Jadidchilik harakati namoyondalarining ijtimoiy taraqqiyot haqidagi fikrlari*

Podsho Rossiyasi o'z mustamlakalari bo'lgan o'lkalardagi milliy masalalarning ko'tarilishiga bor kuchlari bilan qarshilik ko'rsatar, bu erlarda minglab yillar mobaynida rivojlangan milliy davlatchilikni yo'qqa chiqarishga harakat qilar, ilg'or fikrlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilar va xalqni tubanlikda, bilimsizlikda tutib turishdan manfaatdor edi. Shu maqsadlarda Turkiston Rossiyaning xom ashyo bazasiga aylanib bordi. Og'ir, asosan qo'l kuchiga asoslangan qishlaq xo'jalik mehnati mustamlaka o'lka xalqlarini asoratga sola boshladi. Shuningdek, xalqni mustamlakaga, hech bir huquqsiz qulga aylantirish siyosati siyosiy zug'umlar, yarim harbiy boshqaruv, mukammal politsiyachilik nazorati va qattiq jazolar qo'llash mexanizmlari bilan mustahkamlandi.

Ana shunday ayanchli ahvolga qaramay Turkiston xalqlari tarix sahnasidan yo'qolib ketmadi, balki o'zligiga qaytish uchun qaytadan uyg'ona boshladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan o'z milliy ozodligi, mustaqilligi uchun kurashga astoydil bel bog'ladi. Turkistonda milliy ozodlik uchun kurashga otlangan dastlabki ijtimoiy-siyosiy oqim – jadidlar harakati edi.

Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda paydo bo'lgan, uning asoschilaridan biri Ismoilbek Gaspirali (Gasprinskiy) edi. Bu harakat mustamlakachilarga qarshi ochiqdan-ochiq kurashdan voz kechar, bilvosita kurash

yo'lini tanlagan edilar. Mustamlakachilik zulmi natijasida xalq o'zligini yo'qota boshlagan bo'lib, u milliy dunyoqarashni shakllantira olmas edi. Shuning uchun ham dastlabki ishni xalqni ma'rifatli qilishdan. uni uyg'otishdan boshlash zarur edi. Ma'rifatli va o'zligini anglagan xalqda milliy ong tez rivojlanib, u o'z-o'zidan mustabid zulmga qarshi chiqadi va o'zini milliy zulmdan ozod qiladi. Shuning uchun jadidlar o'zlarining ilk harakatlarini ma'rifatparvarlikdan boshlaganlar.

Bu oqim o'z harakat shaklini madaniy-ma'rifiy tarzda ko'rsatishga intilgan bo'lsa-da, uning mohiyati va zamirida siyosiy kurash, o'z xalqini mustamlakachilar zulmidan ozod qilish, mustaqil davlat qurish niyati bor edi. Shunga muvofiq jadidizm o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tgan: ma'rifatparvarlik bosqichi va siyosiy harakatlar bosqichi.

Jadidlar mafkurasi ham o'ziga xos edi. Ular o'sha paytlarda butun dunyoga keng tarqalishga ulgurgan Evropa madaniyati va rivojlanish g'oyalarini rad qilar, shu bilan birga yangi paydo bo'lgan sotsializm va sotsial-demokratik qarashlarga qo'shilmaz, bu oqimlar Turkistonning kelajagi uchun xavfli ekanligini isbotlashga harakat qilar edi. Ular o'z mafkuralari asosiy mezonlarini ijtimoiy adolat, milliy meros, turkchilik va milliy mustaqillik kabi qadriyatlar asosida shakllantirdilar. SHu bilan birga ular ma'naviy-madaniy va ma'rifiy hayotni yangilashga, xalq turmush tarziga fan va texnika yutuqlarini olib kirishga, diniy jaholat, bid'at va mutaassiblikka, shuningdek, qoloqlikka barham berishga intilar edilar.

XX asrning dastlabki 10 – 15 yilida Turkistonda yangi "usuli jadid" yoki "usuli savtiya" maktablari ochildi, milliy matbuot va teatrlar tashkil etildi. Turli uyushmalar, harakatlar va xayriya jamiyatlari shakllandi. Jadidlarning xalqning milliy o'yg'onishi, mustaqillik uchun kurash g'oyalarining shakllanishida, shuningdek, uning madaniy-ma'rifiy qarashlarini boyitishda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev kabi taniqli kishilarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1879-1919) 1913 yildayoq Turkiston xalqlari orasida ilm-ma'rifatni rivojlantirish ularning milliy-davlat manfaatlarini himoya qilish uchun zarur, degan fikrga keladi. Xalqni zulmdan ozod qilish uchun ommaviy harakat vujudga keltirish kerak, unga birlashgan kishilar umumiy maqsad yo'lida o'zlarining milliy farqlariga e'tibor bermasliklari lozim, degan g'oyani ilgari suradi. Ana shundagina Turkiston xalqlari o'z vakillarini Davlat Dumasiga saylash orqali qonun doirasida xalq manfaatlarini himoya qila oladi. Shu ma'noda, u Turkiston xalqlari mavjud ichki ziddiyat va qarama-qarshiliklarga barham berishlari kerak, degan fikrni bildiradi. Bu fikr o'z ahamiyati jihatidan hozirgi paytda ham ahamiyatga molikdir. "Agar butun Turkiston birlashsa qon to'kilmaydi, er va mulk ham bo'linmaydi, ana shunda kerakli vaziyat vujudga keladi. Mavjud ziddiyatlar haqida qanchalik gapirmaylik, shunday qilsak – birlashamiz, ziddiyatlar kuchaygan sari – baxtsizlik sari boramiz", deb yozadi Behbudiy.

Fevral burjua inqilobi jadidchilarni Rossiya tarkibida avtonomiyaga erishish mumkin degan fikrga olib keldi. Turkistonda milliy intilishlar in'ikosi sifatida "SHuroi islomiya", "Ittifoq" kabi partiyalar vujudga keldi. Tez orada jadidlar

Muvaqqat hukumat va uning Turkistondagi hukumatining ilgorigidek mustamlakachilik siyosat olib borishiga ishonch hosil qildilar. Endi ular mustaqil Ta'xis majlisi chaqirish va Rossiya tarkibida mustaqil Turkiston avtonomiyasi tuzish uchun harakat boshladilar. Shunisi diqqatga sazovorki, jadidlarning ushbu davrda tuzgan hujjatlarida bo'lajan avtonomiya respublika bo'lishi, uning qonunlar qabul qilish, Turkistonda boshqaruvni amalga oshirish, sud hokimiyati kabi masalalarda mustaqilligi aytilgan edi.

Oktyabr inqilobi ushbu niyatlarni amalga oshirishga imkon bermadi. Shunga qaramay, jadidlar bolsheviklarning milliy o'z-o'zini belgilash haqidagi Deklaratsiyasi bergan huquqlaridan foydalanib Qo'qonda Turkiston muxtoriyati nomi ostida mustaqil respublika tuzdilar. Jadidchilik hodisasining o'ziga xosligi shundaki, so'nggi uch yuz yil ichida ilk bor mustaqillik g'oyasiga asoslanuvchi milliy davlat tuzishga harakat qilindi.

Jadidlar harakatining ilk bosqichida ular Turkistondagi barcha xalqlarni jipslashtirishga intilgan edilar. 1917-1919 yillardan boshlab esa Turkiston muxtoriyati orqali milliy manfaatlarni himoya qilishga e'tibor qaratdilar. M.Behbudiy hech kim va hech qanday hokimiyat xalqqa ixtiyoriy ravishda ozodlik bermaydi, degan fikrni asoslab berdi. "Tarixdan ma'lumki, - deydi u, - huquqlar tuhfa etilmaydi, balki qo'lga kiritiladi. Har qanday millat, xalq o'z kuchlarini birlashtirish va o'z intilishlari orqaligina o'z huquqlari, dini va siyosatini himoya qilishi mumkin. Biz, musulmonlar, jumladan Turkiston musulmonlari, hech kim bizning dinimiz va millatimizga tajovuz qilmasligini istaymiz, o'z navbatida biz ham hech kimga tajovuz qilish niyatimiz yo'qligini bildiramiz".

O'lkamizdagi qoloqlik sabablaridan biri xalqning ilm-ma'rifatdan uzoqligi va dunyoviy bilimlarning keng tarqalmaganidir, degan fikr jadidlar dunyoqarashida katta o'rin egallaydi. Jadidlar ilm-ma'rifatning ahamiyati kattaligini doimo ta'kidlaganlar. Behbudiy ozodlik kurash va birlashish orqali qo'lga kiritiladi. Buning uchun Turkistondagi barcha xalqlar o'zaro ziddiyatlarni unutib, birlashishlari kerak, degan fikrni qat'iy aytadi. Bu fikr ilgorigidek ma'rifiy yo'nalishda emas, endilikda siyosiy ma'no kasb etgan edi.

Jadidlar Turkistonning kelajagi huquqiy bilimlarning o'rniga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Behbudiy "Qonuni Ovrupo", "Haq olinur, berilmas!", "Loyiha", "Qozi va biylar haqida loyiha" maqolalarida o'lkamizda huquqiy sohadagi kamchiliklar ko'pligi haqida fikr bildiradi. Jumladan o'lka ma'muriyati huquqiy masalalarni ellikboshi va qozilar qo'lga berib qo'ydi, ammo ular poraxo'rdikni avj oldirib yubordilar. Chunki shariatga asoslangan ishlarni hal qilishda hamma ham uning ikir-chikirlarini chuqur bilavermaydi. Bu esa poraxo'rlikka turtki bermoqda. Bu sohadagi holatni chuqur tahlil qilgan Behbudiy qozilikni bekor qilish va ularning o'rniga Turkistonning har bir viloyatida davlat sudlarini tashkil etish taklifini o'rtaga tashlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlarning ko'pchiligi, xususan M.Behbudiy xalqda mavjud salbiy xarakterdagi odat va taomillar ham hayotni yaxshilashga xalaqit berishi mumkin deb hisoblaydi. Masalan, to'y-marakalarning ortiqcha dabdababozlik bilan o'tkazilishi, dafn marosimlari bilan bog'liq ortiqcha odatlarning borligi oilalarning moddiy holatiga katta ta'sir qilmoqda. Bunday

odatlarni imkon darajada qisqartirish kerak. Bu ham oxir-oqibat ilm-ma'rifatga, kishilarning ma'naviy salohiyatiga borib taqaladi, deydi Behbudiy. Shu o'rinda mazkur fikrning oradan yuz yil o'tsa-da hamon o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini eslatib o'tish joiz.

Jadidchilik mamlakatimizda bir necha shaklda amal qilgan: Buxoroda "yosh buxoroliklar", Xorazmda "yosh xivaliklar" va yuqorida eslatib o'tilgan Turkiston jadidchiligi ko'rinishida. Ularning faoliyatlarini esa siz tarix fani bo'yicha mavzulardan yaxshi bilasiz.

1914-1915 yillarda buxoro jadidlari ikki yo'nalishga ajralib ketdilar. Yosh buxoroliklar yo'nalishi katta yoshlilar yo'nalishidan farqli ravishda ochiq norozilik chiqishlari uyushtirish yo'lini tutdilar. S.Ayniyning fikricha ayni shu narsa harakatning halokatini belgilab bergan. U F.Xo'jaev va Fitratni uzoqni ko'rolmaslik, vaziyatni tahlil etolmaslik va haddan ortiq qiziqqonlikka berilishga moyillikda ayblagan edi. Tarixiy taraqqiyot katta yoshlilar yo'nalishi vakillari – Usmon Xo'jaev, Muhiddin Rafoat, Sadridin Ayniy, Musa Saidjonov kabilarning vaziyatni to'g'ribaholashganini ko'rsatdi. Jadidlarda dinga moyilligi katta bo'lgan xalq ommasiga ta'sir qilish kuchi etishmasdi. Shuning uchun katta yoshli jadidlar yo'nalishi dindorlarning xalqni ko'tara olishi mumkinligidan kelib chiqib, ehtiyotkorlik bilan, qon to'kishsiz, asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich islohotlar o'tkazish tarafdordori edilar.

"Yosh buxoroliklar" yo'nalishi (F.Xo'jaev, Fitrat) sovetlarning amirni ag'darish va inqilobni amalga oshirishida ularga chin dildan yordam berishiga ishonishardi. F.Xo'jaev ancha keyinroq RKP (b)ning o'z maqsadlari uchungina yosh buxoroliklardan vosita sifatida foydalanganini tushundi.

Yosh buxoroliklar partiyasi o'zining islohotlar dasturiga ega edi. Uning loyihasi Fitrat tomonidan ishlab chiqilgandi. Siyosiy vaziyatdan kelib chiqib ular o'z oldiga global vazifalar yoki boshqarishning respublika shaklini kuch bilan joriy etish vazifasini qo'yishmagandi. F.Xo'jaev buni minimum dastur deb ataydi, unga muvofiq "boshqarishning monarxiya shakli o'zgartirilmaydi, konstitutsiya masalasi oldindan echilmaydi,... ikki maqsad qo'yilgan: Buxoroda huquqiy davlat tuzish, o'rta asr sharq despotizmiga asoslangan monarxiyani evropacha monarxiya bilan almashtirish, xalqning madaniy va maishiy hayotini yaxshilash asosida Buxoroning iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatini mustahkamlash".Yosh buxoroliklar fikricha amirlik boshqarish tizimi asosan saqlanib qolishi, faqat mahalliy boshqarish darajasida oqsoqollarni xalq saylashiga imkon berilishi kerak edi. Sudlov tizimi shariat qonunlariga asoslanishi va ular ruhoniylar qo'lida qolishi ko'zda tutilgan edi.

Iqtisodiy va madaniy sohalarda esa yosh buxoroliklar ancha ilg'or fikrlarni aytishgan. Masalan, ular davlat va odamlarga tegishli er soliqlarini kamaytirishni, aksincha, amir tomonidan in'om etilgan xususiy mulk larga soliqlarni ko'paytirishni taklif qilishgan. Qishloq xo'jalik banki ochish va dehqonlarga texnika sotib olish uchun kredit tizimini joriy etish, ularni texnikani boshqarishga o'rgatish ko'zda tutilgan. Ammo mazkur dasturda amirlikdagi mavjud iqtisodiy, ma'naviy, moliyaviy, armiya tizimiga unchalik ta'sir qilmaslik g'oyasi ustun turadi.

Yosh buxoroliklar Turkiston Markaziy byurosi tomonidan ishlab chiqilgan ikkinchi dastur esa qanday qilib bo'lsa ham amirlikni ag'darish vazifasini qo'yadi. Unga muvofiq xalq respublikasini o'rnatish va hukumat tarkibiga aholining tarkibiga mos ravishda vakillar kiritish, umumiy saylov huquqini joriy etish ko'zda tutilgan. Huquqiy tizim qayta tashkil etilishi lozim, jinoiy sudlar ikki bosqichli bo'lishi kerak: birinchi instatsiya sudlari xalq tomonidan saylanadi, ikkinchi instansiya esa tayinlanishi va birinchi instansiya sudlari qarorlarini nazorat qilishi kerak. Mazkur dasturda 8 soatlik ish vaqtini joriy etish, kasaba tashkilotlarini tuzish, kreditlar va matlubotni tashkil etish masalalari ko'zda tutilgan edi. Bundan tashqari davlat tomonidan ishchilar huquqini himoya qilish, mehnatni muhofaza qilish, 18 yoshga kirmaganlar uchun yollanma mehnatni taqiqlash, mehnatga layoqatsizlar uchun straxovanie masalalari aniq ifoda etilgan edi.

Ma'lumki yosh buxoroliklar tarkibidagi ikki oqim – kommunistik va so'l buxoroliklar guruhi o'zaro birlasha olmadilar. Natijada RKP (b) Turkbyurosi MK qarori bilan mazkur partiya asosida Rossiya kommunistik partiyasining bir qismi sifatida Buxoro kommunistik partiyasi tashkil etish qarori qabul qilindi. Qolgan voqealar esa bizga tarixdan yaxshi ma'lum.

Takrorlash uchun savollar:

1. Zardushtiylik, moniylik va mazdakiylikning umumiy jihatlari nimalardan iborat?
2. "Avesto"dagi uch ezgulikni tushuntirib bering.
3. Abu Nasr Forobiyning adolat haqidagi fikrlarini izohlab bering.
4. Ibn Sino jamiyat tuzilishidagi ierarxialikni qanday tushuntiradi?
5. Tasavvuf ta'limoti vakillarining inson hayoti va o'zaro munosabatlardagi axloqiy xislatlar haqida qanday fikrlari mavjud? Ularni biror-bir mutafakkir misolida tushuntirib bering.
6. A.Temur o'z "Tuzuklar"ida davlat va jamiyat haqida qanday fikrlarni ilgari suradi?
7. Navoiy ijodida insonparvarlik qanday namoyon bo'ladi?
8. XVII-XIX asrlarda yurtimiz hududida yashagan mashhur adiblardan kimlarni bilasiz?
9. Ma'rifatparvarlarning asosiy fikrlari nimadan iborat edi?
10. Jadidlar o'zbek xalqining XIX asr oxirida qoloqlik girdobiga tushib qolishining sabablarini qanday izohlashgan?

5-mavzu. Evropada inson va jamiyatning mohiyati to'g'risidagi g'oyalar

1. *Xristian nazariyotchilarining jamiyat va inson haqidagi g'oyalari*

Xristian dini aqidalarini xalq ommasiga singdirish, ularni ana shu qarashlarning haqiqat ekanligiga ishontirish, rasmiy davlat boshqaruvi tizimini ham unga moslashtirish, hattoki hokimiyatni unga bo'ysundirish ko'p jihatdan xristian nazariyotchilarining ijodi va faoliyatiga bog'liq bo'lgan. Ana shunday kishilardan biri **Avreliy Avgustindir** (354-430).

U shimoliy Afrikadagi Numidiya davlatining Tagast shahrida tug'ilgan, manixeychilik, platonizm orqali xristianlikka e'tiqod qo'yadi va 387 yili

xristianlikni qabul qiladi. Shimoliy Afrikadagi Gippo shahri episkopi darajasiga ko'tariladi. Uning asosiy asarlari "Tavba", "Uchlik haqida", "Iloh shahri haqida" ("O grade bojem") va boshqalar.

Avgustin dunyoqarashi *teotsentristik* xarakterdadir. Xudoning birlamchiligi tamoyilidan u yaratgan ruhning, jonning tanadan, iroda va hissiyotning aqlidan ustunligi qoidalari kelib chiqadi. Xudo oliy mohiyatdir. Faqat uning mavjudligigina hech narsaga bog'liq emas, boshqa hamma narsalar uning irodasi tufayligina mavjuddir. Xudo barcha narsalar mavjudligining, ular o'zgarishlarining sababidir; u dunyoni nafaqat yaratdi, balki uni doimo saqlab turadi, uni yaratishda davom etadi. Avgustin dunyo bir martagina yaratilgan, keyin uning o'zi rivojlanadi, degan fikrni inkor qiladi.

Jonni Avgustin Platonning ideyasi ruhida tushunadi va u fikrlash, iroda, xotira kabi funksiyalarni bajaradi hamda hech qanday biologik funksiyalarga ega emas, deb hisoblaydi. Jon tanadan mukammalligi bilan ham farqlanadi va bu mukammallik xudodandir, demak *jon, ruh xudoga yaqin va o'lmasdir*.

Biz tanadan ko'ra jonni, ruhni yaxshiroq bilamiz, xudoni ham tana emas, ruh orqali bilamiz, tana bilishga xalaqit beradi. Ruhning tanadan ustunligi sababli inson faqat u haqdagina g'amxo'rlik qilishi, o'zidagi hissiy zavqlanishni bostirishi kerak. Ruhiy hayotda asosiy narsa aql, tafakkur emas, *irodadir*. Insonning mohiyatini passiv hisoblanmish tafakkur emas, faol bo'lmish iroda belgilab beradi. Avgustin bu tamoyilni psixologiyagagina emas teologiyaga ham joriy qiladi: irodaning faolligi ilohiy mohiyatga ham tegishlidir. Shu ma'noda uning falsafasi intellektualizm va ratsionalizmdan *volyuntarizmga* boradi.

Avgustin dunyoqarashida hamma narsa yagona, mukammal, absolyut borliq bo'lgan xudoga taqaladi, uningsiz hech narsani amalga oshirib ham, bilib ham bo'lmaydi, moddiy dunyo esa xudoning mahsuli, va uning aks etishidir. Tabiatda hech bir narsa g'ayritabiyy kuchlar ishtirokisiz sodir bo'lmaydi. Xudo yagona borliq va haqiqat sifatida metafizikaning mazmunidir; xudo bilishning manbai sifatida bilish nazariyasining predmetidir; xudo yagona bo'lmish yaxshilik va go'zallik sifatida etikaning predmeti hisoblanadi; xudo barcha narsaga qodirlik va mehr-saxovatga to'ralik sifatida dinning asosiy masalasi sanaladi.

Avgustin fikricha **inson hayotining maqsadi va mazmuni baxtga erishishdir**. Baxtga esa yagonalik bo'lmish xudoda erishish mumkin. Shu ma'noda insoniy baxtga erishish eng avvalo **xudoni anglash, bilishni va jonni sinab ko'rishni** taqazo qiladi. Xudo haqidagi haqiqat aql bilan emas, *ishonch* bilan anglanadi. Ishonch esa aqlga emas, ko'proq *irodaga* taalluqlidir. Ishonch va tafakkur bir-birini to'ldirishi kerak. "Ishonish uchun tafakkur qil, va aksincha, tafakkur qilish uchun ishon",- deydi Avgustin.

Avgustin etikasiga ko'ra yomonlik insondan kelib chiqadi, u ushbu mavjud dunyoga oid xarakterdadir, yaxshilik esa xudodan vujudga keladi, u xudoning mehr-saxovatidir. Inson yaxshilik uchun emas, yomonlik uchun mas'uldir.

Avgustin ijtimoiy-siyosiy ta'limoti tengsizlik g'oyasi asosiga qurilgan, bu holat ijtimoiy hayotning abadiy va o'zgarmas tamoyilidir. Tengsizlik xudo tomonidan yaratilgan ijtimoiy organizm ierarxiyasi (quyining yuqoriga bo'ysunishi) tuzilishining bir tomonidir. Erdagi ierarxiya – xudo "monarx"

hisoblanmish osmoniy ierarxiyaning aksidir. Ammo u kishilarning eretik ta'limotlarga murojaat qilishlarining oldini olish uchun barcha kishilar bitta otadan vujudga kelgani sababli xudo oldida tengdirlar, degan g'oyani ilgari suradi.

Insoniyat barcha davrlarda turli shakllardagi ijtimoiy tartiblarga asoslangan jamiyatlarda yashashsada, ular Avgustin fikricha doimo ikki darajaga bo'linadi: *insonga monand yashaydiganlar va xudoga monand yashaydiganlar*. Er shahri odamlari (insonga monandlar) dastlabki insonlar Odam Ato va Momo Havoning gunohlari tufayli, ulardan vujudga kelganliklari sababli doimo gunohkordirlar, shuning uchun ular munosabatlarida juda ko'p kamchiliklar (tengsizlik, ekspluatatsiya, axloqsizlik, urushlar, qiyinchiliklar va h.k.) mavjud. Demak, boshlang'ich gunohning paydo bo'lishi sifatida Yomonlik uchun xudo emas, odamlar javobgar. Osmoniy shahar odamlari esa (xudoga monandlar) ruhoniylar va xudo yo'lga o'z umrini tikkan cherkov xodimlari esa xudo chizgan yo'ldan chiqmay yashaydilar, ular munosabatlarida tengsizlik yo'q, ularning maqsadi o'llohga etishishdir.

Avgustin fikricha inson zaif mavjudot, u o'z kuchi bilan gunohdan qochishga ham, erda ancha-muncha etuk bo'lgan jamiyat qurishga ham qodir emas. Lekin baribir bir payt kelib yaxshilik va adolat g'alaba qozonadi va avvaldan belgilangan abadiy tartibga ko'ra ilohiyotga mos davrga o'tiladi.

Uning fikricha insoniyat o'z taraqqiyotida olti bosqichni bosib o'tadi: chaqaloqlik davri, bolalik davri (xotira rivojlanadigan payt), yoshlik ("tuban aql", axloqiy ong), etuklik (diniy ongning tarqalishi), keksalikning boshlanishi (ruhning xudoni anglashi davri). Avgustin etuklik, keksalikning ilk davrlarini diniy tomonning g'alabasi davri sifatida ko'rsatadi. So'nggi davr esa Xristosning tug'ilgan davridan uning ikkinchi marta paydo bo'lishigacha o'tgan davmi o'z ichiga oladi.

Avgustinning ta'limoti qadimgi davrdayoq katta ta'sirga ega bo'lgan edi. Rim-katolik cherkovi undan o'zining teokratik fikrlari va davlatga ta'sirini kuchaytirish maqsadlarida foydalandi. Cherkov oldidagi xizmatlari uchun unga Avliyo nomi berilgan.

XIII asrda Rim-katolik cherkovini yanada mustahkamlagan kishilardan biri dominikan monaxi **Foma Akvinskiy** (1225/26-1274) hisoblanadi. Uning asarlari keyinchalik o'rta asr cherkovi rasmiy mafkurasining ensiklopediyalariga aylangan. Asosiy asarlari "Teologiyalar summasi" va "Majusiylarga qarshi summa".

Xristianlik haqiqati tafakkurdan ustun turadi, ammo u aqlga zid emas. Haqiqat bitta bo'ladi, chunki u xudodandir. Falsafa dinga uning haqiqatlarini tafakkur kategoriyalari orqali tushuntirish bilan xizmat qilishi kerak. Falsafaning o'zi g'ayritabiiy haqiqatni isbot qila olmaydi, ammo u unga qarshi bo'lgan asoslarni zaiflashtirishi mumkin. Shuning uchun u teologiyaning qurolidir.

Dunyo muayyan tartibdagi sistemadir, u bir necha ierarxik darajadagi bosqichlardan iborat. Eng keng bosqich – jonsiz tabiat, uning ustida o'simliklar va hayvonot dunyosi turadi. Ulardan esa oliy bosqich bo'lmish odamlar dunyosi o'sib chiqadi. Odamlar dunyosi esa o'z navbatida g'ayritabiiy va ruhiy sohalarning asosidir. Eng etuk reallik, barcha realliklarning cho'qqisi, ularning absolyut sababchisi, mazmuni va maqsadi **xudodir**.

Barcha alohida narsalar boshqa omillar bilan yaratilgandir, ya'ni ular nimalar bilandir shartlanganlik, tasodifiylik xususiyatiga ega. Faqat xudogina absolyut, hech nima bilan belgilanmagan. *Xudo oddiy borliqdir, voqedir; yaratilgan narsa va hodisalar esa murakkab borliqdir.*

Insonning joni, ruhi moddiy emasdir, u sof materiyasiz shakldir, u moddiylik, materiyaga umuman bog'liq emas. Xuddi ana shu narsa uning *yo'qolmasligi va o'lmasligini* ta'minlaydi. Ruh tanaga bog'liq bo'lmagan substansiya bo'lgani sabab tana tomonidan yo'qotila olmaydi, sof shakl bo'lgani uchun o'z-o'zidan yo'qola olmaydi.

Foma ruhning bir qancha turlari borligini ta'kidlaydi: o'simliklarga xos *vegetativ ruh* (ko'payish va modda almashinuvi), hayvonlarga oid *sensitiv ruh* (sezish, tasavvur, erkin va sababli harakat), odamlarga xos – *tafakkur*. Demak, inson aqlli ruhga ega, u o'zida ikki past darajadagi ruhlarni qamrab oladi. Shu ma'noda irodani tan olgan Avgustindan farqli ravishda, Foma aqlga katta e'tibor beradi. Uningcha, intellekt irodadan ustun turadi.

Axloqiy xislatlar, fazilatlar haqida gapirganda u *donishmandlik, mardlik, adolat, o'rtamiyonalikni* ta'kidlagan an'anaviy yunon qarashlariga *ishonch, umid, muhabbat* kabi xristian sifatlarini ham qo'shadi. Hayot kechirishlan maqsad baxtga erishishdir, u esa *xudoni anglash va u bilan uyg'unlashib ketish demakdir*. Bilish insonning eng ulug' funksiyasidir, xudo esa – bilishning cheksiz predmetidir. Inson mavjudligining so'nggi maqsadi xudoni bilish, uni kuzatish va unga muhabbatdir. Bu yo'l sinovlarga boydir, aql insonni ilohiy qonunni ifodalovchi axloqiy tartibotga olib keladi; aql insonga o'zini qanday tutganda abadiy rohat-farog'at va baxtga etishish mumkinligini o'rgatadi.

Foma davlat umumiy farog'at haqida qayg'urish uchun mavjuddir, deydi. Ammo u ijtimoiy tenglikka keskin qarshi chiqadi, uningcha tabaqaviy tengsizlik abadiydir. Fuqarolar boshqaruvchilarga bo'ysunishi kerak. Monarxiya – davlatning eng yaxshi shaklidir. Ruh tanada, xudo olamda qanday ahamiyatga ega bo'lsa, monarx ham o'z davlatida shunday bo'lishi kerak. Adolatli va yaxshi qirolning hokimiyati xudoning olamdagi hukmronligini aks ettirishi kerak. Cherkovning roli davlatnikidan ustun bo'lishi kerak, shuning uchun dunyoviy davlat hukmdorlari cherkov ierarxiyasiga bo'ysunishlari lozim. Rim papasi xudoning erdagi vakilidir. Davlat cherkovga bo'ysunmog'i lozim.

XII asr oxiri - XIV asr boshlarida Foma Akvinskiy ta'limoti asosida vujudga kelgan tomizm nazariyasi g'alaba qiladi. Akvinskiy uning "birinchi doktori" deb tan olinadi, 1323 yili u avliyo deb e'lon qilinadi, 1567 yili esa cherkovning beshinchi ustози deb tan olinadi. 1879 yili papa Lev XIII Foma Akvinskiy ta'limotini butun katolik cherkovi uchun majburiy deb e'lon qiladi.

2. Uyg'onish davri mutafakkirlarining inson va jamiyat to'g'risidagi fikrlari

Evropa Uyg'onish davri – Renessans shu vaqtgacha er yuzida bo'lib o'tgan revolyusiyalar ichida eng buyugi bo'ldi. Ana shu revolyusiya vaziyatida rivojlanib borgan tabiiyot ilmi ham boshdan-oyoq revolyusion bo'lib, buyuk italyanlarning uyg'onib kelayotgan yangi falsafasi bilan birgalikda rivojlanar va uning jafokashlari gulxan va zindonlarda qurbon bo'lib ketar edi. Shunisi xarakterliki,

ularni ta'qib qilishda protestantlar bilan katoliklar o'zaro raqobat qilganlar. Protestantlar Migel Servetni (1509/1511-1553 yillar. *Ispan mutafakkiri, vrach. Kichik qon aylanish doirasining mavjudligini aytgan*) o'tda kuydirgan bo'lsalar, katoliklar Jordano Brunoni (1548-1600. *Italiyalik panteist faylasuf, dunyoning cheksizligi va ko'pligi haqidagi qarashlarni bayon qilgan*) o'tda kuydirganlar. Bu davr gigantlarga muhtoj bo'lgan va gigantlarni, bilimdonlik, ruh va xarakter gigantlarini vujudga keltirgan davr bo'ldi. Bu shunday davr ediki, uni fransuzlar Renessans, ya'ni antik madaniyatning, fan va falsafaning qayta tiklanishi, uyg'onishi, deb to'g'ri atadilar.

Uyg'onish davri tafakkuri, mafkurasi va madaniyati uchun hal qiluvchi tendensiya **dunyoni teotsentristik tushunishdan antropotsentristik tushunishga o'tilganligidir**. O'rta asr diniy duyoqarashiga qarshi kurashda Uyg'onish davri madaniyatida insonparvarlik, antropotsentristik motivlar oldingi planga chiqadi. Erdagi hayotga past nazar bilan qarash o'z o'rnini insonning ijodiy imkoniyatlarini, uning aql-tafakkurini, erda baxtli yashashga intilishini tan olishga bo'shatib beradi. Insoniylikning amalga oshirilishini esa o'tmish madaniyati erishgan yutuqlarsiz ko'z oldiga keltirish mushkul, shu ma'noda Uyg'onish davri gumanizmi (insonparvarligi) o'tmish madaniy merosiga, antik falsafa yutuqlarini egallashga qiziqish uyg'otadi. Shu sababli yana Aflotun va Aristotelning, stoiklar, epikurchilar, Sitseronning hamda boshqa antik mutafakkirlarning falsafasi yangicha joziba bilan yuz ocha boshlaydi.

Antropotsentrizm tomonga burilishni "sof" materialistik qarashlarning g'alabasi sifatida haddan ortiq yuzaki tushunmaslik kerak. Gap shundaki, Renessansning insonparvarligi insonning ichki olamiga, uning erdagi "ilohiyiligi" e'tibor berganlikda, tashqi ilohiy "qoidalardan" chekinilganlikda, insonni hayotiy faollikka chaqirganlikda, insonni o'ziga ishonishni ta'kidlaganlikda o'z ifodasini topadi. Ammo mana shu progressiv hisoblanuvchi yangiliklarning o'zi ham tarixiy jihatdan belgilangan bo'lib, u yoki bu shakllarda diniy ramkalarda yuzaga chiqishi mumkin edi.

Shu bilan birga Uyg'onish davri gumanizmini ideallashtirish ham noto'g'ri bo'ladi va undagi ichki ziddiyatlarni ham ko'rmaslik mumkin emas. Ular XII –XV asr tarixiy voqeligi bilan belgilanadi. Ana shu o'ziga xosliklar ushbu g'oyalarning elitarligida (ya'ni, saralangan, yuqori tabaqaga oid kishilarga mo'ljallanganligida), "aristokratik" (oqsuyaklik) tendensiyalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, axloqning insonparvarlik g'oyalari ta'lim olishga imkoniyati bo'lgan yuqori tabaqalarga mo'ljallangan. Shuni ta'kidlash joizki, gumanizmni ko'tarib chiqqan kishilarning o'zlari ham antik madaniyat va falsafa yutuqlarini o'rganish imkoniyatlariga ega bo'lgan kishilar edilar, bir necha chet tillarini, ayniqsa Renessansda alohida hurmatga ega bo'lgan lotin tili va adabiyotini egallagan kishilar edilar.

Ko'pincha Renessans va Reformatsiyaning o'zaro munosabati haqida bahslar olib boriladi. Ba'zan ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga harakat qilinadi. Bunda Renessans – xalqaro hodisa, umumevropa hodisasi sifatida, Reformatsiya esa – milliy, xususan, nemis hodisasi sifatida tushuniladi. Nima bo'lganda ham, muhimi ularning antifeodal yo'nalishga ega oqim ekanligi, ularni

harakatlantiruvchi kuchlar chirib borayotgan feodal jamiyatidagi shahar qatlamlari ekanligidir. Agarda Renessans jamiyatni oqsuyaklarga oid maorifni yoyish orqali jamiyatni o'zgartirishni mo'ljallagan bo'lsalar, Reformatsiya esa o'rta asr doirasidagi kishi nuqtai nazaridan xudoning jamoliga etishishning yangi yo'lini taklif qiladilar. Demak, Renessansning g'oyalari faqat yuqori tabaqa kishilari faollashtirishlari mumkin edi (umuman olganda unda o'rta va past tabaqa vakillarining manfaatlarini ifodalovchi insonparvarlik g'oyalarining o'zi yo'q edi), aksincha, asosiy maqsadi cherkov va uning g'oyalarini o'zgartirish sanalgan Reformatsiya g'oyalarini o'z ahvoli va kun kechirishi bilan diniy tasavvurlarga jips bog'lanib qolgan jamiyatning o'rta va past tabaqalari ko'tarib chiqishga qodir edi.

Renessans g'oyalari asosan shaharlarning yuqori tabaqalari, hunarmandlar va diniy yo'nalish olimlari tomonidan himoya qilinar edi. Shu ma'noda Renessans mafkurasi ikki yo'nalishda – bir tomondan, antifeodal, ikkinchi tomondan, antiplebey (kambag'al qatlamlarga qarshi) edi.

O'rta asr konservativ mafkurasi bilan kurash jarayonida sifat jihatdan farq qiluvchi ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimi vujudga keldi. Uning markazida shaxsning eng ulug' qadriyat ekanligi, har qanday individning qadr-qimmat, erkinligi, insonning erkin rivojlanishi uchun etarli sharoit yaratilishi lozimligi, har kimga o'z baxt-saodatiga etishishi uchun imkoniyat berilishi kerakligi haqidagi fikrlar turadi. Uyg'onish davri dunyoqarashida inson taqdiri uning oilaviy kelib chiqishi, darajasi, konfessional mavqei bilan emas, balki sof shaxsiy jasorati, faolligi, fikrlari va amaliy faoliyatining oliyjanoblighi bilan belgilanadi.

Uyg'onish davri o'z taraqqiyotining ilk bosqichida, ya'ni XIV-XV asrlarda asosan "gumanistik" shaklda Italiyada taraqqiy topdi, XVI-XVII asrlarda esa asosan "tabiiy ilmiy yo'nalish" shaklida boshqa Evropa mamlakatlarida rivojlandi.

Dante Aligeri, (1265-1321) o'zining insonparvarlik dunyoqarashini "Komediya", "Pir", "Monarxiya" asarlarida aks ettirgan. Dante xristian aqidalarini o'zgarimas haqiqat sifatida tan olsa-da, ilohiylik va insonga xos xususiyatlarning o'zaro munosabatini yangicha talqinda aks ettiradi. U ushbu munosabatlarni bir-biriga qarshi qo'ymaydi, balki ularni o'zaro birlikda ko'radi. Xudoni insonning ijodiy kuchlariga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Inson ikki yoqlama belgilangan: bir tomondan, xudo tomonidan, boshqa tomondan – tabiat tomonidan. Shu ma'noda baxt-saodatga, farog'atga iki yo'l orqali boriladi: falsafiy ta'lim, ya'ni inson tafakkuri kuchi bilan boruvchi va muqaddas ruhdan keluvchi "ilohiy ta'lim".

Uning fikricha inson o'z hayotining yaxshiligi yoki yomonligi uchun o'zi mas'uldir, bunda insonning shaxsiy xususiyatlari belgilovchi ahamiyatga ega va bunda uning boyligi yoki merosiy ahvoli hech qanday rol o'ynamaydi. Insoniyatning vazifasi tafakkurning imkoniyatlarini amalga oshirish, ayniqsa nazariy tafakkur imkoniyatlarini amaliy faoliyatga aylantirishdir. "Monarxiya" asarida u cherkov "abadiylik" masalalari bilan shug'ullanishi, amaliy hayot, erdagi ishlar esa kishilarning vazifasi bo'lishi, kishilar intilishlari esa baxt-saodat, tenglikka va umumiy tinchlikka asoslangan jamiyat qurishga sarflanishi lozim.

Franchesko Petrarkani (1304-1374) ko'pincha "birinchi gumanist", "gumanizmning otasi" deb atashadi. U "abadiylik"ni Dantedan farqli ravishda

umuman inkor etadi. Petrarkani ko'proq insonning ichki, axloqiy masalalari qiziqtiradi. "Mening sirim" falsafiy dialogida u insondagi ichki ziddiyatlarning qanchalik murakkabligini ochib beradi va uni engib o'tishning yo'llarini ko'rsatadi. Petrarkaning ijodi realligi, inson xursandchiliklari va azoblarini chuqur tushunishi bilan ajralab turadi.

Piko della Mirandola (1463-1495) dunyoni panteistik tushungan. Dunyo ierarxiya tarzida tuzilgan: u farishtalar, osmoniy, elementar sferalardan tashkil topgan. Hissiy dunyo "hechnima"dan emas, balki oliy, ammo "tanasiz" ibtido bo'lmish "xaos"dan vujudga kelgan, unga esa o'z navbatida xudo "turtki bergan". Dunyo o'zining mavjud ziddiyatlari va garmoniyasi bilan go'zaldir. Uning ziddiyatlilik shundaki, bir tomondan u xudodan tashqaridadir, ikkinchi tomondan esa – uning vujudga kelishi ilohiydir. Xudo tabiatdan tashqarida mavjud emas, u doimo tabiatda amal qiladi. Buni panteistik ruhda tushunmaslik kerak. Pikoning nazarida xudo dunyo mohiyatining nihoyasi, cho'qqisi sifatida tushunilgan.

Piko "yolg'on" fan hisoblanmish "payg'ambarlik astrologiya"sini tanqid qiladi. U fanlarni o'rganishdan maqsad amaliy va foydali bo'lmog'i lozim, deydi. U insonning taqdirini yulduzlarning g'ayritabiiy to'plami belgilamaydi, taqdir inson tomonidan amalga oshiriladigan erkin faoliyatning natijasidir, deydi. Piko "Insonning qadri haqida"gi asarida inson o'ziga xos mikrokosmosdir, uni neaplatonchilarning uch "gorizontal" dunyosi (elementar, osmoniy, farishtalar) bilan tenglashtirmaslik kerak, chunki u ana shu dunyolarning barchasi orqali vertikal ravishda o'tadi, deydi. Inson o'z shaxsini o'zi qaror toptirish, o'z hayotini o'z irodasi bilan erkin va maqsadlariga muvofiq belgilash huquqiga ega. SHunday qilib inson tabiatning boshqa qismlaridan farq qiladi va o'z "ilohiy etukligi" sari boradi. Inson o'z baxtining yaratuvchisidir. SHunday qilib, Piko insonni dunyoning markaziga qo'yadi. Inson tabiati hayvonot dunyosi tabiatidan faqli holda yuqori darajada tashkil topgan, etukroq; inson "ilohiy" etuklikka intila oladigan mavjudotdir. Bunday holat tug'ma emas, balki uni inson harakati vujudga keltiradi.

Nikkolo Makiavelli (1469-1527) italyan Uyg'onish davrining yirik vakili bo'lib, "Podshoh", "Tit Liviyning birinchi dekadasi (o'n kitobi) haqida mulohazalar", "Florensiya tarixi" kabi asarlar qoldirgan. Makiavelli siyosiy hodisalar, ijtimoiy voqealar haqida gapirganda teologiyaga, diniy asoslarga umuman o'rin qoldirmaydi. Shu ma'noda u o'rta asrlar va antik dunyoda kuzatilmagan yangi bir qonun bilan chiqadi: siyosiy voqealar, davlat shakllarining o'zgarishi xudoning irodasi bilan yoki kishilarning istagi va fantaziyasi bilan emas, balki ob'ektiv ravishda "hodisalarning tasavvurdagi emas, tabiiy ravishdagi kechishi" ta'sirida yuz beradi. U davlatga xos hayotni teologiyadagina emas, balki axloqdan ham ajratib tashlaydi.

Podshoh hokimiyati mustahkam asosga qurilmog'i kerak, aks holda u qulaydi. "...barcha davlatlarda hokimiyat asosida yaxshi qonunlar va yaxshi armiya turadi. Yaxshi armiya bo'lmagan joyda yaxshi qonunlar bo'lmaydi va aksincha yaxshi yarmiya bo'lgan joydagi qonunlar yaxshi bo'ladi". Shundan ko'rinib turibdiki, Makiavellida qonunlarning (demak, davlat hokimiyatining) suyanchig'i –

armiya, qurolli kuchlardir. Bunda huquq, adolat va shu kabilar haqida soʻz ham yoʻq.

Makiavelli har qanday tashqi taʼsirlardan, shu jumladan, axloqiy sifatlarning taʼsiridan xoli boʻlgan va faqatgina podshohning istagiga mos faoliyat yuritadigan hokimiyat yashashga qobil deb biladi va uni mustahkamlash yoʻlida podshohning har qanday hatti-harakati oqlanadi, deb hisoblaydi. Buni amalga oshirishning ikki yoʻli bor: biri – podshohni sevish, ikkinchisi – undan qoʻrqish. Albatta ularning har ikkisi boʻlishiga erishish yaxshi, ammo Makiavelli koʻproq qoʻrqitishni tanlashni maʼqul koʻradi. Chunki Makiavellining fikricha odamlar "yaxshilikni bilmaydigan, ikkiyuzlamachi va yolgʻonchidir, ular xavfdan qoʻrqadilar va boylikka hirs qoʻyuvchidir". Oʻz hokimiyatini saqlash uchun podshoh har qanday usullarni qoʻllashga haqli. Shafqatsizlikni hamma vaqtda, tinch davrda ham, urush davrida ham qoʻllash mumkin. Davlat hokimiyatiga dushman boʻlgan kishilarni podshoh oʻldirib yuborishda erkindir. U javobgarlikdan qoʻrqmasligi kerak, chunki podshoh sud yurisdiksiyadan, yaʼni javobgarlikka tortish tizimidan tashqarida va unga boʻysunmaydi.

Shunday qilib, oliy iroda hech kimga va hech narsaga bogʻliq boʻlmasligi kerak va absolyut oʻz hukmini hammaning ustidan yuritishi lozim. Ana shunday irodagina davlatning amal qilishini, uning qudratini va mamlakatdagi tartibni taʼminlashi mumkin.

3. *Evropa mamlakatlarida xavoliy sotsializm haqidagi taʼlimotlar*

XVI-XVII asrlarda Evropa mamlakatlaridagi ijtimoiy fikrlar tarkibida jamiyatning kelajagi toʻgʻrisidagi sotsialistik qarashlar ham vujudga keldi. Sotsial-utopistlar nomini olgan mazkur yoʻnalish vakillari davlat, hokimiyat, huquq muammolariga oʻtmishdagi ozchilikning irodasini ifodalovchi boshqarish shakllarini tugatib, moddiy tengsizlikka chek qoʻygan va xususiy mulkka barham berib, umumiy mulkchilikka asoslangan jamiyatning siyosiy-yuridik sohalari qanday boʻlishi kerak, degan masalalar sababli eʼtibor qaratdilar.

Past tabaqa vakillarining asrlar mobaynida ijtimoiy adolatga intilishining aksi sifatida qaror topgan ana shu harakat tarkibida bir-biridan farqlanuvchi turli-tuman qarashlar vujudga keldi. Ularning baʼzilari kelgusi jamiyat amal qilishining asosiy tamoyili sifatida tafakkurni, boshqalari – erkinlikni, uchinchilari – tenglikni va hokazolarni ilgari surardilar.

Tomas Mor (1478-1535) ingliz gumanisti, "Utopiya" asarining muallifi, xayoliy sotsializm sarchashmalaridan biri. U parlament aʼzosi sifatida qirol Genrix VIII ning moliyaviy kirdikorlariga, uning zulmkorligiga qarshi chiqadi va bu harakati bilan London mayda burjuaziyasi oʻrtasida hurmat qozonadi. U Genrix VIII ning katsleri sifatida qirolning reformatorlik intilishlariga qarshilik qilgani uchun qatl qilinadi.

"Utopiya" asarida u oʻz davrining ijtimoiy va siyosiy masalalari haqida fikr yuritadi. Bu asar dialog shaklida yozilgan boʻlib, unda rasmiy siyosiy qarashlarni yoqlash va ularni inkor qilish oʻz aksini topadi. Asarning birinchi qismida Angliya ijtimoiy hayoti tanqid qilinadi, ikkinchi qismida esa xayoliy Utopiya orolidagi jamiyat va hayot haqida gapiriladi.

Angliya voqeligida shafqatsizliklar bilan sodir bo'lgan kapitalning dastlabki to'planishini tanqid ostiga olgan Mor ularning sababchisi xususiy mulk ekanligida, hayotni xuddi Utopiya oroligidagidek tashkil qilish uchun ijtimoiy mulkchilikka o'tish kerakligini ta'kidlaydi. Bunda ijtimoiy mulkchilik, yuqori darajada tashkil qilingan ishlab chiqarish, boshqaruvning maqsadga muvofiqligi natijasida ijtimoiy boyliklarni adolatli va baravar taqsimlanishiga erishilgan. Barcha kishilarning huquqlari teng va ular mehnat qilishlari kerak.

U ana shu jamiyatni ma'rifatli podshoh yordamida yaqin kelajakda amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydi. Xuddi ana shu holat mazkur dunyoqarashning xayoliy bo'lib qolganligini belgilab berdi.

Uning fikricha, jamiyat – boylarning fitnasi natijasidir. Davlat esa – ularning oddiy qurolidir. Undan boylar xalqni itoatda tutib turish, o'zlarining g'arazli maqsadlarini himoya qilish uchun foydalanadilar. Ular aldov, kuch va ayyorlik bilan kambag'allarni o'zlariga bo'ysundiradilar. Bu narsalarni ular qonun yordamida, hokimiyatning buyrug'i, davlatning irodasi sifatida va davlat nomidan amalga oshiradilar.

Utopiya orolida xususiy mulk yo'q. Er – ijtimoiy mulkdir. Ishlab chiqarilgan barcha mahsulot jamiyatniki. Ularni esa biror bir narsa ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmand-oilalar ishlab chiqaradi. Ish kuni 6 soatdan iborat. Barcha ishlaydi.

Utopiyada muhtojlik nimaligini hech kim bilmaydi. Bunga esa o'ziga xos yo'l bilan erishiladi. Birinchidan, barcha erkak va ayollar majburiy ravishga mehnatga jalb qilinadi. Ikkinchidan, ehtiyojlarining eng minimal darajaga qisqartirilishiga erishiladi, ya'ni har qanday dabdababozlik, taqinchoqlar, ortiqcha kiyim-kechak, uy-joy va ovqatlanishga chek qo'yilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Utopiyada qullar ham mavjud. Morning fikricha mazkur orol odamlari uchun eng iflos ishlarni bajarish uyat, shuning uchun qassoblik, turli-tuman chiqindilarni chiqarish kabi ishlar qullar zimmasiga yuklatilgan. Bunday ishlarni bajarishga ko'ngillilar deyarli bo'lmaganligi sababli qullarga ehtiyoj tug'ilgan. Harbiy asirlar, jazoni o'tayotgan jinoyatchilar, boshqa davlatlarda o'limga hukm qilingan, ammo o'topiyaliklar tomonidan sotib olingan kishilar qullar hisoblanishadi. Qullik avloddan avlodga o'tmaydi, ularning farzandlari – ozod odamlardir. Ularning o'zlari ham qullikdan ozod bo'lish imkoniyatlariga ega.

Morning Utopiya davlati federativmi yoki unitarligi unchalik aniq aks ettirilmagan. Ammo unda boqaruv tizimi aniq ifodalangan: har 30 oila **filarx** deb ataluvchi boshqaruvchini saylaydi, 10 **filarx** esa bitta **protofilarxni** saylaydi. Maxsus yig'ilishda filarxlarning barchasi yopiq ovoz berish yo'li bilan davlat boshlig'ini (**prinsepsni**) saylashadi, u umrbod saylanadi. Ammo u zulmkorlikka intilsa, uni bo'shatadilar. Qolgan mansabdorlar esa tajribali kishilar bo'lib, har yili saylanadilar. Muhim ishlar prinseps, senat va xalq vakillari bilan birgalikda echiladi. Bunday muhim ishlar jumlasiga ma'muriyat ishlari, xo'jalik rejalari, ijtimoiy omborlardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tarqatishni hisobga olish va hisobot ishlari va boshqalar kiradi.

Tommaso Campanella (1568-1639) italyan gumanisti. "Quyosh shahri", "Xristian monarxiyasi haqida", "Cherkov hokimiyati haqida", "Ispan monarxiyasi haqida" asarlarining muallifi. U cherkov hokimiyati va oqsuyaklar hokimiyatining birligini himoya qiladi, protestant Reformatsiyasi g'oyalari inkor qiladi va papaning barcha xristianlar ustidan hukmronligini e'lon qiladi.

U ilohiyot podshohligining erda hukmron bo'lishiga erishish uchun ko'plab ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligi haqidagi fikrni bayon qiladi, xristianlik vijdoniga mos ravishda xususiy mulk va ekspluatatsiyani yo'qotishga chaqiradi. Mordan farqli ravishda u ana shunday holatga ommaviy qo'zg'olon orqali erishish mumkinligiga ishonadi. U Kalabriyada ispanlar hukmronligiga qarshi fitnaga boshchilik qiladi, fitna muvaffaqiyatsizlikka uchragach, u umrbod qamoqqa hukm qilinadi. Campanella turmada 25 yildan ortiqroq vaqt bo'ladi, o'sha erda o'zining asosiy asarlarini yozadi.

T.Mordan farqli ravishda u o'ziga ma'qul bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tartibotlarni to'g'ridan-to'g'riva ochiq tanqid qilmaydi. Unda quyosh shahar-davlatlarining ifodasi ilgari o'ringa chiqadi va tanqidiy fikrlar ana shu fon ortiga yashirilgan.

Hokimiyat tarmoqlari faoliyat turlariga mrs keluvchi uch yo'nalishga bo'linadi. Bu faoliyat turlari: birinchidan, harbiy ishlar, ikkinchidan - ilm-fan, uchinchidan - aholini ishlab chiqarish, uni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash va tarbiyalash. Ushbu hokimiyat tarmoqlarini Quدرات, Donishmand, Muhabbat deb ataluvchi uch boshqaruvchi iroda qiladi. Ularning har biri uch rahbarga boshchi, ulardan pastda esa yana uch mansabdor mavjud. Hokimiyat tepasida Metafizik nomli boshqaruvchi turadi, u o'z fuqarolaridan olimlik, talant, tajriba va amaliyotda ustundir. U ruhoniylik va fuqarolik hokimiyatlarining boshlig'i, u barcha muammoli masalalarni hal qilish huquqiga ega, ya'ni so'nggi so'z unga tegishli. Oliy hukmronlikda Metafizik ilm-fan, davlatni boshqarish ishlari va hokazolarda undan ko'ra yuksakroq kishi paydo bo'lguncha turadi. Ana shunday kishi paydo bo'lsa, Metafizikning o'zi uning foydasiga hukmronlikdan voz kechishi kerak. Metafizikka davlatni boshqarishda uning aqlida, tashkilotchilikda, axloqda benazir bo'lgan uch yordamchilari: Quدرات, Donishmand, Muhabbat yordamlashadilar. Ana shu to'rtlik xalq irodasi bilan almashtirilmaydi va ularning o'zaro munosabatlariga xalq ta'sir qila olmaydi. Boshqa barcha rahbarlar va mansabdorlar saylov yo'li bilan amal qiladilar.

"Quyosh shahri"ning mazmuni ilk sotsialistik qarashlardagi bir-biri bilan kelishtirib bo'lmaydigan ikki tomonni aks ettiradi. Insonning intellektual, axloqiy sifatlari uning jamiyatdagi o'rnini aniqlovchi narsalar ekanligi haqidagi fikrlar doimo avtoritarlik, asketizm, alohida olingan kishi hayotiga e'tiborsizlik bilan qarash, shunga mos tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilishiga befarqlik bilan yonma-yon turadi. Ana shu ziddiyatlarning birini olib ko'raylik: Solyariylar siyosiy jarayonlarda qatnashadilar, ammo ular bunda statistlar sifatida bo'ladi, chunki ularning ovozi hal qiluvchi emas, hali borsam maslahat ovoziga ega. Barcha narsani yagona boshliq-ruhoniy (Metafizik) va unga yordamchi bo'lgan Quدرات, Donishmand va Muhabbat hal qiladi. Solyariylar hayoti ikir-chikirigacha avvaldan hal qilib qo'yilgan. Fuqarolarning barcha hatti-harakati yo'natirilgan va

nazorat ostida. Ammo bu bir xillik ularni zeriktirmaydi. Ular shunga o'rganib qolishgan. Hamma narsa avtomatizmga keltirilgan. Ularning uy-joyi, kiyim-kechagi, faoliyati, o'yin-kulgilari va boshqalari bir xil. Alohidalik, har bir shaxsning qaytarilmas xislatlari, mustaqillikka intilishi, faolligi, o'ziga xos manfaat va qiziqishlari borligi hech qanday ahamiyatga ega emas. Hamma sohada davlat manfaatlari ustun.

Shunday bo'lsa-da unda ijobiy elementlar ham mavjud. Masalan, u fanning katta ahamiyati, aholi ta'limi darajasining roli, urushlarga chek qo'yilishi, xususiy mulkning tugatilishi, adolatli va aqlga muvofiq boshqaruv haqida gapiradi.

XIX asrning dastlabki o'n yilliklarida G'arbiy Evropa mamlakatlarida liberalistik harakat vakillarining burjua tartibotlarini (xususiy mulkchilikni, ishbilarmonlik va konkurensiya erkinligini va shu kabilarni) mustahkamlashga intilishlari bilan bir qatorda ana shu jamiyatni tanqid ostiga olgan A.Sen-Simon, Sh.Fure, R.Ouenlar qarashlari ham rivojlandi.

Anri de Sen-Simon (1760-1825) insoniyat jamiyati qonuniy ravishda ilgariyib, yuqori darajaga tomon taraqqiy qiladi, deb hisoblagan. Bir bosqichdan boshqasiga, undan uchinchisiga o'tish bilan jamiyat o'z taraqqiyotining "oltin asriga" tomon boradi. Antik va feodalizm davrini o'z ichiga olgan **teologik bosqich** o'z o'rnini burjua davrini ifodalovchi **metafizik bosqichga** bo'shatib beradi. Undan so'ng kishilarning barcha ehtiyojlarini qondiradigan, ularni baxtli yashashlarini ta'minlaydigan **pozitiv (ijobiy) bosqich** boshlanadi. Agar birinchi bosqichda jamiyatda hukmronlik ruhoniylar va feodallarda, ikkinchi bosqichda – yuristlar va metafiziklarda bo'lgan bo'lsa, uchinchi bosqichda u olimlar va sanoatchilarga o'tadi.

Sen-Simon fikricha ijtimoiy taraqqiyot doimiy jarayon emas, unda nisbatan sekin rivojlanish davrlari ham, ba'zan esa ijtimoiy muvozanatni ostin-ustun qilib yuboradigan keskin taraqqiyot paytlari ham bo'ladi. Uning uchun ijtimoiy rivojlanishning hal qiluvchi kuchi g'oyadir. Bilimlar va axloqiy taraqqiyot Sen-Simon tomonidan ijtimoiy progressning hal qiluvchi kuchi deb talqin qilinadi.

Jamiyatni o'zgartirishni u ba'zi bir xususiy reformalardan boshlashni taklif qiladi: boylilklari avloddan-avlodga o'tuvchi kishilarni boshqarishdan chetlashtirish, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan er egalari erlarni sotib olish, dehqonlar ahvolini engillashtirish va h.k. Ana shundan so'ng siyosiy sohani o'zgartirishga o'tiladi: ishlab chiqarmaydigan sinflar (feodallar va "o'rta sinflar": yuristlar, harbiylar, ijarachi er egalari) hokimiyatdan chetlatiladi va siyosiy hokimiyat "sanoatchi"larning talantli vakillariga beriladi. Xalq ommasi hech narsaga aralashmaydi, hamma narsa uning uchun qilinsa-da u chetda passiv kutib turadi.

Tarixning pozitiv bosqichida ilgariy monarxlik, hukumat (ministrliklar) saqlanib qoladi. Ammo hokimiyat yangidan tashkil topgan Sanoatchilar Kengashi qo'lida to'planadi. U xususiy mulkchilikni tugatish tarafdori emas, mazkur munosabatlar sanoatchilar assotsiatsiyasi bilan uyg'unlashib ketadi.

Sharl Fure (1772-1837) ta'limotida ijtimoiy taraqqiyot xususiy mulkchilik hukmronligiga va xalq ommasining ezilishiga olib kelganligi va uni o'zgartirish zaruriyati asoslanadi. Xususiy mulkchilik sharoitida qonunlar va deklaratsiyalarda

e'lon qilingan turli huquq va erkinliklar aslida qog'ozda qolib ketadi. Shu ma'noda Furening eng qimmatli fikrlaridan biri shuki, jamiyatda eng avvalo rasmiy ravishda "mehnat qilish huquqi" qabul qilinishi kerak va u amalga oshirilishi lozim. Chunki ana shu huquqsiz boshqa huquqlar o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Furening fikricha xalq suvereniteti ham, barchaga teng bo'lgan saylash huquqi ham, respublika muassasalari va boshqalar ham xalqning azob-uqubatlariga chek qo'ya olmaydi. Ahvol jamiyat asosiga ishlab chiqaruvchilar-iste'molchilar hamkorligi bo'lmish assotsiatsiyalar (birlashmalar) qo'yilsagina keskin o'zgarishi mumkin. Uning tarkibiga turli ijtimoiy guruhlarning (mulk egalari, proletariylar, erkin kasb egalari, ishchilar, dehqonlar va boshqalar) a'zolari kiradilar. **Assotsiatsiya tuzumi** – "yangi xo'jalik va sotsietar dunyo" yacheykalari – **falanga** hisoblanadi. Ularning har birida taxminan 1600 kishidan iborat kollektivlar bo'ladi. Falangalar tarmog'i bir xil tuzilishga ega bo'ladi, bir-biridan mustaqil bo'ladi va butun mamlakatni, qit'alami va er sharini qamrab oladi.

Mazkur tizim barcha ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirishni talab qilmaydi. Falangalarda muayyan shakllarda xususiy mulk, mehnatsiz foyda olish, mulkiy tengsizlik mavjud bo'ladi. Ammo sanoat va qishloq xo'jaligi mehnati shakllari, xizmat sohasi va tarbiya falanga a'zolariga ijtimoiy boylikni ko'paytirish, jamoa va shaxsiy manfaatlarni muvofiqlashtirish, asta sekinlik bilan sinfiy ziddiyatlarga barham berish, har kimga o'z intilishlarini, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, erkin va do'stona yashashga imkon beradi.

Bu jamiyatda har kimning shaxsiy erkin bo'lishi eng asosiy talabdir. U "hech qanday majburiy Nizomlarning, hech qanday monastirlarcha cheklolarning bo'lishiga yo'l qo'ymaydi." Falangada o'zining zaruriy normalariga ega, albatta, ammo ular jamoa a'zolarining barchasi bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi, shu ma'noda ular barcha tomonidan ongli ravishda, ixtiyoriy bajariladi.

Fure nazaridagi falangalar – bir-biridan mustaqil bo'lgan va bir-biriga bog'lanmagan ijtimoiy muassasalardir. Ular o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirib tursalarda, bir-biri bilan bog'lanib yagona bir tizimni tashkil qilishmaydi. Kelajakda saqlanib qoladigan markaziy hokimiyat va uning muassasalari falangalarning ichki ishlariga aralasha olmaydilar, ularni himoya qilish yoki ularni boshqarish imkoniyatlariga ega emaslar. Ana shu anarxistik xarakterdagi fikr Furening yangi davr ob'ektiv voqeligiga ochiq qarshi borganligini ko'rsatadi.

Robert Ouen (1771-1858) ingliz sotsialisti, 1810 yillarda kapitalistik jamiyat sharoitlarida ishchilar ahvolini yaxshilash to'g'risidagi filantropik (filo, grekcha –sevish, antropos - inson), ya'ni kambag'allarga yordam berish, xayriya faoliyati olib borish to'g'risidagi rejalari bilan chiqadi. Ushbu rejani u Shotlandiyaning Nyu-Lanark shahridagi to'qimachilik fabrikasida amalga oshirishga urinadi. Ouen tomonidan AQSHda va Buyuk Britaniyada tashkil qilingan kommunistik koloniyalar muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Ouen qarashlarining markaziy bo'g'ini – inson xarakteri haqidagi g'oyadir. Uning fikricha inson xarakteri individning tabiiy tuzilishi va uni qurshab turgan muhitning o'zaro ta'siri natijasidir, bu munosabatda muhit belgilovchi rol o'ynaydi. Xuddi shu kabi, ya'ni jamoalar, sinflar ularni qurshab turgan turmush kechirish tashqi sharoitlarining belgilovchi ta'siri ostida o'zlariga xos xarakter

kasb etadilar. Ouen o'zi ishlab chiqqan inson xarakteri haqidagi g'oya orqali kishilarga to'g'riyo'l ko'rsatyapman va bu yo'l aqlga mos va adolatli jamiyatni qurishga olib keladi, deb ishongan edi.

Kapitalistik munosabatlar tashqi muhit sifatida kishilarning ongi va taqdirini belgilar ekan, ularning tubanligi va bilimsizligining, axloqning tubanlashuvining, ochko'zlik va nafrat ruhi hukmronligining, ehtimolki, inson hayotidagi ba'zi tubanliklarning sababchisi sifatida, ularning barchasi uchun ana shu munosabatlar javobgardir. Barcha ijtimoiy kamchiliklarning asosiy sababchisi – xususiy mulkchilikdir. Shu ma'noda R.Ouen Sen-Simon va Furedan farqli ravishda xususiy mulkchilik munosabatlariga faol va izchil qarshi chiqdi.

Ouen yangi jamiyat qurishda ikki holatdan qochishga umid qiladi. Birinchidan, revolyusiyani zo'rvonlikka asoslangan davlat to'ntarishiga aylantirib yuborishdan. Ikkinchidan, inqilobni madaniyatsizlik sharoitida savodsiz kishilar tomonidan amalga oshirilishidan. Uning fikricha, zo'rvonlik hollariga yo'l qo'yilishi va ijtimoiy tartibsizlik shundoq ham abgor bo'lib turgan jamiyatning holatini yanada yomonlashtiradi, insoniyatni orqaga tortadi, nurli kelajak vujudga kelishini ortga suradi. Inqilobni unga tayyor bo'lmagan va faqatgina sinfiy qasosga tashna kishilar amalga oshirsalar oqibat tabiiy ravishda ana shunday bo'ladi. "Mavjud tuzum har qanday tuban bo'lsa ham, - deydi Ouen, - uni ushbu masalalarda bilimsiz bo'lgan va qo'pol kishilar qo'li bilan buzib bo'lmaydi".

Ana shu kelajak jamiyatiga o'tish bo'lg'usi kommunistik jamoalar qurish uchun etarli kapitalga ega bo'lgan va ijobiy istaklar rahnamoligida harakat qiluvchi alohida individlar va kishilar guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Monarxlar, ministrilar, arxiepiskoplar, er egalari, sanoatchilar, umuman olganda boy va saxiy savobtalab kishilar (filantroplar), shuningdek, grafliklar, o'rta hol kishilar assotsiatsiyalari, fermerlar, savdogarlar, hunarmandlar, fabrika ishchilari ana shunday kishilar bo'lishi mumkin. Bu narsaning haddan ortiq xayoliyligi shunday ko'rinib turibdi.

Kelajak jamiyatining eng kichik asosi, "molekulasi" – o'z-o'zini ta'minlovchi kommunadir. Ular milliy darajadagi federatsiyalarga birlashadilar, so'ngra esa dunyoviy masshtabda birlashuv yuz beradi. Er sharida bir vaqtning o'zida barcha uchun bir xil bo'lgan qonunlar to'plami faoliyat ko'rsata boshlaydi, bir xil boshqaruv tartibi joriy etiladi. Er aholisi katta bir oilaga birlashadi.

Ouen ana shunday "jamoalar poselkalari" konstitutsiyasini ham ishlab chiqdi. Unga ko'ra ana shu kommunalarda 300 dan 3000 gacha a'zolar bo'ladi, ular kollektiv mehnat, ijtimoiy mulkchilik, unga kiruvchilarning huquq va majburiyatlarining tengligi asosiga quriladi. Kishilar o'rtasida o'zaro samimiy yordamga asoslangan munosabatlar tarkib topadi. Kasallar, nogironlar, qariyalar va mehnatga yaroqsizlarga nisbatan kollektiv g'amxo'rlik vujudga keladi. Axloq soflashadi va bu narsa mukofotlash yoki jazolashning yo'qolishiga olib keladi.

4. XVII – XVIII asrlarda ingliz va fransuz mutafakkirlarining ijtimoiy taraqqiyot haqidagi g'oyalari

Tomas Gobbs (1588-1679) atqqli ingliz mutafakkirlaridan biri bo'lib, uning fikricha kishilar bir-birlari bilan jismoniy va aqliy jihatdan teng yaratilgan, shuning

uchun ularning har biri "hamma narsaga egalik qilish" huquqiga ega. Ammo insonda ayni holda shaxsiyatparastlik, ochko'zlikka intiluvchanlik, qo'rquv va shuhratparastlik xususiyatlari ham mavjud. U o'ziga o'xshagan, demak unga raqib bo'lgan, hasadgo'ylar, dushmanlar qurshovidadir. Shu ma'noda "kishi kishiga bo'ri", bundan esa jamiyatda barcha bir-biriga dushman, "barcha barchaga qarshi urush olib boradi" degan xulosa chiqadi. "Hamma narsaga haqqi borlik" ana shunday o'zaro urush vaziyatida amalda hech narsaga huquqi yo'qlikka olib keladi. Ana shunday holatni T. Gobbs "insoniyatning tabiiy holati" deb ataydi.

Uning fikrcha insonda "hammani hammaga qarshi urush"ga chorlovchi kuchlardan tashqari uni o'zining ayanchli tabiiy holatidan chiqishga chorlovchi xususiyatlar ham mavjud. Bular eng avvalo undagi boshqa barcha intilishlarni siqib qo'yuvchi o'limdan qo'rqish va o'z-o'zini saqlash instinktidir. Shu bilan birga insonda tabiiy aql, ya'ni o'z hatti-harakatlarining ijobiy va salbiy oqibatlari haqida sog'lom fikr yuritish xususiyati ham mavjud.

Eng asosiy tabiiy qonun insonga tinchlikka intilish zarurligini talab qiladi. Boshqa barcha narsalardan tinchlikka erishishning usullari sifatida foydalaniladi. Ularning ichidn eng muhimi har bir kishining o'z huquqlaridan tinchlik va o'z-o'zini himoya qilish manfaatlari talab qiladigan darajada voz kechish hisoblanadi (ikkinchi tabiiy qonun). Huquqlardan voz kechish ko'pincha ularni shartnoma bo'yicha muayyan shaxsga yoki muayyan kishilar guruhiga o'tkazish tarzida amalga oshiriladi. Shu tariqa ikkinchi tabiiy qonundan uchinchisi kelib chiqadi: kishilar o'zlari tuzgan bitimlarni amaga oshirishlari kerak, aks holda shartnomalar hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ana shu uchinchi tabiiy qonunda adolatning manbai va boshlanishi mujassamlangan.

Gobbsning fikricha ana shu uch qonundan tashqari yana 16ta tabiiy va o'zgarmas qonunlar mavjud. Ularning barchasi quyidagi qoidada mujassamlashgan: boshqalarning senga nisbatan qanday (munosabatda) bo'lishlarini xohlamasang, sen ham boshqalarga shunday (munosabatda) bo'lma. Tabiiy qonunlarning haqiqiy prototiplari sifatida amal qiluvchi (masalan, tovar egalarining, mulk egalarining) o'zaro aloqalari almashuv aktlari bo'lib yuzaga chiqadi va shartnomalar shaklida ifodalanadi. Shunday qilib, ayni almashuv va shartnoma Gobbsning fikricha kishilik jamiyatida tinchlik o'rnatish asoslari bo'lib chiqadi.

Tabiiy qonunlar individlarga ularning amalga oshirilishi istagini qo'yadi, ammo ular kishilardan ularga mos hatti-harakat ko'rsatishni talab qila olmaydi. Shuning uchun kishilarning nimaga huquqlari borligini, nimaning kimga qarashli ekanligini, nimaning huquq ekanligi yoki yo'qligini echib beradigan kuch zarur.

Gobbsning fikricha tabiiy qonunlarni amalga oshiradigan va tinchlikning kafolati bo'ladigan kuch – davlatning absolyut hokimiyatidir. U fuqaro qonunlarini yaratib, individlarni ularni bajarishga majbur qiladi. Tabiiy qonunlar tafakkurga tayansa, fuqaro qonunlari kuchga murojaat qiladi. Ular mazmun jihatdan bir xildir. Fuqaroviy qonunlar davlat avtoriteti va qudrati bilan mustahkamlangan tabiiy qonunlarning o'zidir. Ularni davlatning oddiygina istagi bilan o'zgartirib yoki yo'qotib bo'lmaydi.

Makevelli va Grotsiy kabi Gobbs ham davlatni teologik nuqtai nazardan emas, balki tafakkur va tajriba faoliyati natijasida tarkib topgan hodisa sifatida tushungan. Uning davlat vujudga kelishi haqidagi qarashi quyidagichadir. Davlat kishilar tomonidan vujudga keltirilgan bo'lib, "hammaning hammaga qarshi urushi"ga chek qo'yadi, "hokimiyatsizlikning ayanchli holati"ga doimiy "hamroh" bo'lmish himoyasizlik va majburan o'lim topish xavfidan qo'rqishdan qutqaradi. Kishilar bir-birlari bilan o'zaro kelishib, biror kishiga yoki kishilar yig'iniga o'zlari ustidan oliy hukmronlikni ishonib topshirishadi. Aynan davlat ana shu shaxs yoki shaxslar yig'inidir va u barcha kishilarning kuch va vositalaridan tinchlik va umumiy himoya uchun o'zi zarur deb hisoblagan yo'nalishda foydalanadi. Ana shuning ifodalovchisi – suveren, ya'ni oliy hokimiyat egasi, hukmdordir. U oliy hokimiyatga ega, boshqa barcha uning fuqarolaridir. Bir marta ijtimoiy shartnoma tuzib fuqaroviy holatga o'tgan individlar endi tanlangan boshqarish shaklini o'zgartirish, oliy hokimiyat ta'siridan ozod bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Ularga suverenning qarorlariga qarshi chiqish, uning hatti-harakatlarini qoralash taqiqlanadi. Suverenning o'z fuqarolariga nisbatan huquqlari esa juda kengdir. Bu holat yana shunisi bilan xarakterliki, suveren o'z xalqi bilan hech qanday shartnoma bilan bog'lanmagan, ya'ni u shaklan xalq oldida hech qanday mas'uliyatga ega emas.

Davlat vujudga kelishining boshqa yo'li ham mavjud, deydi Gobbs, u oliy hokimiyatni kuch bilan olish natijasida hosil bo'ladi. Buning natijasida paternalistik, ya'ni "otaga monand" (oiladagi ota va farzandlar munosabatiga taqlid qiluvchi) va despotik hokimiyatlar vujudga keladi. Shu ma'noda Gobbs davlatni ikki turga ajratadi: 1) ixtiyoriy kelishuvga asoslangan yoki siyosiy davlatlar, 2) jismoniy kuchga asoslanuvchi davlatlar. Davlat qanday turda bo'lmasin, ularda suverenning hokimligi doimo absolyutdir, ya'ni chegarasizdir. Oliy hokimiyat topshirilgan shaxs (yoki ularning yig'ini) fuqaroviy qonunlar bilan ham, fuqarolar bilan ham bog'liq emas. Suverenning o'zi qonunlarni amalga kiritadi yoki harakatdan to'xtatadi, urush e'lon qiladi yoki sulh tuzadi, tortishuvlarni hal qiladi, mansabdorlarni tayinlaydi va hokazo. Severenning huquqi bo'linmaydi va boshqa hech kimga berilmaydi.

Gobbsning fikricha ana shunday absolyut hokimiyatga ega davlat faqatgina mirshablik-himoyachilik vazifalarinigina bajarmaydi. Uning vazifalariga shuningdek "kemachilik, dehqonchilik, baliqchilik, ishchi kuchiga talabni vujudga keltiruvchi sanoatning barcha tarmoqlarini rivojlantirish" ham kiradi. Davlat mehnat qilishdan bo'yin tovlovchi kishilarni majburan ishga jalb qilish, tarbiyaviy-ma'rifiy faoliyat bilan ham shug'ullanishi kerak.

Gobbsning fikricha davlatni idora qilish uch shaklda bo'ladi: monarxiya, demokratiya (xalqni boshqarish) va aristokratiya. U davlat tuzilishini organizmning tuzilishiga qiyoslaydi: suveren – davlatning joni, xufiya agentlar – davlatning ko'zlari va hokazo. Fuqarolik jamiyati sog'likka qonand, qo'zg'olon va fuqarolar urushi esa – uni buzilish va halokatga olib keluvchi kasallikdir. Ammo Gobbs ta'limotida davlatni biologik organizmga o'xshatish emas, balki kishilar tomonidan yaratilgan va mohirlik bilan yasalgan "sun'iy insonga" o'xshatishga moyillik asosiydir. Bunda o'sha davrdagi fanlarda mexnikaning ta'siri kuchli

ekanligi aks etgan. Gobbsdan boshlab G'arbiy Evropa siyosiy tafakkurida davlatni uzoq va murakkab taqdirga ega mashina sifatida tushinish qaror topadi.

1688 yilda Angliyada davlat to'ntarishi yuz berdi. Absolyut monarxiya amaliyotini yuritgan qirol Yakov II Styuart o'rniga taxtga o'tirgan Vilgelm Oranskiy feodallar va burjuaziyaning ittifoqini ta'minlaydigan konstitutsiyali monarxiya tartibini joriy qildi. Ana shu kelishuvchilik siyosatini asoslovchi g'oya sifatida Jon Lokk ta'limoti yuzaga keldi.

Jon Lokk (1632-1704) o'zining ijtimoiy fikrlarini 1690 yilda chop etilgan "Davlat hokimiyati haqida ikki risola"sida ifodalagan. U o'z qarashlarida tabiiy huquq, ijtimoiy shartnoma, xalq suvereniteti, shaxsning ajralmas erkinliklari, hokimiyatlar muvozanati, zolim hukmdorga qarshi qo'zg'olonning qonuniyligi va boshqa g'oyalarni rivojlantirdi, ularni o'z davri talablariga moslashtirdi va yangi fikrlar bilan boyitdi. Buning natijasida ilk burjua liberalizmi doktrinasi vujudga keldi.

Lokkning fikrga ko'ra davlat vujudga kelgunicha kishilar tabiiy holatda bo'lishgan. Bu paytda "barchaning barchaga qarshi urushi" bo'lmagan. Individlar o'z mulklarini tasarruf etishda va shaxsiyatlarini amalga oshirishda hech kimdan ruxsat so'rashmagan va hech kimga bog'liq bo'lishmagan. Bu holda tenglik hukmronlik qilgan, "unda har qanday hokimiyat va har qanday huquq o'zaro bo'lgan hamda hech kim boshqadan ko'p narsaga ega bo'lmagan". Tabiiy holatda amal qiluvchi muomala qonun-qoidalari (normalari) bajarilishi uchun tabiat har kimga ularni buzgan kishilarni muhokama qilish uchun imkoniyat bergan. Biroq tabiiy holatda kishilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni beg'araz echadigan va tabiiy qonunlarni buzgan kishilarni jazolaydigan organlar (muassasalar) yo'q. Bu esa odatda bir tekis kechadigan hayotga ta'sir qiladi, qat'iyatsizlik muhitini vujudga keltiradi. Tenglik va erkinlikni, shaxsiyat va mulkni, tabiiy huquqlarini qat'iy ta'minlash maqsadida kishilar siyosiy birlashma, davlat tuzish haqida bir bitimga keladilar. Lokk kelishuvga oid quyidagi ta'kidni alohida ko'rsatadi: "Tinch vujudga keluvchi har qanday davlat xalqning kelishuviga asoslanadi".

Lokkning fikricha, davlat kishilarning o'zlari ishlab chiqqan va ular o'rtasidagi nizolarni echish hamda jinoyatchilarni jazolashga vakolatli bo'lgan sudlov instansiyalarini yaratuvchi umumiy qonun ostida birlashuvidir. Davlat kishilarning boshqa turdagi jamoalaridan (oila, xo'jalik va mulkdorlar birlashmalari va h.k.) siyosiy hokimiyatni aks ettirishi bilan farqlanadi, ya'ni jamoatchilik manfaatlarini ifodalovchi (hamda turli sanksiyalarni ko'zda tutuvchi) qonunlar yaratish huquqiga ega, ular esa mulkni saqlash va muvofiqlashtirish, shuningdek ushbu qonunlardan foydalanish uchun hamjamoatning kuchini ishga solish huquqi va davlatni chetdan bo'ladigan bosqinlardan himoya qilishni ko'zda tutadi.

Ko'ngilli ravishda davlatni vujudga keltirishda kishilar o'z tafakkuriga quloq solgan holda davlat ixtiyoriga berishadigan vakolatlarini aniq belgilab oladilar. Lokk bunda Gobbs ko'zda tutganidek, individlarning o'zlariga tegishli bo'lgan barcha tabiiy huquqlaridan davlat foydasiga voz kechadi, degan fikrni inkor qiladi. Uning fikricha, yashash huquqi, mulkka egalik huquqi, erkinlik va tenglik

kabilarni inson hech qachon birovga bema'iydi. Bular insondan begonalashtirilmaydigan qadriyatlardir.

Davlatning asosiy belgisi deb LOKK qonun va qonunchilikni ko'rsatadi. Fuqarolik jamiyatining yoki qonunchilik organining har qanday ko'rsatmalari qonun bo'lavermaydi. Umumiy farovonlikka va ayni holda kishining shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi ongli mazmundagi shaxsiy hatti-harakatlarga izn beruvchi aktlariga qonun bo'la oladi. Bundan tashqari, LOKKning fikricha, qonun doimiyligi (o'zgarimaslik) va uzoq amal qilish xususiyatlariga egadir.

Qonunchilik va tartib-intizom muhitini hamma narsadan ustun qo'ygan LOKK quyidagini alohida ta'kidlaydi: davlatda kim hukmdorlikni egallagan bo'lmasin, unga "tayoqgarliksiz, shoshilinch chiqarilgan farmonlar bilan emas, xalq tomonidan o'rnatilgan va unga ma'lum bo'lgan doimiy qonunga muvofiq boshqarish" vazifasi beriladi. Qonunlar davlatning "asosiy va ulug' maqsadlarini" barchaga ma'lum bo'lgan va barcha tomonidan bajarilgan holdagina amalga oshiradi. *Davlatda hech kim, hech qanday organ qonunga buyunsishdan ozod etilmasligi kerak.* LOKKning bunday pozitsiyasi uning XVIII-XIX asrlarda ishlab chiqilgan "huquqiy davlat" g'oyasining asosiy talablaridan ancha ilgari ketganligini ko'rsatadi.

Davlatning o'zi kabi, har qanday qonun ham ko'pchilikning xohish-irodasi va qaroriga ko'ra o'rnatiladi. Ko'pchilik bilan birga bitta hokimiyatga bo'ysunuvchi yagona siyosiy organizm tashkil qilishga rozi bo'lgan har bir kishi o'ziga "ko'pchilikning qaroriga bo'ysunish" majburiyatini oladi. Bu fikrlar LOKK qarashlarini liberal-demokratik ta'limot deb tavsiflashga asos bo'ladi.

Erkinlikni ta'minlash, siyosiy hamjamoaning "asosiy va buyuk maqsadi"ni amalga oshirish, LOKKning fikricha, davlatning vakolatlari uning turli organlari o'rtasida aniq-ravshan bo'lib berilishini talab qiladi. Qonun qabul qilish vakolati (qonunchilik hokimiyati) butun xalq vakillarining yig'ini bo'lmish parlamentga tegishlidir. Qonunlarni hayotga joriy qilish vakolati esa (ijro hokimiyati) monarxning, ministrlar mahkamasining tasarrufiga kiradi. Ular, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan aloqalarni ham tasarruf qiladilar.

Davlat hokimiyatining kimdir tomonidan sui'iste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmasligi, bu hokimiyatdan despotik foydalanish imkoniyatining oldini olish uchun LOKK "uning alohida qismlari"ning o'zaro aloqalari va munosabatlariga oid tamoyillarni ham belgilab beradi. Bunda hokimiyatning muayyan faoliyatni amalga oshiruvchi tiplari ierarxik tartibda joylashtirilgan. Birinchi o'rin oliy organ sifatida qonun chiqaruvchi hokimiyatga ajratilgan. Boshqa hokimiyatlar unga bo'ysunishi kerak. Ammo ular (ayniqsa ijro hokimiyati) qonunchilik hokimiyatiga nisbatan passiv bo'lib qolmasligi, balki unga faol ta'sir ko'rsatishi kerak.

Albatta, LOKK tiraniyaga, ya'ni "hokimiyatni huquqdan ajratib amalga oshiradigan hukumatga" aylanish xavfi bo'lmagan ideal davlat shakllarining bo'lmisligini yaxshi tushunardi. Qachonki hokimiyat organlari (qonunchilik hokimiyatimi yoki ijro hokimiyatimi, baribir) huquq va umumiy kelishuvni e'tiborga olmasdan, davlatda qabul qilingan qonunlarni chetlab o'ta boshlasalar, mamlakatni boshqarish parokanda bo'ladi, mol-mulk himoyasiz bo'lib qoladi va xalq vayronalikka uchraydi. Bu holda hokimiyatni qonunga xilof ravishda tortib

olgan shaxs (uzurpator)ning mamlakatda tartibni, osoyishtalik va tinchlikni shu usulda echish mumkinligi haqidagi ta'kidlariga, Lokk ular xohlayotgan osoyishtalik aslida tinchlik emas, balki bir siqim qaroqchi kishilargagina foydali bo'lgan zo'ravonlik va talon-taroj ekanligini qarshi qo'yadi. Bunday holda xalq "adolatni tiklash uchun kuch ishlatishga haqlidir". Lokkning fikricha xalq suvereniteti uning o'zi yaratgan har qanday davlat suverenitetidan yuqori turadi. Agar xalqning ko'pchiligi ijtimoiy shartnomani buzayotgan hukmdorning intilishiga chek qo'yishga qaror qilsa va ularning qonun, erkinlik va umumiy farovonlikka erishish maqsadida qurolli kuch bilan davlatni qayta tashkil qilishlari haqqoniy bo'ladi.

XVIII va qisman XIX asrda bir qator Evropa mamlakatlarida va AQShda eskirib qolgan feodal jamiyati tartiblariga qarshi vujudga kelayotgan kapitalistik jamiyat dunyoqarashini aks ettiruvchi ma'rifatparvarlik g'oyaviy yo'nalishi tarqaldi. Ma'rifatparvarlikning atoqli vakillari kishilarning "tabiiy tengligiga" asoslangan "tafakkur saltanati", siyosiy erkinliklar va fuqarolar tengligi o'rnatilishi uchun kurashganlar. Ular uchun xarakterli narsa shuki, mazkur g'oya vakillarining barchasi yangi tartibot hukmronlik qiluvchi ana shunday jamiyatni vujudga keltirishda kishilarga bilimlar tarqatish katta ahamiyatga ega, deb hisoblashgan. Ma'rifatparvarlar diniy dunyoqarashning yakka hukmronligiga qarshi kurashganlar. Angliyada J. Lokk, Fransiya – Volter, J.J. Russo, Sh. Monteske, P.A. Golbax, K.A. Gelvetsiy, D. Didro, Germaniyada – G.E. Lessing, I.G. Gerder, F. Shiller, I.V. Gyote, AQShda – T.Jefferson, B. Franklin, T. Peyn, Rossiyada – A.N. Radishchev, V.G. Belinskiy, A.I. Gersen, N.G. Chernishevskiy kabilar ma'rifatparvarlikning atoqli vakillari hisoblanadilar.

Volter (1694-1778) fransuz ma'rifatparvarligining asosiy vakillaridan biri sifatida erkinlik, insonparvarlik va bag'rikenglik (sabr-toqatlilik) talablarini yuqori ko'tardi. Jamiyatda amal qiluvchi va yo'qotilishi lozim bo'lgan ijtimoiy yovuzliklarning ildizini Volter eng avvalo bilimsizlikda (jaholatda), xurofot va irim-chirimlarning kuchli ekanligida deb bildi. Uning fikricha bularning asosiy suyanchig'i va sababchisi cherkov, katolitsizmdir. Volterning qat'iy ishonchiga ko'ra diniy fanatizm har qanday erkinlikning asosi bo'lmish so'z va vijdon erkinligini o'z iskanjasiga oladi va halok qiladi. Katolik cherkoviga qarshi mardona kurash olib borsa-da Volter din va diniylikni inkor etmaydi. U din xalq ommasi uchun zarur yugan sifatida saqlanib qolishi kerakligini aytadi.

U demokratikligi bilan ham ajralib turmaydi. Uning fikricha ma'rifatparvarlik, uning tamoyillari "tikuvchilar va etikdo'zlarga mo'ljallanmagan". Ilm-ma'rifatni, tafakkurni, fikrlash qobiliyatini yuksak darajada qadrlaydigan bu mutafakkir "qora xalq jiddiy o'ylay boshlasa, barcha narsa o'ldi demakdir", deydi. Jismoniy mehnat kishilari Volter uchun tiz cho'kib sajda qilishga arziydigan odamlar emas.

O'z asarlarida o'sib kelayotgan burjuaziyaning barcha odamlarning tengligini talab qilishini ifodalagan Volter bu tenglikni siyosiy ma'noda, ya'ni barchaning qonun va huquq oldidagi tengligi ma'nosida tushungan. Ijtimoiy va mulkiy tengsizlik esa, uning fikricha, ijtimoiy barqarorlik va jamiyatning normal rivojlanishi uchun zaruriy asosdir.

Jan Jak Russo (1712-1778) kelib chiqishiga ko'ra past tabaqa vakili edi. Shuning uchun uning qarashlarida jamiyatdagi mavjud tartibni keskin o'zgartirishga chaqiriqlar o'z ifodasini topgan. Asosiy asarlari: "Kishilar tengsizligining vujudga kelishi va asoslari haqida mulohazalar" (1754), "Abadiy tinchlik haqida fikr" (1782 yilda chop etilgan), "Ijtimoiy shartnoma haqida, yoki siyosiy huquq Tamoyillari" (1762).

U o'z qarashlarida ijtimoiy tengsizlik masalalariga katta ahamiyat beradi. Russo fikricha dastlabki davrda, ya'ni tabiiy holatda kishilarda xususiy mulk bo'lmagan paytda, barcha erkin va tengdir. Bu holatda ular orasida faqat tabiat ato etgan jismoniy tengsizlik bo'lishi mumkin. Tabiiy tenglikka zid bo'lgan xususiy mulkning va ijtimoiy tengsizlikning dunyoga kelishi bilan boylar va kambag'allar o'rtasida kurash boshlanadi. Bu holatdan chiqish uchun davlat hokimiyati va qonunlar tuzish haqida kelishuv tuzilishi kerak bo'lgan. Ammo bu mulkiy va siyosiy tengsizlikni vujudga keltirgan. Russo haqiqiy tenglik o'rnatadigan ijtimoiy shartnoma tuzish taklifi bilan chiqadi. Bu ijtimoiy shartnomaning oqibati uning fikricha quyidagicha bo'ladi: "Shartnoma munosabatlariga kirishayotgan alohida odamlar birlashma (assotsiatsiya) tuzishlari natijasida umumiy yig'ilishdagi ovozlar miqdoriga teng bo'lgan shartli Yagona jamoani tashkil qiladilar. Bu Yagonalik umumiy "Men"niga, o'z hayoti va irodasiga ega bo'ladi. Mazkur yuridik shaxs qachonlardir **Fuqarolik jamoasi** deb atalgan, hozir esa **Respublika** yoki **Siyosiy organizm** deb atalmoqda: uning a'zolari mazkur Siyosiy organizmni uning passiv holatida **Davlat**, faol holatida esa **Suveren**, boshqa unga o'xshagan hodisalar bilan taqqoslashda esa **Mamlakat** deb ataydilar. Bunday assotsiatsiyaning a'zolari oliy hokimiyatni boshqarishda qatnashuvchilar sifatida umumlashgan holda **xalq**, alohida holda esa **fuqaro** deb, Davlat qonunlariga bo'ysunuvchilar sifatida esa **fuqarolar** deb nomlanadilar".

Davlatga o'tish shartini Russo quyidagicha izohlaydi: alohida individdan shartnoma natijasida hosil bo'layotgan umumiylik (xalq, suveren, davlat) foydasiga olib berilayotgan tabiiy tenglik va erkinlik unga (ya'ni individga, ana shu umumiylikning ajralmas qismi, suveren-xalqning a'zosi, fuqaroga) shartnomaviy o'rnatilgan (ijobiy) huquq va erkinliklar shaklida qaytariladi. Ya'ni, Russo tili bilan aytganda, kishilarning tabiiy hayot tarzini fuqarolik turmush tarziga "almashtirish" yuz beradi. Ijtimoiy shartnomaga ko'ra barcha kishilar "kelishuv natijasida va huquq jihatidan teng bo'lib qoladilar".

Xususiy mulkni inkor etmagan holda Russo fuqarolarning mulkiy holatini bir-biriga nisbiy yaqinlashtirishni taklif qiladi, haddan ortiq boylik va hashamlarni, boylik va kambag'allikning keskin farqlanishini tanqid qiladi.

Umuman olganda ijtimoiy shartnoma, Russoning fikricha, siyosiy organizmga (davlatga) uning a'zolari ustidan cheklanmagan humronlikni beradi. Umumiy iroda tomonidan yo'naltiriluvchi ushbu hokimiyatni Russo suveren nomi bilan ataydi. Russoning fikri bo'yicha suverenitet yagonadir va u faqat xalq suvereniteti bo'lishi mumkin. Russo yagona suveren hisoblanmish "xalq" deganda yakobinchilar yoki marksistlar kabi jamiyatning muayyan ijtimoiy qatlamini (kambag'allar, "uchinchi tabaqalar", mehnatkashlar va h. k. kabi jamiyatning past qismini) emas, ijtimoiy shartnomada qatnashuvchi barchani (ya'ni, aholining,

millatning katta yoshdagi barcha erkaklarini) ko'zda tutadi. Xalq hokimiyat shaklini o'zgartirish, ijtimoiy shartnomaning o'zini yo'qqa chiqarish va o'ziga tabiiy erkinlikni qaytarish huquqiga ega.

5. Nemis klassikfalsafasi vakillarining ijtimoiy qarashlari

Iogann Gotfrid Gerder (1744-1803) fikricha insoniyat o'z taraqqiyotida qonuniy ravishda gumanizmga keladi, ya'ni ular tabiat tomonidan ato etilgan kuchlarni o'zlarining tafakkur va axloqini mukammallashtirish, bir-birlariga ijobiy ta'sir qilish yo'lida sarflaydilar.

Uning fikricha insoniyat tarixi quyosh sistemasi tarixining bir qismidir. Tarixiy taraqqiyot, uning fikricha, undan ilgari yuz bergan kosmologik taraqqiyot bilan bog'langan. Gerder inson va hayvonot olamining o'zaro bog'liqligini qat'iy ta'kidlagan. Insonning ustunligi uning tik yura olishidir. Hayvonlarda hid va ta'm sezgilari rivojlangan, odamda esa ko'rish sezgisi kuchliroq, uning qullari ozod bo'lgani sababli unda yaratuvchilik faoliyati, ayniqsa san'at taraqqiy etgan. Bular uning nutq qobiliyatini taraqqiy ettirgan. Shu ma'noda Gerder Monteske ishlab chiqqan geografik determinizm tarafdori bo'lib chiqadi. Kishilar turmush tarzi atrof-muhit xususiyatlari bilan belgilangan, ammo bu uning faolligini cheklamaydi. Inson o'z faoliyati bilan tashqi muhitni, iqlimni o'zgartiradi.

Inson tabiat saltanati va "gumanizm" ("insoniylik") saltanati, ya'ni o'z kuchi, aql va axloqini mukammallashtirish va ulardan foydalana olish sohasi orasida turadi. "Insoniylik"ning mazmuni boshqalarning azoblariga hamdard bo'la olish qobiliyati bo'lib, uning eng yuqori darajasi insonda mujassamlashgan. Tabiatdagi "insoniylik" kurtak holida bo'lib, uning atirgul misol ochilishi insonga bog'liq va u jamiyatning mazmunini tashkil etadi. Shunday qilib insoniyat tarixi tabiat taraqqiyotining davomidir.

"Insoniylik" iborasining mazmunini xudogo monandlik deb tushunish ham mumkin. Inson erdagi eng mukammal xilqat sifatida barcha kuchlarning eng mukammali – xudoning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Xudoga monandlik odamning tabiatning barcha qonunlarini anglay olishida ham aks etadi.

Gerderning jamiyat haqidagi konsepsiyasida ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi, sub'ekti sifatida unchalik buyuk bo'lmagan tarixiy shaxslar ko'rsatilgan. Jamiyatning taraqqiyoti kashfiyotlar, yangi bilimlarga bog'liq. Kashfiyotchilar insoniyatning haqiqiy qahramonlaridir, deydi u.

Gerderning fikricha jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri traditsiyalar, an'analardir. Ijtimoiy rivojlanish kishilar faoliyatining oqibatidir. Tabiat kishilarni ijtimoiylikning ilk bosqichi bo'lmish oila tashkil etilishigacha olib keldi. Bunda jamoa patriarxal tamoyilga asoslanadi. Jamiyatning ikkinchi bosqichi - hokimiyat saylanuvchi sudyalar va harbiy dohiylardan iborat. Uchinchi bosqich – despotik hokimiyat bo'lib, u avloddan avlodga o'tish bilan xarakterlanadi. U despotizmni, monarxiyani ayovsiz tanqib ostiga oladi. Uning despotizmni tanqid qilishi buyuk shaxslarni tanqid qilish bilan qorishib ketgan: "Tarixdagi eng buyuk nomlar inson turini bug'ib kelgan tojdor jallodlar yoki taxt egalarning yaqinlariga tegishlidir". Tarixning haqiqiy qahramonlari insoniyatning ijodiy qobiliyatini aks ettiruvchi va uning san'atini rivojlantiruvchi kashfiyotchilardir.

Gerderning fikricha insoniyat taraqqiyotidagi eng buyuk xalq greklardir. U erda qonunchilik ilk bor dindand ajratilgan. Rohiblar bu erda boshqa xalqlar hayotida yuz berganidek cheksiz hurmatga ega emasdilar.

Haqiqiy insoniylik Iisusning ta'limotida mujassamlashgan, u kambag'allar va ezilganlar orasida o'ziga ko'plab tarafdorlar topdi, biroq tezda rohiblar uni yakson qildilar. Inson avlodlaridan Xristos boshqalar baxti uchun mehnat qiluvchi ilohiylashgan odamlarni vujudga keltirmoqchi edi. Xristianlik jamiyati do'stlik va birodarlarcha muhabbat jamiyati bo'lishi kerak edi. Biroq u tabaqaviy tengsizlikni tugata olmadi va tugatishni xohlamadi, shuning uchun uning insoniyligidan kambag'allik meros bo'lib qoldi. Evropa mamlakatlari tarixi misolida Gerder zo'ravonlik asta-sekin o'z o'rnini tinchliksevarlikka bo'shatib berishi haqidagi fikrni aytadi.

Immanuel Kant (1724-2804) o'z qarashlarida ko'proq sof falsafiy, axloqiy va estetik masalalar xususida fikr yuritgan. Russo qarashlari ta'siri ostida Kant har qanday shaxs oliy maqsaddir va u qandaydir vazifalarni bajarish yo'lida vosita sifatida qaralmasligi kerak, hatto bu maqsad eng oliy bo'lgan taqdirda ham, degan fikrni aytgan.

Kant insonni tabiat va jamiyatning passiv hodisasi deb tushunishlarga qarshi chiqadi va unda eng avvalo mustaqil hatti-harakat yurituvchi va o'z-o'zini barkamollashtiruvchi sub'ektni ko'radi. U Russo kabi kishilardagi erkinlik ularning o'z shaxsiy istaklarini jilovlay olish va boshqalar erkinligini hurmat qilishda deb biladi. Inson hatti-harakati tashqi sabablar bilan belgilangan hayvonlardan o'z hatti-harakatining mustaqil asoslanganligi bilan farq qiladi. Mustaqil motivatsiyaga qobil bo'lgan inson "o'z-o'ziga maqsad"dir, boshqa barcha jonivorlar esa oddiy "vositalardir".

Murakkab mantiqiy yo'llar bilan Kant o'zining axloqiy qonun nazariyasini ifodalaydi. Axloqiy qonunga muvofiq inson o'zining boshqa kishilarga nisbatan hatti-harakatida ularning o'zi kabi mustaqil ekanligidan, ya'ni ularning ham boshqalar faoliyati uchun vosita emas, balki o'z-o'zicha maqsad ekanligidan kelib chiqishi kerak. Mazkur axloqiy qonunda boshqa kishilarning ham daxlsizligi e'tirof etiladi. Shu ma'noda, Kantning fikricha, har bir kishi o'zi anglamagan holda (apriori) insonning tabiatdagi boshqa narsalar va jonivorlardan yuqorida turishini hamda o'zlarining boshqa kishilar bilan tengligini ko'radilar.

Kantning fikricha, shartnomaga asoslangan munosabatlarni bajarishda har ikki tomon shartnoma, kelishuv, va'da kabilarga asoslangan insoniyat jamiyatini yakson qilmaslik uchun o'z egoizmigagina emas, balki o'zlarining cheklanganliklariga ham asoslanadilar. Agar kishi tabiiy egoizm pozitsiyasini egallasa ana shu "ikkinchi tabiat" zarar ko'radi. Shu ma'noda axloqiy hatti-harakat mening hatti-harakatim tufayli boshqalarga zarar etmasligi, ana shu "ikkinchi tabiatni" saqlash yo'nalishida bo'lishi kerak.

Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831) o'z qarashlarida nemis falsafiy fikrini eng yuqori cho'qqiga olib chiqadi. Tarix uning fikricha qonuniylik sohasi bo'lib, bu sohadagi qonuniylik tabiiy qonuniylikdan farq qiladi. Mazkur qonuniylik kishilarning ongli faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Tarix "dunyoviy ruhning zamondagi taraqqiyoti" hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining tarixi o'z maqsadiga ega – bu erkinlikning, "fuqarolik" jamiyatida fuqaro erkinligining rivojlanishidir. Erkinlikning amalga oshirilishi, Gegel fikri bo'yicha, ruhning o'z-o'zini erkin his qilishini anglashni ham o'z ichiga oladi. Shu ma'noda tarix "erkinlikni anglash yo'lidagi taraqqiyot" hamdir. Shu nuqtai nazardan Gegel dunyo tarixida uch bosqichni bir biridan farqlaydi. Qadimgi sharq xalqlari yagona bitta inson erkin ekanligini anglaganlar, greklar va rimliklar esa muayyan guruhni erkin deb hisoblaganlar va faqat Gegelning zamondoshlari bo'lmish "german" xalqlarigina barcha kishilar erkinligini tushunganlar. Umuman olganda jamiyat tarixi dunyoviy ruhning o'z-o'zini anglash tomon harakati bosqichlaridir.

"Dunyoviy ruh" taraqqiyoti avtomatik tarzda ro'y bermaydi, u kishilarning amaliy ishtirokisiz, "umuman kishilarning faolligisiz" hech narsa qilolmaydi. Bir-biridan farqlanuvchi egoistik manfaatlar, qiziqishlar bilan harakatlantiriluvchi insoniy faollik, Gegelning fikricha, yagona vosita hisoblanadiki, uning yordamida tarix o'zining eng ichki xohish-maqsadini amalga oshiradi.

Ruhning o'zi esa na ishlay oladi, na kurashadi, u o'zi uchun insoning faoliyat ko'rsatishiga imkon beradi. O'zlarining alohida manfaatlarini ko'zlagan kishilar esa, o'ylaganlaridan ham ko'ra ko'proq narsani amalga oshiradilar. O'zlari anglamagan holda ular tarixni olg'a surib, uning qonuniyatlarini yuzaga chiqaradilar.

Jamiyatda haqiqiy tarixiy qahramonlarning, "dunyoviy faoliyat ko'rsatuvchi individlarning" o'rni g'oyat katta, ularning manfaatlari, qiziqishlari tarixiy ahamiyatga molikdir. Ularning hatti-harakati ham ularning egoistik maqsadlaridan kelib chiqadi. Ammo ayni ana shu maqsadlar ba'zan umumiy "dunyoviy ruhning irodasiga" mos tushadi. Bunga misol tariqasida Gegel Aleksandr Makedonskiy va Sezarni ko'rsatadi. Erkinlikni anglash sari taraqqiyot jamiyat tarixining ichki mazmunini tashkil etadi, ammo u Gegelning fikricha sof sub'ektiv ravishda, ya'ni erkinlikning refleksiyasi ma'nosida tushunilmasligi kerak. G'oyaning ichki xarakteri Gegelda ideya reallikka aylanishi uchun albatta tashqi hodisaga aylanadi. Erkinlikning tarixda ob'ektivlashuvi davlat hisoblanadi.

Shu bilan, Gegelning fikricha, tarix va davlatning birligi hosil bo'ladi. Davlat yaratmagan xalqlar tarixga taalluqli emas, ular tarixiy emasdir, deydi Gegel.

Dunyoviy ruhning tarixiy taraqqiyoti bir necha bosqichlardan iborat, bunda erkinlik asta-sekinlik bilan, vaqt bo'yicha tarixiy jihatdan cheklangan davrlar mobaynida amalga oshadi. Mazkur davrlarning har biri uchun muayyan "xalq ruhi" hukmrondir, ya'ni shu davrda o'z xarakteri, jamiyat axloqi, davlat tuzilishi va h.k.larga ko'ra eng muhim ahamiyat kasb etgan xalqning o'ziga xosligi aks etadi. U o'z tarixiy vazifasini ado etgach, o'z o'rni boshqa xalqqa bo'shatib beradi va abadiy tarzda chekkaga chiqib ketadi.

Gegelning fikricha "xalq ruhlari" ketma-ketligi quyidagichadir: hammadan pastda sharq xalqlari – Qadimgi Xitoy, Hindiston, Fors xalqlari turadi. Ulardan keyin grek dunyosi, Qadimgi Gretsiya jamoalari turadi, ular esa o'z navbatida rimliklarning universal imperiyasiga o'rin bo'shatib beradilar. Dunyoviy tarixning

yuksak davri german dunyosidir, u G'arbiy Evropaning xristian xalqlarini o'z ichiga oladi.

German, ya'ni G'arbiy Evropa xalqlarining uzoq tarixi Gegelning fikricha uch asosiy davrdan iborat. Birinchi davr germanlarning Rim imperiyasiga kirib kelishi, xristian qadriyatlarining egalari sifatida ularning G'arbiy Evropani egallashlari davrini oladi. Bu davr tarixga Buyuk Karlning chiqishi bilan tugaydi.

Ikkinchi davr Buyuk Karl va Karl V davrlarini (XVI asrning birinchi yarmini) o'z ichiga oladi. Bu davr xristianlik ma'naviy mazmunining tanazzuli, uning oliy tabaqalar, mulkdorlar, iqtisodiy va siyosiy manfaatlar bilan bog'lanishini o'z ichiga oladi.

German dunyosining uchinchi davri nemis Reformatsiyasidan to Gegel zamonigacha bo'lgan Yangi davrni o'z ichiga oladi. Reformatsiya katolik cherkovi tashqi avtoritetning hurmati oldida cho'kish darajasiga tushirib qo'ygan ichki erkinlikni yangiladi va chuqurlashtirdi. Gegelning fikricha navbatdagi taraqqiyot uchun ikki narsa muhimdir: manfaatlarga xizmat qiluvchi davlat tuzish va protestant diniga mos erkinlik shaklini va inson ichki dunyosini erkin ravishda amal qila oladigan individual irodaga aylantirish. Reallikda bu narsa hunarlar bilan erkin shug'ullanish, insonning mehnat qilish va qobiliyatini sota olish, barcha davlat muassasalariga erkin kirish huquqlarini anglatadi.

Siyosiy erkinlikni amalga oshirish, Gegelning fikricha, tarixni o'zining so'nggi bosqichiga, bizning kunlarimizga olib keladi. Gegel fransuz burjua revolyusiyasi tufayli amalga osha boshlagan erkinlikni universal insoniy huquq sifatida dunyoviy ahamiyatga molik hodisa deb hisoblaydi. Shu ma'noda u revolyusiyaga tarixning buyuk hodisasi deb baho beradi: "Bu quyoshning ajoyib chiqishi bo'ldi".

Takrorlash uchun savollar:

1. Xristian nazariyotchilarining inson va jamiyat haqidagi teotsentristik fikrlari nimani anglatadi?
2. Uyg'onish davri gumanizmining mohiyati nimadan iborat?
3. Ma'rifatparvarlar dunyoqarashida ijtimoiy hayot masalalari qanday echilgan?
4. Nikollo Makiavellining "maqsad unga erishishning har qanday vositasini oqlaydi", degan fikriga qanday qaraysiz?
5. Xayoliy sotsializm vakillarining jamiyatni yangilash haqidagi fikrlarini tushuntirib bering.
6. XVII-XVIII asr ingliz va fransuz mutafakkirlarining ijtimoiy hayot haqidagi fikrlarida qanday kamchiliklar bor edi?
7. Fransuz ensiklopedistlarining ijtimoiy fikr rivojidadagi o'rni qanday baho berasiz?
8. Nemis mutafakkirlari dunyoqarashida inson va jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot masalalari qanday ochib berilgan?
9. Insoniyat tafakkuri tarixida Gegel qanday o'rinni egallaydi?

6-mavzu. Hozirgi davrda shaxs va jamiyat taraqqiyoti masalalariga doir fikrlar va qarashlar

Hozirgi zamon jamiyatshunosligi ijtimoiy taraqqiyot haqida o'zidan oldingi tarixiy qarashlarining mantiqiy davomi bo'lib, ularga vorislik munosabatlarini namoyon qiladi. Ya'ni, jamiyat haqidagi ta'limot va nazariyalarning ijodiy rivojlantirilishi, bir tomondan uning umumiy rivojlanish xususiyatlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, tarixiy taraqqiyotning nazariy, metodologik, amaliy jihatlarini konkretlashtiradi va istiqbollarini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi zamon jamiyatshunosligini insoniyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy qarashlarning davomi sifatida qarash lozim.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlari insoniyat tarixida ilmiy-texnika inqilobi asri, deb nom oldi. Boshqacha qilib aytganda, fan-texnika taraqqiyoti va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari jamiyatni yangi sifat bosqichlariga olib keldi. Bu davrga kelib yirik ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Jozef Toynbi (1889-1975) ta'kidlaganidek: «Tabiat ustidan Inson emas, balki u yaratgan texnologiya g'olib bo'ldi. Natijada, inson tabiatdan, o'z mavjudlik asoslaridan begonalashmoqda, Texnologiya insondan ko'ra hukmdorroq, yovuzroq bo'lib, insonni o'ziga tobe qildi. Endi insoniyatning hayoti nafaqat tahlikali, balki fojiali bo'lib qolmoqda». Bu esa, o'z navbatida, jamiyatshunoslik fanlarining andozalari, qarashlari tizimini o'zgartirishni taqozo qildi.

Hozirgi zamon jamiyatshunosligi g'oyat xilma-xil muqobil ta'limotlardan iborat. Jamiyatni tashkil qilgan asos yoki ularning tizimi haqidagi turli-tuman qarashlar, insonning ijtimoiy munosabatlari tarkibidagi ayrim jihatlariga muayyan manfaatlar asosida yondoshib, ularni mutlaqlashtirishdan kelib chiqqan. Jamiyat haqidagi muqobil qarashlarning turli-tumanligi, bir tomondan, uni kompleks-sistemali tasavvur qilishga imkon beradi. Ikkinchi tomondan, «ta'limotlar ummonidan» ma'qulini tanlashni murakkablashtiradi. Shuning uchun insoniyat oldida: qaysi ta'limot ilmiy, ob'ektiv haqiqatga davogarlik qilishi mumkin, degan savol muqarrar bo'lib qolmoqda.

Biz jamiyatshunoslikning biror ta'limotini ob'ektiv haqiqat tarzida ko'rsatish fikridan yiroqmiz. Zero, har qanday ta'limotda ratsional mazmun, muayyan ijtimoiy guruh yoki tabaqaning manfaati ifodalangan. Faqat ularning mohiyatini milliy va umuminsoniy manfaatlarini qanday tarzda uyg'unlashtirgan, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagiga qay darajada hissa qo'shadi, degan mezonlar asosida baholash zarurligini eslatmoqchimiz, xalos.

1. Asosiy oqimlar haqida

Hozirgi zamon jamiyatshunosligidagi (bizning nazarimizda, hozircha nisbatan kam o'rganilgan) asosiy yo'nalishlarining ayrimlari haqidagi fikrlar diqqatiningizga havola qilinmoqda.

Irratsionalizm (lotincha irrationalis - aqlsiz, ongsiz) falsafiy atama bo'lib, jamiyat hodisalarini bilish sohasida ham ikki xil ma'noda ishlatiladi: birinchisi – jamiyatni bilish, anglash mumkinligini e'tirof etuvchi falsafiy ta'limotga qarshi bo'lgan «agnostitsizm» (ya'ni bilish mumkinligini inkor qilish) ko'rinishda o'z aksini topgan. Ya'ni, faqat aql yordamida bilimga ega bo'lish tamoyilining qarama-qarshi tomonidir. Ikkinchisi - bilishning noaqliy (yoki, aqldan quyi, yoki

yuqori) bosqichlari borligini ham e'tirof qiladi va shu bosqichlar mazmunining tahliliga alohida e'tibor beradi. Shu ma'noda, irratsionalizm aqliy faoliyat sohasini jamiyatshunoslik sohasida ham cheklangan deb hisoblaydi.

Irratsionalizm - inson ruhiy faoliyatining ratsionallik doirasidan tashqarida chiquvchi xilma-xil jihatlarini birinchi o'ringa suradigan turli falsafiy tizimlar va yo'nalishlar tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, irodani (volyuntarizm), intiutsiyani (intuitivizm), ongsizlikni (psixoanaliz) va boshqalarni mutlaqlashtirganligini ko'rishimiz mumkin. Barcha dinlarning insonning mohiyati va jamiyat haqidagi mistik ta'limotlari irratsional (noratsional) tabiatga ega. Islom dinida bu - tasavvuf, Hindistonda shakllangan dinlarda - yoga, Xitoydagi buddizimda - dzendir. Jamiyatshunoslikka oid diniy dogmatika va rasmiy ta'limotlarining ayrim shakllari (xususan, teologiya) ratsional xususiyatga ega. Shu ma'noda, irratsionalizm qarashlari qadimiydir. Faqat XVII-XVIII asrlarga kelib, uning nafaqat tabiatshunoslikda, balki jamiyatshunoslikda ham ratsionalistik jihatlar ustuvorlashdi va XIX asr oxirlariga qadar hukmronlik qildi.

Hozirgi davr fani ratsionallikka asoslangan. Bilishning ratsional shaklidan boshqa yuqoriroq darajalari mavjudligi haqidagi qarashlar, qadimiy manbalardan bo'lgan, Hind falsafiy merosida bayon etilgan. Unda eng oliy haqiqatga, hatto eng yuqori darajada rivoj topgan aql yordamida ham erishib bo'lmaydi, degan aqida hukmronlik qiladi. Bu ta'limotda, Oliy haqiqatga erishish uchun Oliy reallikka singib, u bilan uyg'unlashib ketish kerak, degan g'oyalar ilgari surilgan. Bunday singib ketish natijasida, inson ongi «yorishadi» deyiladi va bu tasavvuf falsafasida Haqqa (Oloh visoliga) etishish tarzida izohlanadi. Bunday g'olarni so'fiylar ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Nasafiyning «Zubdatul haqoyiq» (Haqiqatlar qaymog'i), A.Navoiyning «Lison ut-tayr» (Qush tili) va boshqa sufizm ta'limotlari ilgari surilgan tarixiy manbalar, ularning namunasidir.

XX asrning yirik hind mistik faylasufi Aurobindo Ghosh: «Aql - inson tabiatini (shu jumladan, o'z ijtimoiy mohiyatini, jamiyatni - M.S.) to'liq o'zgartira olmaydi», - deb hisoblaydi. Uning fikricha, aql turli ilmiy tizim va doktrinalarni yaratishdan nariga o'ta olmaydi. Vaholanki, bu tizimlarda ifoda etilgan g'oyalarning o'zi nisbiy va to'liq emas. Ijtimoiy hayot esa, har qanday formula va tizimlarni chetlab o'tadi, u inson intellektiga, irodasiga bo'syunmaydigan, beqiyos murakkab va cheksiz yashirin imkoniyatlarga egadir. A.Ghosh ong evolyusiyasining aqldan yuqori va aqldan quyi ko'p pog'onalari mavjudligini, hozirgi davr Evropa irratsionalistik falsafiy oqimlari, xususan psixoanaliz onging aqldan boshqa shakllarini o'rganish uchun endigina qadam qo'yayotganini ko'rsatib berdi. Bunday diniy- falsafiy qarashlarni bugungi kunda ham Osho va Maharishi Mahesh Yogi ta'limotlarida ko'rishimiz mumkin. Bu ta'limotlar, asosan Hind qadimiy manbalari hisoblangan Vedalarda o'z aksini topgan.

Pozitivizm (lotincha positivus - ijobiy) yo'nalishining asoschilaridan biri Ogyust Kontdir (1798-1857). Kont ta'limoti fransuz ma'rifatparvarligi an'analari keng tarqalayotgan davrda shakllandi. 1848 yildagi inqilobdan keyin «Pozitiv siyosat tizimi» degan asarida, u o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon qildi. Kont pozitiv falsafasining asosiy g'oyasi - fan hodisalarining tashqi qiyofasini tasvirlab ko'rsatish bilan chegaralanishi kerak. Shu nuqtai nazardan Kont

metafizikaga shubha bilan qaraydi va «metafizika» hodisalarning mohiyati haqidagi ta'limot sifatida bartaraf qilinmog'i lozim, degan da'vo bilan chiqadi. O. Kont bilish tarixini 3 davrga bo'ladi. Uning fikricha har bir davr dunyoqarashning muayyan tipiga: teologik, metafizik va pozitiv tiplarga muvofiq keladi. Kont o'zining uch bosqichli sxemasidan fanlarni turkumlash hamda fuqorolik jamiyati tarixini sistemalashtirish uchun foydalangan.

Kont fikricha, metafizik dunyoqarash, teologik dunyoqarashning o'zgartirilgan shakli bo'lib, barcha hodisalarning asosini - abstrakt metafizik mohiyatlar tashkil qiladi. Shuning uchun, teologik va metafizik dunyoqarash o'rniga, «mutloq bilim» - (materializm va ob'ektiv idealizm)dan voz kechadigan «pozitiv metod»larni qo'llashni taklif qiladi. Kontning fikricha, fanning vazifasi hodisalarning «nima uchun»ligini uqtirib berish emas, balki ularning «qanday»ligini yoritib berishdan iboratdir.

Kont jamiyat hodisalarini izohlaydigan fanga «sotsiologiya» terminini ilk bor kiritib, sotsiologik ta'limotining asosiy g'oyasi – jamiyat tartiblarini inqilobiy yo'l bilan o'zgartirish beryotgan, deb e'lon qildi. Kontning sotsiologiyasi ijtimoiy hodisalarni solishtirish va tahlil etish uslublariga asoslanadi. Kont oila, tabiiy muhit, urushlar, madaniyat, san'at, iqtisodiy ishlab chiqarish rivoji va boshqa jarayonlarining ijtimoiy masalalarini tahlil qiladi. Shu bilan bir qatorda, sotsiologiya fanini miyaning fiziologik jarayonlarini o'rganuvchi fiziologiya faniga bog'lab qo'yadi. Keyinchalik, pozitivizmning rivojida ingliz olimlari Djon Styuart Mill (1806-1879), Gerbert Spenser (1820-1931) lar katta rol o'ynadilar.

S.Mill Kontning pozitivizm g'oyalariini qabul qildi, lekin ijtimoiy-siyosiy qarashlarida, unga qo'shilmaydi. Uning asosiy ilmiy g'oyalari «Mantiq tizimi» asarida (1843 y. chop etilgan) bayon etilgan.

Gerbert Spenserning 1850 nashr qilingan «Sotsial statika» degan yirik asarida organik rivojlanish g'oyalarini ijtimoiy taraqqiyotga tadbiiq etadi. Spenser tarixda buyuk shaxslarning hal etuvchi roli haqidagi fikrlarini butunlay inkor etadi. Ijtimoiy evolyusiyaning yo'nalishlari va kelajagi haqida gapirar ekan, jamiyatni uch turga ajratadi. **Birinchi**, davlat hokimiyatiga bo'ysunuvchi harakterga ega bo'lgan harbiy tizimga asoslangan zo'ravonlik (despotizm); **ikkinchi**, davlat hokimiyati huquqlari minimumga keltirilgan va shaxs ozodligi va faoliyatini ta'minlaydigan sanoat tizimidir. **Uchinchi** esa, sotsializmga qarama-qarshi ijtimoiy evolyusiyaning kelgusi bosqichi sifatida erkin iqtisodiy munosabatlarning yuzaga kelishidir. 1860 yilda Spenserning «Sintetik falsafiya» nomli 10 jildlik asari nashrdan chiqarilgan bo'lib, unda jamiyatshunoslikka oid original g'oyalar ilgari surilgan. Keyinchalik, pozitivizmning rivojlanishi natijasida, neopozitivizm oqimi vujudga keldi.

Neopozitivizm (positivus - ijobiy, neos - yangi), ya'ni yangi pozitivizm - XX asr falsafasining g'arb mamlakatlarida eng ommalashgan, ilmiy-ma'naviy muhitga katta ta'sir ko'rsatgan va nisbatan yuksak mavqeiga ega bo'lgan falsafiy oqimdir.

Neopozitivizmning g'oyaviy asoschisi Avstriyalik mantiqshunos va fizik olim Morits Shlik (1882-1936) hisoblanib, XX asrning 20-yillaridan boshlab shakllanadi va tezda rasmiy falsafiy oqim sifatida e'tirof etilgan. Vena

universitetning ko'zga ko'ringan matematiklari Morits Shlik rahbarligida «Vena to'garagi» nomli uyushma tuzishgan. Bu uyushmaning diqqat markazida turgan muammo - falsafa va fanning o'zaro munosabati masalasi bo'lib, falsafaning ijtimoiy voqelikni bevosita bilishi mumkinligi, mustaqil fanligi inkor qilinsa ham, mantiqiy ravishda, metodologik rolini e'tirof etishga majbur bo'lishgan. Bunda falsafaning aniq taqiqot ob'ekti yo'qligi ro'kach qilinadi. Neopozitivizm falsafiy tafakkur tarixida ishlab chiqilgan barcha vosita va uslublardan foydalanadi. Keyinchalik neopozitivizmning mantiqiy va lingvistik pozitivizm ko'rinishlari yuzaga keladi.

Neopozitivistlar asosiy e'tiborni jamiyatda ham mavjud bo'lgan timsol va belgilarni mantiqiy ziddiyatlardan (falsafiy abstraksiyalardan) xalos etishni, ilmiy bilishni matematik mantiq va matematika tamoyillari kabi ixcham, aniq atamalarga ko'chirishga da'vat etishgan bo'lsa, «lingvistik tahlil» falsafasida ilmiy «til»ni kundalik turmush «til»i darajasiga yaqinlashtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi.

Neopozitivizmning yana bir ko'rinishi *konvensionalizm* va *fizikalizmdir*. Konvensionalizmning ma'nosi, fanda ilmiy tadqiqot uchun qo'llaniladigan atamalar «konsensus» (ya'ni, kelishuv, shartlashuv) yordamida butunlay «erkin» qabul qilinadi, degan tezis asosiy tamoyil qilib olinadi.

Fizikalizm XX asrning 30-yillarida paydo bo'lgan. Uning vakillari: avstraliyalik fiziklar R.Karnap, O.Neyrat, G.Feygl, F.Frank va ingliz matematigi A.Ayerlardir. Fizikalizm ta'limotining asosiy ma'nosi shundan iboratki, go'yoki qandaydir universal til yordamida barcha fanlarni birlashtirish mumkin. Fizikalistlr fikricha, universal til vazifasini faqat matematika, fizika bajara oladi deb, ijtimoiy hodisalarni bilish sohasiga ham tabiatshunoslik va aniq fanlarining tushunchalarini tatbiq etishga harakat qilishgan. Albatta, ma'naviy faoliyatning muhim yo'nalishi sifatida, har qanday fanning umumiy tamoyillari mavjud, lekin ularning nisbiy mustaqilligini ham, tadqiqot ob'ektlari xususiyatlarini ham, uslub-vositlari xilmaxilligini ham etirof etish kerak.

Neopozitivizm vakillari gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasiga ilmiy texnika inqilobi yutuqlarini kiritishdi. Masalan, til simbolik vositalar va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro munosabatlarini tadqiq etishga; axloq odob, estetika, inson falsafasi muammolari orqali kirib borishi shular jumlasidandir. Neopozitivizm oqimining aksariyat ko'pchilik vakillari gumanizm va demokratiyani yoqlab, avtoritar hokimiyatni, totalitar davlatlarni tanqid qilishi bilan ijtimoiy-siyosiy hodisalarga o'z munosabatlarini namoyon qiladilar. Ma'lumki, biror narsa yoki hodisaga munosabat bildirish, uni bilish jarayonini ifodalaydi. Ingliz mutafakkir-olimi B.Rassel izchil ravishda tinchlikni, demokratiyani targ'ib qilgan va unga erishish uchun kurashgan. Yoki K.Popper o'z davrida totalitarizm tizimiga qarshi kurashib, sovet tuzumi - «yopiq jamiyat»ni tanqid qilgan.

Neotomizm - (yangi tomizm) XIII asrda italiyalik faylasufi Foma Akvinskiy (1225-1274) asos solgan, tomizmning XX asr voqeligida tiklashga urinuvchi diniy-falsafiy ta'limotdir.

Neotomizmga 1879 yilda papa Lev XII va Piy X tomonidan 1914 yil e'lon qilingan «24 tezis» asos bo'ldi. Neotomizm ta'limotiga ko'ra, ilm va diniy e'tiqod

birgalikda mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, diniy e'tiqod va ilmiy bilimlar oqilona birlashtirilsa, ular o'zaro zid bo'lmaydi, balki bir-birlarini to'ldiradi. Din va ilm, aslida bitta maqsadga olib boruvchi ikki yo'ldir. Shuning uchun inson aql-zakovatining yagona maqsadi – Xudoning marhamatini anglash, uni bilishdir. Barcha jamiyatshunoslik fanlari ham bundan mustasno emas. Falsafa va din munosabati xususida neotomizm: «Falsafa - ilohiyatning xizmatkoridir», deb ta'kidlashadi.

Neotomizm jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tabaqalanish jarayonini o'rganuvchi sotsial ilohiyotchilikka ham katta e'tibor beradi. Bu sohada ham ularning turli yo'nalishlari mavjudligini ko'ramiz, Masalan, xristianlikni «buyuk ijtimoiy umid» sifatida talqin etadigan siyosiy ilohiyotchilik ham neotomizmning muhim yo'nalishidir. Bu sohalarda U.Assman, R.Blankor, J.Kamblnd, B.Borovoy, I.Metsva boshqalar g'oyaviy rahnamolardir. Shuningdek, «Inqilob teologiyasi», «Ozodlik teologiyasi» va «Taraqqiyot teologiyasi»ga doir masalalarda G.Gute, R.Ress, L.Boff, M.Vanino hozirgi ozodlik harakatlariga oid xristianlik ruhidagi talqinlari bayon qilingan. Ushbu talqinlarning barchasiga teologiyani falsafa bilan, eng avvalo, intiutsizm, pragmatizm bilan qo'shib izohlash, katolitsizmni hozirgi davrga moslashtirishga urinish xarakterlidir.

Pragmatizm (yunoncha - pragmatos - «ish», «hatti-xarakat» ma'nolarini anglatadi) XIX asrda AQShda vujudga kelgan falsafiy oqim bo'lib, asosiy g'oyalari Ch.Pirs (1839-1914) tomonidan ishlab chiqildi. XX asrlarda G'arb mamlakatlarida keng yoyildi. Ch.Pirs «E'tiqodning o'rnatilishi» degan asarida (1878-1879) e'tiqod va burch o'rtasidagi farqni ajratishga urindi. Ya'ni, ularning birinchisi - harakatga undasa, ikkinchisi - e'tiqodga erishish uchun kurashga rag'batlantiradi. Pragmatizmning xarakterli xususiyati shundaki, u yoki bu ob'ektlar haqidagi tushunchalarning ma'nosi va ahamiyati ular keltirib chiqargan amaliy natijalardan qidiriladi. SHuning uchun ham Ch.Pirs pragmatizmni; «Haqiqatni qidirish, manfaatdorlik bilan belgilanuvchi ta'limot» deb ta'riflagan edi.

Pragmatizmning asosiy g'oyalari Ch.Pirsning «Ishonchni mustahkamlash» (1877) va «G'oyalarimizni qanday qilib ravonlashtirish mumkin» (1878) maqolalarida bayon qilgan. Pirsning g'oyalarini davom ettirgan shogirdi U.Jeyms (1842-1910) falsafiy ta'limotida inson ruhiy faoliyatining tabiatini tadqiq qilishga urinish etakchi o'rinni egalaydi.

Hudoga bo'lgan ishonchda Jeymsning tasavvuri aynan amerikacha xususiyatga ega edi. Boshqa xalqlar tasavvurida Xudo buyuk va qudratli bo'lsa, uning tasavvurida Xudo insonning hayotdagi hamrohi va insondan Xudoga qanchalik naf tegsa, Xudodan insonga ham shunchalik naf tegishi kerak. Hudo va inson o'rtasidagi munosabat o'zaro mafaatdorlik munosabatiga aylanadi. Bunday munosabatda insonlarni o'zaro birlashtiruvchi ruhiy kuch o'rmini, ularni bir-biridan ajratuvchi manfaat egallaydi.

Pragmatizmning yana bir yirik vakili J.D'yui (1859-1952) hisoblanadi. D'yui falsafasi uchun markaziy muammo - «tajriba» tushunchasidir. U «tajribani» «hayot» tushunchasi bilan aynanlashtiradi. Zero, pragmatizm, asl ma'noda, insonni foydali faoliyatga undovchi, uning «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va

usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Umuman, pragmatizmدا «foйда», «tajriba» yoki «jamiyat» tushunchalarining farqi juz'iy ma'noda ishlatilgan bo'lib, insonning iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojlarga hizmat qiladi va uning manfaatlarini ifodalaydi.

Pragmatizm erkin bozor iqtisodiyotining falsafasi bo'lib, biznes, jumladan, har qanday «foydali» faoliyatni tashkil etish uchun qulay bo'lgan metodologik qurol sifatida, o'z vaqtida Amerika ishbilarmonlari, menedjrlari, siyosatdonlari va davlat arboblari o'rtasida keng yoyilgan bo'lsa, bugunga kelib dunyodagi barcha faoliyatlarning falsafasiga aylanmoqda..

Ekzistensializm (lotincha existentia so'zidan olingan bo'lib, «mavjudlik», «mavjud bo'lmoq» degan ma'noni anglatadi.) Dastlab egzistensializmning makoni Rossiya bo'lgan (Berdyayev, Shestov). Keyinchalik, birinchi jahon urishidan so'ng Germaniyada keng rivojlandi. Bunda Xaydegger, Yaspers va Buber kabi yirik nemis faylasuflarining hissasi katta bo'lgan.

Ekzistensializm falsafasi o'ta ziddiyatli va murakkab bo'lib, unda turli tuman falsafiy ta'limotlarning unsurlari mujassamlangan. Masalan: bir tomondan, Aristotel, K'erkegor, Paskalning ayrim falsafiy ta'limotlari, ikkinchi tomondan, Gegel, Nitshe, Dostoevskiy qarashlari qisman qabul qilingan.

Ekzistensializmда ateistik (Sartre, Kamyu, Xaydegger, Merlo-Ponti) va diniy (Marsel, Yaspers, Shestov, Buber, Berdyayev) yo'nalishlar mavjudligi uning ziddiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, egzistensializm ta'limotlarida Gusserl fenomenologiyasi, fransuz personalizmi (Lakurya, Mune, Nedonnel), nemis dialektik teologiyasi (Tillix, Buletman)ning ta'siri seziladi.

Ekzistensializmning o'zagini «mavjudlik» yoki «mavjud bo'lmoq» kategoriyasi tashkil etadi. Ekzistensialist faylasuflar «ekzistensiya» deganda, kishining har lahzada hayot va o'lim bo'sag'asida kechadigan ichki kechinmalari yoki «borliqda mavjudlik» jarayonini, «borliq» deganda esa, sub'ektning o'z mavjudligini his etishni tushunadilar.

Ekzistensializm – o'z mohiyatiga ko'ra, inson falsafasidir. Ya'ni, inson niqob ostida jamiyatda o'zining qandaydir rolini bajarib beradi. Bu xilma-xil niqoblar ortida insonning asl qiyofasini yashirib yotadi. Bu asl qiyofa ochilishi uchun insonlar erkinlikka, erkin gaplashish huquqiga ega bo'lish kerak, degan fikrlarni ilgari suradilar.

Sartre fikriga ko'ra, borliqdagi barcha jarayonlar «narsa o'zida» bo'lib qolaveradi, biz ularning sirini bila olmamiz. Uning fikricha, o'lim muqarrar bo'lgan holatda ham insonda faoliyatni erkin tanlash imkoniyati bor. Agar inson o'z erkinligidan voz kechsa, bu o'limdan ham og'irroqdir, deb hisoblaydi u.

Xaydegger fikricha inson ichki mohiyatining ochilishiga yordam beruvchi vositalar tasviriy san'at va musiqadir. Aynan shu sohalarда inson tabiatida yashirib yotgan ijodkorlik kuchlari yuzaga chiqadi. J.P.Sartre va A.Kamyu asarlarida insonning erkinligi, erkin tanlash huquqi asosiy muammolardan biridir.

Yaspersning fikricha, o'lim bilan bir qatorda parokandalik holatida ham inson mehr qo'ygan narsalardan ajralib qolishi mumkin. Bularning ichida qadrgimmat eng ustun turadigan xissiyotdir. Bu qadriyat moddiy boylik bo'lmay, bu

qalb xotirjamligi, ichki sokinlikdir. Ichki sokinlikning o'zi buyuk bir olamiy kuchdir.

Ekzistensializm falsafasi XX asr boshlari va o'rtasidagi fojiali hodisalarni aks ettirdi va bulardan chiqish yo'llarini izladi. Ekzistensialist faylasuflar Yaspers, Xaydegger, Sartr, Kamyu ilohiy kuchga, insondagi ruhiy kuchga murojat qilishdi. Ularning insonparvarlik g'oyalari tahsinga sazovordir.

2. Jamiyatshunoslik ilmlari rivojlanishidagi xususiyatlar

Umuman, hozirgi zamon jamiyatshunosligida ikki yo'nalish ko'zga yaqqol tashlanmoqda. **Birinchisi** – fan-texnika taraqqiyoti ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarning usullari, vositalari, yangi kommunikatsiya tizimlarini globalashtirib, universallashtirib, intensivlashtirib yuborishi bilan xarakterlanadi. Bu yo'nalishda jamiyatni yaxlit tizim sifatida mushtarak o'rganishning muqobil nazariy asoslari, qarashlar sistemasi vujudga keldi.

Ikkinchisi – jamiyatning markaziga ijtimoiy munosabatlar sub'ekti bo'lgan inson qo'yilib, uni o'rganish jamiyatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida olib qaralmoqda. Zero, yuqorida aytilgan jarayonlar insonning ijtimoiylashuv darajalarini kuchaytirib yubordi. Buning natijasida esa, shaxsning individuallashtirish jarayonini, jamiyatshunoslik fanlarining tadqiqot ob'ektlarini shaxs darajasida konkretlashtirishni taqozo qilmoqda. Shuningdek, jamiyatshunoslik fanlarida ijtimoiy hayotning turli sohalarini o'rganadigan fanlar differensiyalashuvi (tarmoqlanishi) hamda turli ijtimoiy hodisalarni o'rganadigan fan sohalarining integratsiyalashuvi (mushtaraklashuvi) jarayonlarini vujudga keltirmoqda. Masalan yuqoridagi jarayonlar natijasida umumiy sotsiologiya tarkibida «Oila sotsiologiyasi», «Mehnat sotsiologiyasi», «Yoshlar sotsiologiyasi», «Huquq sotsiologiyasi», «Ekologik sotsiologiya» va boshqa shu kabi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Shu bilan birga sotsiologiyaning demografik, etnografik, geografik va boshqa shu kabi fanlar bilan bog'liq boshqa integrativ yo'nalishlari ham vujudga kelishi kuzatilmogda.

Insoniyat tarixini va uni o'rganuvchi jamiyatshunoslik fanining asosiy tadqiqot yo'nalishi - jamiyatni ilmiy tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish uchun turli ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlari va manfaatlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Jamiyatni tashkil qilgan strukturaviy elementlarning ehtiyojlari va manfaatlari o'rtasida ziddiyatlarning keskinlashuvi turli yo'nalish va darajalardagi konfliktlarni vujudga keltirmoqda. Ularning ijtimoiy hayot turli sohalarida o'rganishda konfliktologiyaning konkret yo'nalishlariga asos bo'lmoqda. SHunga ko'ra ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohalarida konfliktlarning vujudga kelish sabablarini, namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganuvchi maxsus konfliktologiya fanlari paydo bo'ladigan vaqt uzoq emas. Zero, jamiyatda, oilada, mehnat jamoalarida, ijtimoiy guruhlar o'rtasida konfliktlarning sabablarini o'rganish, ularni bartaraf qilish, barqaror taraqqiyotni ta'minlashga ilmiy asos bo'ladi.

Ma'lumki, konfliktlashuvchi tomonlarning agressivligi yoki murosaga moyillik xarakteri - konfliktlarning xususiyatlarini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, konfliktlashuvchi tomonlarning agressivlik xususiyatlarini o'rganuvchi

maxsus tushunchalar apparati, kategoriyalari tizimi hamda bu hodisaning qonunlarini har jihatdan sistemali tarzda chuqur o'rganuvchi «Agressiologiya» fani shakllanmoqda. Kelajakda «Agressiologiya» fani agressiv hatti-harakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ruhiy jihatlarini mushtarak-mujassam o'rganuvchi mustaqil jamiyatshunoslik fanlaridan biri bo'lishi kutilmoqda. Chunki, hozirgi davrda xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga oid hodisalar ko'lamining kengayib ketishi insoniyatni sarosimaga, taxlikaga solmoqda. Shaxs va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari o'rtasida ziddiyatlarning vujudga kelishi sabablari, ularning rivojlanish tendensiyasi hamda istiqbollari haqidagi ilmiy ta'limotlar muayyan bir jamiyatshunoslik fani doirasida konkretlashadi. Ayniqsa, manfaatlar o'rtasidagi kurashlarning inson qoni to'kilishi, hayoti barbod bo'lishi bilan bog'liq urushlarga munosabati turli jamiyatshunoslik fanlarining shu muammo doirasida tadqiqot predmetini, maqsadi va vazifalarini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda insoniyat tarixida bo'lib o'tgan birinchi va ikkinchi jahon urushlarining mudhish oqibatlari va uchinchi jahon urushining xavfini, uning dahshatli oqibatlari jamiyatshunoslik fanlarining umumiy muammosiga aylanmoqda. Jumladan, uchinchi jahon urushi bo'lish-bo'lmasligi ehtimolliklarining jahon siyosiy xaritasini o'zgartirishga oid - siyosatshunoslik, vujudga kelishi mumkin bo'lgan ekologik vaziyat haqidagi - ijtimoiy ekologiya, iqtisodiy oqibatlarini o'rganuvchi - harbiy iqtisodiyot va ularni umumlashtiruvchi agressiyaologiya fanining vujudga kelayotganligi ham tasodifiy emas.

Masalan, AQSh iqtisodchi olimlarining hisob-kitoblariga ko'ra, ishlab chiqarishda bir ishchi o'rnini tashkil qilish uchun harbiy sanoatga fuqaroviy sanoatga nisbatan 4 marta ko'p moddiy-moliyaviy mablag' sarf qilinadi. Harbiy maqsadlarga sarf-xarajat qilingan 10 mlrd. dollarga 40 ming ishchiga ish o'rinlari yaratish mumkin. Dunyoning bir yillik harbiy xarajatiga 150 mln. ga erni madaniy dehqonchilik uchun o'zlashtirish, 1 mlrd. kishini boqish, 500 mln. aholiga 100 mln. kvartira, 650 mln. o'quvchiga 1 mln. maktab qurish mumkin.

Hozirgi davrda kelib fuqorolar urushi ko'lamining kengayib, dahshatli tus olishi xarakterlidir. Shuning uchun ham fuqorolar urushini vujudga keltirgan sabablarni, ularni harakatga keltiruvchi mexanizmlarni o'rganish jamiyatshunoslik fanining muhim vazifasi bo'lmog'i lozim. Chunki, insoniyat tarixining 1480-1941 yillargacha bo'lib o'tgan 278 ta urushning 78 tasi fuqarolar urushi bo'lgan bo'lsa, qolgan 200 tasi davlatlararo siyosiy mojarolar natijasida vujudga kelgan. 1945 yildan XXI asr arafasigacha dunyoda 200 ga yaqin harbiy to'qnashuvlar sodir etilgan. Shulardan o'ndan to'qqiztasi uchinchi davlatlar tomonidan amalga oshirilgan.

Hozirgi davr uchun xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va boshqa g'ayri insoniy g'oyalarning globallashuvi hamda amaliy harakat ko'lamining kengayishi ijtimoiy-siyosiy fanlarning integratsiyalashgan holda «Agressiyalogiya» fani maqomini mustahkamlashni kun tartibiga qo'ymoqda. Bugungi kunda xalqaro terrorizmning xususiyati va ularni bartaraf etish yo'llari haqida birinchi Prezidentimiz I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida jumladan shunday dedi: «Xalqaro terrorchi kuchlar qaytadan birlashib, bosh

ko'taratayotgan, o'ta makkor va yovuz uslublar qo'llayotgan bugungi murakkab vaziyatda hayotning o'zi xalqaro hamjamiyat, jumladan, mintaqamizda joylashgan barcha davlatlardan bu baloga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirishni, bir yoqadan bosh chiqarib, bunday urinishlarga keskin zarba berishni, har qanday tajovuz va terrorchilik hurujlarining oldini olish, ularning mafkuraviy zaminini yo'qotish va avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashni taqozo etmoqda». Bu vazifani mavsumbozlik yoki dabdababozlik bilan amalga oshirish mumkin emas. Aksincha, ularning negizlarini ilmiy tahlil qilish asosida izchil dasturlarga tayanib aniqlash va bartaraf qilishning samarali chora-tadbirlarini topish zarur.

Shuning uchun bu fan shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyat darajasida agressiv hodisalarning vujudga kelish sabablarini, rivojlanish qonuniyatlarini va oqibatlarini kompleks-sistemali tahlil qilishning ilmiy asoslarini ko'rsatishi kerak. Bu fanning asosiy vazifasi agressiv harakatlarning mahalliy, milliy xududiy va umuminsoniy xususiyatlarini aniqlashdan, muammolarning amaliy echimlarini topishdan iborat bo'lishi lozim.

Hozirgi zamon jamiyatshunosligining asosiy tamoyili: g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishdan iborat bo'lmog'i zarur. Bu tamoyilning hayotiylikini sobiq Rossiya imperiyasidagi oktyabr davlat to'ntarishining oqibatlari ham, G'arbda jamiyatni evolyusion (tadrijiy) rivojlantirishga doir ijtimoiy-falsafiy fikrlarning tarixi ham isbotlab berdi.

Industrial rivojlangan G'arb mamlakatlarida shaxs erkinligi, fuqarolik jamiyati uchun kurash tajribalari, boshqarishining demokratik xarakteri haqidagi qarashlari mohiyatini jamiyatni modernizatsiyalashtirish haqidagi muqobil ilmiy ta'limotlar tizimi tashkil qiladi. Eng muhimi, jamiyatning umumiy rivojlanish qonunlariga bo'ysungan holda vujudga kelayotgan milliy taraqqiyot g'oyalari jamiyatshunoslik fanlarining xususiyatlarini belgilab bermoqda. Shu nazariyalarga mos holda jamiyatshunoslik fanlarining milliy yo'nalishlari vujudga keldi va rivojlanmoqda. Xususan, milliy mentalitet bilan bog'liq jamiyat tizimini, shaxs tiplarini o'rganish, ularning erkinliklarini ta'minlash yo'llari haqidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy milliy nazariyalar, ta'limotlar tizimi vujudga kelmoqda.

Bu jarayonda ikki tendensiya ko'zga tashlanadi, ya'ni milliy xarakterdagi jamiyatshunoslik fanlari jahon xalqlarining ijobiy tajribalarini umumlashtirish va ijodiy o'zlashtirish hamda milliy g'urur, iftixor, e'tiqodlar asosida millatlarning o'zligini anglash jarayoni kuchaymoqda. Bu tendensiyalar o'rtasidagi maqsadga muvofiqlikni ta'minlash - umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlariga bo'ysundirish yo'llarini, usullarini, vositalarini topish-hozirgi zamon jamiyatshunosligining asosiy vazifalaridan biridir.

Har qanday jamiyatda sivilizatsiya tiplari va darajalarining xilma-xilligiga qaramasdan, millatlarning ijtimoiy «qiyofasini» saqlab qolish, umumjahon sivilizatsiyasida o'z o'rnini topish masalasiga doir ilmiy qarashlar jamiyatshunoslik fanlarining muhim xususiyatini belgilaydi.

Hozirgi davrda «inson-inson», «inson-jamiyat», «jamiyat-jamiyat», «inson-tabiat», «jamiyat-tabiat» munosabatlarining o'zgarishi bu tizimlardagi inson

omilining roli bilan bog'liq bo'lib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan insonning tabiatini o'rganish, xususan, yuqoridagi tizim elementlariga ta'sir qilish kanallarini aniqlash jamiyatshunoslik fanlarining mazmunini konkretlashtirmoqda.

Albatta, insonning ijtimoiy munosabatlari (axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqalar) tizimida ayrim munosabat yo'nalishining ustuvorligini e'tirof etish va mutlaqlashtirish natijasida muayyan deterministik qarashlar (jamiyat haqidagi ta'limotlarda asosiy yo'nalish sifatida) vujudga kelayotir. Natijada shaxsni yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish g'oyasiga putur etmoqda. Masalan, shaxsning siyosiy, huquqiy, diniy, irqiy, axloqiy qarashlarini bir-biridan ajratib mutloqlashtirish hozirgi zamon jamiyatshunoslik fanlariga xos xususiyat bo'lib qolmoqda. Vaholanki, shaxsning mohiyatini ijtimoiy munosabatlar tizimining muqobillashgan, ayni paytda, muvofiqlashgan holati namoyon qiladi. Shuning uchun ham hozirgi zamon jamiyatshunoslik fanlarining falsafiy metodologiyaga bo'lgan ehtiyoji kuchayib bormoqda. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi zamon jamiyatshunosligining ilmiylik mezonini muayyan ijtimoiy hodisani muqobil falsafiy ta'limotlar asosida kompleks-sistemali tahlil qilish, ob'ektiv ilmiy xulosaga kelish bilan belgilash mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar globallashuvi va universallashtirish jarayonlarining jamiyat mafkuraviy muhitiga, inson ongiga ta'sirini ob'ektiv talqin etish masalasi, ma'lum ma'noda jamiyatshunoslik fanlari olimlari diqqat-e'tiboridan chetda qolmoqda. Zero, yuqorida aytilgan jarayonlar jamiyatshunoslik fanlarining tadqiqot ob'ektlarini va paradigmalarni o'zgartirib, yangi tipdagi «logosfera», ya'ni ta'limotlar olami shakllanishiga, mantiqiy madaniyat tizimining o'zgarishiga olib kelmoqda. Ya'ni ijtimoiy - gumanitar fanlarning mafkuraviy jarayonlarni kompleks tarzda, sistemali-strukturali tahlil qilish zaruriyati turli (metafizik, dialektik, germeneytik, sinergetik va boshqa) metodlar, ta'limotlar sintezlashuvini, umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlarini asosida o'zaro murosaga (konsensusga) kelishini taqozo qilayotir. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida «konfrontatsion mantiq» mutlaqo nisbiy va shartli xarakter kasb etayotgan bir paytda, jamiyatshunoslik fanlarining ilmiy metod va ta'limotlari, plyuralizm tamoyillari klassik va noklassik qarashlari o'rtasidagi vorislik munosabatlarini, ularning o'ziga xos tarixiy ahamiyatini istisno qilmaydi.

Darhaqiqat, mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi jamiyatshunoslik adabiyotlarida umuminsoniy g'oyalarni ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq qilish muayyan manfaatlar doirasida cheklanib qolgan bo'lib, uni zo'rlab sinfiylashtirish tendensiyasi ustuvor bo'ldi. Ya'ni, ijtimoiy taraqqiyot mezonlariga sinfiy-partiyaviy pozitsiyadan yondoshilib, uning amaliy natijalari hamda ijobiylik mazmuni, faqatgina jamiyat siyosiy tizimining, yakka hukumron mafkuraning manfaatlarini bilan bog'langan. Vaholanki, har qanday g'oya, shu jumladan milliy mafkura ham, muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlariga asoslansa, barqaror ijtimoiy taraqqiyotning in'ikosiga, siyosiy munosabatlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylana olmaydi. Aksincha, jamiyatni tanazzulga olib kelib, ijtimoiy-siyosiy barqaror taraqqiyotga putur etkazadi.

Ijtimoiy-siyosiy muhitning jamiyat g'oyasi, mafkurasi shakllanishiga yoki g'oya va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishda ob'ektiv va sub'ektiv omillar, tarixiy shart-sharoitlar, imkoniyatlar birligi asosida yondashish - jamiyatshunoslik fanlarining muhim yo'nalishi bo'lgan ideologiya kompleksligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bunday tahlil muqobil mafkuralarning vujudga kelishini, mavjudlik xususiyatlarini va rivojlanish istiqbollarini muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ilmiy-metodologik tamoyil bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mafkuralarni konkret jamiyatlarning (jug'rofiy, etnografik, demografik va boshqa ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlaridagi) rivojlanish xususiyatlari va darajalarini milliy mentalitet bilan bog'lab tahlil qilish zaruriyati – jamiyatshunoslik fanining muhim yo'nalishi bo'lgan **Milliy ideologiyani** taqazo qiladi.

Milliy ideologiya fanining maqomini belgilaydigan yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlari, uning asosiy vazifalari ko'lamini belgilab beradi. Ya'ni, milliy ideologiya har bir millatning ijtimoiy voqeligini ilmiy bilishning maxsus, nisbatan yuqori darajasi sifatida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgandir:

-sintetik vazifasi –millatning ma'naviy-tarixiy borlig'i haqidagi alohida, maxsus bilimlarni, ularning manfaatlari asosida bir butun tizimga mantiqiy izchil birlashtirishdan iborat;

-gnoseologik vazifasi g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning o'zaro sababiy bog'lanishlari va dahldorliklarini aniqlab, ularning kelib chiqish genezisini, rivojlanish xarakteristikasini mantiqiy izohlaydi;

-metodologik vazifasi - muayyan nazariya bazasida ilmiy tadqiqot faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydigan, samaradolgini ta'minlaydigan har xil usullar, uslubiyatlarini shakllantiradi;

-praksiologik vazifasi – milliy mustaqillik va rivojlanish g'oyalarning amaliyotga tadbiq qilinishi, ya'ni borliqni o'zgartirish uchun harakatdagi qo'llanma, dastur bo'lishi bilan xarakterlanadi;

-prognostik (oldindan ko'ra bilish) vazifasi - ilmiy farazlar, nazariyalar asosida mafkuraviy jarayonlarning mavjud holati, rivojlanish tendensiyasi, uning kelajakdagi xususiyatlari haqida xulosalar chiqariladi.

3. Milliy-mafkuraviy omillarning ta'siri haqida

Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichlarida «inson sifati»ni, jamiyat ijtimoiy-siyosiy xarakterini belgilaydigan g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa hozirgi davrda jamiyat mazmunini belgilovchi ma'naviy-madaniy omillar tizimida mafkuraviy jarayonlarning intensivlashib, universallashtirib va globallashtirib borishi bilan «inson sifati»larini o'rganishda ideologiya fanining ahamiyati o'zgacha xarakter kasb etmoqda.

Hech qanday jamiyatda millat va Vatan manfaatlarini himoya qila olmaydigan shaxsning ham, jamiyatning ham «mafkuraviy sifatlari»ni yuqori deb baholab bo'lmaydi. Buni aniqlash uchun jamiyat hodisalariga nisbatan omillar tahlili yo'nalishlarining uyg'unlashuvi zarur.

Jamiyat va shaxs mafkuraviy sifatlarini o'rganadigan ideologiyaning ilmiyligini, hayotiyiligini belgilaydigan asosiy mezonlardan biri - insoniyatning ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olgan holda, konkret jamiyat va shaxsni

o'zgartirishdir. Boshqacha aytganda, «mafkuraning hayotiyligi uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o'zining iymon-e'tiqodi sifatida qabul qiladi. Shundagina, u eng zamonaviy quroldan ham ko'ra kuchli ruhiy – ma'naviy qudrat kasb etadi».

Ideologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan axloqiy, huquqiy, siyosiy va boshqa shu kabi qadriyatlardan, ularning rivojlanishi xususiyatlarini o'rganadigan maxsus jamiyatshunoslik fanlaridan mustaqil tarzda tushuntirib bo'lmaydi. Zero, muayyan ijtimoiy munosabatlar ham, ularni o'rganuvchi maxsus fanlar ham, jamiyat hayotini tartibga solib, boshqarib turadigan sub'ektiv omil tarzida «inson-inson», «inson-jamiyat», «jamiyat-jamiyat» munosabatlarining o'zaro ta'sirini va rivojlanishini ilmiy asoslashda, insoniyat sivilizatsiyasi taqdirida muhim ahamiyatga ega.

Milliy ideologiyaga asos bo'ladigan ma'naviy-madaniy merosni ijodiy rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga, tarixiy shakllangan ma'naviy madaniyat darajasiga mos kelmayotir. SHuning uchun ham jamiyatshunoslik fanlarida tarixiy merosga munosabat bir-biri bilan bog'liq ikki yo'nalish uyg'unligini taqazo qiladi, ya'ni: **birinchisi** – tarixiy merosni, an'analarni umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida asrab-avaylash va ijodiy rivojlantirish; **ikkinchisi** – mafkuraviy munosabatlarni nazariy bilish va amaliy o'zgartirish jarayonida, jamiyatning yangi ma'naviy rivojlanish darajasiga mos keladigan g'oyaviy tizimlarni shakllantirib, hayotga joriy etishdan iborat.

Milliy merosni rivojlantirish - murakkab pedagogik-didaktik, mafkuraviy vazifa bo'lib, unga ongli, ijodiy munosabat shaxsning ma'naviy jihatdan o'z-o'zini anglashi va amaliy faoliyatida ifodalash usulidir. Shu nuqtai nazardan, jamiyatshunoslik fanlarini rivojlantirishning tarixiy negizlari va mavjud muqobil nazariy qarashlarni, umuminsoniy maqsad va manfaatlariga mos bo'lgan turli mafkuraviy vositalarni, uslublarni bir-biriga muvofiqlashtirish kutilgan natijalarni beradi. Shunga ko'ra, hozirgi davrda ideologiyaning mavjudlik holatini, uning tarixiy merosini ijodiy rivojlantirish darajasi sifatida olib qarash kerak.

Har qanday tarixiy davrda jamiyatshunoslik fanlari rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy-qonuniy negizlarini yaratish jamiyat barqaror taraqqiyotining nazariy-metodologik asosi va imkoniyati hisoblanadi. SHuning uchun ham davlat siyosatida jamiyatshunoslik fanlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo'lgan vazifa hisoblanadi.

Jamiyat ma'naviy-madaniy hayotini erkinlashtirish (liberalizm) g'oyasining demokratik mazmuni ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojlanishiga asos bo'ladi. Jamiyatshunoslik fanlari nazariy, amaliy, metodologik jihatlardan «inson-inson», «inson-jamiyat», «jamiyat-jamiyat» va boshqa strukturaviy elementlarning munosabatlarini tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XX asrning so'ngi o'n yilligida dunyoda «sotsialistik» deb atalgan siyosiy tizimning, sobiq SSSR hududida esa, «qizil imperiya»ning parokandalikka uchrashi bilan, dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo'linishiga barham berildi. Dunyo siyosiy maydonida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi natijasida, jamiyatshunoslik fanlarida ham o'ziga xos muqobil yo'nalishlar paydo bo'ldi. Shu jumladan, O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishib, demokratik huquqiy davlatni, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishi, jamiyatshunoslik fanlarini hukmron kommunistik mafkura diktaturasidan holi qilishning ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Bugunga kelib O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning «o'zbek modeli», umuman ijtimoiy-siyosiy hayotni, xususan ma'naviy-madaniy sohani erkinlashtirish jarayonining milliy xususiyatlarini namoyon qilmoqda va bu jamiyatshunoslik fanlarining mazmunini belgilab bermoqda.

Shuni e'tirof etish kerakki, milliy jamiyatshunoslik fanlarini rivojlantirish boshqa yo'nalishlarga nisbatan og'ir kechmoqda. Chunki, jamiyatshunoslik fanlarini demokratiyalashtirish, erkinlashtirishning asosiy xususiyati bir tomondan, bu jarayonlar uchun bir xil andozadagi qat'iy belgilab qo'yilgan axloqiy normalar, huquqiy me'yorlar, universal ijtimoiy qoidalar mavjud emasligidir. Ikkinchi tomondan, jamiyatshunoslik fanlarining nisbatan mustaqil ijtimoiy, siyosiy, huquqiy asoslarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq tashkiliy qiyinchiliklarni bartaraf qilish og'ir kechmoqda. Shu bilan birgalikda, ularning barchasi uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar, talablar ham mavjud. Ya'ni, 1) jamiyat ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ustuvor maqsadlarini, vazifalarini amalga oshirib, uning barqaror o'sish istiqbollari, shaxs barkamolligini ta'minlaydigan milliy va umuminsoniy manfaatlar birligi; 2) insonlarning millatidan, irqidan, diniy e'tiqodidan, iqtisodiy ahvolidan, siyosiy qarashlaridan, madaniy saviyasidan qat'i nazar, huquqiy mas'uliyati va ijtimoiy faoliyat erkinliklarining ustuvorligi; 3) umuminsoniyat sivilizatsiyasining axloqiy, huquqiy, siyosiy, ma'naviy qadriyatlar va tarixiy meroslariga tayanishi hamda milliy an'analarini rivojlantirishi; 4) millat tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlariga, mentalitet xususiyatlariga mos tarzda jamiyatshunoslik fanlarini erkinlashtirish imkoniyatlari va sharoitlarining o'zgarishi; 5) mavjud tizimning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarida keskin ziddiyatga bormaslik va murosasozlik xususiyatlari; 6) jamiyatshunoslik fanlarini erkinlashtirish – jamiyat ma'naviy-madaniy hayotining dinamik o'zgarishlarini demokratik tamoyillarga, umuminsoniy axloqiy normalarga asoslanib, bosqichma-bosqich amalga oshiradigan siyosiy kuch va imkoniyatlarni topish muhim ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatda ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishning muhim demokratik tamoyillaridan biri - huquqlar, imtiyozlar, imkoniyatlar tengligi sharoitida milliy manfaatlar asosida muvofiqlikni ta'minlashdir. Zero, demokratik jamiyat fikr, so'z, matbuot, e'tiqod sohalarida amaliy faoliyat erkinligi uchun shart-sharoit hamda imkoniyat yaratadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatshunoslik fanlarini siyosatdan erkinlashtirishning demokratik tamoyillari, bir tomondan, xalqaro tashkilotlar qabul qilgan inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini e'tirof etishi; ikkinchi tomondan, millatning tarixiy

shakllangan ma'naviy-ahloqiy me'yorlari va qadriyatlariga asoslanishi, o'zligini anglashi bilan umuminsoniy mohiyatini namoyon qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan jamiyatshunoslik fanlarining barcha sohalarini mutanosib rivojlantirishning ijtimoiy makon hamda tarixiy zamondagi xususiyatlari o'zgarib, ularning maqsadlarida va vazifalarida ichki birlik vujudga kelayotir. Xususan, respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning hozirgi bosqichida, ijtimoiy-siyosiy fanlar sohasining mazmunidagi o'zgarishlar - umuminsoniy demokratik tamoyillar va andozalarni milliy taraqqiyot jarayonlariga kengroq qo'llash bilan xarakterlanadi. Bu jarayonning samaradorligi, davlat tizimidagi «qonunchilik, ijro va sud tarmoqlarining o'zaro muvozanati va mutanosibligini, shu bilan birga, ularning mustaqilligini ta'minlash, har qaysi tarmoq o'z vazifa va burchini bajarish uchun amaliy mexanizmlarni hayotda tashkil qilib berish» bilan bog'liq.

Hozirgi davrda jamiyatshunoslik fanlarining g'oyaviy asoslari va rivojlanish tamoyillari, uning an'anaviy shakllangan tarixiy qadriyatlaridan kelib chiqqan bo'lib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning tub siyosiy maqsadlarini ifodalaydi. Ya'ni, shaxs va jamiyat erkinliklarini kengaytirish; davlatning markaziy va yuqori boshqaruv organlari vakolatlarini bosqichma-bosqich quyi tizimlarga, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tuzilmalariga o'tkazish; nodavlat, jamoat tashkilotlari – fuqarolik institutlarining boshqaruvchilik rolini oshirishdan iborat.

Jamiyat ma'naviy-madaniy taraqqiyotining demokratik xususiyatlari davlat siyosiy funksiyalarini qanday usullar va vositalar bilan amalga oshirishiga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «davlatning kuch qudrati – avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o'lchanadi». Zero, jamiyatni bozor munosabatlari talablariga ko'ra qayta qurishda davlatning bosh islohotchilik roli jamiyatshunoslik fanlarini rivojlantirish vazifalarni qanday uddalashi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy asoslarini – jamiyatshunoslik fanlarini rivojlantirishda, davlatning bosh islohotchilik roli quyidagi xususiyatlarida namoyon bo'lmoqda: *Birinchiidan* – ma'naviy-madaniy hayotni tashkillashtirish, boshqarish, va nazorat qilishning siyosiy institutlari tizimini, mukammal mexanizmlarini, vositalarini vujudga keltirib, uzluksiz takomillashtirmoqda; *Ikkinchiidan* - demokratik konstitutsionalizmga asoslangan amaldagi qonuniy-huquqiy asoslarining ma'naviy-madaniy hayotni rivojlanlashtirish manfaatlariga mos kelishi, islohotchilik roli samaradorligini belgilaydigan mezon bo'lib hisoblanadi; *Uchinchiidan* - davlatning xalqaro ma'naviy-madaniy munosabatlarni erkinlashtirish siyosati milliy manfaatlariga va umuminsoniy demokratik tamoyillarga, tendensiyalarga mos kelmoqda; *To'rtinchiidan*- jamiyatshunoslik fanlarini erkinlashtirishni milliy davlatchilikning mavjudligi va rivojlanishini ta'minlaydigan omilligi anglanib, siyosiy faoliyatga nazariy asos bo'lmoqda.

Lekin, shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatshunoslik fanlarini rivojlantirish jarayoniga keng xalq ommasini jalb qilish, uning intellektual salohiyatini, siyosiy ongi va faolligini oshirish bilan, davlat funksiyalari ustidan nazorat qilishni kuchaytirish mumkinligini, xalqaro miqyosda erishilgan amaliy tajribalar ko'rsatib bermoqda. Chunki, «har qanday davlat tizimi, uning apparati va ma'muriy organlari demokratik andozalarga qanchalik javob bermasin - baribir o'z kuchini, qolaversa o'z zo'ravonligini o'tkazishga harakat qiladigan tizim bo'lib qolaveradi».

Umumlashtirib va aniqroq qilib aytganda, umuman ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimiga, xususan jamiyatshunoslik fanlari rivojlanishiga davlat aralashuvini cheklashda demokratik tamoyillarning qaror topishi:

1) jamiyatshunoslik fanlari sohasida ziddiyatlarini keskinlashtiruvchi inqilobiy o'zgarishlardan, siyosiy qarashlardagi radikalizmdan voz kechish va umuminsoniyat manfaatlarini ustuvorligini e'tirof qilish;

2) ma'naviy-madaniy munosabatlarni demokratiyalashtirish, bu sohada inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligi tamoyiliga amal qilishni ta'minlash, xalqaro insonparvar huquq me'yorlariga qat'iy rioya etish;

3) millatlararo ma'naviy-madaniy munosabatlar erkinligi, madaniyatlararo tolerantlik, jamiyat madaniyati taraqqiyoti uchun har bir shaxs, ijtimoiy guruhlar va millatlarning mas'uliyat va imkoniyatlari tengligini ta'minlash;

4) ma'naviy-madaniy sohani boshqarishni erkinlashtirishga doir muqobil g'oyalarning mavqelarini e'tirof etish va hurmat qilish, xalqaro ma'naviy-madaniy munosabatlarda siyosiy plyuralizm, milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi tamoyillariga amal qilish;

5) ma'naviy-madaniy jarayonlarni boshqarishda keng xalq ommasining, siyosiy partiyalar, ijtimoiy institutlar ishtirokini ta'minlash va faoliyatini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish bilan xarakterlanadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish davrida bu vazifalarning izchil amalga oshirilishi jamiyatshunoslik fanlari tarixiy taraqqiyotning taqozosi bo'lib, ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi islohotlar samarasini va jamiyatni erkinlashtirishning mazmunini belgilaydi. Zero, insonning, jamiyatning ma'naviy erkinligi - demokratiyaning mohiyatini tashkil qiladi. Buni o'rganish esa, hozirgi davr jamiyatshunoslik fanlari tizimining asosiy vazifasidir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Irratsionalizmning mazmuni nimada?
2. Pozitivizm va neopozitivizm qanday g'oyalarni ilgari suradi?
3. Pragmatizm va ekzistensializmning mazmunini tushuntirib bering.
4. Hozirgi zamon jamiyatshunosligidagi qanday yo'nalishlarni ko'rsatib bera olasiz?
5. O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasi ijtimoiy fanlarning nazariy asosi sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
6. O'zbekistonda jamiyatshunoslik fanlarini rivojlantirish yo'nalishlari qanday?
7. Jamiyatni rivojlantirish va shaxsni barkamollashtirishda jamiyatshunoslik fanlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

8. Jamiyatshunosligimizni rivojlantirishda davlatning roli qanday?
9. Hozirgi zamon jamiyatshunosligida ko'zga tashlanayotgan ikki tendensiyaning mazmuni nimada?

7-mavzu. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi masalalari

1. Jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va sinflar tasnifi.

Har qanday jamiyat murakkab ichki tuzilishga ega. Buning sababi turli odat, an'ana, e'tiqod, qiziqish, manfaatlariga ko'ra yashaydigan va faoliyat yuritadigan kishilarning jamiyatda turli guruhlar tashkil qilishidadir. Bundan tashqari kishilarning o'ziga xos pozitsiyalari va statuslari (maqomlari) turli ijtimoiy strukturalarda yanada kichikroq guruhlariga bo'linish xususiyatiga ega. Masalan, ana shunday guruhlariga bo'linish milliy belgiga, mulkiy belgiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Demak, jamiyat tarkibiy jihatdan bir xil bo'lmagan hodisadan iborat. Jamiyatning har bir a'zosi birdaniga bir necha guruhlariga kirishi va birligiga bog'langan bir necha ijtimoiy makonda bo'lishi mumkin.

Jamiyatdagi ana shu xilma-xillikni geterogenlik va tengsizlik tushunchalari orqali tushuntirib berish mumkin.

Geterogenlik jamiyatdagi rang-baranglik, turlichalik, xilma-xillik darajalarining ko'rsatgichlari yig'indisini ifodalaydi. Bu ana shu ko'rsatgichlarga ko'ra bir guruhda muayyan sotsial pozitsiyani egallagan biror kishi boshqa guruhda muayyan pozitsiyani egallagan boshqa kishidan yuqori yoki pastda turganligini aniqlab bo'lmashini anglatadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, geterogenlik kishilarning martabalari, darajalari haqida emas, balki individlar pozitsiyalarining farqlari haqidagina xabar beradi, demakdir. Geterogenlik insoniyat jamiyatining gorizontal bo'linishidagi nominal ko'rsatgichlarni ifodalaydi. Odamning jinsi, millati, diniy e'tiqodi nominal ko'rsatgichlarga misol bo'lishi mumkin. Shu ma'noda biror bir kishini uning jinsi yoki diniga ko'ra boshqa kishidan ustun turadi, deyish mumkin emas.

Geterogenlik muayyan insoniyat jamiyatining qanchalik darajada ziddiyatsiz va barqarorligini ko'rsatadi. Past darajadagi geterogenlikka ega (yoki ko'plab nominal ko'rsatgichlar bo'yicha bir xil bo'lgan) jamiyat yuqori darajadagi geterogenlik ko'rsatgichlariga ega jamiyatga nisbatan barqaror hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bunda kishilar o'zlariniki deb hisoblagan guruhlarini qo'llab-quvvatlaydilar va ularni boshqa guruhlardan ustun qo'yadilar.

Tengsizlik jamiyatning ikkinchi asosiy xarakteristikasini tashkil qiladi. U jamiyatdagi kishilar tabiiy ahvolining bir necha ko'rsatgichlar bo'yicha farqlanishini ko'rsatadi. Bunday ko'rsatgichlar ularning martabalari, darajalarini ifodalaydi. Ularga ko'ra biror bir kishi yoki ijtimoiy guruh boshqasidan pastda yoki yuqorida turganligi haqida gapirish mumkin. Masalan, foyda bo'yicha tengsizlik, mansab bo'yicha kishilarning tengsizligi haqida gapirish mumkin, ammo ularning millatiga ko'ra tengsizligi haqida gapirib bo'lmaydi. Yuqoridagi kabi tengsizliklar har bir jamiyatda muayyan ijtimoiy institutsiyalar bilan mustahkamlab qo'yiladi. Bunda muayyan normalar, qoidalar tizimlari yaratiladi va kishilar shularga muvofiq tengsizlik munosabatlariga kirishadilar, uni qabul qiladilar va unga qarshi chiqmaydilar. Masalan, har bir korxonadagi mansablar

ko'rsatgichi, axloqiy, huquqiy, diniy normalarning muayyan qismlari. Bunday ko'rsatgichlar har bir jamiyatda doimo kuzatib, baholanib turilishi kerak. Tengsizlik ko'rsatgichlari muayyan darajadan oshib ketmasligi kerak. Yo'l qo'yilgan darajadan ortib ketgan tengsizlik jamiyatdagi kishilar hayot kechirish darajalarida katta farqlarni vujudga keltirishi bunday holat diskriminatsiya (kamsitilish), ba'zi guruhlar huquqining cheklanishi deb baholanishga olib kelishi va oqibat natijada ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun har bir jamiyat ijtimoiy tengsizlik darajasini kamaytirish mexanizmlari tizimini ishlab chiqishi kerak.

Ko'pgina jamiyatlar ko'proq boylik va hokimiyatga ega bo'lgan guruhlar va ana shulardan mahrum bo'lgan guruhlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Taraqqiyot jarayonida har bir jamiyat jamiyatdagi guruhlarining qat'iy ierarxiyasini o'rnatadi. Bir-biridan martabalari, darajalariga ko'ra farq qiluvchi guruhlar jamiyatning status guruhlarini deyiladi. Status guruhlarining ikki asosiy turi bir-biridan farq qilinadi: stratlar va ijtimoiy sinflar.

Guruhlar bir-biridan tengsizlik tamoyili bo'yicha farqlanishsa sotsial stratlar vujudga keladi. "Strata" so'zi lotincha bo'lib, qatlam, tabaqa ma'nosini anglatadi. Shu ma'noda sotsial stratifikatsiya ierarxiyali tuzilgan ijtimoiy tengsizlikni anglatadi. Sotsial stratifikatsiya nazariyasiga ko'ra hozirgi zamon jamiyati ko'p darajali, qavat-qavat, tashqaridan qaraganda er qobiqlaridagi geologik qatlamlarga o'xshaydigan hodisadir. Sotsial stratifikatsiya ikki belgisi bilan oddiy qatlanishdan farq qiladi. Birinchidan, bunday tuzilgan jamiyatdagi yuqori qatlamlar resurslarga egalik yoki haq olish imkoniyatlariga ko'ra pastki qatlamlarga nisbatan imtiyozli holatda bo'ladi. Ikkinchidan, yuqori qatlamlar unga kiruvchi a'zolar miqdori bo'yicha ham past qatlamlardan sezilarli darajada kam. Bir-biridan farqlanuvchi bir o'lchamli va ko'p o'lchamli stratifikatsiyalar mavjud. Bir o'lchamli stratifikatsiyada bir o'lcham boirasida amal qiluvchi tengsizlik ifodalanadi, masalan, jamiyatni olinadigan foydaga, hokimiyatga egalikka ko'ra stratifikatsiyalash mumkin. Hozirgi paytda bir o'lchamli stratifikatsiyaning uch turi ko'proq qo'llaniladi: iqtisodiy, siyosiy, kasbiy.

Jamiyatning ijtimoiy tuzilishini sinfiy stratifikatsiyalash turi ham mavjud. Ijtimoiy sinf tushunchasini birinchi bo'lib K.Marks ishlab chiqqan edi. Uning fikricha sinf tashkil qiluvchi belgi kishilarning mulkka munosabati hisoblanadi. Ba'zi sinflar mulkka ega va uni tasarruf qilishi mumkin, ayni paytda jamiyatdagi boshqa sinflar mulkdan mahrumdir. Jamiyatning bunday bo'linishi sinflar o'rtasida nizolarni vujudga keltirishi mumkin, bu nizolar eng avvalo mulkni qaytadan bo'lish va qaytadan taqsimlashga yo'naltirilgan.

K.Marksdan farqli ravishda nemis sotsiologi Maks Veber jamiyatning sinflarga bo'linishidagi bir qancha belgilarni ko'rsatadi. Jumladan, u ijtimoiy sinfnig eng muhim belgilaridan biri obro'dir deydi. Obro'dan tashqari Veberning fikricha boylik va hokimiyatga egalik, mulkka munosabat ham sinfnig belgilari hisoblanadi. Shuning uchun uning fikricha jamiyatda K.Marks ko'rsatgandan ko'ra ko'proq sinflar mavjud.

Ijtimoiy sinflarning har biri o'ziga xos submadaniyatga ega bo'lib, u maxsus hatti-harakat usullarini, qabul qilingan qadriyatlar tizimini va sotsial normalar

to'plamini o'z ichiga oladi. Hukmron sinf madaniyatning etakchiligiga qaramay ijtimoiy sinflarning har biri o'zining shaxsiy qadriyatlarini, hatti-harakat modellarini va ideallarini ishlab chiqadi va singdiradi. Ushbu submadaniyatlarning etarli darajadagi aniq chegaralari mavjud bo'lib, uning ichida individlar o'zlarining muayyan sinfga oidligini his qiladilar, o'zlarining o'xshashligini anglaydilar.

Hozirgi paytda jamiyatning sinfiy tuzilishi haqida ko'plab modellar mavjud. Ulardan keng tarqalganlaridan biri U.Uotson modelidir. Unga ko'ra hozirgi zamon jamiyati oltita asosiy sinflardan tashkil topgan. Unda ayniqsa jamiyatning yuqori va o'rta sinflari qat'iy ko'rsatib berilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'ta borish bilan ana shu modelda ifodalangan sinflar tobora yorqinlashib borishi tufayli u hozirgi paytda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida izchil amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda mulk va mulkchilik markaziy o'rinni egallaydi. Davlatimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotini shakllantirishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri, deb belgilab oldi. Ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashish muhitini yaratish esa bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartidir. "Mulkchilik masalasini hal qilish, - deb yozadi birinchi Prezidentimiz I.Karimov o'zining "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida, - bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi".

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, aynan mulkdorlar tabaqasiga mansub odamlar tufayligina jamiyatda barqarorlik, farovonlik, taraqqiyot asoslari qaror topadi. Misol uchun har qanday iqtisodiy rivojlangan mamlakatni olib ko'raylik. U erda hal qiluvchi kuch ana shu mulkdorlar sinfi hisoblanadi. Qaerda aholi tarkibida haqiqiy mulk egasi bo'lgan odamlar hissasi, shu jumladan o'rtacha mulk egalari hissasi, deyarli katta bo'lsa, o'sha erda iqtisodiyot barqaror rivojlanadi. Chunki mulk egasi qo'lidagi mulkka xiyonat qilmaydi, bu mulkning katta-kichikligidan qat'iy nazar uni avaylaydi, uni o'z moddiy farovonligining manbai deb biladi.

O'rta mulkdorlar sinfi asosan kichik va o'rta xususiy korxonaga egalardan tashkil topadi. Ularning yaxshi maosh oladigan mutaxassislari, o'rta bo'g'in boshqaruvchilari bo'ladi. Har ikki soha vakillari ham o'z kasbidan daromad topadi. O'rtahollar tabaqasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni bir necha sabablar bilan izohlanadi. Ularning ko'pchilik qismi elib-yugurib, katta qiyinchiliklar bilan moddiy farovonlikka erishgan, o'ziga to'q kishilar. Ular farzandlarini ma'rifatli qilishdan, buning uchun tinchlik-xotirjamlik saqlanishidan o'ta manfaatdor. O'rta mulkdor tabaqaga ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtiruvchi kuch sifatida qaralishining birinchi sababi shu. O'rta mulkdorlar har xil ur-surlarga qarshi bo'lib, qonunni hamma narsadan ustun qo'yishadi. O'rta tabaqa, birinchidan, mulkdor bo'lsa, ikkinchidan, mehnat bilan band. Ularning yo'qotadigan narsasi bor. Siyqasi chiqqan shiorlar bilan ularni yo'ldan urib bo'lmaydi.

2. Kishilar etnik birligining tarixiy shakllari.

Milliylik va baynalmilallik, milliy g'urur masalalari

Kishilarning ijtimoiy birliklari orasida ularning etnik birliklari katta ahamiyatga ega. Bunday birliklar kishilarning hayotida ularning kelib chiqishiga

oid bo'lgan qon-qarindoshlik belgilarining belgilovchiligini bildiradi. Masalan, insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumida kishilar o'rtasidagi munosabatlarni ularning qon-qardoshligi yoki begonaligi belgilariga ko'ra hal qilish katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Etnik birlik kishilarning urug', qabila, elat, millat va boshqa birliklaridan iborat bo'lgan, tarixan tarkib topgan alohida barqaror ijtimoiy guruhidir. Etnik birlik tushunchasi etnografik jihatdan *xalq* ma'nosini anglatadi. Kelib chiqishi, xo'jalik yuritish faoliyati va unga bog'liq holda maishiy hayot tarzi, hayot kechirish maqsadlari umumiy bo'lgan qon-qardosh kishilar guruhi urug'ni tashkil qilishgan. Urug' kishilar ijtimoiy birligining etnik belgiga tayanuvchi dastlabki shaklidir. Urug'lar taraqqiy etishi bilan ularda o'zaro nikohga kirish taqiqlanadi, uzoq vaqtgacha bu taqiq urug'ning hayotiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Har bir urug'da o'ziga xos odatlar, taomillar mavjud bo'lgan. Bir-biriga yaqin urug'lar keyinchalik qabilalarni tashkil qilishgan. Qabilalarda xo'jalik faoliyatining markazida baribir urug'lar qolaverishgan. Urug'lar bir-birlari bilan ov qilish yoki baliq ovlash mavsumlarida yaqin hamkorlik qilishgan. Qabila odamlari uchun ular so'zlashadigan til, odatlar, rasm-rusumlar, maslak-e'tiqodlar umumiy bo'lgan.

Quldorlik jamiyati davrida qabiladan yuksakroq bo'lgan etnik birlik – elat vujudga kelgan. U kishilarning til, hudud va madaniy umumiyligi jihatidan tarkib topgan birligidir.

Tarixiy taraqqiyot keyinchalik millatlarni vujudga keltirdi. Millat deb til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar asosida muayyan hududda yashovchi kishilarning etnik birligiga aytiladi. Millatni tushunishda turli-tuman qarashlar mavjud. Masalan, ingliz olimi Ernest Gellnarning fikricha "millatni inson yaratgan, u inson ishi va ongining mahsulidir", rus olimi V.A.Tishkov esa "Millat ilmiy tushuncha emas, bu siyosiy shior va safarbarlik vositasidir", degan fikrni bildirgan. Bir paytlar sovet jamiyatshunosligida millatga ta'rif berishda uning belgilovchi tomoni sinfiy nuqta nazardan tavsiflanar edi.

Millatni tushunish uchun uning mazmunini tashkil etgan tomonlarga e'tibor berish lozim. Millat insoniyat taraqqiyotining mahsulidir. Uning shakllanishida moddiy omillar, xususan, davlat va iqtisodiyot muhim rol o'ynagan, ammo ular millatning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Ular kishilarni jipslashtirishda katta rol o'ynaydi, ammo millatni birlashtiruvchi narsa ma'naviy omillar ekanligini esdan chiqarماسlik kerak. Jumladan, ruhiyat, til, ma'naviyat, urf-odat, an'ana, qadriyatlar bu jarayonda belgilovchilik mavqelaridan birini egallaydi. Shu ma'noda millatning shakllanishida moddiy omillar qanday rol o'ynasa, uning salohiyati va barqarorligini ta'minlashda ma'naviy-ruhiy omillar ham ana shunday rol o'ynaydi.

Olimlarning fikricha hozir er yuzida 3 mingga yaqin millat mavjud. Ular yashab turgan odamlarning 96 foizini birlashtiradilar. 4 foiz kishilar esa elat va qabilalar ko'rinishida faoliyat yuritmoqdalar. Har bir millatning soni bir necha 10 mingdan bir necha yuz minggacha boradi. Millatlarni soni bo'yicha 5 guruhga ajratish mavjud:

1. Buyuk millatlar: xitoylar, hindlar, amerikaliklar, ruslar, yaponlar - har biri 100 mln. dan ortiq;

2. Katta millatlar: inglizlar, fransuzlar, ispanlar, nemislar, turklar va boshqalar – 50 mln. dan 100 mln. gacha;
3. Yirik millatlar: o'zbeklar, portugallar, polyaklar, efiopiyaliklar va boshqalar - har biri 10 mln. dan 50 mln. gacha;
4. O'rta sonli millatlar: har biri 1 mln. dan 10 mln. gacha;
5. Kichik millatlar: har biri bir necha o'n mingdan 1 mln. gacha.

Hozirgi paytda eng yirik 27 millat Er yuzi aholisining qariyb 75 foizini tashkil etadi.

Etnik birliklarning tarixiy hududdan boshqa joyga turli sabablar bilan borib qolib, o'sha erda muqim yashab qolgan jamoalari ko'pincha milliy guruhlarga birlashgan bo'ladilar. Ular muayyan mamlakat uchun yoki ma'lum davlatning ayrim mintaqasi uchun mahalliy bo'lmagan millat va elatning kichik bir bo'lagidir. Milliy guruhlar siyosiy sabablar tufayli ham shakllanishi mumkin. Davlatlar o'rtasidagi chegaralarning o'zgarishi natijasida u yoki bu xalqning ma'lum bir bo'lasi o'z o'zagidan ajralib qolishi mumkin. Masalan, Rossiya bilan Xitoy o'rtasidagi chegaralar o'rnatilishi natijasida qozoqlar va qirg'izlarning bir qismi Xitoy hududida qoib ketgan. Rossiya va Afg'oniston o'rtasida o'rnatilgan chegara ham o'zbek, tojik, turkmanlarning ma'lum qismini Afg'onistonda qoldirgan. O'zbekistonda ham mahalliy millatga mansub bo'lmagan milliy guruhlar mavjud.

Sobiq sho'ro davrida milliy chegaralash siyosati milliy-etnik xususiyatlarni hisobga olmasdan o'tkazilgan. XX asrning o'rtalarida ommaviy repressiyalar tufayli qalmiqlar, qorachoylar, bolqorlar, chechenlar, ingushlar, qrim tatarlari, mesxeti turklari, nemislar, koreyslar, greklar, kurdlar boshiga ko'p qismlar tushdi. Bular haqida tarix fanidan sizga ko'p faktlar ma'lum. Mustaqillik davriga kelib ana shu millatlarning huquqlari tiklana boshladi va bu yo'nalishda katta ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Bundan tashqari deyarli ko'pchilik davlatlarda bir-biri bilan kuchsiz aloqada bo'lgan bir necha ming yoki bir necha yuz kishidan iborat kishilarning kam sonli birlashmalari ham mavjud. Ular etnik guruhlar deyiladi. Masalan O'zbekistonda 258 dan ortiq ingushlar, 140 dan ortiq gagauzlar va shu kabi etnik guruhlar ham mavjud.

Milliy ruhiyatni shakllantirishda "milliy g'urur", "milliy iftixor", "milliy his", "milliy xarakter" kabi tushunchalar muhim o'rin tutadi.

"Milliy g'urur" - har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat. "Shaxs g'ururi" – bu faxrlanishdir. Har bir shaxs yutuqlardan mamnuniyat hissini tuyadi, masalan, ota-ona - qobil fardandlardan, ustoz - iste'dodli shogirdidan, bog'bon – so'lim bog'idan faxrlanadi.

"Milliy iftixor" – millat ma'naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Bu millatga tegishli muayyan kishilarning, boshqalarda uchramaydigan xislatlarning o'rni, mavjudligi, xizmati va shu kabilarning boshqalarga ta'kidlay olishdan hosil bo'luvchi tuyg'u. Erishilgan va erishilajak yutuqlar ko'paygan sari O'zbekiston bilan faxrlanish tuyg'usi shunchalik osha boradi.

"Milliy his" – bu millat manfaati bilan yashash, o'zining kimligini tanish. Milliy tuyg'usi, hissiyoti bo'lmagan insonda milliy iftixor bo'lmaydi. "Milliy

tuyg'u – degan edi birinchi Prezidentimiz I.Karimov, - inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalaridan meros qilib olingan va balo o'z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so'zida ifodalangan. O'z xalqiga, uning an'analari, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butunjahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas."

"Milliy xarakter" - har bir xalqning, millatning asrlar davomida shakllangan va asta-sekin ularning qon-qoniga singib ketgan o'ziga xos xislatlar, xususiyatlar jamlanmasidir.

Asrlar davomida tarix shundan dalolat beradiki, davlat tuzilishi, uning faoliyatida jamiyatda bo'ladigan munosabatlarning tabiiy rivojlanish qonunlariga asoslangan holda o'z faoliyat yo'nalishlarini belgilab olishi zarur. Ayniqsa, millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishi uchun har bir millatning siyosiy manfaatlarini hisobga olish davlat siyosatida ustuvor bo'lishi amaliy ahamiyatga molikdir. Shuning bilan birga millatlararo munosabatlarga siyosiy tus berish xatarli ekanligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Ya'ni millatlarning o'zaro munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan u yoki bu salbiy holatlar davlat hokimiyatini qo'lga kiritish uchun kurash darajasiga ko'tarilmasligi kerak. Chunki bunday jarayon davlatni halokatga, millatlar manfaatlarini esa paymol bo'lishga olib keladi. Siyosiy jarayonlarning rivojlanishi millatlararo munosabatlarning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu esa o'z navbatida butun jamiyatning barqaror taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar XX asrning so'nggi o'n yilligida sodir bo'lgan nizolarni tahlil qilish asosida dunyoda yuz berayotgan beqarorliklarning asosiy sababi "bir jamiyatda yonma-yon istiqomat qiladigan turli etnik va madaniy guruhlarining bir-birlari bilan chiqisha olmasligidir." Bunday nizolar Ruanda, Kipr, Shri Lanka, Hindiston, Kipr, Bosniya, Kosovo va boshqa ko'plab mamlakatlarda ro'y berdi hamda kishilar boshiga ko'plab kulfatlar olib keldi. Hozirgi paytda ham dunyoda ana shunday nizolar davom etayotgan mamlakatlar anchagina.

Tarixiy taraqqiyot xususiyatlari yoki boshqa sabablar tufayli ko'pgina mamlakatlar hududida bitta emas, bir nechta millat yoki etnik guruhga oid kishilarning istiqomat qilayotgani davrimizning haqiqatlaridan biridir. Uni inkor etib yoki unga qarshi chiqib bo'lmaydi. Shunday ekan turli millat va etnik guruhlar istiqomat qiladigan mamlakatlar nisbatan kam sonli ana shunday guruhlarining madaniy, lingvistik va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha huquqlarini himoya qilish, ularning barchasi har tomonlama taraqqiy etishlari, hamjihat yashashlarini ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqishlari muhim ahamiyatga ega. Etnik tarkibi turlicha bo'lgan mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekistonning bu boradagi tajribasi ana shu yo'nalishda muayyan namuna bo'lishi mumkin. Birinchidan, turli millat va elat vakillaridan tashkil topgan etnik murakkab mamlakatda har bir etnik guruhning o'z milliy madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini rivojlantirishi uchun keng imkoniyatlar, huquqlar yaratilishi kerak. Mamlakatimizda bu yo'nalishda konstitutsiyaviy va boshqa qonuniy normalar ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Ulardan eng ko'zga ko'rinarlisi turli millat va etnik guruhlarining madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy madaniyatlar rivojini ta'minlash,

millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan 135 ta milliy madaniy markazlarning tashkil topgani bo'ldi.

Ikkinchidan, etnik jihatdan bunday ko'p tarkibli mamlakatlarda o'zaro hurmat va bag'rikenglik tamoyillari ta'lim tizimi, ularning o'z ona tillarini o'qitish va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishi va fuqarolar ongiga singdirilishi lozim. Mamlakatimizda bu yo'nalishda ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlar, doimiy harakatdagi seminarlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, mahalliy va markaziy matbuot, radio va televidenie orqali targ'ibot ishlari olib borilmoqda. O'rta Osiyo mamlakatlarida kelib chiqishi bir ildizga borib taqaladigan, dini, tili, madaniyati bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar aralashib yashashadi. Masalan, Tojikiston jami aholisining 24,4 foizini, Qirg'iziston aholisining 13,8 foizini, Turkmaniston aholisining 9 foizini, Qozog'iston aholisining 2,5 foizini o'zbeklar tashkil etsa, O'zbekistondagi jami aholining 4,7 foizini tojiklar, 4 foizini qozoqlar, 0,9 foizini qirg'izlar, 0,7 foizini turkmanlar tashkil qiladi.

Respublikada o'qish tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida olib boriladigan 1000 dan ortiq maktablar mavjud. Oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligida ana shu tillardagi maktablar uchun mutaxassislar tayyorlaydigan maxsus fakultetlar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston televideniesida qozoq tilida "Didar", "Zamandas", tojik tilida "Ranginkamon" ko'rsatuvlari namoyish etilmoqda. Bundan tashqari qirg'iz va tatar tillarida ham ko'rsatuvlar tashkil etilmoqda. Radio orqali mazkur tillarda ko'plab eshittirishlar olib borilmoqda va shu tillarda anchagina gazetalar chop etilmoqda. Ana shu xalqlar tillarida o'quv adabiyotlari nashr etilishi "O'zbekiston" nashriyoti orqali amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, barcha millat va elatlarning manfaatlari mamlakatdagi davlat boshqarish mexanizmlari orqali namoyon etilishiga imkon berilishi kerak. Bunda ularning barchasi o'zlarining manfaatlari davlat tizimida mustahkam himoya qilinayotganligini sezishi maqsadga muvofiqdir. O'zbekistonda bu ishlarga 1992 yil yanvarida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra tashkil etilgan "Respublika baynalmilal madaniyat Markazi" mutasaddi hisoblanadi. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivojida milliy-madaniy markazlarning ahamiyati katta. 1989 yilda Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etilgandi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan, qozoq, koreys, arman, ozarbayjon, tojik madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi. 2004 yilga kelib milliy-madaniy markazlar soni 130 dan oshdi. Ushbu markazlar umumxalq bayramlarini o'tkazishda faol ishtirok etib kelmoqda. Navruz va Mustaqillik bayramlarining o'tkazilishida mazkur markazlar katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

Milliy-madaniy markazlarning asosiy vazifasi uch yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish;
2. Mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy vatani deb bilish, unga beminnat va sadoqat bilan xizmat qilish;

3. Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, turmush tarzi va tilini o'rganish, davlatga nom bergan millat bilan do'stlikda, hakorlikda va totuvlikda yashash.

To'rtinchidan, bu yo'nalishda kamsitishning har qanday ko'rinishlari taqiqlanishi shart. Hech qaysi millat, elat yoki xalq vakili uning aynan bir madaniyag, millat, diniy e'tiqod yoki etnik guruhga mansubligi uchungina mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan chetlatilmasligi yoki ma'lum voqeahodisalar qurboniga aylanmasligi zarur. Ko'rinib turibdiki, ko'p millatli davlatlarda millatlararo munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar kabi doimiy e'tibor va diqqat talab qiluvchi masaladir.

Hozirgi paytda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy siyosat – jamiyatni yangilashning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Jamiyatni yangilashning muvaffaqiyati mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga ko'p jihatdan bog'liq. Respublikamizda ko'pchilikni tashkil etgan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi boshqa, ayniqsa, kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etish uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berishdan iboratdir.

3.Oila jamiyat ijtimoiy tizimining ajralmas qismidir. Oilaning mohivati va ijtimoiy funksivalari

Oila jamiyatning bir bo'lagi, uning ham tayanchi, ham qanoti, boshlang'ich yacheykasidir. Unga ko'pincha quyidagicha ta'rif beriladi: "Oila – insonlarning tabiiy-biologik, nikoh, qon-qardoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari orqali bog'langan ijtimoiy guruhdir". Oilaning hozirgi shakli vujudga kelishi asta-sekinlik bilan sodir bo'lgan. Insonning yovvoyilikdan madaniy yashashga o'tishi jarayonida bir urug' yoki qabilaga mansub bo'lgan qarama-qarshi jinslarning tartibga solinmagan jinsiy munosabatlari asta-sekin taqiq ostiga olinadi, Ilmiy tilda bunga tabu hodisasi deb ataladi. Bungacha oilaning endogamiva turi, ya'ni bir urug'ning vakillari orasidagi jinsiy aloqalarga asoslangan oila mavjud edi. Tabuning o'rnatilishi esa turli urug'lararo, qabilalararo nikohni, ya'ni ekzogam oilani vujudga keltirdi. Oilaning bu ikki shaklida ham dastlab jamoaviy nikoh ustunlik qilgan. Ya'ni bir urug'ning erkaklari dastlab o'z urug'laridagi, keyinchalik esa ikkinchi urug'dagi barcha ayollarning erlari hisoblangan va aksincha, ikkinchi urug'ning erkaklari birinchi urug'dagi ayollarning erlari hisoblanishgan. Bundan 25 ming yillar avval juft nikohga asoslangan oilalar paydo bo'lishgan.

Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo'lishi – avlodlar almashinuvi asosan oilada sodir bo'ladi. Farzand tug'ilib, kamolga etib shaxs sifatida shakllanguncha lozim bo'lgan barcha ta'lim, tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug'iga, qariyalarga, atrof-muhitga, tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. Shu bilan birga oila urf-odatlarini, qadriyatlarini avlodlardan avlodga o'tkazuvchi sotsial institut hisoblanadi.

Oilaning asosini erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh tashkil etadi. Ammo oila faqatgina erkak va ayol munosabatini emas, er va xotin, ota onalar bilan bolalar munosabatini ifodalaydi.

Inson biologik mavjudot, u boshqa biologik mavjudotlar qatori ma'lum instinktiv xususiyatlarga ega. Bu eng avvalo jinsiy ehtiyojlar va munosabatlardir. Ular asosida har bir jonli mavjudotga xos bo'lgan avlod qoldirish instinkti yotadi. Oilaviy munosabatlarning ilk paydo bo'lishi ham mana shu ehtiyojlarni qondirish asosida yuzaga keladi.

Mulk munosabatlarining paydo bo'lishi esa nikoh munosabatlarini tarix sahnasiga olib chiqdi. Albatta, bu uzoq davr mobaynida shakllanib borgan. U jamiyatdagi omillarga, shart-sharoitlar, yangilanuvchi urf-odatlar va udumlarga bog'liq holda shakllanib boravergan. Oilaviy munosabatlar shakllanib borishi natijasida undagi iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlar ham tashkil topib, rivojlanib borgan. Shu ma'noda oila – kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir. Oila tor ma'nodagi maishiy tushuncha emas, u ijtimoiy jamoadir. Binobarin oila jamiyatning bir bo'lagi. O'z navbatida oilalarning yig'indisi, o'ziga xos birkuvi jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sir etgani kabi oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga ta'sir etadi.

Taniqli mutafakkir O.Kontning fikricha, oila jamiyatning birlamchi asosidir, uning kelib chiqishi insoniy munosabatlardagi tabiiy holat hisoblanadi. Uning fikricha, oilada ijtimoiy munosabatlarning barcha ko'rinishlari o'z aksini topadi, bular – tengsizlik (avlodlar va jinslar o'rtasidagi), tobelik (oila a'zolari o'rtasidagi, oila boshlig'i va boshqalar, kattalar va bolalar), va h.k. Shunga ko'ra oila kichik bir davlat bo'lib, bu davlatning shakllanish asosi, uning modeli mavjud, ijtimoiy funksiyasi esa jamiyatning funksiyalarini aks ettiradi.

Nikoh - erkak bilan ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solingan o'zaro munosabatlari shaklidir. Nikoh yordamida jamiyat jinsiy hayotni, er va xotinning huquqlarini, burchlarini tartibga soladi va ta'minlaydi.

Oila nikohga nisbatan murakkabroq munosabatlar tizimi bo'lib, unda er va xotindan tashqari ularning bolalari, yaqin qarindoshlari birlashadi. Oilaning vazifalari, ya'ni funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Avlodni yaratish va davom ettirish (jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, inson zotini davom ettirish).
2. Ijtimoiy vazifa (farzandlarni tarbiyalash, ularning o'zaro va boshqalarga munosabatini shakllantirish).
3. Iqtisodiy vazifa (oila a'zolarining oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlash, boshqa uy-xo'jalik vazifalari).
4. Rekreativ, ya'ni o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish va bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolarining dam olishini tashkil etish.
5. Kommunikativ, ya'ni oila a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish, ularning muloqotlarini mustahkamlash, o'zaro yaqinlik tuyg'ularini vujudga keltirish.

6. Regulyativ, ya'ni ularning o'zaro munosabatlarini boshqarish.
7. Burch va majburiyatlarini his qilishga o'rgatish.
8. Muomala munosabatlarini qondirish.
9. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish.
10. Yosh avlodning qariyalar haqida g'axo'rlik qilishi va shu kabilar.

O'zbekistonda oila va nikoh munosabatlarining asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Oila kodeksi tashkil etadi. Konstitutsiyaning 14-bobi bevosita oila masalasiga bag'ishlangan. 63-moddada nikoh tomonlarning roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi ta'kidlanadi. 64-moddada ota-onalarning o'z farzanlarini voyaga etguncha boqishlari va tarbiyalashga majbur ekanligi haqidagi fikr mustahkamlangan. Shu bobda etim bolalar va ota-onasining vasiyiligidan mahrum bolalarni boqish va tarbiyalashni davlat o'z zimmasiga olishi ko'rsatilgan. 66-moddada esa voyaga etgan va mehnatga layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburligi belgilab qo'yilgan.

Oila va uning atrofidagi masalalarni o'rganish maqsadida 1998 yil fevralida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "Oila" ilmiy-amaliy Markazi tashkil etildi va u hozir o'z faoliyatini olib bormoqda. Olib borilgan faoliyat natijasida onalik va bolalik masalalari alohida diqqat markazida bo'lishi lozimligi anglandi va davlatning bu boradagi barcha ishlar Vazirlar Mahkamasining 2001 yil fevralidagi qarori bilan tasdiqlangan "Ona va bola" Davlat Dasturi qabul qilindi.

Xalqlarning uzoq tarixi ko'pincha davlatlar yashnashiga yoki ularning tanazzuliga ma'lum ma'noda oiladagi holat, ayniqsa hukmdorlarning oilaviy ahvoli ta'sir ko'rsatishiga oid ko'plab misollarni saqlab qolgan. Shu ma'noda oiladagi ichki omillar, oilaviy tarbiya muammolari, otalar va farzandlar, akalar va ukalar, opalar va og'a-inilar o'rtasidagi o'zaro bemehrlilik, nifoqlar, yakdillikning bo'lmasligi sababli bir paytlar dong'i ketgan sulolalarning zavol topganligi sir emas. Ayni shu sabablarga ko'ra Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar saltanatlari va boshqa davlatlar inqirozga yuz tutgan edi. Shu sababli birinchi Prezidentimiz I.Karimov mamlakatdagi umumiy barqarorlik bir-biriga bog'liq va tizimiy hodisalar xususiyatiga egaligini ko'zda tutib, "agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahalla tinch va hamjihat, agar mahalla mustahkam bo'lsa davlat osoyishta va barqaror bo'ladi", deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasida har yili 150-156 ming yangi oilalar paydo bo'ladi. Va taasufki, har yili turli sabablarga ko'ra ko'plab nikohlarning barbod bo'lishi ham yuz bermoqda. 2001 yilda bu ko'rsatgich 15 600 tani tashkil etgan. Bu qurilayotgan oilalarning 10 foizi demakdir. Bu borada hali amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar va muammolar talaygina. Jamiyatimizning rivoji esa ularning imkon qadar ijobiy echilishiga umid tug'dirmoqda.

4. Kishilarning yosh, iins va boshqa belgilar bo'yicha ijtimoiy tasnifi

Ijtimoiy rivojlanish tarixi jamiyatning turli belgilari bo'yicha o'zaro farqlanuvchi odamlar yig'indisidan iboratligini ko'rsatdi. Ularni turli sotsiologik yo'nalishdagi fan vakillari tadqiq etishadi. Kishilarni yoshiga ko'ra,

mutaxassisligiga ko'ra, yashash makonining shahar yoki qishloqdaligiga ko'ra, jinsiga ko'ra va boshqa belgilariga ko'ra o'rganish mumkin. Bu insonning juda murakkab xilqat ekanligidan va uni tadqiq etish imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Jamiyat a'zolarining bir-birlariga munosabatlarini, jamiyat kelajagiga ta'sirini, mavjud yoki kelajakdagi ishlab chiqarish va boshqa sohalar rivojiga ta'siri va boshqa ko'plab masalalarni echishda aholini turli belgilari bo'yicha tasniflashtirish katta ahamiyatga ega. Bunda har bir kishi turli tasniflashda turli guruhlariga kiritilishi mumkin. Masalan, jins bo'yicha kishilar ikki guruhga – erkaklar va ayollarga ajratiladi. Yoshiga ko'ra esa bir necha guruhlar farqlanishi mumkin: bolalar, katta yoshdagilar va qariyalar (bularning har biri yanada kichikroq guruhlariga turkumlashtirilishi mumkin). Yashash joyiga ko'ra – qishloqda yoki shaharda yashovchilar. Ma'lumotiga ko'ra – oliy, o'rta maxsus, o'rta, to'liqsiz o'rta, boshlang'ich ma'lumotlilar. Diniy e'tiqodiga ko'ra – dindorlar va dinga ishonmaydiganlar. Siyosiy e'tiqodiga ko'ra – muayyan bir partiya a'zolari va partiyasizlar. Bu ro'yxatni davom ettirishimiz mumkin. Ammo shundan ham ko'rinib turibdiki, kishilar murakkab hilqat bo'lmish "hazrati insondir", ularni qanchalik o'rgansak shuncha oz. Bu borada oldimizda hali ochilmagan qo'riq turibdi. Bu borada qanchalik ko'p ilmiy ma'lumot va bilimlarga ega bo'lsak, shunchalik hatti-xarakatimiz asosliroq bo'la boradi. Biz o'zimizni va atrofimizdagi kishilarni qanchalik yaxshi bilsak, bunda har bir kishining qaytarilmas hilqat ekanligini, cheksiz ummondagi kichik zarracha bo'lmish Er sharining bizdan keyingi avlodlarga ham qolishi zarurligini anglasak hamda o'zaro munosabatlarimizni shunga muvofiq tashkil etsak, o'ylaymizki, mavjud muammolar o'z echimini albatta topadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. "Geterogenlik" tushunchasi nimani ifodalaydi?
2. Sotsial stratalar qanday ma'noni anglatadi?
3. Jamiyatning ijtimoiy guruh va qatlamlarga ajralishiga sabab nima?
4. O'zbekistonda o'rta va kichik mulkdorlar sinfi vujudga kelishining ob'ektiv sabablarini ko'rsating.
5. Kishilarning etnik birliklari nimalardan iborat?
6. "Millat" so'zining mazmunini tushuntirib bering.
7. Milliy g'urur deganda nimani tushunasiz?
8. Mamlakatimizdagi milliy-madaniy markazlarning ahamiyati va vazifalari haqida so'zlab bering.
9. Oila qanday tarkib topgan? Uning qanday tarixiy shakllari bo'lgan?
10. O'zbekistonda oila masalalariga berilayotgan e'tibor haqida gapirib bering.

8-mavzu. Jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimi. O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyat qurilishining asosiy yo'nalishlari

Kishilarning har qanday jamoasi faoliyati muvofiqlashtirish va boshqarishga ehtiyoj sezadi. Jamiyat hayoti – bu insoniy munosabatlarining vujudga kelishi, rivojlanishi va tugallanishidan iborat bo'lib, ular alohida kishilar, kishilar jamoalarining turli sohalaridagi manfaatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun jamiyatda hatti-harakatlarni boshqarish va muvofiqlashtirishning umume'tirof etilgan shakli bo'lmish ijtimoiy normalar albatta paydo bo'ladi.

Inson hatti-harakatlarining jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan qanday bo'lishi mumkinligi va qanaqa bo'lishi lozimligi ijtimoiy normalar tomonidan aniqlab beriladi. Ular odamlar ongli faoliyatining natijasi bo'lib, hamjamoaga bo'lib yashashni takomillashtirishga yo'naltirilgan. Normalar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga keladi va ularni konkret tarixiy muayyanlikdan ajratib bo'lmaydi. Ular mavjud jamiyatdagi madaniyat tipiga va uning tashkiliy xarakteriga mos bo'ladi. Planetamizda turli-tuman huquqiy va siyosiy tizimlar amal qilishi hodisasini xuddi ana shu narsa bilan izohlash mumkin. M.Veber aytganidek, aynan *madaniyat* dunyoga ma'no bag'ishlaydi, kishilar o'rtasidagi munosabatlar haqida hukm chiqarishga asos yaratadi (bu haqda siyosiy madaniyat haqidagi fikrlarga qarang).

Yurish-turish, hatti-harakat normalari davlatchilik paydo bo'lishidan ancha ilgari vujudga kelgan bo'lib, uning aniq vaqtini aytish mushkul. Aslini olganda bu "Shaxs va jamiyat" predmetining vazifasiga kirmaydi. Biz uchun jamiyatda hukmronlikka oid munosabatlar qanday qilib vujudga kelganligini, kishilarning o'zaro aloqadorliklari, ijtimoiy munosabat jarayonlarining qanday boshqarilishidagi muhim mexanizmlarni ko'rib chiqish ahamiyatliroqdir. Keng ma'noda ijtimoiy normalar vositasida boshqarish har bir xalqning o'z taqdirini o'zi belgilashdek asosiy huquqi bilan bog'liq. Unga muvofiq davlat boshqaruv va hokimiyat organlari konstitutsion vositalar yordamida o'zlarining fuqarolar va ularning birlashmalari bilan o'zaro munosabatlari tartibini, shuningdek, suveren davlatning xalqaro munosabatlarda qatnashuvi tartibini belgilab oladilar. Ijtimoiy boshqaruv jamiyat va davlatdagi ichki tartibni ta'minlash vositasi bo'lib, xalqlarning bir-birini yaxshi tushunib olishlariga yordam beradi. Jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish jarayoni davlatga xos va nodavlat aspektlarni, milliy hamda xalqaro huquqiy va siyosiy vositalarni o'z ichiga oladi.

1. Jamiyatning siyosiy tizimi

"Jamiyatning siyosiy tizimi" iborasi siyosiy fanning muhim tushunchasi sifatida XX asming ikkinchi yarmida qaror topdi. Bu siyosiy jarayonlarda quyidagi sifatiy yangiliklar paydo bo'lishi bilan bog'liq: aynan XX asrda davlat siyosiy hukmronlikda o'zining monopol ahamiyatini (ya'ni yakkahokimlikni) yo'qotdi va partiyalar, jamoat tashkilotlari, institutsiyalar (tashkiliy hodisalar) va ijtimoiy munosabatlarga muhim ta'sir ko'rsatuvchi shu kabi tashkilotlar qatori siyosiy tizim elementlarining biriga aylanib qoldi. Aynan ana shu institutsiyalar davlatning fuqarolik jamiyati bilan aloqasini o'rnatishga va demokratik xarakterdagi hokimiyat vujudga keltirishga imkon berdi. Ijtimoiy hayotning siyosiy

jarayonlarga ta'sirining ana shunday kengayishi "jamiyatning siyosiy tizimi" degan umumlashgan yangi tushunchaning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuning uchun hozirgi siyosiy jarayonlarni o'rganishda nafaqat davlat va davlat hokimiyati organlari tizimini, shu bilan birga siyosiy jarayonlarda qatnashuvchi va siyosiy qarorlar qabul qilinishida ishtirok etuvchi barcha ijtimoiy-siyosiy institutsiyalarni ko'rib chiqish kerak.

Hozirgi zamon siyosiy lug'atida "jamiyatning siyosiy tizimi" iborasidan-da ziddiyatli iborani topish qiyin. Siyosiy tizimga ta'rif berishning qiyinlashuviga unga turli mamlakatlardagi nafaqat ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fan mutaxasislari (yuristlar, siyosatshunoslar, tarixchilar), balki ushbu yo'nalishdan ancha uzoq bo'lgan kishilar – *populistlar* ham ta'rif berishga urinayotgani ta'sir etmoqda. Shunday bo'lsada, mavjud ko'plab ta'riflarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: *davlat hokimiyatini o'rnatish va uni amalga oshirishda qatnashayotgan institutsiyalar yig'indisiga jamiyatning siyosiy tizimi deyiladi*. Demak, siyosiy tizimning belgilovchi, asosiy kategoriyasi hokimiyat hisoblanadi.

Jamiyatning siyosiy tizimi tushunchasi har bir mamlakatdagi siyosiy tizim tushunchasiga nisbatan kengroqdir va ularni belgilab beradi. Jamiyatning siyosiy tizimi o'zaro aloqador bo'lgan to'rtta asosiy torroq tizimni o'z ichiga oladi: *institutsiyaviy (tashkilotga oid), kommunikativ (munosabatga oid), normativ (qoidaga oid), madaniy-mafkuraviy*.

Siyosiy institutsiyalar – siyosiy hokimiyatni amalga oshirish bilan bog'liq tashkilot va muassasalar yig'indisidir. Siyosiy institutsiyalar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: a) davlat va uning organlari; b) jamoat tashkilotlari; v) yuridik shaxs maqomidagi boshqa tashkilot va muassasalar. Siyosiy institutsiyalarning xususiyati shundaki, ularning faoliyati amalda doimo qonun tomonidan, ya'ni muayyan normativ hujjatlar orqali boshqariladi.

Siyosiy hokimiyatning asosiy instituti davlat hisoblanadi. Davlat siyosiy sistemaning markaziy elementi, asosi hisoblanadi, u hokimiyatning asosiy manbasi va timsolidir. Shuningdek, siyosiy sistemaning muhim elementlarini *siyosiy vositachilik institutsiyalari* hisoblanmish partiyalar, ta'sir ko'rsatish guruhleri, manfaatdor guruhlar tashkil etadi.

Siyosiy munosabatlar – siyosat sub'ektlarining o'zaro ta'sirlarining shakli, siyosiy hokimiyatni egallash, o'rnatish, amal qilish, qo'llash, rivojlantirish va o'zgartirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlash turidir; bu – siyosiy sistema institutlari, siyosiy va ijtimoiy sistemalar o'rtasida tarkib topadigan o'zaro ta'sirlarning bir-biriga munosabatlari va o'zaro ta'sir shakllarining yig'indisidir.

Siyosiy munosabatlarning markazida davlat va jamiyatning o'zaro munosabati turadi. Davlat va jamiyat munosabatlari asosan uch turdagi to'g'ri teskari aloqalar yig'indisidan iborat (bunda "to'g'rialoqa" – davlatdan jamiyatga tomon, "teskari aloqa" – jamiyatdan davlatga tomon aloqalarni anglatadi):

- "Teskari aloqa mexanizmi" mavjud bo'lganda va yaxshi taraqqiy etganda, uning ahamiyatiga yuqori e'tibor berilsa siyosiy munosabatlar *demokratik* xarakterda bo'ladi; Bunday tartibdagi davlatda siyosiy hokimiyat ishontirish, muvofiqlashtirish, qonuniylik, parlamentarizm, faqat qonun doirasidagina majburlash vositalari bilan amalga oshiriladi. Davlat oliy

organlari xalqning vakolatiga ega bo'ladi, hokimiyat xalq manfaatlari yo'lida amalga oshiriladi, inson va fuqaro huquq va erkinliklari keng himoya qilinadi, jamiyatning barcha sohalarida qonun ustuvor bo'ladi.

- "Teskari aloqa mexanizmi" qisman yopib qo'yilib, to'g'ri aloqalarning ahamiyati oshirilsa siyosiy munosabatlar *avtoritar* xarakterda bo'ladi;
- "Teskari aloqa mexanizmi" to'liq tugatilganda va faqat to'g'ri aloqalar bo'lganda siyosiy munosabatlar *totalitar* xarakterda bo'ladi. Hokimiyat diktatorlik, kuchga asoslanuvchi vositalar bilan amalga oshiriladi. Totalitar tartibdagi jamiyatda inson huquq va erkinliklari himoya qilinmaydi, jamiyatda qonunsizlik va o'zboshimchalik hukmron bo'ladi.

Har bir mamlakatdagi siyosiy munosabatlarga guruhlararo, guruhlardagi ichki va shaxslararo munosabatlar ham kiradi. Dunyo miqyosidagi siyosiy munosabatlar esa davlatlararo (xalqaro) va global siyosiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shundan ko'rinib turibdiki, siyosiy munosabatlar tashkiliy tuzilishi juda murakkab va ko'p darajali tizimlardan iborat.

Siyosiy munosabatlar ishonch va hamkorlik yoki raqobat, nizo va antagonizm xarakterida bo'lishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan barcha siyosiy munosabatlar yig'indisi har bir jamiyat siyosiy sistemasining qanday amal qilishini belgilab beradi.

Siyosiy normalar – jamiyat siyosiy hayotini muvofiqlashtirib, boshqarib turuvchi norma va an'analar yig'indisidir. Siyosiy munosabatlarning qanday shaklda va qanaqa doirada bo'lishi faqat davlat-siyosiy institutsiyalari bilangina emas, shu bilan birga normativ tizim (mamlakat Konstitutsiyasi, boshqa qonun va qonunga oid hujjatlar), bulardan tashqari yozilmagan siyosiy an'analar, odatlar, jamoat tashkilotlari normalari, axloqiy normalar bilan boshqarib turiladi.

Siyosiy madaniyat o'z ichiga quyidagi elementlarni oladi:

- muayyan jamiyat uchun tipik bo'lgan va mustahkamlanib qolgan siyosiy hatti-harakat namunalari va qadriyat mo'ljallari;
- mazkur jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy institutsiyalar va jarayonlarning xususiyatlarini belgilab beruvchi bilimlar, hatti-harakat normalari va namunalari, qadriyat va an'analar;
- ijtimoiy guruhlar va alohida kishilarning siyosat sohasidagi siyosiy hatti-harakatlarga ta'sir ko'rsatuvchi tarixiy tajribasi, xotirasi, hatti-harakat madaniyati, shaxsiy mo'ljallari va ko'nikmalari.

Siyosiy madaniyat u yoki bu jamiyatda hukmron bo'lgan siyosiy rejimning vujudga kelishi, xarakteri va xususiyatlarini, ijtimoiy guruhlar va individlarning siyosiy ongi va hatti-harakatlarini tushuntirib beradi. Siyosiy madaniyat qismlarini o'zaro mustahkamlovchi element jamiyatning butun faoliyati uchun umumiy bo'lgan hamda mafkurada aks etadigan qadriyatlar, normalar, dasturlar yig'indisi bo'lmish *siyosiy dunyoqarash* hisoblanadi.

Siyosiy madaniyat sub'ektlari sifatida umuman jamiyat ham, shuningdek, sinflar, ijtimoiy qatlamlar, muayyan jamoalar va alohida shaxslar ham chiqishi mumkin. Har bir mamlakat va har bir xalq o'ziga xos bo'lgan siyosiy madaniyatiga ega. Har bir mamlakat siyosiy ongi va hatti-harakatlaridagi tarixiy tarkib topgan,

nisbatan mustahkam, odatiy bo'lib qolgan e'tiqodlar, ko'rsatmalar, tasavvurlar, hatti-harakat namunalari uning siyosiy madaniyatini tashkil qiladi va uni boshqalardan farqlab turadi. Masalan, ko'pgina g'arb mamlakatlari uchun tarixiy tarkib topgan formallashgan ong va unga asoslanib huquqqa, qonunga, shartnomaga hurmat, shaxsning boshqalarni va o'z o'zini, uning huquq va erkinliklarini yuqori darajada hurmat qilishi, davlatning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashmasligi, individning o'z-o'zini yuqori darajada cheklashi xarakterli bo'lib, ana shularsiz haqiqiy demokratiya va huquqiy davlatning bo'lishi mumkin emas.

Sobiq Sovet Ittifoqi va boshqa sotsialistik mamlakatlar o'rnida vujudga kelgan davlatlar siyosiy madaniyati esa, aksincha, jamiyat hayotida *davlatning ustunligi* va shunga bog'liq holda hokimiyatning avtoritar xarakterdaligi, *paternalizm* (ya'ni davlatning jamiyatga "homiylig" qilishga intilishi) va hokimiyatga oid munosabatlarning paternalistik xarakterdaligi, aholining hokimiyatga nisbatan *klientilistik* (ya'ni davlat himoyasida, homiyligida bo'lishga odatlanib qolish) munosabatda bo'lish, jamiyatda davlatdan mustaqil bo'lgan va unga bog'liq bo'lmagan fuqarolik jamiyati institutsiyalarining taraqqiy etmaganligi, *hokimiyatning sakrallashgani* va *siyosiy munosabatlarning personifikatsiyalashuvi* (ya'ni qonunning emas, balki alohida shaxsning ustunligi) bilan tavsiflanadi.

2. Davlat siyosiy sistemaning asosiy instituti

Ijtimoiy rivojlanish natijasida har bir xalq tarixida davlat turli vaziyatlarda, turli davrlarda vujudga kelgan. Davlatning paydo bo'lishi haqida bir-biridan farq qiladigan bir qancha nazariyalar mavjud.

1. *Patriarxal nazariya* vakillarining (Aristotel, Filmer) fikricha davlat oilaning evolyusiyasi natijasidir, davlat boshlig'i patriarxal oila boshlig'iga o'xshaydi va undagi jarayonlar oiladagi munosabatlar kabi tuzilgan.

2. *Diniy nazariyalar* esa davlatni ham boshqa ijtimoiy hodisalar qatori ilohiy karomat sifatida tushunishadi, ularning fikricha davlat xudo belgilab bergan normalarni o'z fuqarolari orasiga singdiradi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

3. *Shartnoma nazariyasi* vakillarining (G. Grotsiy, T. Gobbs, J.J. Russo) fikricha davlat kishilar o'rtasidagi kelishuv, shartnoma natijasidir. Davlat kishilarning o'zaro kelishuvi natijasi ekanligi haqidagi fikrlarni Epikur ham aytgan edi. Bu nazariyaga muvofiq suverenitet umuman xalqqa tegishli, hukmdorlar esa – xalq vakillari bo'lib, xalq oldida hisobot berib turadi va xalq xohishiga ko'ra almashtiriladi.

4. *Gegelning davlat haqidagi ta'limoti*. Gegelning qarashlari uning quyidagi ta'kididan kelib chiqadi: "Voqe' narsalarning barchasi aqlga muvofiqdir". Gegel tabiat va jamiyat hodisalarining asosida, demakki, davlat va huquq asosida ham, absolyut ruhiy va aqliy ibtido – "absolyut g'oya" turadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha davlat axloq amal qilishining oliy shaklidir, u hech kimning manfaatlariga xizmat qilmaydi, balki o'z-o'zicha absolyut maqsad hisoblanadi. Gegel ta'limotida davlat oliy qadriyatlarining aks etishi sifatida tasvirlanadi, u shaxsga nisbatan oliylik huquqiga ega. Insonning oliy majburiyati esa – davlatning munosib a'zosi

bo'lishdir. Gegel shuningdek fuqarolik hodisasining siyosiy-huquqiy mohiyatini asoslab beradi va vatanparvarlik shaxsning muhim belgisi ekanligini aytadi.

5. *Istilo nazariyasi*. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan. Uning asoschilari (L. Gumilovich, K. Kautskiy, E. Dyuring va boshqalar) mazkur g'oyaning to'g'riligiga isbotni mashhur tarixiy faktlardan (masalan, german va venger davlatlari vujudga kelishidan) qidirganlar. Avstriyalik tadqiqotchi L. Gumilovich shunday deb yozadi: "Tarix bizga davlatning faqat zo'ravonlik orqali vujudga kelganidan boshqa birorta misolni ko'rsata olmaydi. Bundan tashqari, bu hamma vaqt bir qabilaning boshqasi ustidan zo'ravonligi bo'lgan, u kuchli begona qabilaning kuchsizroq, ammo o'troq bo'lishga ulgurgan aholini bosib olishi va bo'ysundirishi sifatida namoyon bo'lgan".

Davlatning vujudga kelishi masalasi aftidan hali uzoq vaqt mobaynida fanda munozarali masala bo'lib qoladi. Unga beriluvchi javoblar esa bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq bo'ladi. Birinchidan, tarix, etnografiya, arxeologiyaning rivoji bilan biz davlat va huquqning vujudga kelishi haqidagi yangi-yangi ma'lumotlarni olamiz. Ikkinchidan, ushbu ma'lumotlar doimo u yoki bu falsafiy maktab vakillari tomonidan ularning konseptual mo'ljallari mazmuniga mos ravishda talqin qilinadi.

Har qanday davlat undagi mohiyat, mazmun va shaklning birligi sifatida amal qiladi. Davlat faol amal qilishi, uning mexanizmi sifatli va mutanosib bo'lishi uchun qat'iy tashkil etilgan davlat hokimiyati talab etiladi. Bu erda davlat shakli biz uchun asosiy tushuncha hisoblanadi. *Davlat shakli tushunchasida uning boshqaruv shakli, davlat tizimi va davlat siyosiy rejimi (tartiboti)ning davlat hokimiyatining tashkil etilishi sifatida aks etishi tushuniladi*. Davlat shaklining qanday bo'lishiga aholining milliy tarkibi, tarixiy an'analar, mamlakat hududining katta-kichikligi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. 1990 yillarning o'rtasida sobiq Yugoslaviyada yuz bergan voqealar, sobiq Sovet Ittifoqi respublikalaridagi murakkab vaziyatlar har bir xalqda "faqatgina uning o'ziga xos bo'lgan alohida, individual shakldagi konstitutsiyasi borligini ko'rsatdi. Bir xil bo'lgan xalqlar yo'q va bir xil shakldagi konstitutsiyalar ham bo'lmasligi kerak. Ko'r-ko'rona ko'chirib olish va taqlid qilish bema'nilik, xavfli va u halokatli bo'lishi ham mumkin".

Boshqaruv shakli oliy davlat hokimiyati tashkil etilishi usulini, uning organlari tashkiliy tartibini, ularning o'zaro aloqasi va aholi bilan munosabatlarini, ular tashkil topishida aholining qatnashuv darajasini ochib beradi. Boshqaruvning monarxiya va respublikadek asosiy ikki shakli mavjud. Ularning oliy organlari tashkil etilish tartibi bo'yicha ham, tarkibi bo'yicha ham, vakolatlari bo'yicha ham bir biridan farq qiladi. Hozirgi paytda har ikkala ko'rinishdagi boshqaruv shakliga ega bo'lgan davlatlar mavjud.

Monarxiyada oliy davlat hokimiyati davlat boshlig'i - monarxning (qirol, shoh, imperator va h.k.) yakka o'ziga tegishli bo'ladi, odatda ular taxtni meros qilib oladilar. Monarxning aholi oldidagi mas'uliyati darajasi har xil bo'lishi mumkin: *adsolyut (mutlaq) monarxiyalarda* (masalan, Saudiya Arabistonida) monarx davlatning yagona oliy organi hisoblanadi; u qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi, ijro hokimiyati organlarini boshqaradi va oliy sudya hisoblanadi. *Cheklangan monarxiyada* esa (masalan, Shvetsiya, Buyuk

Britaniyada) monarx hokimiyati konstitutsiya, parlament, hukumat va mustaqil sudyalar tomonidan jiddiy chegaralangan bo'ladi.

Respublikalarda esa davlat hokimiyati ma'lum muddatga saylangan va saylovchilar oldida mas'uliyati bo'lgan saylangan organlarga tegishli bo'ladi. Tarixdan sizga ma'lumki, boshqarishning respublika shakli qadimgi quldorlik davlatlarida vujudga kelgan va o'zining yorqin ifodasini Afina respublikasida topgan edi. O'rta asr feodalizmida respublikacha boshqaruv shakli nihoyatda kam bo'lgan, ular ba'zan o'zini-o'zi boshqarish huquqiga ega bo'lgan "erkin" shaharlarda (masalan, Venetsiya, Genuya, Lyubek, Novgorod kabilarda) amal qilganlar, xolos.

Hozirgi paytda respublikalar parlamentli va prezidentlik respublikasiga ajratiladi. Ular oliy hokimiyat organining qaysi biri – parlamentmi yoki prezident - hukumatni tuzishi va uning ishiga rahbarlik qilishi hamda hukumat kimning oldida javob berishiga ko'ra farqlanadi. *Parlament respublikasida* (masalan, GFR) parlament nafaqat qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi, balki hukumatga ishonchsizlik bildirib, uning iste'foga chiqishini talab qilishga ham haqli. Hukumat o'z faoliyati uchun parlament oldida javob beradi. Prezident faqat davlat boshlig'i hisoblanadi, ammo u hukumat boshlig'i emas. Siyosiy jihatdan bu narsa parlament saylovlarida g'olib bo'lgan partiya (yoki partiyalar) hukumatni tuzishini anglatadi, davlat boshlig'i esa – bordiyu u ana shu partiyaning rahbari bo'lmasa – uning faoliyatini boshqarish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Hukumatni Bosh-vazir boshqaradi.

Prezident respublikasida davlat boshlig'i parlamentning muayyan nazorati ostida hukumatni tuzadi, bu hukumat uning oldida o'z faoliyati uchun javobgar bo'ladi. Odatda, prezidentlik respublikalarida bosh-vazirlik lavozimi bo'lmaydi, chunki hukumat boshlig'i lavozimini ham prezidentning o'zi bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijroiya hokimiyatining boshlig'i hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni paytda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi". Prezident ijroiya hokimiyati apparatini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, respublikada oliy boshqaruv va davlat organlarining o'zaro munosabatlarini ta'minlaydi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining boshqa organlarini tashkil qiladi va tugatadi, ular haqida keyinchalik Oliy Majlisda tasdiqlash uchun farmoyishlar qabul qiladi. U Bosh vazirni, uning birinchi o'rinbosarini, Bosh vazirning boshqa o'rinbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, bu farmoyishlar keyinchalik Oliy Majlisda tasdiqlanadi (Konstitutsiyaning 93-moddasi). SHunday qilib O'zbekiston Respublikasi klassik prezidentlik respublikasidir.

Bundan tashqari "aralash" ("yarim prezidentlik" yoki prezidentlik-parlamentlik) respublikalar ham mavjud (Fransiya, Finlyandiya, Portugaliya), ularda parlament va prezident u yoki bu darajada hukumatni nazorat qilish bo'yicha o'z vakolatlarini baham ko'rishadi.

Asrlar mobaynida davlatlar bir biridan ichki tuzilishi (strukturasi) bilan, ya'ni ma'muriy-hududiy birliklarini tashkil etish usuli, shuningdek, davlat hokimiyatining markazlashuv darajasi bilan farq qilishgan. Davlatning ushbu xususiyati *davlat tuzilish shakllari* deyiladi, bunda davlatning hududiy tuzilishi, yagona bo'lgan muayyan davlatning o'z tarkibiy qismlari bilan munosabatlari ko'zda tutiladi.

Davlat tuzilishining unitar va federativ deb ataluvchi ikki asosiy shakli mavjud. *Unitar davlatda hokimiyat markazlashtirilgan bo'ladi, uning ma'muriy-hududiy birliklari (viloyatlar, provinsiyalar, okruglar va shu kabilari) davlat tuzilmasi maqomiga, suveren huquqlarga ega bo'lmaydi.* Unitar davlatda davlatning oliy organlari, konstitutsiya, fuqarolik yagona buladi. Davlat tuzilishining bu shakli davlatning birligini ta'minlaydi, u yaxshi boshqariladi. Shu paytgacha amal qilgan davlatlarning ko'pchiligi unitar davlatlar bo'lgan.

Federativ davlat (federatsiya) – murakkab ittifoq davlatidir, uning qismlari (respublikalar, shtatlar, erlar, kantonlar va hokazolar) davlat hisoblanadi yoki davlat maqomiga ega hodisalar bo'lib, ular suverenitetga ega. Qat'iy ilmiy ma'noda konstitutsiya yoki shartnomaga asoslangan davlatlar ittifoqiga federatsiya deyiladi. AQSh, Kanada, Braziliya, Meksika, GFR, Hindiston va shu kabi davlatlar federativ davlatlarga misol bo'ladi. Federatsiya tarkibiga kiruvchi davlatga oid hodisalar ("federatsiya sub'ektlari") o'z konstitutsiyasiga, fuqaroligiga, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati kabi davlat hokimiyatining oliy organlariga ega bo'lishi mumkin. Federatsiyada ikki darajali (umum federatsiyaviy va uning sub'ektlarida) oliy organlar tizimining mavjudligi ularning vakolatlarini chegaralash zaruriyatini tug'diradi.

Juda kam hollarda davlat tuzilishining *konfederativ* shakli uchraydi. Qat'iy qilib aytiladigan bo'lsa, konfederatsiya davlat emas. *Konfederatsiya – suveren davlatlar ittifoqi bo'lib, u muayyan (iqtisodiy, harbiy va boshqa) maqsadlarga erishish uchun tashkil etiladi.* Konfederatsiya organlari a'zo-davlatlar faoliyatini, ular nima maqsadlarda birlashgan bo'lsalar, ana shu masalalar borasidagi faoliyatlarinigina muvofiqlashtiradi. Konfederatsiya suverenitetga ega bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shakllari bir qator xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Konstitutsiyaning 68-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, posyolkalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashkil topadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishini mustaqil hal qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga o'z suverenitetiga ega bo'lgan holda kirgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilinadi (Konstitutsiyaning 70-moddasi). O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasidagi o'zaro munosabatlari ular o'rtasida tuziladigan shartnoma va kelishuvlarga muvofiq boshqariladi (Konstitutsiyaning 75-moddasi).

3. Hokimiyatning bo'linish tamoyili

Hokimiyatning bo'linish tamoyili hozirgi zamon davlat va huquq nazariyasining asoslaridan biri bo'lib, ko'p jihatdan fransuz ma'rifatparvarligining atoqli vakili, taniqli huquqshunos va siyosiy arbob Sharl Lui Monteske (1689-

1755) nomi bilan bog'liq. Qomusiy bilimlar sohibi bo'lmish bu olim huquqshunoslik va siyosat masalalari bilan bir qatorda falsafa, axloqshunoslik, tarix, sotsiologiya, din, siyosiy iqtisod, tabiiy fanlar, san'at va adabiyot bilan ham shug'ullangan. Monteskening siyosiy va huquqiy qarashlari uning "Fors maktublari" (1721), "Rimliklarning buyukligi va halokati sabablari haqida mulohazalar" (1734), "Qonunlar ruhi haqida" (1748) asarlarida aks etgan. Shuni aytib o'tish joizki, Monteske "Qonunlar ruhi haqida"gi kitobini 20 yil mobaynida yaratgan.

Monteske boshqarishning uch obrazini (shaklini) farqlaydi: respublikaviy, monarxik va despotik. Respublikacha boshqaruvda oliy hokimiyat yoki butun xalq (demokratiya) yoki uning bir qismi (aristokratiya) qo'lida bo'ladi. Monarxiya – bu qat'iy o'rnatilgan qonunlar vositasida bir kishi tomonidan boshqariluvchi davlatdir. Despotiyada esa barcha narsa har qanday qonun va qoidalardan ustun turuvchi hukmdorning istagi va irodasiga ko'ra sodir bo'ladi. Monteske ana shu boshqaruv shakllarining vujudga kelishi va amal qilishini qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarining siyosiy muvozanati, shuningdek, ushbu funksiyalarni amalga oshiruvchi organlarning o'zaro munosabatlari xarakteriga bog'laydi. Uning fikricha, hokimiyatning ushbu uch tarmog'i o'zaro muvozanatda bo'lsa boshqaruv "mo'tadil" bo'ladi, ya'ni bunday davlat tuzumida "hech kimni qonun talab qilmagan narsani bajarishga, aksincha, hech kimni qonun ruxsat bergan narsani bajarmaslikka majbur etib bo'lmaydi".

Hokimiyatning bo'linishidan asosiy maqsad - hokimiyatni suiiste'mol qilishga imkon bermaslikdir. Bunday imkoniyatning oldini olish uchun, deydi Monteske, "shunday tartib zarurki, bunda turli hokimiyatlar bir-birini tiyib turishi mumkin bo'lsin". Hokimiyatlarning o'zaro bir-birini tiyib turishi – ularning qonun tomonidan belgilab berilgan o'z imkoniyatlari doirasida o'zaro qonuniy va uyg'un amal qilishining zaruriy shartidir. "Bu uch hokimiyat osoyishtalik va faoliyatsizlik holatiga kelishi kerakdek tuyuladi. Ammo hodisalarning zaruriy oqimi ularni faoliyat ko'rsatishga majbur qilgani uchun, ular o'zaro muvofiqlashgan holda faoliyat yuritishga majbur bo'ladi". Bunda siyosiy tizimdagi belgilovchi va asosiy rolni, Monteske asosli ravishda, qonunchilik hokimiyatiga tegishli bo'ladi, deb hisoblaydi.

Uning fikricha hokimiyatlarning bo'linishi siyosiy erkinlikni ta'minlashning asosiy shartidir: "Qonunchilik va ijroiya hokimiyatlari bir kishi yoki muassasada birlashtirilsa, erkinlik bo'lmaydi, chunki, ushbu monarx yoki senat tiran (zolim)larcha amal qiluvchi tiran (zolim, mustabid) qonunlar yaratadilar. Sud hokimiyati qonunchilik va ijroiya hokimiyatidan ajratilmasa ham erkinlik bo'lmaydi. U (sud) qonunchilik hokimiyati bilan qo'shilgan taqdirda fuqarolar hayoti va erkinligi o'zboshimchalik va zo'rvonlik hukmi ostiga tushib qoladi, chunki bunda sudya qonunchi hisoblanadi. Sud hokimiyati ijroiya hokimiyati bilan birlashtirilgan taqdirda sudya zulm qiluvchi, ezuvchi bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bordiyu bu uch hokimiyatdan uchalasi ham (ya'ni qonun yaratuvchi hokimiyat, umumdavlat xarakteridagi qarorlarni bajaruvchi hokimiyat hamda jinoyatlar yoki xususiy shaxslarning da'vo ishlarini sud qilish hokimiyati) bir

kishida yoki mansabdorlar, oqsuyaklar yoki oddiy kishilardan iborat bitta muassasada birlashtirilgan taqdirda barcha narsa halok bo'ladi."

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlariga bo'linishi Asosiy Qonun – Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan (11-modda). Asosiy Qonunning beshinchi bo'limi ("Davlat hokimiyatining tuzilishi") qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarining, shuningdek qonunchilikni butun mamlakat hududida aniq va bir xil bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining tuzilishi va faoliyati tamoyillariga bag'ishlangan. Ushbu bo'limda O'zbekistonda saylov, moliya tizimlari, shuningdek davlat xavfsizligi va mudofaasini ta'minlash tamoyillari ham aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tuzilishi masalalari qonunchilikning maxsus hujjatlarida (aktlarida) konkretlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolatlari doirasiga g'oyat keng bo'lib, ular Konstitutsiyaning 78-moddasida aks ettirilgan. Ular qatoriga, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, qonunlarini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish; O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimini va vakolatlarini belgilash; O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash va boshqa ko'plab masalalarni xal qilish kiradi. Ularni siz "Huquqshunoslik asoslari" fani orqali yaxshi bilasiz.

2002 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan referendum (umumxalq ovoz berishi) natijasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali organga aylantirildi. Bu O'zbekiston Respublikasidagi barcha viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilliklarini kuchaytirish hamda qonunchilik faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

4. Huquq – boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy instituti sifatida

Huquqning vujudga kelishi haqidagi g'oyalar davlatning kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar bilan mustahkam aloqadorlikda bo'lib, albatta o'ziga xos xususiyatlarga ega. Huquq tarkib topishi masalalari ko'pincha huquqiy boshqaruv mexanizmi va huquqning tabiati, mohiyati va ahamiyati muammolari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Huquq shunchalik darajadi o'ziga xos, murakkab va ijtimoiy ahamiyatga molik hodisaki, unga bo'lgan ilmiy qiziqishlar asrlar mobaynida nafaqat yo'qolib, balki tobora kuchayib bormoqda. Huquqning o'zi qanday hodisa ekanligi to'g'risida ko'plab ilmiy g'oyalar, yo'nalishlar va nuqtai nazarlar mavjud.

Hozirgi zamon fanida "huquq" iborasi bir necha mazmunda qo'llaniladi. Birinchidan, kishilarning muayyan da'volari (talablari) huquq deb ataladi, masalan – yashash huquqi yoki yuqorida eslatib o'tilgan xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi. Bunday talablar insonning tabiati bilan belgilangan va "tabiiy" huquqlar deb hisoblanadi. Tabiiy-huquqiy qarashlarning ibtidosi qadimgi dunyoga borib taqaladi: "Qonun kishilar hayotiga yordam berishga intiladi. Ammo bunga fuqarolarning o'zlari baxtli yashashni xohlasalargina erishish mumkin; qonun unga

bo'ysunuvchilar uchun – ularning o'z yaxshi fazilatlaridan dalolat xolos", - deb yozgan edi Demokrit. Tabiiy-huquqiy nazariyalar natijasida huquq va qonunni bir biridan farqlash imkoniyati vujudga keldi, ular huquq va axloqni konseptual jihatdan birlashtirishdi.

Ikkinchidan, huquq deganda yuridik normalar tizimi, ya'ni davlat tomonidan o'rnatilgan umummajburiy qoidalar tushuniladi, ularning buzilishi esa yuridik javobgarlikni vujudga keltiradi (huquqning ob'ektiv ma'nosi). "Huquq" iborasi "konstitutsiyaviy huquq", "jinoiyat huquqi", "xalqaro huquq" va shu kabi so'z birikmalarida aynan ana shu ma'noda ishlatiladi. "Huquq" iborasi shunday ma'noda ko'plik shaklida ishlatilmaydi. Normativ huquq nazariyasining asoschisi G.Kelzenning fikricha, huquq "asosiy norma" boshchilik qiluvchi ierarxiyali "piramida"ga o'xshaydi. Bunday piramidada har qanday norma o'z o'rniga ega, uning yuridik kuchi o'zidan yuqorida turuvchi normalarga buysunishi bilan belgilanadi. Huquqni ushbu nazariya doirasidagi hozirgi qarashlarni quyidagi sxema orqali aks ettirish mumkin:

- Huquq – bu normativ aktlarda (tekstlarda) bayon etilgan o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchi normalar tizimidir;
- Huquq normalari davlat tomonidan chiqariladi, unda qonun darajasiga ko'tarilgan davlat irodasi aks ettiriladi;
- Huquq normalari eng muhim ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi;
- Huquqning o'zi va uning amalga oshirilishi zaruriy hollarda davlatning majbur etuvchi kuchi orqali ta'minlanadi;
- Huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, huquqiy ongning tarkib topishi, huquqiy faoliyat normalarga bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, fuqarolarning yoki yuridik shaxslar (tashkilotlar) hattiharakatining rasmiy tan olingan imkoniyati chegaralariga ham huquq deyiladi. SHu ma'noda, fuqarolar mehnat qilish, dam olish, sog'lig'ini saqlash, ijtimoiy ta'minot va shu kabi, tashkilotlar esa mulkka egalik, davlat va ijtimoiy hayotning muayyan sohasida faoliyat ko'rsatish huquqlariga ega. Bu holatlarda huquqning sub'ektiv mazmuni haqida fikr yuritilmoqda, chunki bunda huquqning u yoki bu sub'ektiga tegishli huquq nazarda tutilmoqda. Asosiy huquq va erkinliklarning qonunchilikka nisbatan birlamchiligini ta'kidlaydigan tabiiy-huquqiy nazariyadan farqli ravishda pozitivizm deb atalgan qarash sub'ektiv huquqni davlat tomonidan tashkil etilgan ob'ektiv huquqqa bog'lab qo'yadi. Bu nazariyaga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslar "pozitiv" huquqda, ya'ni davlat tomonidan o'rnatilgan qonunchilikda belgilangan huquqlargagina egadir, bu huquqlar davlat tomonidan tan olingan va ularga "sovg'a qilingan"dir. Pozitivizmda huquq va qonun bir biriga tenglashtiriladi.

Har qanday milliy huquqiy tizim ming-minglab yozma normalar yig'indisidan iborat bo'lgan g'oyat yirik hodisadir. Shuning uchun huquqning u yoki bu normalari tomonidan boshqariladigan ijtimoiy munosabatlar (huquqiy munosabatlar) mazmuniga bog'liq holda hamda mo'ljalashni osonlashtirish uchun huquq tizimlari sohalarga ajratiladi. Huquqni sohalarga ajratishning asosiy belgisi u yoki bu huquq sohasi boshqaradigan ijtimoiy munosabatlarning bir tarkibli

ekanligidir. Masalan, fuqarolik huquqi mulkiy (mol-mulk, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish va shu kabi) va u bilan bog'liq nomulkiy (mualliflik huquqi, ism-sharifini, tasvirini, or-nomusini, qadr-qimmatini himoya qilish va shu kabi) munosabatlarni boshqaradi. Mehnat huquqi ish beruvchi va ishchining ish vaqti, mehnatga haq to'lash, mehnatning ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitlari bo'yicha o'zaro munosabatlarni boshqaradi. Jinoyat huquqi jismoniy shaxslarning qanday hatti-harakati jamiyat uchun xavfli ekanini aniqlaydi va ularni amalga oshirganlik uchun javobgarlik doirasini belgilab beradi.

Yuqorida aytilgandardan huquq umumijtimoiy mohiyatga ega ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin. U jamiyatning barcha a'zolari manfaatlariga xizmat qiladi, ijtimoiy aloqalarning rivoji, barqarorligii, tartibi va tashkiliylikini ta'minlaydi. Insonning huquqni qanday tushunishidan uning o'z erkinligi chegaralarini tushunishi, demakki, uning o'z huquqlari doirasidagi erkinligi, jamiyatning esa davlat shaklida ushbu erkinliklarning himoyasida turganligi ayon bo'ladi. Huquq (sub'ektiv ma'noda) – bu oddiy erkinlik emas, balki kafolatlangan, tajovuzlardan himoyalangan erkinlikdir. Huquq sharofati bilan "yaxshilik" hayot normasiga aylanadi, "yomonlik" esa ana shu normaning buzilishi sifatida tushuniladi.

Shu bilan bir qatorda xalqaro huquq haqida ham bir necha og'iz fikr bildirish lozim. U ko'pincha "xalqaro munosabatlarni boshqaruvchi tamoyil va normalar yig'indisi" sifatida ta'riflanadi. "Xalqaro huquq" iborasini ingliz mutafakkiri I. Bentam (1748-1832) taklif etgan, u ushbu ibora davlatlarning o'zaro aloqalarini (munosabatlarini) bildiradi, deb hisoblagan. Keyinchalik bu fikr yuristlar tomonidan qabul qilinib, xalqaro munosabatlar deganda faqat davlatlararo huquqiy aloqalar tushunila boshlagan. Hozirgi paytda esa xalqaro huquq boshqacharoq, kompleksroq tushunilishi kerak. Hozirgi xalqaro munosabatlar ijtimoiy hayotning juda turli sohalarini – iqtisodiy almashuvlardan tortib sport musobaqalarigacha – qamrab oladi. Ularning qatnashchilari ham turli-tuman, unda davlatlar, davlat birlashmalari va hatto oddiy individlar ham bor. Xalqaro hamjamiyatning xarakteristikasi ham noyobdir: qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlariga bo'linuvchi davlatlardan farqli ravishda xalqaro darajada ana shunday vazifalarni bajaradigan organlar yo'q. Shuning uchun ana shu hamjamiyat a'zolarining munosabatlarini boshqaruvchi huquqiy normalar ham noyob va qaytarilmasdir.

Haqiqatan ham, xalqaro huquqning ko'pchilik normalari jismoniy yoki yuridik shaxslarning emas, davlatlarning hatti-harakatini boshqarishga yo'naltirilgan. Chunki aynan davlatlar jahon maydonidagi asosiy harakat qiluvchi kuchlarni tashkil etadilar. Biroq tarixiy taraqqiyot davomida birorta davlat yoki davlatlar guruhi jahon hamjamiyatiga o'z irodasini "o'tkaza" olmadi; aksincha, xalqaro ma'muriy munosabatlar ham uzuq-yuluq va nobarqarordir. Albatta, siyosiy va harbiy ittifoqlar tuzilishi shuni ko'rsatadiki, u yoki bu davlatlar guruhining manfaatlari ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muayyan darajada o'zaro muvofiqlashtirilishiga olib keladi. Ammo universal xalqaro hokimiyat tizimlari mavjud emas: hatto BMT Xavfsizlik Kengashi ham "butun jahon hokimiyati" emas, bu tashkilotning Bosh Assambleyasi "umumjahon parlamenti" emas, Xalqaro Sudning qarorlari esa ham yuridik, ham siyosiy jihatdan chegaralangan.

Sub'ektlarning o'zaro munosabatlari oxir-oqibatda vertikallik tamoyilga asoslanuvchi milliy huquqiy tizimlardan farqli ravishda xalqaro munosabatlar asosan gorizontal hisoblanadi. Xalqaro huquq uning mohiyatini ifodalovchi kamida uchta xarakterli xususiyatga ega:

- Xalqaro-huquqiy boshqarish ob'ekti davlatlararo munosabatlar hisoblanadi. Bu munosabatlar xalqaro huquqning ob'ektiv chegaralarini belgilab beradi. Milliy huquqiy tizimlar davlatlarning suveren tengligi tamoyili jihatidan ham, huquqiy tizimlarning turli-tumanligi uchun ham davlatlararo munosabatlarni boshqarishga qodir emas, albatta. Xuddi shuning uchun xalqaro normativ tizimlarning eng munozarali masalasi tug'iladi: milliy va xalqaro huquqning normalari o'zaro qanday munosabatda bo'ladi? Monistik qarash tarafdorlari milliy va xalqaro huquq bo'linmasdir, chunki har qanday yuridik normalarning tabiati birdir, deyishadi. Dualistik qarash tarafdorlariesa, milliy va xalqaro huquqni bir-biridan ajratishadi, chunki ularning boshqarish ob'ektlari va ularga ta'sir etuvchi yuridik vositalar turlichadir. Milliy huquqning xalqaro huquqdan ustunligi tarafdorlari esa xalqaro va milliy huquq normalari o'rtasidagi ziddiyatni milliy huquq foydasiga hal qiladilar. Nihoyat, hozirgi paytda keng tarqalgan qarashlardan yana biri xalqaro huquqni milliy huquqdan ustun qo'yuvchi qarashdir. Ularning fikricha davlatlar xalqaro shartnomalarni imzolaydilar, bunda ular o'z irodalariga ko'ra xalqaro tamoyillarni tan oladilar, shuning uchun milliy huquq normalari xalqaro standartlarga moslashtirilishi kerak. Hozirgi paytda davlatlarning ko'pchiligi ana shu nuqtai nazarni yoqlab chiqishmoqda. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida ham "xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi" mustahkamlab qo'yilgan.

Xalqaro huquq uning asosiy sub'ektlari hisoblanuvchi ikki yoki undan ortiq tomonlarning *o'z xohish-irodasini* (ochiq yoki sukut orqali) muvofiqlashtirishi bilan tuziladi. Maxsus sub'ektlarda (Vatikandan boshqa) xalqaro huquq normalari yaratish qobiliyati yo'q. Xalqaro huquqning asosiy manbalari (amal qilish shakllari) *xalqaro shartnoma va xalqaro odat (taomil)* hisoblanadi.

Xalqaro Sud BMTning asosiy sudlov organi hisoblanadi, u Millatlar Ligasi xalqaro sudlov Doimiy Palatasining vorisidir. Uning Statuti (Nizomi)ning 38-moddasida xalqaro huquq normalarining eng ishonchli manbalari ro'yxati keltirilgan. Asosiy manbalardan tashqari, 38-moddada sivilizatsiyalashgan xalqlar tomonidan tan olingan *huquqning asosiy tamoyillari*, shuningdek turli millat vakillarining xalqaro munosabatlar sohasidagi eng yuqori malakali hisoblanuvchi mutaxassislarining *sudlov qarorlari va doktrinalari (ta'limotlari)* huquqiy normalarni aniqlashdagi qo'shimcha vosita (manba) sifatida keltirilgan.

5. Fuqarolik jamiyati tushunchasi

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasi insoniyat siyosiy-huquqiy tafakkuri taraqqiyotining barcha bosqichlarida amal qilgan deb xulosa chiqarish mumkin. U ilg'or fikrlovchi kishilarning aql-idrok, erkinlik, baxt-saodat, adolat hukmronlik qiluvchi ideal jamiyat tuzish haqidagi intilishlarini xarakterlaydi. Fuqarolik jamiyati vujudga kelishi doimo huquq va qonun ahamiyatining oshishi, jumladan, huquqiy davlat vujudga kelishi bilan bog'liq holda tushinilgan. Jumladan, qadimgi

dunyoda (bizning tushunchamizdagi) fuqarolik jamiyati masalalariga Platon va Aristotel e'tibor bergan edilar. Sitseron o'zining "Dialoglar" asarida shunday deydi: "... qonun fuqarolik jamiyatining bog'lovchi xalqalaridir, qonun tomonidan o'rnatilgan huquq hamma uchun birdir". XVI-XVII asrlarda N.Makiavelli, G.Grotsiy, T.Gobbs, J.Lokk, Sh.Monteske, J.J.Russolar fuqarolik jamiyatiga hamma shakldagi emas, faqat muayyan hokimiyat shakllari mos kelishi haqida fikr bildirganlar. Sharqning buyuk mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Ibn Rushd (1126-1198) va boshqalar "etuk davlatlar" haqida o'zlarining noyob loyihalarini olg'a surganlar. Fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlarga I.Kant va G.V.F.Gegel ham katta hissa qo'shdilar. Fuqarolik jamiyati haqidagi hozirgi fikrlarda uning bir qancha muhim belgilari borligi qayd etiladi. Ularni mufassalroq ko'rishga harakat qilamiz:

- Fuqarolik jamiyati – eng avvalo *erkin* individlar jamoasidir. Iqtisodiy jihatdan bu narsa har qanday individning mulkdorligini anglatadi. Sovet davri Asosiy Qonunlarida bunday normalarning bo'lishi munozarali bo'lgan bo'lsada, ulardan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning mulkdorlik huquqi mustahkamlab qo'yilgan (36-modda). Erkinlikning siyosiy jihati fuqarolarning siyosiy partiyalar va birlashmalarda qatnashishi, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlarda qatnashish qobiliyatlarini anglatadi. Fuqarolar erkinligi qonun tomonidan o'rnatilgan sud va ma'muriy mexanizmlar orqali ta'minlanishi lozim.

- Fuqarolik jamiyati ichki va tashqi jihatdan *ochiqlikni* namoyon etadi. Unda so'z erkinligi, turli axborotlarni olish erkinligi, mamlakatdan chiqish va kirish erkinligi, boshqa mamlakatlar bilan axborot, ta'lim texnologiyalarini keng darajali va doimiy almashish erkinligi ta'minlanadi. Bunday jamiyat insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'ladi, unda turli yo'nalishlardagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'ladi hamda davlat xalqaro huquqqa mos ravishda xalqaro tashkilot va muassasalarda ishtirok etadi.

- Fuqarolik jamiyati – kompleks tashkillashgan *plyuralistik tizim* demakdir. Bunday jamiyatda plyuralizmning ustunligi unda turli-tuman ijtimoiy institutsiyalar (kasaba uyushmalari, partiyalar, tadbirkorlar birlashmalari, iste'molchilar jamiyatlari va shu kabilar) mavjudligini anglatadi. Plyuralizmda erkin dunyoqarash taqazo etiladi, mafkuraviy kamsitishlarga yo'l berilmaydi, inson huquqlari hurmat qilinadi, turli dinlarga, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan sabr-toqatli bo'linadi.

- Fuqarolik jamiyati - *huquqiy demokratik jamiyatdir*. Bunday jamiyatda fuqaro va insonning tabiiy va jamiyat tomonidan in'om etilgan huquqlari jamiyat a'zolarini o'zaro bog'lab turadi. Fuqarolik jamiyati davlat bilan birgalikda huquqiy davlatga tomon taraqqiy etadi. Shu ma'noda huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining mevasi, natijasi sanaladi.

Fuqarolik jamiyati – shaxsga tomon yo'naltirilgan, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat vaziyatini, umumgumanistik ideallarni yaratuvchi, ijod va tadbirkorlik erkinligini ta'minlovchi, inson va fuqaro huquqlarini amalga oshiruvchi va baxt-saodatga erishuvni ta'minlovchi erkin demokratik huquqiy jamiyatdir.

Insoniyat tarixidagi barcha xalqlar o'z taraqqiyotida uyushib yashashning turli shakllarini, ya'ni fuqarolik jamiyatining o'ziga xos bosqichlarini bosib o'tishgan. Uning ilk shakli davlatchilik vujudga kelmasdan avval paydo bo'lgan turli jamoalar bo'lgan. O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston xalqlari tarixida bu shakl mahalla jamoalariga birlashuv shaklida bo'lgan. Uyushib yashash ko'pgina masalalarni birgalikda echishga imkon bergan, xususan, mehnatni tashkil etish, himoya qilish, tadbirlarni o'tkazishdagi hamjihatlik va boshqalar bu jamoaviy yashash shaklining uzoq davrlar mobaynida saqlanib qolishini ta'minlagan. Bizning sharoitimizda bu narsa qishloqlarda jamoalar, shaharlarda – mahallalar shaklida shakllangan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xalqning o'zini o'zi boshqarish tizimiga o'ta borish jarayonini mustahkamlash maqsadida tarixiy ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladigan mahalla institutini qayta tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Sharq demokratiyasining o'zini oqlagan tarixiy shakli bo'lmish mahalla fuqarolik jamiyati barpo etishdagi o'ziga xos bosqich rolini o'tashi ko'pchilik uchun shubhasiz haqiqatdir.

Mahalla (arabcha "mahalla" – joy, o'rin, makon) O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik. Mahalla o'zini o'zi boshqaruv tizimining muhim milliy-ijtimoiy organi bo'lib, u O'zbekistondagi hayot tarzining mahalliy ko'rinishdagi shakli hamdir. Aslini olganda mahallalar 1917 yilgacha juda keng ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkiliy tuzilma bo'lib kelgan. Sovet davridagi tuzum va mafkura mahallalarni rasman tan olmadi, ammo aholining chuqur noroziligiga sabab bo'lmaslik uchun mahallalarni taqiqlab ham qo'ya olmadi, uni jamiyatning boshqaruv tizimiga kiritmadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin xalqning o'tmishdagi qadriyatlarini topish va ulardan jamiyatni rivojlantirish uchun foydalanish tomon yo'l tutildi. Boshqa ko'plab masalalar qatori, mahalla va uning imkoniyatlaridan foydalanish masalasiga ham etarli e'tibor berildi va u hozirgi kunda hayotimizda o'ziga xos rol o'ynamoqda.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Mahalla, ta'bir joiz bo'lsa, kishilik jamiyatida alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan o'ziga xos maskandir deyish mumkin. Bu noyob tajriba, aholining mahalla bo'lib yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. SHuning uchun ham insonni jamiyat bilan birga yashashga o'rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos makon – bu mahalladir".

Mustaqillik yillarida mahallalarga munosabat tubdan o'zgardi. 1992 yil 12 sentyabrda Prezidentning "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmoni, so'ngra Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 17 oktyabrdagi "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 1992 yilda respublikamizda 8 mingga yaqin, jumladan, Toshkent shahrida 279 mahalla bor edi. 2015 yilga kelib ularning soni respublikada 13 mingdan ortdi, Toshkentda esa 481 dan ko'proq mahalla faoliyat yuritmoqda.

Mahalla mavqeining oshib borishi quyidagi huquqiy asoslarga tayanadi:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (105-modda);

2) Dastlab 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan va 1999 yil 14-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga ko'ra "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari" hisoblanadi. Mahalla – ona maskan, sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla aholisining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda haqiqiy demokratiya darsxonasidir. Mahalla – tayanch markazi, chunki u kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalarning tayanchidir. Mahalla – ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, an'analar maskani, u yoshlarni kasb-korga yo'naltiruvchi, ishsizlarni ish bilan ta'minlovchi ijtimoiy himoya hamdir. Mahalla – oila tinch-totuvligini, shiqligini mustahkamlovchi joy, u ayni holda tarbiya maskani hamdir, zero – "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona", deydi dono xalqimiz.

Mahallaning o'ziga xos ajoyib hodisa ekanligini ta'kidlab Rossiyalik tadqiqotchi O. Brusina shunday deb yozadi: "Odatiy huquqqa asoslangan holda O'rta Osiyoda azaldan amal qilib kelayotgan mazkur ijtimoiy institut o'zining moslashuvchanligi, ayni holda ichki konservativligi sababli juda mustahkam ekanligini ko'rsatdi."

Mahalla qo'mitalari bozor iqtisodi qonunlari asosida aholi uchun tadbirkorlikka imkon yaratmoqda, oldi-sotdi, to'y-maraka marosimlarini uyushtirish, hasharlar tashkil etish, oilaviy nizolarni echish, bemorlar holidan xabar olish kabi ko'plab yo'nalishdagi savob ishlar bilan shug'ullanmoqda. Mahallada xo'jalik va madaniy ishlar, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va shu hududdagi ma'muriy binolarni toza saqlash, ozodalikni ta'minlash, tartib-intizomni mustahkamlash va boshqa yo'nalishlarda mahallaning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lmoqdaki, hozirgi davrda shaxsni qurshab turgan normativ hudud juda kengdir. Turli tuman odatlar, an'analar, diniy va axloqiy normalar qatori shaxsning jamiyatdagi holatiga son-sanoqsiz siyosiy normalar, milliy va xalqaro huquqning qoidalari ham ta'sir ko'rsatadi. *Inson bir paytning o'zida siyosatning ham sub'ekti, ham ob'ekti, shuningdek, huquqning ham yaratuvchisi, ham ijrochisi hisoblanadi.* Shuning uchun *shaxsning siyosiy-huquqiy maqomi masalasiga* e'tibor bermaslik mumkin emas.

Ushbu kategoriya *umumlashgan*, universal xususiyatga ega. U insonning u yoki bu ijtimoiy guruhga taalluqli ekanligiga (fuqaro, chet ellik, fuqaroligi bo'lmagan shaxs, qochoq va hokazo), ixtisosligi yoki hunariga bog'liq holda unda muayyan huquq va majburiyatlari mavjudligini bildiradi. Ayni holda u insonning *individual* xususiyatlarini aks ettiradi. Siyosiy-huquqiy maqom tushunchasi insonning huquq va majburiyatlarini *o'zaro bog'liqlikda* ko'rishni, davlat tomonidan ko'zda tutilgan kafolatlar va shaxsiy (axloqiy va huquqiy) mas'uliyatni e'tiborga olishni nazarda tutadi. Siyosiy-huquqiy maqom jamiyat a'zosining asosiy

ijtimoiy xarakteristikalaridan biridir. Odatda shaxs siyosiy-huquqiy maqomining besh "darajasi" farqlanadi:

• Shaxsning *xalqaro maqomi* xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro hujjatlarda (masalan, 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966 yilgi Inson huquqlari haqidagi Pakt, 1989 yilgi Bala huquqlari haqidagi Konvensiya, 1949 yilgi Jeneva konaensiyalari va 1977 yilgi ularga Qo'shimcha Protokollar va boshqalarda) mustahkamlab qo'yilgan huquq, erkinlik, majburiyat va kafolatlarni o'z ichiga oladi. Uning himoyasi ham milliy, ham xalqaro vositalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

• Shaxsning *konstitutsiyaviy maqomi* u tegishli bo'lgan mamlakatning Asosiy Qonunida ifodalangan fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlari va garantiyalarini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaviy maqomning asosiy xususiyati uning barqarorligi, mustahkamligi bo'lib, u fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining konstitutsiyaviy maqomi Asosiy Qonunimizning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlangan ikkinchi bo'limida aks ettirilgan.

• Shaxsning *tarmoqqa (sohaga) xos maqomi* uning ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi huquq va burchlarini aks ettiradi, ya'ni bunda u huquqning alohida tarmoqlaridagi (mehnat, fuqarolik, oila, jinoyat va boshqa) vakolatlarini aks ettiradi.

• *Faoliyat turiga oid (maxsus) maqomda* insonning biror bir guruhga oidligi va uning shu munosabat bilan ega bo'lgan qo'shimcha huquq va majburiyatlari aks etadi: o'quvchilar, talabalar, harbiy xizmatchilar, nafaqaxo'rlar, nogironlar, diniy uyushma a'zolari va shu kabilar.

• *Individual maqomda* alohida olingan konkret insonning jinsi, yoshi, kasbi, muayyan jamoat tashkiloti yoki birlashmaning a'zoligi, davlat ishini boshqarishda qatnashish darajasi va shu kabilarga tegishli holatlarining xususiyatlari aks ettiriladi. Individual maqom alohida olingan shaxsning "ijtimoiy portreti", uning jamiyat a'zosi sifatidagi qaytarilmas xususiyatlarining aksi sanaladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Jamiyatning siyosiy tizimi deganda nimalar ko'zda tutiladi?
2. Siyosiy tizimda davlatning o'rni qanday?
3. Siyosiy institutsiyalar qanday tashkilot va muassasalar yig'indisidir?
4. Siyosiy munosabatlar markazida nima turadi?
5. Siyosiy normalar nima?
6. Siyosiy madaniyat o'z ichiga qanday elementlarni oladi?
7. Davlatning vujudga kelishi haqida qanday nazariyalar mavjud?
8. Davlat tuzilishining turlicha shakl va turlarini ko'rsating va ularning bir-biridan farqini aytib bering.
9. O'zbekistonda tarkib topgan prezidentlik boshqaruvi va prezidentning vazifalari haqida gapirib bering.
10. Hokimiyatning bo'linishi tamoyilining qanday ahamiyati bor?
11. Fuqarolik jamiyati qanday jamiyat?

12. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati vujudga kelishida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni qanday?

9-mavzu. Inson va jamiyatning ma'naviy hayoti .

O'zbekistonda ma'naviy yangilanishning asosiy masalalari.

1. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni

Insoniyat yaratilibdiki u mukammallikka intilib keladi. Albatta bu o'rinda ma'naviyatning, bilim va tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki inson bolasi bilim va tarbiya vositasida ulg'ayadi. Agar u bilim olmasa, yaxshi tarbiya topmasa hayotda o'z o'rini topishi dargumon. Demak, olingan bilim va tarbiyaning inson ongida uyg'unlashib uning turmush tarziga aylanishi inson ma'naviyatini yuzaga keltiradi.

Ma'naviyat deganda har qanday tabiiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy bilimlarning inson tafakkurida mujassamlashuvi va bu bilimlarning ko'nikma, malaka va hayot tarzlariga aylanib ketishi tushuniladi. Yoki bo'lmasa, ma'naviyat – insonning ruhiyatini, o'z-o'zini anglash, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir.

"Ma'naviyatga mazmun jihatidan yaqin keladigan *ma'rifat, madaniyat, axloq, tamaddun (sivilizatsiya)* tushunchalari mavjud. Ma'naviyat ular orasida umumiyroq mazmun-mohiyatga ega. Garchi bu tushunchalarning har biri ma'naviyat iborasidan ozmi-ko'pmi farq qiladigan muayyan ma'noni anglatasa ham, kengroq nuqtai nazardan qaraganda, ular ma'naviyat tushunchasi doirasiga kiradi."

Shunday qilib ma'naviyat (arabcha, ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuini tashkil etadi. Shu jihatdan olib qaraganda, I.A.Karimovning "ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini o'yg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman", degan fikrlari muhim ahamiyatga egadir.

Ma'naviyat insonning ongi, tuyg'usi, hissiyoti, bilimi va e'tiqodida mujassamlashgan ruhiy sifat bo'lib, u shaxs kamoloti va barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki fuqarolari ma'naviy barkamol jamiyatgina ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksak cho'qqilarga ko'tariladi.

Inson va jamiyat ma'naviy hayotining rivojlanishida ijtimoiy va individual ongning roli kattadir. Chunki tabiat va jamiyatda yuz berayotgan turli-tuman o'zgarishlar, har xil sohalardagi yangiliklar fuqarolar ongida o'z aksini topadi. Kishilar ongiga ta'sir etgan voqea-hodisalarga nisbatan ular o'z qarashlarini, fikrlarini ifodalaydilar. Ana shu ifodalash ijtimoiy va individual ong mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ong tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo'lgan umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari

mustaqillikka nisbatan o'z his-tuyg'ulari, ya'ni mustaqillik tufayli yurtimizda ozodlik, erkinlik, demokratiya kengayotgani, odamlar ruhiyati, maqsadlarining erkin bayon qilinishi, dolzarb muammolar xususida o'zlarining fikrlarini ayta olishlariga imkoniyatlarning tobora kuchayib borayotgani xususida fikr bildirmoqdalar. Bu ijtimoiy ongning ifoda etilishidir.

Individual ong esa muayyan guruh, elat va millatga mansub bo'lgan ayrim kishining ongi bo'lib, jamiyatdagi voqelik va real borliqning alohida olingan shaxsning ongida aks etishidir.

Ijtimoiy va individual ongning mohiyati shundaki, jamiyat ularning mazmuniga ko'ra o'z-o'zini anglaydi, rivojlanib, takomillashib boradi. Masalan, agar jamiyatimizda biron-bir ijobiy yoki salbiy hodisa sodir bo'lsa, u kishilar ongiga ta'sir ko'rsatadi va uning ongdagi in'ikosi, albatta, hatti-harakatlar, munosabatlar, baholar ko'rinishida ana shu voqelikka qayta ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi O'zbekistonda diniy ekstremistlarning qilmishi xalqimizning nafratiga sazovor bo'lib, xalqning fikri ijtimoiy ong sifatida namoyon bo'ldi va ekstremistlarga qarshi qattiq amaliy choralar ko'rildi. Jamiyatda osoyishtalik o'rnatildi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ijtimoiy ongning tuzilishi ijtimoiy munosabatlar va kishilar faoliyatining turlariga mos bo'ladi, ba'zan ulardan ilgarilab ketadi, ammo, ba'zan ulardan ortda ham qolishi mumkin. Ijtimoiy munosabatlar qanchalik rivojlangan bo'lsa, kishilar faoliyati turlari ham shuncha rivojlanadi. Ikkalasi o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, bir-birini boyitib, to'ldirib boradi.

Voqelikni aks ettirish darajasiga ko'ra, ijtimoiy ong odatiy va nazariy ongga bo'linadi. Odatiy ong hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuidan iborat bo'lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqealarni aks ettiradi va rivojlantiradi. Nazariy ong deganda, nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Nazariy ong voqealar mohiyati va rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirib jamiyat taraqqiyotiga nisbatan teng bo'lishi ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ilgarilab ketishi ham, yoki ortda qolib ketishi ham mumkin.

Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy muhit, kundalik turmush sharoitlari ta'siri ostida vujudga keladi va rivojlanadi. U muayyan ijtimoiy guruh, elat, xalq yoki millatning odatlari, urflari, an'analari, yashash tarzidan kelib chiqqan psixologik o'ziga xosliklarini aks ettiradi. Ijtimoiy psixologiyaning yana bir xususiyati shuki, unda muayyan bir hududdagi aynan sharoitlarda yashaydigan va bir-biriga bevosita ta'sir qiluvchi bir necha elat, millatlarga mansub kishilarning ongidagi o'xshash xususiyatlar ham aks etadi. Bunga ba'zi millat vakillarining yashab turgan joylaridan ko'chib ketishgani, ammo yangi joyda ular ko'pincha o'z millatdoshlari tomonidan tushunilmagani, u erda chiqishtirilmagani ... va nihoyat ularning yana ilgarigi hududga, mamlakatga qaytib kelishganiga oid ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin.

Mafkura (fikrlar majmui) ijtimoiy psixologiyadan farq qilib muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad-muddalari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish

tizimini anglatadi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Mamlakatimizda milliy istiqloq mafkurası xuddı shu vazıfani bajaradı. Islom Karimov ta'kidlaganidek "xalqni buyuk va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroni yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqloq mafkurasining bosh maqsadidir." Garchi shunday bo'lsa-da, Konstitutsiyamizda "hech qaysi mafkura davlat mafkurası sifatida o'rnatilmaydi", deb belgilab qo'yilgan. Bu demokratiyaning muhim elementidir.

Ijtimoiy psixologiya va mafkura jamiyatning u yoki bu darajada rivojlanganligi bilan ham bog'liq bo'lib, agar u to'g'riyo'lga qo'yilsa jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Insonlarni komillik sari etaklaydi, o'z vatani, qadriyatlarini e'zozlashga o'rgatadi, shu bilan birga vatanparvarlik, yurt tinchligi, xalq farovondigi yo'lida xizmat qilishga chorlaydi.

Ayni paytda ijtimoiy psixologiya va mafkura o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy guruhlar hayotini muayyan his-tuyg'ular, kayfiyatlarda bevosita aks ettirsa, ijtimoiy mafkura (bizda milliy istiqloq mafkurası) ijtimoiy guruhlar ehtiyojlari, manfaatlarining ichki mohiyatini, sababini har xil g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar shaklida aks ettiradi. Ayni paytda mafkuraning o'ziga xosligi shundaki, u vayronkor mafkura sifatida ham maydonga chiqishi mumkin. U holda u halokatli kuchga aylanadi.

Ijtimoiy psixologiya va mafkuraning o'ziga xosligi bilan birga ularning umumiylik tomoni ham mavjud bo'lib u jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishida ko'rinadi. Shuningdek ular bir-biri bilan bog'liq bo'lib, o'zaro ta'sirga ham egadir.

Yuksak ma'naviyat haqida odamlar asrlardan beri orzu qilib keladilar. Jahon tarixida yuksak ma'naviyat egalari nihoyatda ko'pdır. Shuningdek ma'naviyati yuksak bo'lgan jamiyatda taraqqiyotning o'ziga xosligi ham yaqqol ko'rinadi. Masalan, Yaponiya bunga yaqqol misol bo'la oladi. Yuksak ma'naviyatning belgisi shuki, unda ilm va bilim insoniy qadriyatlar va insoniy axloq bilan uyg'unlashadi.

Ma'naviy qashshoqlik masalasida misollar istagancha topiladi. U oddiy axloq qoidalarining buzilishidan tortib genotsidgacha boradi. Atrofimizni o'rab turgan narsa va hodisalarga biz har kuni, har soatda duch kelamiz va undan albatta ma'naviy qashshoqlikdan ma'naviy yuksaklik ustun ekanligining guvohi bo'lamiz. Agar jamiyatda ma'naviy qashshoqlik ustun tursa bunday jamiyat halokatga mahkumdır. Chunki ma'naviy qashshoqlik ustun bo'lgan joyda inson manqurtga aylanadi va undan yovuz kuchlar o'z g'arazli maqsadlari uchun foydalanishi osonlashadi. Demak taraqqiyot, yaratuvchanlik, rivojlanish bor ekan ma'naviy yuksaklik ma'naviy qashshoqlik ustidan g'olib bo'lib boraveradi. Zero, insonning orzusi ham shudır.

Ma'naviy faoliyatni takrorlab bo'lmaydi. Chunki vaqtni va har bir insonning jismoniy borlig'ini takrorlab bo'lmaganidek, ma'naviy faoliyat ham betakror. Inson bugun shug'ullangan ma'naviy faoliyatni, uning o'ziga xosligi va betakror jihatlarni ertaga takrorlay olmaydi, balki shunga o'xshash, undan kuchliroq yoki kuchsizroq tarzda boshqa bir narsa bilan shug'ullanadi, chunki hayotda ertaning ham o'z o'rnini bor. SHU sababli inson ma'naviy mavjudot sifatida doimo, u buni anglaydimi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z oldiga qo'ygan mo'ljallariga muvofiq hatti-harakat qiladi, faoliyat ko'rsatadi. Odatda, ya'ni normal inson ma'naviyatining mo'ljali – komillikka erishish, barkamol inson bo'lishdir. Komil inson - har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsdir.

XXI asr bo'sag'asiga kelganda jahon taraqqiyotining barcha jabhalarida globallashuv jarayonlari tezlashdi. Jahonda iqtisodiy, harbiy taraqqiyot shu qadar tezlashgan paytda ma'naviy omillar ta'sirining etishmayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Bo'layotgan o'zaro urushlar, jahon bozori uchun talashish, yosh rivojlanayotgan mamlakatlar ustidan qudratli davlatlar hukmronligining o'rnatilishiga intilish, boyluk va dunyo to'plash uchun hech qanday razillikdan qaytmaslik holatlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shu sababli dunyo taraqqiyoti va ma'naviy omillar uyg'unligi muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda. Ilg'or fikrli ziyolilar o'z mamlakatlari tarixini qaytadan nazardan o'tkazib, xalqlari ma'naviy merosini tiklash va ko'paytirish, uni boyitish hamda odamlar qalbiga singdirib, ularni ezgulikka va adolatga etaklash haqida harakat boshladilar. Bunday harakatlar bir qator mamlakatlarning Davlat dasturlariga ham kiritildilar. Jumladan, bizning mamlakatimiz ham ana shunday xayrli, ezgu ishlarni o'z harakat dasturi qilib olgan davlatlar sirasiga kiradi.

2. Mustaqillik va xalqimiz ma'naviyatining qayta tiklanishi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish choralarini ko'rish bilan bir qatorda ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, milliy o'zlikni anglashni tiklash vazifasiga alohida e'tibor qaratdi. Chunki chor mustamlakachiligi va mustabid sho'ro hukmronligi yillarida ma'naviy qadriyatlarimiz kamsitilgan, jahonga mashhur allomalarimiz al-Buxoriy, at-Termiziy, Moturidiy, A. G'ijduvoniy, Yassaviy va boshqa buyuk zotlar unutilgan, hatto Amir Temurdek buyuk sarkarda ham "bosqinchi" niqobi ostida qora bo'yoqlarga bo'yab tashlangan edi.

Undan tashqari xalqimizning mashhur tarixiy obidalari, masjidlar, madrasalar, xonaqohlarning ko'plari buzib tashlangan, omborlarga, ishxonalarga aylantirilib, qarovsiz holga keltirilgan edi. Bundan asosiy maqsad xalqning tarixini yo'qotib, o'zligini kamsitish va unga qullik bo'yinturug'ini kiydirish hamda har tomonlama tobe qilish edi. Kelgusida buyuk xalqqa assimiylasiya qilib butun-butun millatlarni yo'q qilib yuborishdek manfur niyat ko'zlangan edi.

Shu sababli buyuk istiqlolning birinchi navbatdagi vazifasi xalqimiz ongida qullik psixologiyasini yo'q qilish, uning tarixi, ota-bobolari buyuk ekanligini uqtirish, hech bir xalqdan kam emasligini ular ongiga singdirib O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda xalqni ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyorlash bo'ldi.

Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri boy ma'naviyatga ega bo'lish ekanligi anglab etildi. Shu sababli birinchi Prezidentimiz

I.A.Karimov: "Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi", deb ta'kidlaydi. Shu sababli mamlakatimiz rahbariyati ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish, har bir fuqaroning yuksak ma'naviy darajasini ta'min etish yo'lida katta ishlarni amalga oshirmoqda.

Mustaqillik arafasida hali sobiq Ittifoq hukm surib turgan paytda 1990-yildan boshlab 21 mart "Navro'z" bayrami nishonlanadigan kun, 1991 yil 20 iyunda "Diniy bayram – Qurbon hayitni dam olish kuni deb e'lon qilish haqida"gi Farmonlar Prezidentning katta jasorati edi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash yo'lida dastlabki qadamlardan biri 1992 yil 22 martda O'zbekiston Prezidentining "Ramazon hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni bo'ldi.

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda, istiqlol yo'lida buyuk davlat barpo etishda ma'naviyat va ma'rifat omillarini hisobga olgan holda, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish borasidagi fikr-mulohazalarni va takliflarni e'tiborga olib 1994 yil 23 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil etildi.

1996 yil 9 sentyabrdagi Prezidentning bu sohadagi Farmonida ham "Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo'nalishi deb hisoblansin" deyiladi. Undan tashqari boshqa bir qator qonuniy hujjatlarda, shuningdek I.Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida ikkinchi ustuvor yo'nalish – jamiyat ma'naviyatini rivojlantirishdan iborat deyilsa, "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" nomli asarida ma'naviyat sohasida ettita bosh vazifa aniq ko'rsatib berildi.

Shunday qilib mustaqillik yillarida o'tgan tarixan qisqa vaqt ichida tilimiz, dinimiz xalqimizga qaytarildi. Buyuk bobokalonlarimizning nomlari tiklandi, mashhur tarixiy obidalarimiz ta'mirlandi. "Avesto" singari buyuk asarlar, unutilgan ko'plab ilmiy yodgorliklar qayta nashr etildi. Eng muhimi xalqimiz ongiga u o'z yurtining egasi ekanligi, kelajakni o'z kuchiga ishonib qurishi mumkinligi, hech bir xalqdan kam emasligi g'oyasi singdirildi va bu ulkan ishlar davom ettirilmoqda.

Lekin bu ulkan ishlarning amalga oshirilishi ba'zi bir munofiq, O'zbekistonni mustaqil, qudratli davlat sifatida ko'rishni yoqtirmayotgan, uning kelajagidan qo'rqayotgan kimsalarga yoqmadi. Natijada turli ekstremistik kuchlar dinni niqob qilib olib yurtimizni o'rta asr jaholatiga qaytarmoqchi bo'ldilar. Ma'naviy tamoyillarga ekstremistlarning qarashlari butunlay zid ekanligini xalqimiz tushundi va ularga etarli zarbalar berildi.

Sharqning buyuk ma'naviyat o'chog'i ekanligini tarixning o'zi allaqachon isbotlagan. "Nur Sharqdan" – bu Rim imperiyasida keng tarqalgan maqol. Sharqda "Avesto" kabi buyuk asar maydonga kelgan paytda G'arb dunyosi hali uyquda ekanligini aytishning o'zi kifoya. Lekin o'quvchi faqat o'tmish yutuqlari bilan maqtanib yashamasligi, O'rta asrlardan so'ng G'arbnig ulkan qadamlar bilan rivojlanganligini va taraqqiyotning muhim omili – intellektual aql ekanligini,

shuning uchun ham o'qish, yaratish ustida tinmay mehnat qilish lozimligini tushunishi va bunga amal qilishi zarur.

O'zbek xalqi boshqa xalqlar kabi o'z tarixiga, ma'naviyati va madaniyatiga ega. Bu xalqning boshqa xalqlardan ustunlikka erishish, yoki ularga o'z ta'sirini o'tkazib "katta aka"ga aylanish niyati yo'q. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga bergan javobida: "Biz o'zimizni doimo mustaqil millat – o'zbek xalqi sifatida his etib kelganmiz va bu bilan faxrlanamiz", - degan edi. Mashhur sayyoh Vamberi o'zbeklarning "ma'naviy tomonlari eng avvalo ularning ochiq ko'ngilliligi, mardligi, jiddiyligi, haqiqiy turkiy himmatga egaligida yaqqol ko'zga tashlanib turibdi", deydi va o'zbeklar kamgap, og'ir-vazminligi bilan qo'shnilaridan ajralib turishini ta'kidlaydi. U o'zbeklar avval o'ylab so'ngra gapiradi va o'z so'zlarida muqim turadilar, deydi. Uning o'ziga xos xarakteri, boshqa xalqlardan alohida ajralib turadigan belgilari: sabr-qanoatligi, bag'ri kengligi, chidamliligi, tolerantligi, mehmondo'stligi, o'zga xalqlarni hurmat qilishi va boshqa axloqiy jihatlari mavjud. Shu sababli bu xalq dunyoga al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Beruniy, al-Farg'oni, al-Forobiy, al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi minglab buyuk siymolarni etkazib berdi. Har qanday ozgina savodli inson bu xalqning buyuk kelajagiga umid bog'lasa bo'ladi.

XXI asr – ma'naviyat asri bo'lishi shubhasizdir. Chunki insoniyat o'zi qirilib bitishi uchun etarli darajada ommaviy qirg'in qurollarini yaratib qo'ydi va yana yaratmoqda. Bu dahshatli qurollarni ma'naviyatsiz insonning qo'lga topshirib qo'yilsa Er yuziga qanday ofatlar keltirishi mumkinligi ayon. Shu sababli ham ma'naviyat, ma'naviy madaniyat, an'analar, qadriyatlar masalasiga yangicha yondoshuv, xalqlar do'stligini mustahkamlash, insof-adolatga erishuv, boshqa xalqlar bilan hisoblashish XXI asr barqarorligini ta'minlashning kafolati hisoblanadi.

Jamiyatning ma'naviy hayotida ma'naviy siyosatning konseptual asoslarini yaratishda insonparvarlik, taraqqiyparvarlik, xalqchilik, vatanparvarlik va yurt tinchligi mezonlariga tayaniladi.

Mamlakatimizda ma'naviy hayot sohalarida hozirgi paytda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a. xalqning ma'naviy-madaniy merosini o'rganish;
- b. sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish hamda hayotga tatbiq etish;
- v. jamiyatdagi sog'lom kuchlar – yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish;
- g. millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashni, yoshlarni Vatanimizning har tomonlama etuk farzandlari ruhida tarbiyalash va ularni istiqbol ishining faol davomchilari bo'lib etishishlarini ta'minlash;
- d. madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy taraqqiyot yo'nalishlari bilan bog'liq omillarni, milliy davlatchilik qadriyatlarini o'rganish va ommaviylashtirish;
- e. umumbashariy qadriyatlardan foydalanish maqsadida mamlakat va

- dunyodagi xilma-xil mafkura, e'tiqod, g'oyalarni o'rganish, sog'lom dunyoqarashni hamda siyosiy madaniyatni shakllantirish;
- j. jamoat birlashmalari, ilmiy, ijodiy muassasa va tashkilotlarning, ommaviy axborot vositalarining o'zaro samarali hamkorligini ta'minlash;
- z. hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish;
- i. jamiyatning axloqiy hayotini yaxshilash.

Albatta, har bir jamiyatning, xalqning axloqiy qoidalari, o'ziga xos hayot tarzi mavjud. Bu axloqiy hayot boshqa dindagi, boshqa hayot tarzidagi, demakki, boshqacha qarashlardagi xalqlarga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Lekin barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan oddiy axloqiy qoidalar ham mavjud.

Axloq – kishilarning yaxshilik va yomonlik, vijdon, or-nomus va shu kabilar nuqtai nazaridan bir-biriga, oilaga, Vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan hatti-harakatlar yig'indisidir. Axloq har bir kishining xulqini, ichki dunyosini ko'rsatadi. Axloqqa milliy urf-odatlar, an'analar ta'sir qiladi. Axloqning yuksak darajada bo'lishi jamiyatning rivojiga bevosita ta'sir qiladi yoki aksincha.

Amaliy axloqiy munosabatlar axloq normalari bilan tartibga solinadi, ular huquqiy normalardan farq qilib, majburiy xarakterga ega emas. Axloqiy normalar urf-odat, namuna kuchi, jamoatchilik fikri ta'sirida vujudga keladi. Axloqiy normalarni bajarish ixtiyoriy, vijdonga bog'liq. Uning buzilishiga nisbatan ommaviy munosabat bildirish, jamoat izzasi qo'llaniladi. Axloq ishontirish, tushuntirish bilan ta'minlanadi. I.Karimov ta'kidlaganidek "Axloq – ma'naviyatning o'zagi". Axloq ma'naviyatning amalidir. U insof va adolat tuyg'usi, iymon va halollik kabi tushunchalar bilan bog'liq. Husayn Voiz Koshifiy quyidagilarni aytadi: "Insonning axloqsizligi uning o'zigagina emas, balki o'zgalarga ham salbiy ta'sir qiladi... Dilozorlar, nomunosib fazilatli, pastkash va razillar, tuhmatchilar, xoinlar, yolg'onchilar, laqmalar davr uchun ham, davlat uchun ham xavfli kishilardir. Hech qachon odobli-axloqli inson bu kabi salbiy fazilatlarga yaqin yurmasligi kerak."

3. Dinning inson hayoti va jamiyatdagi o'rni

Din – ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, kishilik jamiyati taraqqiyoti jarayonida ma'lum bosqichda paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Bunday yondoshuvga ko'ra, u muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatida namoyon bo'ladigan olam hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida usulidir. Dinning mohiyati turlicha izohlansa-da, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotishi deyarli barcha tomonidan tan olinadi.

Din (arabcha – ishonch, ishonmoq) borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir. Ibodat ob'ektlariga ko'ra – jonivorlarga, ruhlarga, jin-alvasti, butlarga, turli ilohlarga sig'inuvchi diniy ta'limotlarni farqlash mumkin.

Milliy, etnik, til, irq, tug'ilgan joyi, fuqarolik kabi xususiyatlaridan qat'iy nazar butun er yuzi bo'ylab yoyilgan jahon dinlariga e'tiqod qiluvchilar haqida quyidagilarni aytish mumkin. Xristian diniga e'tiqod qiluvchilar miqdori 2 milliarddan ortiq, islomga e'tiqod qiluvchilar – 1,3 milliard atrofida, buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar esa 700 million atrofida.

Hozirgi zamonda ushbu dinlarning jamiyatdagi o'rni juda kattadir. Dinning inson ruhiyatiga ta'siri juda kuchli bo'lib, natijada diniy psixologiya vujudga keladi va u inson ongida mustahkamlanadi. Ayni paytda din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri, insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonishni ifoda etadigan qarashlar, g'oyalar yig'indisi o'laroq diniy mafkura maydonga keladi.

Diniy ong – diniy g'oyalar, diniy da'vatlar, aqidalar, qadriyat va maqsadlar ifodalangan qarashlar natijasida yuzaga keladi va kishilar hayotida muhim o'rin tutadi. Diniy ongi umuman ongining "boshqa tarkibiy qismlariga" nisbatan asosiy mazmun tashkil etuvchi kishilarda odatda diniy e'tiqod mustahkam bo'ladi. Diniy e'tiqod – diniy aqidalarga ishonish va unga muvofiq amallarni to'la-to'kis bajarishdir. Har bir dinda uning ruhiga va mazmuniga mos ko'plab madaniyat obidaları mavjuddir. Diniy madaniyat ancha keng tushuncha bo'lib, u nafaqat diniy amallarni bajarish, balki dinning obrusini saqlash, e'tiqodda, hayotda diniy talablarga amal qilish, uning pokligini har qanday sharoitda saqlash hamdir. Diniy madaniyatning yuksakligi tasavvuf namoyondalarida yaqqol o'z ifodasini topgan.

Har bir dinda diniy marosimlar tizimi ham mavjud. Ular o'sha dinning mohiyatidan kelib chiqadi. Jumladan, xristian dinidagi marosimlar islom dinidagidan farq qiladi. Kishilar amaliy hayotda bu marosimlarni bajaradilar.

XX asr oxiriga kelib ateistik dunyoqarashni targ'ib qilgan sobiq Sho'ro davlatining qulashi bilan, ayniqsa sobiq Ittifoqdan ajralib chiqqan yosh mustaqil davlatlarda, jumladan, bizning mamlakatimizda ham diniy qadriyatlar qayta tiklandi va diniy ong qayta o'yg'ondi. Bunga sabab juda ko'plab masjid-madrasalarning qurilishi, diniy ibodat, diniy amallar uchun qulay sharoitning yuzaga kelishi va ko'plab diniy adabiyotlarning erkin nashr qilinishi bo'ldi.

Dinning ijtimoiy-ma'naviy roli kuchayib undan fuqarolarni odob-axloqli qilib tarbiyalashda foydalanish kuchaydi. Islom Karimovning "din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an'analarni asrashga xizmat qilishi bilan har qanday jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, insoniyat murakkab taraqqiyot jarayonini boshidan kechirayotgan hozirgi davrda dinning turli xalqlar o'rtasida muloqot o'rnatish, ularni ma'naviy va ruhiy jihatdan yaqinlashtirish, zulm va zo'ravonlikka qarshi birgalikda kurashga da'vat etish borasidagi ahamiyati beqiyosdir" degan so'zlari ayniqsa ahamiyatlidir.

Insoniyat tarixidan shu narsa ma'lumki, din, diniy tasavvurlar bilan birga dunyoviy fikr va dunyoviy turmush tarzi yonma-yon, totuvlikda yashab kelmoqda. Hozirgi rivojlangan mamlakatlarning ko'plarida deyarli shunday.

4. Diniy ekstrimizm va fundamentalizm xavfi

Dinning jamiyatdagi o'rniga e'tibor beradigan bo'lsak, uning bir qator mamlakatlarda davlat siyosatini belgilashini ko'ramiz. Hatto ba'zi davlatlar nomi ham shunga borib taqaladi. Masalan, Eron islom respublikasi va h.k.

O'zbekiston Respublikasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Lekin ko'pgina davlatlarda islom omilining o'sishi bilan dindand siyosiy niqob sifatida foydalanib hokimiyatga intilish kuchayganligini ko'ramiz. Shu sababli ilmiy tilda diniy ekstremizm so'zi tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Diniy ekstremizm – ekstremizmning din niqobida namoyon bo'lish shakli bo'lib, u mavjud muammolarni hal qilishda o'ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremizm namoyon bo'lishiga ko'ra hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, millat va hududni tan olmagan. Diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan.

Diniy ekstremistlar qaerda va qaysi din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatishmasin, maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar. Bunday harakatning tashabbuskorlari "Hizbut-tahrir" deb atalmish buzg'unchi, g'ayriqonuniy partiya vakillaridir. "Hizbut-tahrir al-islomiy" norasmiy, siyosiy lashgan diniy partiya 1953 yilda Isroilda paydo bo'ldi. Uning asoschisi Quddus sudi a'zosi Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) Iordaniyadagi "Musulmon birodarlari" tashkiloti rahbarlaridan biri edi. Bu partiya mansub kishilar o'zlarining qonunga xilof hatti-harakatlari bilan jamiyatdagi barqaror holatga salbiy ta'sir ko'rsatishga intilmoqdalar. O'z mohiyatiga ko'ra "Hizbut-tahrir" partiyasi diniy aqidaparastlikning oshkora ifodasi bo'lib, unda diniy fanatizm va ekstremizmning barcha usullari mavjud. Bu usullar fuqarolar o'rtasidagi va umuman jamiyatdagi munosabatlarni keskinlashtirishga qaratilgandir. Bu esa mustaqillikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarining yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lda ular eng jirkanch usullarni qo'llashdan ham tap tortmaydilar.

"Fundamentalizm" atamasi ilk bor rasmiy ravishda 1908 yilda AQShning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan "Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi" tomonidan qo'llanilib Isoning tug'ilishi, qurbon bo'lishi, qayta tirilishi, ikkinchi bor kelishi va kitobning dastlabki sof holiga keltirilishi kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Islom fundamentalizmi – sof islom asoslariga qaytish, an'anaviy islom aqidalariga rioya qilishga qaytish demakdir. Bir qaraganda bu ijobiy hodisaga o'xshaydi, lekin hayotda buning aksi yuz bermoqda. Ular islomni tobora siyosiy lashtirmoqdalar, siyosat quroliga aylantirmoqdalar. Islom fundamentalizmi asosida Misrda birinchilardan bo'lib 1928 yilda "Al-Ixvan-al-muslimin" (**Musulmon birodarligi**) nomli siyosiy harakat vujudga kelib o'z tashkilotini tuzdi. Bu oqim yoshlar orasida Islom fundamentalizmini keng tashviqot qilishni boshladi. Bu tashkilotning asosiy g'oyasi musulmon birligi, taraqqiyotning Islom yo'li va Islom demokratiyasidir.

"Hizbut-tahrir"chilar "Demokratiya kufr nizomi, buni hayotga tatbiq qilib bo'lmaydi, xalifalikni tiklash bilan haqiqiy islomiy hayotni qaytarish mumkin",- deb da'vo qiladi.

Vahhobiylar – dinni Payg'ambarimiz (s.a.v.) davridagi "asl holati"ga keltirish lozim, degan niqob ostida harakat qilib, shu yo'lda kurash olib boradilar. Vahhobiylikka Muhammad ibn Abdulvahhob (1703-1792) tomonidan asos solingan. U ulug' sahobalar qabriga qo'yilgan sag'ana toshlarni buzishni, qabrlarni ziyorat qilmaslikni, avliyolarga nazr qilmaslikni, tamaki chekmaslik, qahva ichmaslik, rasm chizmaslikni targ'ib qildi. U o'z da'vatlarini yoyishda ko'proq qilichga tayanar edi va Ibn Saud boshchiligida Saudiya Arabistonini birlashtirishga katta hissa qo'shdi.

Vahhobiylar ta'limoti ildizi Ahmad ibn Xanbal (786-865), Taqiaddin ibn Taymiya (1263-1328), Ibn Qayyim (XIV asr) qarashlaridan ozuqa olgan. Ular islomni bid'atdan tozalash masalasini ilgari surdilar. Qur'on va Sunnadan tashqari barcha ta'limotlarni bid'at (yangilik) sanadilar.

Hozirgi davrga kelib bu harakat har qanday xalqni, har qanday dunyoviy davlatni kufrda, shirkda ayblab unga qarshi kurashish quroliga aylanib qoldi. Vahhobiylar ko'pchilik davlatlarda yashirin siyosiy faoliyat bilan shug'ullanadilar. O'z faoliyatiga diniy hissiyoti kuchli yoshlarni tortishga harakat qiladilar, kishilarda murosasizlik, o'zgaralar fikriga hurmatsizlik ruhini singdirishga intiladilar.

Vahhobiylar va "Hizbut-tahrir" orasida katta farq mavjud. Masalan, aqida masalalarida vahhobiylar davlatni xalifa boshqarishini g'oya qilib olmaydilar. Hizbiylar xalifalik davlatini tiklashni g'oya qilib olib, demokratiya bo'lishini inkor etadilar. Ular asosan fikriy, falsafiy kurashga e'tiborni qaratadilar. Garchi bu harakatlar arab davlatlarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, barcha arab davlatlarida ularning faoliyati taqiqlangan. Chunki bu oqimlar islomga zid aqidalarni ilgari surmoqdalar.

Dunyodagi bir qator rasmiy va norasmiy tashkilotlar, jumladan, hizbut-tahrirchilar, tablig'chilar, nurchilar, tavbachilar va boshqa tashkilotlar islom dinini tashviqot qilish niqobi bilan O'rta Osiyo davlatlariga o'z ta'sirlarini yoyishga intilmoqdalar. Lekin islom dini arkonlarini olamga mashhur qilgan al-Buxoriylar, at-Termiziyalar, Moturudiyalar yurti O'rta Osiyoga islom dinini tashviqot qilib o'tirishning hojati bormikan?

Buning ustiga O'zbekistonda dinga, shu jumladan islom dini va dindorlarga mustaqillikdan keyin butunlay yangi, hurmat bilan munosabatda bo'lish boshlandi. Mamlakatda minglab yangi machitlar qurildi, haj amallarini bajarishga keng yo'l ochildi. Bu siyosatdan barcha musulmonlar xursanddirlar.

O'zbekistonda dinga, dindorlarga nisbatan davlat munosabati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (1991 yil 14 iyun, yangi tahrirda 1998 yil 1 may) Qonunida "vidjon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir" deyiladi. Dinga ishonish yoki ishonmaslik uchun ta'qib qilinmaslik, jazolanmaslik, kamsitilmaslik vijdon erkinligining amalda bo'lishidir.

Biron-bir dinga e'tiqod qilishga majburlash ham vijdon erkinligiga ziddir. Vijdon erkinligi dunyoviy davlat prinsiplaridan kelib chiqadi.

Ushbu qonunda vijdon erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga munosabatidan qat'iy nazar teng huquqliligi, dinning davlatdan ajratilganligi, davlat organlarining va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabat borasidagi vakolatlari, ta'lim tizimi va din, diniy tashkilotlar maqomi, diniy o'quv yurtlari, diniy urf-odatlar va marosimlar, diniy tashkilotlar mulki hamda boshqa huquqlari belgilab qo'yilgan.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xavfsizligiga diniy ekstremizm islom fundamentalizmi xavfining qay darajada ekanligini xalqimiz o'z boshidan kechirdi. 1999 yil 16 fevraldagi begunoh odamlarning o'limiga olib kelgan voqealarni, keyinchalik Toshkent viloyati, Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi, 2004 yil Toshkentdagi iyul voqealarini unutishga hech kimning haqqi yo'q. Islom fundamentalizmini rag'batlantiruvchi tashqi omillarning faoliyati hali tugagani yo'q. Shu sababli mamlakatimizda diniy fundamentalizm xavfining oldini olish, xalqimizning hushyorligini oshirishga doir ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston turli dinlarning, turli madaniyatlarning yonma-yon yashashlari, tinch-totuv, o'zaro hurmat ruhida faoliyat ko'rsatishlari qonun bilan mustahkam belgilab qo'yilgan. Hozirgacha biron diniy mojaro ro'y bermagan. Bu narsa boshqa davlatlar uchun ijobiy misol bo'la oladi.

5. Huquqiy ong va jamiyat

Huquqiy ong – kishilar o'zaro munosabatlarining, ularning mavjud ijtimoiy hodisalarga, muassasa, tashkilot va shu kabilarning faoliyatiga munosabatlarining haqlik yoki nohaqlik, qonunga muvofiqlik yoki nomuvofiqlik, to'g'rilik yoki noto'g'rilik nuqtai nazaridan aks etishidir. Kishining huquqiy ongi qanchalik kuchli bo'lsa, huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi. Huquqiy ong huquqiy bilimlar asosida shakllanadi va huquqiy madaniyat orqali amal qiladi.

Kishilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyat kuchli bo'lsa jamiyat barqaror rivojlanadi. Jamiyat esa huquqiy ong va huquqiy madaniyatning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Demak ikkalasi o'zaro aloqada bo'ladi.

Har bir jamiyat fuqarosining burchi belgilab qo'yiladi. Burch – qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan ayrim harakatlarni sodir etish, ayrim harakatlarni sodir etishdan tiyilishdir. Fuqarolarning burchlari O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, qonunda belgilangan soliqlar va mahalliy yig'inlarni to'lashga, harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar. Burchni buzish turli javobgarlikka tortish va jazolashga sabab bo'ladi. Burch ixtiyoriy bajarilganda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Albatta bu burchlarni bajarish fuqarolarga bir qator majburiyatlar ham yuklaydi. Mehnat qilish, oilani, bolalarni boqish, ota-onaga qarash va h.k. Burch va majburiyatlar bir-birlari bilan o'zaro bog'liqdir, biri

ikkinchisini to'ldirib boradi. Biri bajarilmay qolsa ikkinchisiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurmoqchi ekanmiz fuqarolarni huquqiy tarbiyalash zaruriyati doimo dolzarb masala bo'lib qoladi. Chunki fuqaroning huquqiy bilimi bo'lmasa u oddiy masalalarda ham qiynalib qolishi hech gap emas. Shu sababli 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"ni qabul qildi. Dastur fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, fuqarolarning huquqiy ta'limi va huquqiy tarbiyasini takomillashtirish, davlat organlari xodimlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Ushbu dasturni bajarish bo'yicha ko'p qirrali, har tomonlama aholining huquqiy bilimlarini yuksaltirishga mo'ljallangan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Huquqiy madaniyat – fuqarolarning etukligi va ongliligini ko'rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil darajasi, huquqning obro'yi singari elementlardan tashkil topadi. Huquqiy madaniyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo'lga qo'yilganligi, madaniyatning umumiy darajasi ta'sir qiladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ongning amaliyoti, ya'ni huquqni qo'llash, amaliyotga tatbiq etishdir. SHaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo'lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, u jamiyat uchun katta zarardir. Bu huquqiy madaniyatsizlikdir.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun o'rta umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida, oliy ta'lim muassasalarida o'quv kurslari tashkil etilgan. Undan tashqari aholi uchun maxsus adabiyotlar chiqarilmoqda, gazetalarda shu haqda maqolalar, radio va televideniada maxsus eshittirish va ko'rsatuvlar tashkil etilmoqda. Huquqiy bilimlar bo'yicha respublikamizda maxsus gazetalar va jurnallar chop etilmoqda hamda advokatlar konsultatsiyasi punktlari ishlab turibdi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limni isloh qilish bevosita "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida olib borilmoqda. Bundan asosiy maqsad mutaxassislar sifatini yaxshilashdir. SHuningdek chet el o'quv markazlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish orqali kadrlar salohiyatini ko'tarish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ko'rilgan bu tadbirlarninghammasi kishilarning ma'naviy salohiyatini, jamiyatning ma'naviy qiyofasini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, sezilarli natijalar bermoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, jamiyatning ma'naviy hayoti va O'zbekistonda ma'naviy yangilanish masalalari yuqorida ko'rsatib o'tilganidek kishilarning ma'naviy olamini rivojlantirishga, jamiyatning ma'naviy qiyofasini yaxshilashga va u bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga, pirovard natijada Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini yuksaltirishga qaratilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ma'naviyat deganda nimani tushunasiz? U qanday hodisalarni o'z ichiga oladi?
2. Individual va ijtimoiy ongning o'zaro munosabati ularning qanday shakllari orqali namoyon bo'ladi?
3. Ijtimoiy psixologiya va mafkura nima?
4. I.Karimovning qaysi asarlarida ma'naviy tiklanish masalalari aniq ifodalab berilgan?
5. Istiqolning ma'naviy qadriyatlarimizni tiklashga ta'siri haqida misollar keltiring.
6. Dinning ma'naviy hodisalar orasidagi o'rni qanday?
7. Diniy ekstrimizm va fundamentalizm faqat islomga xos hodisami?
8. Mamlakatimizda din va dindorlarga munosabat qanday ekaniga oid fikrlaringizni bayon qiling.
9. "Xizbut-tahrir" oqimining mohiyati nimada?
10. Vahhobiylilikning vujudga kelishi sabablarini hamda mohiyatini tushuntirib bering.
11. O'zbekistonda kishilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan faoliyat haqida gapirib bering.

10-mavzu. XXI asr va insoniyatning rivojlanish istiqbollari

1. Oldindanko'rish va ijtimoiy prognoz: mohiyati va turlari

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson o'zining keyingi holati qanaqa bo'lishini, yuz berib turgan hodisa va voqealar qanday o'zgarishlarga olib kelishini bilishga qiziqqanlar. Bu oldindan ko'rish deb ataladi. Oldindan ko'rish bir qancha turlarga bo'linadi: ilmiy, oddiy va intuitiv. Bundan tashqari oldindan ko'rishning diniy shakli ham mavjud (masalan, fol ochish, rom ochish, karomat qilish kabilar). Ulardan hozirgi paytda keng tarqalgani prognozlashtirish hisoblanadi (grekcha – oldindan ko'rish, oldindan aytish). Umuman olganda prognozlashtirish deganda biror-bir hodisaning kelajakda qanday bo'lishi ehtimoli haqida fikr chiqarish tushuniladi. Prognozlashtirish oldindan ko'rishning ilmiy shakllaridan biri sifatida rejalashtirish, programmashtirish, loyihalashtirish, boshqarish kabilar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Ob'ektlar boshqarilmaydigan sohada, ya'ni tabiatshunoslik sohasida, ularning keyingi holatlari haqida asosan statistik va dinamik qonuniyatlardan kelib chiqib u yoki bu darajada qat'iy "bashorat" qilinadi.

Hozirgi paytda keng qo'llanilayotgan prognozlar oldindan ko'rishning bir qismi hisoblanadi, ammo ularni bir-biriga tenglashtirib bo'lmaydi. *Prognoz – ilmiy oldindan ko'rishdir.* Oldindan ko'rishning ilmiy turidan tashqari ilmiy bo'lmagan turlari ham mavjud. Bundan tashqari oldindan ko'rishning ilmiy va noilmiy turlari oralig'ida joylashgan *empirik oldindan aytish* ham mavjudligini qayd etish kerak.

Ilmiy bo'lmagan oldindan ko'rish fantastik, real bo'lmagan, sun'iy o'ylab chiqilgan o'zaro aloqadorliklarga tayanadi. Ko'pincha esa bu "folbinning" o'zigagina ayon bo'layotgan "vahiylarga asoslanadi" - uning yagona maqsadi

odamning qarashlari va hatti-harakatida aslida asosi bo'lmagan sabablarni qidirib topish va unga ishontirishdir. G'oyibdan bilish, avliyolik, karomat qilish, fol (rom) ochish, astrologiya (yulduzlarga qarab rom ochish) va shu kabilar ilmiy bo'lmagan oldindan ko'rishning shakllariga kiradi. Bunga shuningdek, payg'ambarlik ham kiradi. Yangi davrda vujudga kelgan ijtimoiy utopiyalarni ham mana shu guruhga kiritish mumkin. Ammo ularning noilmiy xarakteri ularning jamiyat hayotida, kishilarning qismatida albatta salbiy rol o'ynaydi, degan fikrni bildirmaydi. Tarixdan ma'lumki, diniy va ijtimoiy yo'nalishdagi shunday qarashlar juda ko'p hollarda ilg'or va ijobiy, hatto inqilobiy rol o'ynaganlar.

Ilmiy oldindan ko'rish ilmiy g'oyaning natijasi bo'lgan, ilmiy nazariyalar doirasida qonuniyatlarni sistemali ravishda ilmiy-nazariy tahlil qilish asosida olingan va ularning amalga oshirilish sharoitlariga tayanuvchi oldindan ko'rishga aytiladi. Faqat ana shunday, ya'ni real sharoitlarni tahlil qilishga asoslangan oldindan ko'rishgina "bashoratning" mumkin qadar ishonchliligini ta'minlashi va unga asoslangan hatti-harakatlarga qat'iylik bera olishi mumkin hamda kelajakning ehtimol tutilgan va zaruriy tendensiyalarini aniqroq ko'rishga imkon beradi. Kelajakni to'liq va absolyut aniq bilish hech qachon ilmiy oldindan ko'rishning o'ziga xos belgisi bo'la olmaydi. Bunday bilim, aslini olganda, mantiqiy jihatdan bema'nilikdir. Prognozlashtirish o'tmish va hozirgi paytdagi hodisalarning qanday kechganligi va o'zgarishlari tendensiyalarini o'zaro solishtirish asosida ularning zaruriy va ehtimoiy kelajagini aytish mumkin bo'lgan chegaralargacha oldindan aytishi mumkin. Uning xarakterli xususiyati shundaki, u qonunlarni bilishga va haqqoniy metodikaga suyanadi, prognozlashtirilayotgan voqealik o'zgarishini nazarda tutib, uning natijalari tekshirilishi, aniqlashtirilishi va yanada rivojlantirilishi mumkin.

Empirik oldindan ko'rish kishilarning kundalik tajribasiga, o'zaro bog'lanishlarning real yoki faraz qilingan (xayoliy) holatlariga yoki doimiylikligiga suyanadi, ammo u nazariy asoslarga, tajribalarning baholanishiga, hodisalarning qonuniyatlarini o'rganishga tayanmaydi. Bunga xalq orasida keng tarqalgan turli voqealarning (masalan, yomg'ir yog'ishi, yozda hosilning mo'l yoki kam bo'lishi, turli kasalliklarning sabablari va shu kabilarning) yuzaga kelishi haqida fikr bildirishda turli belgilardan foydalanish amaliyotini misol qilib keltirish mumkin. Bunday oldindan bilish odatda noaniq va ishonchli bo'lmaydi. Ammo bu ularning tasodifan amalga oshirishini yoki real hodisalarning qonuniyatlariga suyangani sabab to'g'richiqishini inkor qilmaydi. Kishilik hayotining juda o'zoq vaqti davomida ana shunday oldindan ko'rish muhim rol o'ynab kelgan va ba'zi masalalar bo'yicha hozir ham katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Ilmiy va ilmiy bo'lmagan oldindan ko'rishning yana qanday farqlari mavjud? **Birinchi**dan, prognoz real mavjud qonuniyatlar va o'zaro aloqadorliklarga suyanadi, noilmiy shakllar esa fantastik, xayoliy, "vahiy" asoslarga tayanadi. Shuning uchun noilmiy shakllarni ilmiy dalillar bilan inkor etib bo'lmaydi, chunki ular ilmiy yo'l bilan tekshirib ko'rish mumkin bo'lmagan "asoslarga" tayanadilar.

Ikkinchidan, avliyolik, karomat qilish o'z tabiatiga ko'ra absolyut, o'zgarimas haqiqatlik, yagona ishonchlilik da'volari bilan chiqadilar. Prognoz esa

aqliy va jismoniy jarayon natijasi bo'lib doimo rivojlanib, bilmaslikdan bilishga, noto'liq bilimdan to'liqroq bilimga tomon harakatni tashkil qiladi va u yoki bu darajadagi ehtimollik bilan isbot etilib turadi.

Uchinchidan, avliyolik va karomat qilishda xuddi utopiyadagi kabi tayyor, statik xarakterdagi, qotib qolgan, ajralib qolgan holatlarning suratini taklif qiladilar. Prognozda esa, aksincha, voqelikning dinamik, o'zgaruvchan kartinasini taklif qilinadi, bunda prognozlashtirilayotgan holatlar rivojlanayotgan yagona o'zgaruvchan voqelikning bosqichlari sifatida chiqadi, ularni esa real sharoitlar, ziddiyatlar, harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlar asosidagina tushunish mumkin.

To'rtinchidan, ilmiy oldindan ko'rishda real o'zaro bog'lanishlar va jarayonlar amal qiladi hamda ulardan prognoz vujudga keladi, utopiyalarda esa mustaqil tarixiy kuch sifatida xohishlar, baholar, axloqiy talablar qonuniy aloqadorliklarning o'rnini egallaydi. Shu ma'noda xayoliy oldindan ko'rishda axloqiy dunyoqarash va baholar, sub'ektiv istaklar va talablarning kelajak voqelik sifatidagi kartinalari olinadi.

Shu ma'noda prognoz – narsa va hodisalarning ilgari ma'lum bo'lmagan holati haqidagi fikrlar bo'lib, uni biz ilmiy nazariyaning natijasi, bizga ma'lum yoki asoslangan fikrlardan olingan xulosa sifatida qabul qilamiz.



Oldindan ko'rish tabiatshunoslikda, texnik fanlarda va jamiyatshunoslik fanlarida keng qo'llaniladi. Tabiatshunoslik va texnikadan farqli ravishda jamiyatdagi jarayonlarni prognozlashtirishda juda murakkab komplekslar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Ijtimoiy hayotning turli sohalari va hodisalari juda murakkab ijtimoiy organizmlar sifatida amal qiladi va ularni faqat shartli ravishda, vaqtincha bir-biridan "ajralgan holda", unda ham "faqat tafakkurda ajratib" ko'rish mumkin. Jamiyatning o'zi "ko'p qavatli", har biri bir-biri bilan bog'langan va ayni holda "o'ziga xos" hayot kechirayotgan murakkab hodisalar, narsalar, shaxslar, individlar, qolaversa, odamlardan iborat. Shundan kelib chiqib bu sohalarda turli-tuman, "qavat-qavat", umumiy, xususiy va alohida prognozlar bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy hayot sohasida odatda boshqariluvchi hodisalarning kelajakdagi holati haqida fikrlar chiqariladi. Ilmiy prognozlashtirishni hozirgi paytda prognozchilar va futurologlar asosan ikki tipga ajratishadi. Bunday ajratishning asosi kelajakni o'rganish qanday yo'nalishda olib borilishi bilan bog'liq. Birinchi tip prognozlar – **qidiruvchi** (tadqiq etuvchi, trend) **prognozlashtirish**, ikkinchi tip – **normativ prognozlashtirish** deyiladi.

Qidiruvchi prognozlashtirish – ko'zda tutilgan vaqt mobaynida hodisaning mavjud tendensiyalari o'zgarib yoki unga muayyan boshqariladigan ta'sirlar ko'rsatilganda qanday holatda bo'lish ehtimolini tahlil qiladi. Bunda prognozlashtirilayotgan hodisaning o'tmish va hozirgi paytdagi rivojlanish holatini davom ettirish orqali kelajakda qanday bo'lishi haqida xulosa chiqariladi. Bunday prognozlashtirish rivojlanish qanday yo'nalishda bo'ladi? degan savolga javob beradi. Qidiruvchi prognozlashtirish maqsadlari uchun o'nlab matematik tenglama-modellardan foydalanish mumkin. Ular o'z navbatida liniyali va liniyali bo'lmagan modellarga ajratiladi.

Qidiruvchi prognozlashtirishning liniyalı modeli matematik yoki elektron hisoblash mashinasida tahlil qilishga mo'ljallangan hollarda ishlatiladi. Bunda ob'ektga (hodisaga) ta'sir qilayotgan ko'rsatgichlar bir-biriga teng vaqtlar oralig'ida kamayayotgan yoki ko'payayotgan bo'ladi. Bu holatda tendensiya arifmetik progressiya asosida o'zgaryapti, deb xarakterlanadi. Uni grafik holda A chizmadagidek ifodalash mumkin. Liniyalı model aniq natijalar berishiga qaramay, ularning murakkab ijtimoiy hodisalarni modellashtirishdagi imkoniyati chegaralangan. Bunday jarayonlarda liniyalı bo'lmagan modellar yaxshi ish beradi.

B chizmada esa liniyalı bo'lmagan eksponensial model aks ettirilgan. Mazkur model rivojlanish darajasi tezlik bilan o'sayotgan yoki kamayayotgan jarayonlar va tendensiyalarga nisbatan qo'llaniladi.



Liniyalı bo'lmagan modellardan eng ko'p qo'llaniladigani eksponensial (geometrik progressiya bo'yicha) rivojlanish modeli hisoblanadi. Bunday modellar jarayon va tendensiyalarning keskin o'zgarishi xarakterli bo'lganda samarali natijalar beradi. Misol tariqasida T.R.Maltusning aholining ko'payishi va ularni zaruriy moddiy resurslar, oziq-ovqat bilan ta'minlash o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risidagi prognozini keltirish mumkin. Bu kabi model hozirgi paytda ekologik jarayonlar va insoniyat taraqqiyotining kelajagi masalalarida mashhur "Rim klubi" hisobotlarida keng qo'llanilmoqda. Bunda asosan "mantiqiy egri chiziq" uslubi qo'llaniladi – uning mazmuni shundaki eksponensial o'sish ko'rsatgichlarining muayyan darajaga albatta olib kelishi ko'zda tutiladi. Lekin hayot shundayki, har qanday murakkab hodisaga ta'sir qiluvchi aloqadorliklarning o'zlari ham doimiy ta'sirlar natijasida ko'plab o'zgarishlarga uchrab turadi. Shuning uchun ijtimoiy hayotning ko'plab jarayonlarini o'rganishda "mantiqiy egri chiziqning" ahamiyatini, uning o'zgarishligini haddan ortiq ko'tarib yubormaslik kerak. Chunki ilgariroq o'zgarish, absolyut hisoblangan ko'rsatgichlar o'zining nisbiyligini, o'zgaruvchanligini namoyon etmoqda. Shuning uchun biror ko'rsatgich haqida gapirganda uning "chegaralari" o'zgarishligi haqida emas, balki ularning ketma-ketligi, bir-birini to'ldirib borayotgan "mantiqiy egri chiziq" ketma-ketliklari haqida fikr yuritgan ma'qulroq.

Yuqorida aytganimizdek, qidiruvchi prognozdan tashqari **normativ prognozlashtirish** ham majud. Uni ko'pincha obrazli qilib "teskari

prognozlashtirish" ham deyishadi, chunki bunda tadqiqot kelajakdan hozirga qarab yo'naltirilgan bo'ladi. Bunda hodisalarning maqbul (yaxshi, kerakli, zarur) deb qabul qilingan holatiga erishish uchun nimalar qilinishi kerakligi izlanadi. Ya'ni muayyan norma, qaror, ideal, maqsad qo'yilib, unga qanday erishish yo'li izlanadi. Bunday prognozlashtirish quyidagi savolga javob beradi: "Muayyan maqsadga erishish yoki qabul qilingan qarorni bajarish uchun nima qilish kerak?" Normativ prognozlashtirishning predmeti sub'ektiv omillardir (g'oyalari, farazlar, taxminlar, niyatlar, mo'ljallar, axloqiy normalar, ijtimoiy maqsadlar va shu kabilari). Tarixdan ma'lumki, ular amal qilayotgan jarayonlar xarakterini o'zgartirish, sifat jihatdan yangi reallikning vujudga kelishida juda katta ahamiyatga ega. Bunda mavjud hodisaga taalluqli qanday tendensiyalar optimal o'zgartirilsa kutilgan natijaga olib kelishi mumkinligi aytiladi.

Normativ prognozlashtirish ekstrapolyasiyaga, ya'ni narsa va hodisalarning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga ham taalluqli deb hisoblash va ularga ham tatbiq etishga asoslangan yondoshuvning prinsipial jihatdan etarli emasligining va insoniyat jamiyati faoliyatida maqsadlarning o'rni va ahamiyatining tan olinishi sifatida qabul qilindi. Hozirgi paytda bu soha mutaxasislari kelajakni qidiruvchi prognozlashtirish normativ prognozlashtirish bilan to'ldirilishi kerak, degan fikrlarni aytmoqdalar. Ana shundagina "inson odamlar energiyasini nazorat qilish va uni yo'naltirishga qodir bo'lgan qudratli vositani yaratishi va tarixning rivojlanishiga ta'sir qilishi" mumkin, deydi taniqli olim R.Yung.

Prognozlashtirish vujudga kelishi mumkin bo'lgan kelajak haqida tasavvurlarni ishlab chiqish bo'lib, alternativ imkoniyatlarning ehtimoli qandayligini aniqlaydi hamda ularga erishish yo'llarini izlaydi. Uning asosida reja ishlab chiqiladi. Rejada qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida bajarish ko'zda tutilgan u yoki bu ishlar ko'rsatiladi. Reja yordamida programma ishlab chiqiladi. Programmada rejani bajarish uchun zarur bo'lgan resurslar va ularni muayyan faoliyat turlari o'rtasida taqsimlash usullari ko'rsatiladi. Shuningdek qabul qilingan qarorni bajarish yuklatilgan konkret tashkilot, muassasa yoki kishi ham ko'rsatiladi. Qabul qilingan programmalarning bajarilish darajasi nazorat orqali baholanib boriladi va u real holatning qandayligini ko'rsatadi.

Prognoz va reja kelajak haqidagi informatsiya bilan ish ko'rish usuliga ko'ra bir-biridan farqlanadi: mumkin bo'lgan yoki maqbul bo'lgan kelajakning ehtimoliy (taxminiy) ifodasi – prognoz bo'ladi; mumkin bo'lgan yoki maqbul bo'lgan holatga erishish tadbirlariga oid direktiv (ya'ni, yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar, buyruqlar shaklidagi) qarorlar – reja bo'ladi. Reja va prognoz bir-biridan mustaqil ishlab chiqilishi mumkin. Ammo rejaning samarali, optimal bo'lishi uchun undan oldin prognoz ishlab chiqilishi kerak, uning uzluksiz bo'lishi rejalarning ilmiy asoslanganligini oshiradi.

Bundan tashqari prognozlar katta ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tabiatshunoslik fanlari bilan bog'langan prognoz turlari kirganligi sababli ularni ko'pincha **tabiatshunoslikka oid prognozlar** deyiladi. Bunga quyidagilarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin:

1. meteorologik (ob-havo, havo oqimlari va boshqa atmosfera hodisalari);

2. *gidrologik (dengiz to'liqlari, suv oqimi, toshqinlar, sunami, bo'ronlar, akvatoriyaning muzlashi va erishi va boshqa gidrosfera hodisalari);*
3. *geologik (foydali qazilmalarning joylashuvi, zilzilalar, vulqonlar va boshqa litosfera hodisalari);*
4. *biologik (o'simlik va hayvonot dunyosiga oid hosil darajasi, kasallanish va boshqa hodisalar);*
5. *mediko-biologik (odamning kasalliklari va h.k.);*
6. *ilmiy-texnik (mexanizm va mashinalar, elektron apparatlar va umuman texnika sohasiga taalluqli texnologik va injenerlik echimlari);*
7. *kosmologik (osmon jismlarining harakatlanishi, kosmosdagi gazlar, nurlanishlar va h.k.);*
8. *mikrodunyodagi fizik-ximik jarayonlar haqidagi prognozlar.*

Ikkinchi guruh prognozlar ijtimoiy pronozlar deb ataladi va ular asosan ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi hodisalarga bog'langandir. Ularga misol tariqasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. *ilmiy-texnik (ilm-fanning taraqqiyot yo'nalishlari, muassasalar va kadrlar, ularning sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot, shahar va qishloq hayotidagi holati, transport, sog'liqni saqlash, axborotlashtirish va boshqalardagi xususiyatlari);*
2. *ijtimoiy-tibbiy (sog'liqni saqlash, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport);*
3. *ijtimoiy-geografik (er sirtini, shu jumladan dunyo okeanini, o'zlashtirish);*
4. *ijtimoiy-ekologik (jamiyat va tabiat munosabatlarida muvozanatni saqlash va uning buzilishi);*
5. *ijtimoiy-kosmik (kosmosni zabt etishning kelajagi);*
6. *iqtisodiy (xalq xo'jaligi ishlab chiqarishining turli sohalari taraqqiyoti);*
7. *psixologik (shaxs, uning hatti-harakati, faoliyati va shu kabilar);*
8. *demografik (aholining ko'chishi, jins va yosh tarkibi, ko'payishi va shu kabilar);*
9. *filologo-etnografik (tilning, yozuvning, nomlarning, milliy an'analar, odatlarning rivoji);*
10. *madaniyat va ta'limga oid (ularning moddiy bazasi, muassasalari, kadrlari, texnik ta'minoti va h.k.);*
11. *siyosiy, shu jumladan ichki siyosat yoki tashqi siyosatga oid;*
12. *harbiy masalalarga oid va shu kabilar.*

Albatta ularning bir-biriga yaqin yo'nalishlarini o'zaro birlashtirib, boshqa nomda ham atash mumkin. Bu erda nomlanish shartli bo'lib, ularni guruhlashtirish haqida boshqacha fikrlar bo'lishi mumkin va tabiiy.

Ijtimoiy prognozlar ko'pincha o'z ichiga tabiiy yoki texnik hodisalar prognozlarini qamrab oladi. Shunga e'tibor berish kerakki, masalan, ob-havo yoki hosildorlik haqidagi prognozlar turli ijtimoiy sharoitlarda ham bir xildadir. Ammo qishloq xo'jaligining rivojlanishi haqidagi prognozlarni esa (ob-havo va hosildorlik prognozlarini o'z ichiga olgan holda) jamiyatning ijtimoiy tuzilishi xarakteri bilan bog'liqlikda ko'rish talab qilinadi.

Eslatib o'tilganidek prognozlarni bir qancha belgilarga ko'ra guruhlariga bo'lish mumkin. Masalan, ularning qancha vaqtga mo'ljallanganiga qarab, ya'ni

qancha vaqtni o'z ichiga olishiga qarab kundalik, qisqa muddatli, o'rtacha muddatli, uzoq muddatli va juda uzoq muddatli prognozlariga ajratish mumkin.

1. *kunlik, haftalik, oylik – soatga, kunga, hafta yoki oyga mo'ljallangan bo'ladi;*
2. *qisqa muddatli – odatda bir yilga mo'ljallanadi, ammo 1 yildan 5 yilgacha, ya'ni besh yillik yoki 2-3 yillikka mo'ljallangan bo'lishi ham mumkin;*
3. *o'rtacha muddatli – 5 10 yillik;*
4. *uzoq muddatli – odatda 10 – 15 yillik, ba'zi sohalarida esa – 50 – 100 yillik;*
5. *juda uzoq muddatli – uzoq muddatli dan ortiqroq.*

Real hayotda biz dinamik, ya'ni doimiy o'zgarishda bo'lgan va ketma-ket yuz beruvchi holatlarga duch kelamiz. Bunda hodisa elementlarining o'zaro ta'siri natijasida uning haqiqatda qanday rivojlanishi to'g'risida amalda oldindan bir narsa deyish juda mushkul. Shuning uchun ma'lum bo'lgan yangi ma'lumotlar kutilayotgan holatni yanada aniqlashtirish maqsadida doimo hisobga olinishi, demak prognozlar doimo yangilanib turishi kerak. Bu esa o'z navbatida rejaning ham, programmaning ham, umuman olganda prognozlashtirishdagi barcha bosqichlarning doimiy o'zgartirib turilishini talab qiladi. Bularning barchasi sistemali, uzluksiz prognozlashtirish xizmatini tashkil etish zaruriyatini tug'diradi. Shu ma'noda sistemalilik va uzluksizlik "ilmiy prognozlashtirish"ning muhim o'ziga xos xususiyatlarini tashkil qiladi.

1. *Insoniyat kelajagi to'g'risidagi optimistik va pessimistik prognozlar*

Hozirgi paytda insoniyat ko'p jihatdan o'z-o'ziga yana bir bor nazar tashlab, o'zining kimligini kashf etmoqda, desak xato qilmagan bo'lamiz. Bunda u quvonchga to'la hayrat va zavqlanishdan ko'ra ko'proq achchiq taassuf hissini tuymoqda... Inson – tabiat va tarixning eng ajoyib, yagona va qaytarilmas mu'jizasi, uning kelajagi ham bepoyon va ajoyibdir, deyishadi bir xil mutafakkirlar. Inson – tabiatning xatosi, uning son-sanoqsiz kamchiliklarga ega bo'lgan baxtsiz mevasidir, shuning uchun uning kelajagi yo'q, u halokatga mahkum, deyishadi boshqa mutafakkirlar. Ularning qaysi birlari haq? Qaysi birlari nohaq? Ehtimol, birinchisi ham, ikkinchisi ham haq emasdir, bu borada qandaydir boshqa, o'zida birinchi va ikkinchi yondoshuvlarni bir-biri bilan qo'sha oladigan uchinchi yo'l bordir?

Insoniyat tomonidan bosib o'tilgan minglab yillar mobaynida yuqoridagi kabi savollarga javob istab, o'z-o'zini anglash, o'zining nima maqsadda yaratilganini, taqdirini anglash uchun son-sanoqsiz afsonalar, diniy ta'limotlar, falsafiy g'oyalar, ilmiy qarashlar, xayoliy va antixayoliy fikrlar yaratildi. Dardalam bilan bosib o'tilgan ming yilliklar mobaynida yaratilgan xayoliylik va afsonalar o'rmini asosli ilmiy qarashlar ola boshladi.

Shu bilan birga ilmiy-fantastik adabiyot, kino, televidenie orqali kishilar diqqatiga nafislashtirilgan holda albatta bo'ladigan, qat'iy oqibat hisoblanuvchi insoniyat kelajagini halokatdan iborat qilibgina ko'rsatuvchi manzaralar havola qilinmoqda. Ularning sababi ko'pincha kibernetiklashtirilgan, gen injeneriyasi natijasida olingan avlodlarning nazoratdan chiqib ketishi, ularning ilmiy-texnik kashfiyotlardan foydalanishi natijasi deb talqin qilinmoqda va ularda kelajak

ayanchli voqelik bo'ladi degan umidsizlik ohangi ustun. Bunday esxatologik (ya'ni, oxir zamon haqidagi qarashlar) fikrlarda diniy g'oyalardan farqli o'laroq, kelajakning yaxshi bo'lishiga umid qoldirilmaydi, balki ular o'tmishda bo'lgan degan fikr uqtiriladi.

Insoniyat hozirgi kunda haqiqatan ham ko'plab yechilmagan muammolarga duch kelib turibdi. Ularning qanday hal qilinishi uning kelajagi qanday bo'lishini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bularga olamshumul muammolar misol bo'ladi. Ularning mazmuni bilan kelgusi darslarimizda tanishib chiqamiz.

Umuman olganda echimi topilmagan muammolar insoniyat oldiga, ayniqsa olim va tadqiqotchilar oldiga ularni "mavjud kiyim-kechaklardan", ya'ni niqoblardan tozalash, insoniyat oldida haqiqatan ham jiddiy, keskin vaziyat vujudga kelgani va uning echimi kelajakning qanday bo'lishini tushuntirib berish, ularning optimal echimini topish va uni amalga oshirish vazifalarini qo'ygan.

Hozirgi paytda dunyoning aksariyat mamlakatlaridagi taraqqiyot demografik, oziq-ovqat, energiya va xom ashyo bilan ta'minlanish, urush va tinchlik muammolarining qay darajada hal etilishi bilan ko'p darajada bog'liqligi tobora anglab borilmoqda. Shuning uchun ana shu muammolarga qaratilgan prognozlar hozirgi paytda ko'pchilikni tashkil etadi. Ularni hal etishning istiqbollarning ijobiy yoki salbiy echimiga qarab ana shu prognozlarni optimistik yoki pessimistik ruhdagi prognozlariga ajratish mumkin. Yaqin-yaqinlargacha sobiq Ittifoq ilmiy tadqiqotlarida kapitalistik mamlakatlarda yaratilgan prognozlarni pessimistik, aksincha, sotsialistik mamlakatlar olimlari tomonidan ishlab chiqilgan prognozlarni esa optimistik prognozlar deb atash rasm bo'lgan edi. Hozirgi paytda prognozlarni bunday sun'iy usulda guruhlashtirishga barham berildi va ularning mazmuni, muammolarning qay darajada ob'ektiv tahlil etilganligi hamda ularning echimi qanchalik ilmiy asoslanganligiga e'tibor berila boshlandi. Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, optimistik prognozlar qatoriga insoniyatning yorug' kelajagini chizib bergan ko'plab utopistik xarakterdagi nazariyalarni ko'rsatishimiz mumkin: yorqin istiqbolni ko'rsatgan Abu Nasr Forobiy, T.Mor, T.Kampanellalarning qarashlari, sotsialistik kelajak haqidagi fransuz utopik sotsialistlarining fikrlari, kommunistik istiqbolni nafaqat faraz qilgan, balki uni qurishning amaliyotini ham sinab ko'rgan markscha-lenincha g'oyalarni optimistik ruhdagi prognozlar sifatida qarash mumkin. Pessimistik prognozlariga esa insoniyatning demografik rivojlanishi va ularni moddiy ta'minlashning bog'liqligini geometrik va arifmetik progressiyalar nisbati sifatida qaragan Tomas Robert Maltus g'oyasini va shu kabi kelajakni halokat sari intilish deb hisoblovchi va tanazzul sifatida qarashlarni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Ko'rinib turibdiki, optimistik yoki pessimistik xarakter ularning hayotda ham xuddi shunday bo'lishiga to'liq kafolat bera olmaydi. Faylasuflar aytganidek, barcha narsani amaliy hayot hal qiladi, amaliyotning o'zi ularni joy-joyiga qo'yadi.

XX asrning 70-80 yillaridan boshlab, ya'ni bir-biriga qarama qarshi sotsialistik va kapitalistik tuzumlarning hayot talablari natijasida bir-biriga ko'r-ko'rona qarama-qarshi chiqishlarining o'rniga mavjud va ehtimol tutilgan muammolarni tahlil qilish, imkon qadar ularning g'oyaviy asoslarini bir-biriga zid

qo'ymasdan echishga intilish davri boshlandi. G'arbda kelajakni oldindan ko'rishga qaratilgan ko'plab ilmiy markazlar, uyushmalar, masalan, "Insoniyat 2000 yilda" xalqaro ilmiy markazi, Rim klubi va shu kabilarning ishlari natijasida ko'plab mamlakatlar siyosiy qatlamlari, alohida mamlakatlar va mintaqaviy tashkilotlar, BMTning xalqaro organlari faoliyatida olamshumul muammolar va kelajak masalasiga e'tibor kuchaydi. Agar "Rim klubiga hisobotlar" deb atalmish dastlabki ilmiy prognozlarida (masalan J.Forrestening "Dunyoviy dinamika" kitobida) ilmiy-texnik taraqqiyot, ishlab chiqarish, aholining o'sishi va shu kabilarning mavjud darajada saqlab qolinishi olamshumul muammolar echimining kaliti sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi hisobotlarda (masalan, M.Mesarovich va E.Pestelning "Insoniyat buriilish nuqtasida" kitobida, E.Laslo ilmiy jamoasi va D.Gabor hamjamoasining hisobotlarida) ilmiy-texnologik tomonga berilgan e'tibor asta-sekinlik bilan jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy, alohida individlar va ijtimoiy omillarning rolini hisobga olishning muhimligini tan olishga tomon o'zgardi. Bu o'zgarish Rim klubi Prezidenti A.Pechcheining 1980 yilda Sistemaviy tahlil xalqaro institutida o'qigan ma'ruzasida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda u kelajakni olamshumul muammolar aspektida ko'rishga harakat qiladi va uning echimini mintaqaviy va global darajalarda qabul qilinajak qarorlar, umuman dunyoni boshqarishga kishilarning o'z-o'zlarini boshqarish nuqtai nazaridan qarashni taklif qiladi. Buning uchun, deydi u, eng avvalo real dunyoda mavjud holatga mos ravishda yashashga o'rganish talab etiladi, boz ustiga kelajak avlodlar va mavjud hayotning boshqa ko'rinishlari oldidagi majburiyatlarimizni bajarishimiz, o'z imkoniyatlarimizni rivojlantirishimiz lozim. Shuning uchun, deb xulosa qiladi Pechchei, olamshumul muammolarga insoniy nuqtai nazardan qarash, uning ilm-fan, energetika va boshqalar yordamida nimalar qila olishi mumkinligi nuqtai nazaridan qarash kerak.

Bunday xulosaga Pechchei hozirgi paytda insoniyat o'z taraqqiyotida hali eng yuksaklikka chiqqani yo'q, uning ijodiy imkoniyatlaridan haligacha to'liq foydalanilmayapti, degan ishonchga tayangan holda kelgan. Shuning uchun Rim klubiga qilingan hisobotlardan biri "Ta'limning chegarasi yo'q" deb atalsa, boshqasi "Insoniy forum" loyihasi deb atalgan.

Ko'pgina g'oyalarda insoniyat kelajagi tafakkuri, aql-idroki jihatdan tanlangan alohida kishilar faoliyatiga bog'liqligi ko'rsatiladi. Masalan, amerikalik sotsiolog D.Bell "Kapitalizmning madaniy ziddiyatlari" kitobida bo'lajak jamiyat, ya'ni "postindustrial jamiyat" kishilarning mulkiy munosabatlariga emas, balki ularning bilimi va ixtisosliklariga ko'ra xarakterlanadi. Z.Bjezinskiyning "Ikki asr orasi" kitobida "postindustrial jamiyat" texnika va elektronika, ayniqsa hisoblash texnikasining ta'siri ostida "texnotron jamiyat"ga aylanib boradi, degan fikr asosiydir. Ular uchun asosiy kuch "ilm-fan elitasi"dir. Biroq, mazkur g'oya tanqidchilari asosli ravishda ta'kidlaganlaridek, "olimlar va bilimli kishilar zarur, ... ammo ular hech bir jamiyatda boshqaruv pozitsiyalarini egallamaydilar, ular faqatgina iqtisodiy va siyosiy elitaga xizmat qiladilar, xolos".

Mazkur qarashlar ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojiga barcha muammolarni echishning kaliti sifatida qaraydilar. "Texnokratik optimizm" tarafdorlari kelajakda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy masalalar echimida an'anaviy hatti-harakat

o'rniga, ilmiy va texnik bilimlar rolining oshishini, madaniyatda iste'molchilikning kuchayishini, elita va mutaxassislar ahamiyatining kuchayishini, butun dunyo miqyosida industralashtirish, ta'lim va ommaviy bilimlilar ahamiyatining kuchayib borishini ko'rsatadilar. Hozirgi kunda mamlakatlari taqdirini o'z qo'llariga olgan ko'pgina mamlakatlarda mazkur yo'nalishdagi loyihalarga e'tiborning kuchayib borayotganini ilg'ash qiyin emas. Ammo bu ham mazkur muammoga bir tomonlama yondoshishdir. Chunki faqatgina ilm-fan va unga taalluqli tomonlarning o'zi bilangina jamiyatning barcha sohalarini o'zgartirish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy muammolarni echish kifoya qilmaydi.

Texnokratik optimizmga qarshi fikrlar turli ko'rinishlardagi antropologik yo'nalishlarda o'z ifodasini topmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. "Prognoz" va "bashorat" tushunchalarining mazmunini tushuntiring.
2. Ilmiy va ilmiy bo'lmagan prognozlar haqida tushuncha bering.
3. Izlanuvchan va normativ prognozlarning farqi nimada?
4. Tabiatshunoslikka oid qanday prognozlarni bilasiz?
5. Ijtimoiy sohaga oid qanday prognozlar mavjud?
6. Prognozashtirish qamrab olish vaqtiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
7. "Rim klubi"ga taqdim etilgan turli prognozlar haqida nimalarni bilasiz?
8. Yagona xalqaro norma, qoida va standartlarga o'tishning zarurati nimada?

11-mavzu. Zamonamizning olamshumul muammolari va O'zbekistonning kelajagi

1. Olamshumul muammolar tushunchasi, ularning mazmuni, belgilar va turlari

Insoniyat taraqqiyotining XX asrdagi o'ziga xosligi shundaki, u kishilar hayot kechirishining turli sohalarida juda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Mehnat qilishda asosiy e'tibor insonning qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlarning turli-tuman mashina va mexanizmlar zimmasiga yuklanishi, transport sohalarining, ayniqsa, avtomobil, temir yo'l va aviatsiyaning rivojlanishi yuz berdi, aloqa, fan, texnologiyalar va boshqa ko'plab sohalarda misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarga erishildi.

Shu bilan birga ayni XX asrda insoniyat ikki marta jahonni qamrab olgan urushlar girdobida qoldi. Ularda juda katta, millionlarda hisoblanuvchi qurbonlar berildi. XX asrning 60 – 70 yillarida esa u yana murakkab muammolar – olamshumul deb tavsiflanuvchi muammolarga duch keldi. Ularning vujudga kelishi ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'langan bo'lib, insoniyatning tabiiy muhitga ta'siri, energiya bilan ta'minlash, aholi sonining tez sur'atlar bilan ko'payishi, moddiy resurslar bilan ta'minlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, olimlar orasida haligacha muammolarning qaysilarini olamshumul deb ataluvchilar guruhiga kiritish borasida bir fikrga kelingan emas. Bunga ana shu muammolarga turli nuqtai nazardan yondoshishlar ham sabab bo'lmoqda. Bunga sabab bo'luvchi qiyinchiliklardan yana biri

shundaki, biror mamlakat uchun atrof-muhit muammosi keskin bo'lsa, boshqasi uchun aholini ish bilan ta'minlash va ularni boqish masalasi muhimroq, uchinchi davlatga esa energiya va xom ashyoning aniq biror turi bilan ta'minlanish masalasi birlamchi ahamiyatga ega va hokazo.

Insoniyat tarixi dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turli muammolar uning oldida dolzarblilik kasb etishi mumkin, vaqt o'tishi bilan esa bir muammoning dolzarbligi o'z o'rnini boshqasiga, so'ngra uchinchisiga bo'shatib berishi mumkin. Tarix dalolat berishicha, qadimgi rimliklar Tibr suvlarining ifloslanganligidan qayg'urib, chora qidira boshlaganlar. Eramizdan oldingi birinchi yuz yillikda Lukretsiy «Narsalarning tabiati haqida» degan asarida erni bolani emizadigan, boqadigan onaga o'xshatadi. Sharqning mashhur mutafakkirlaridan biri Moxandis Gandi: "Er har bir kishining ochko'zligini emas, balki ehtiyojini qondiradi" deb aytgan. U er hosildorligining ham chegarasi borligi, unga rioya qilish zarurligini uqtiradi. «Avesto»da ham tabiat bilan inson o'rtasidagi muloqotda mutanosiblikka rioya qilish haqida ajoyib fikrlar aytiladi. Shu ma'noda turli ilmiy maktablarda olamshumul muammolar turlicha miqdorda talqin qilinadi. Masalan, G. Kan va J.Felpslar fikricha hozirgi paytda kamida 19 umumbashariy muammo mavjud bo'lib, ulardan 9 tasi asosiy hisoblanadi.

XX asrning 60-70 yillarida mazkur muammolarga insoniyat e'tiborini qaratgan olimlardan R. Xeylbroner, O. Toffler, P. va A. Erlixlar, J. Forrester, D. Medouzlar o'z ishlarida asosiy global muammolar sifatida planeta aholisi miqdorining ko'payib ketishi, resurslarning ozayishi va ekologik muammolarga e'tibor qaratgan bo'lsalar, V. Leontev, M. Mesarovich, E. Pestel va boshqalar global muammolar ko'pligini ta'kidlaganlari holda, asosiy xavfni rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy qoloqligida ko'rganlar. A. Pechchei, E. Laslo kabi sotsiologlar esa asosiy muammo sifatida insonning o'zgarib boruvchi tabiiy va ijtimoiy muhitga moslashuvi masalasini ko'rsatganlar.

Hozirgi paytda inson va jamiyatning tabiiy muhit bilan munosabatlari, shuningdek ijtimoiy munosabatlar sohasidagi muammolarni quyidagi belgilarga ko'ra olamshumul muammolar qatoriga kiritish rasm bo'lgan:

- a) ta'sir doirasiga ko'ra haqiqatan ham umumplaneta, umumjahon xarakteriga ega bo'lib, barcha xalqlar, davlatlar va davlatlar guruhlarining hammasi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lsa;
- b) echimi topilmagan taqdirda butun insoniyatning, umuman barcha sivilizatsiyalarning mavjudligiga halokatli ta'sir qilsa, eng kamida hayot kechirish va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining pasayishiga olib kelsa;
- v) kechiktirmasdan echimi topilishini talab qilsa;
- g) yechimi topilishi uchun barcha mamlakatlarning, barcha xalqlarning, butun jahon hamjamiyatining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qilsa.

Hozirgi vaqtda butun insoniyatni tashvishlantirib turgan jahonshumul muammolarga yuqoridagi asoslar bo'yicha nazar tashlansa asosan quyidagilar kiradi: a) insoniyatni urush xavfidan qutqarish; b) insoniyatning haddan ortiq ko'payib ketishi – demografik muammo; v) er yuzidagi ko'pgina mamlakatlar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi; g) insoniyatni xom ashyo va resurslar bilan ta'minlash muammosi; d) insoniyat jamiyati va uni qurshab turgan

tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarda vujudga kelgan ekologik muammo; e) dunyo okeani resurslaridan va kosmosdan foydalanish muammolari, j) terrorizm va ekstremizm xavfi muammolari va boshqalar.

I. Ekologik muammo. Insoniyat sivilizatsiyasi biosfera tabiiy-tarixiy rivojlanishining qonuniy natijasi bo'lib, uning hozirgi bosqichida planetamizdagi barqaror ekologik muvozanatni saqlab qolish, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, kelajak avlodlarga ozod va obod Vatanni qoldirish biz uchun taqdiri belgilovchi muammolar darajasiga ko'tarildi. Jahon sog'liqni saqlash xalqaro tashkilotining xulosalariga ko'ra, dolzarbligi jihatidan, tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish muammosi yadro urushi xavfini bartaraf etish bilan bir tartibda turadigan eng muhim vazifa, deb e'tirof etilmoqda. Chunki, «Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. Ya'ni, yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar xavfi hamon taxlikali xolatda saqlanib qolmoqda». Haqiqatdan ham, hozirgi kunda, bir tomondan, yadro qurollariga ega bo'lgan mamlakatlarning o'zaro kelishuvi asosida «sovuq urush» siyosati asta-sekin bartaraf etilib, planetar masshtabda, bu xavf-xatarning oldini olish imkoniyatlari reallashib borishi bilan, tabiatni muhofaza qilish muammosi oldingi o'ringa chiqmoqda.

Umuman olganda mazkur muammo yangi emas. Ammo u hozirgi paytdagi ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuvi bois yangicha ahamiyat kasb etgan. Agar u ilgari asosan tabiatning stixiyali kuchlari ta'sirining natijasida yuz bergan bo'lsa, hozir uning mohiyati kundan kunga kuchayib va kengayib borayotgan inson xo'jalik faoliyati bilan belgilab berilmoqda.

Tabiiy muhidagi eng asosiy komponent bo'lmish kislorodning ahamiyati beqiyosdir. Mutaxassislar fikricha kislodordning yarmidan ko'prog'i quruqlikdagi o'simliklar, qolgani esa suvdagi mikroorganizmlar va o'simliklar tomonidan ishlab chiqariladi. Keyingi 500 yilda inson faoliyati natijasida o'rmonlarning uchdan ikki qismi yo'qolib ketdi. Ularning 40 foizi so'nggi 100 yilda sodir etildi. Bu jarayon shu tarzda davom etadigan bo'lsa, 40-50 yildan keyin tropik o'rmonlar yo'qolib ketadi. O'rmonlar esa kislorod ishlab chiqaruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ularning qisqarishi munosabati bilan har yili kislorod miqdori ham mutanosib ravishda yiliga 10-12 mlrd. tonnaga kamayib bormoqda. Karbonat anhidrid miqdori esa o'rta asrlarga nisbatan 10-12 foizga ortdi. Kislorod umumiy miqdorining kamayishiga sanoat ishlab chiqarishi, avtomobil, havo transportidagi ichki yonish dvigatellarining ishlashi hisoblanadi. Bitta samolyotning Evropa va Amerika o'rtasida qatnovi natijasida ishlatadigan kislorod miqlorining 50-100 tonna ekanligini, uni ishlab chiqarish uchun 10 ming gektarlik o'rmon bir kun "ishlashini", o'rmonlarning esa tobora qisqarib borayotganini tasavvur qilsak, buning qanchalik muhimligini tushunamiz.

Biosferaning yana bir muhim tarkibiy qismi suv hisoblanadi va uning inson hayotidagi ahamiyati barchaga ayon. Er yuzida suv zahiralari ko'p bo'lishiga qaramasdan, ularning atigi 3 foizigina chuchuk suvlardir. Uning ham uchdan ikki qismi Arktika va Antaktidadagi muzliklar holida turibdi. Ba'zi hisob-kitoblarga

ko'ra 2100 yilga borib chuchuk suv zahiralari ishlatib bo'linadi, 2230 yilga borib planetaning suv zahiralari butunlay tugaydi.

Tabiatning ifloslanishi shu darajaga etdiki, daryolar, dengizlar, okeanlar, havo basseyni kabi tabiiy tozalovchilar ularni tozalab bera olmay qolmoqdalar. BMT ma'lumotlariga ko'ra 1970 yilda sanoatning tabiiy muhitni ifloslantiruvchi chiqindilarining umumiy hajmi 40 mlrd. tonna bo'lgan bo'lsa, XX asr nihoyasida u 104-105 mlrd. tonnaga etdi. Insoniyatning salbiy xo'jalik faoliyati tufayli hozir qayta sho'rlangan va botqoqlikka aylangan, qayta qum bosgan, karerlardan chiqqan jinslar qoplab yotgan erlarning umumiy maydoni 4,5 mln. kv. km.ga etgan. Bu quruqlik umumiy maydonining 3 foizini tashkil etadi. Hozir Er yuzidagi maydonlarning 30 mln. kv. km. cho'lga aylangan bo'lib, ular quruqlik umumiy maydonining 20 foizi demakdir.

Ilgari paytlarda muhitning ifloslanishi lokal xarakterda edi. Hozirgi paytda esa xavfli chiqitlar paydo bo'lgan mamlakatdan juda uzoqda bo'lgan mamlakatlar aholisi ham uning ta'sirini boshidan kechirmoqdalar, ya'ni muhit ifloslanishi chegara bilmaydi. Ifloslanishning global xarakter kasb etishi bilan birga ular oqibatlarining ekosferaga – Er yuzida hayot mavjudligini ta'minlayotgan tabiiy jarayonlar tizimiga – ta'siri xarakteri ham o'zgarmoqda. Agarda shoshilinch choralar ko'rilmasa, ushbu oqibatlar iqlim, atmosfera havosining sifati, Er yuzidagi suv balansiga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Hozirning o'zidayoq planetadagi yashil o'simliklar bilan qoplangan maydonlarning sezilarli darajada kamayganligi qayd etilmoqda. Bu juda katta maydonlardagi erlarning eroziya ta'siriga tushganligida, ko'plab mamlakatlarda saholarning kengayib unumdor erlarga bostirib kirishida ko'rinmoqda. Inson bilan tabiat muloqoti paytida inson o'z extiyojini o'ylab, faqat ehtiyojinigina emas, balki ochko'zligini ham o'ylab, tabiatning o'ziga xos biologik ehtiyojlari borligini unutib qo'ygani tufayli mazkur inqirozlar ro'y bera boshladi.

Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojlarning uzluksiz o'sib borishi, tabiatga "antropotexnogen bosimni" oshirib yubordi, natijada biosfera ekologik muvozanatiga putur etmoqda. "Kelajak haqida bahs: Atrof muhit" to'plamining mualliflari fikricha, hozirgi kunga kelib, planetamizda har yili 100 mlrd. tonna foydali qazilmalar qazib olinmoqda, 800 mln. tonna turli metallar eritilmoqda, 60 mln. tonna sun'iy materiallar sintez qilinayotir. Qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan 500 mln. tonna mineral madaniy o'g'itlar, 3 mln. tonna turli pestitsidlar, zaharli moddalarning uchdan bir qismi suv xavzalarini, atmosfera havosini bulg'atmoqda. Umuman, jahonda sanoat va boshqa sohalarida ishlatilayotgan 500 mlrd. kubometr oqoqalar suv xavzalariga yo'naltirilib, ularning dunyo okeanlaridagi qattiq cho'kmalari miqdori har yili 14,4 mlrd. tonnani tashkil qilmoqda». Dunyoda energetika quvvatlarini ishlab chiqarish har 12 yilda, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish — 15 yilda 2 baravarga oshib borishi bilan XXI asrning dastlabki o'n yilligidayoq tabiatga "industrial bosim"ning 2,5 - 3 marta oshishi kutilmoqda.

Turli yoqilg'ilarni ishlatish oqibatida atmosfera havosi yiliga 20 mlrd. tonnadan ko'proq uglerod ikki oksidi va 700 mln. tonnadan oshiqroq ishlab chiqarishning bug', gaz, chang chiqindilari, asosan uglerod oksidining, "parnik effekti" natijasida, keyingi 60-70 yilda planeta iqlimining o'zgarishi, muzliklar va

aysberglarni eritib, dunyo okeanlari suv satxini yiliga 1,5 mm. ko'tarib, massasini 520-540 kubkilometrغا oshirmoqda. Agar ahvol shu tarzda davom etadigan bo'lsa, mutaxassislarning xulosalariga ko'ra, kelajakda okean satxi 68 metrغا ko'tarilib, suv bosish xavfi bo'lgan joylarda qariyb 1 mlrd. kishini "ekologik ko'chishlarga" giriftor qilishi mumkin. Erdan ekologik muvozanat qonunlariga amal qilmasdan pala-partish foydalanish oqibatida, keyingi 100 yil davomida planetamizning 27 foiz er maydoni madaniy dehqonchilik uchun yaroqsiz holga kelgan. Chunki, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan unumdor tuproq qatlamining yuvilib ketishi yoki shamol eroziyasi tufayli ko'chishi, har gektar hisobiga, o'rtacha 730 kilogrammni, haydalib dehqonchilik qilinadigan erlarda esa, 2 tonnani tashkil qiladi. Vaholanki, 1 sm gumusli tuproq qatlamining yo'qotilishi hosildorlikni 1 sentnerga kamaytiradi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, bu hodisaning oldini olish bilan 30 mln. kishini yil davomida boqish uchun etadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish mumkin. Jahonda antropogen cho'llarning paydo bo'lish jarayoni kuchaymokka. Planetamizdagi har yili 50 ming kvadrat kilometr erning cho'llarga aylanish xodisasi shu darajada davom etsa, XXI asrda 600-700 mln. kishining (er shari aholisining ettitasidan birining) hayoti xavf ostida qolish ehtimolligi mavjud. hozirgi kunda er yuzidagi 1 mlrd. kishining surunkali ochlikka maxkum etilganligini, ularning oziq-ovqat ratsioniga 230 mlrd. kaloriya (37 mln. tonna g'alla) etishmasligini hisobga oladigan bo'lsak, erlarning ekologik vaziyati yomonlashib borayotganligining iqtisodiy, siyosiy oqibatlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ekologik barqaror taraqqiyotni ta'minlash vazifasi - insoniyat hayot darajasini oqilona tashkil qilishning shart-sharoitini yaratishi bilan - muhim amaliy ahamiyatga molik masaladir.

Ekologik xato ekologik inqiroz tomon qo'yilgan birinchi qadamdir. Ekologik xatoliklar, tangliklar, inqirozlar asosida tabiiy-ekologik qonunlarni buzish, ularni bilmaslik, biosferaning imkoniyat chegaralari bilan hisoblashmaslik yotadi. Ekologik inqiroz deganda, faqat-atrof muhitning ifloslanishi, turlarning kamayib ketishigina tushunilmaydi. Ekologik inqiroz deganda, ekoqomponentlar orasidagi tabiiy bog'lanishlarning buzilishi, er usti va er osti boyliklari, tabiat zahiralarning kamayib borishi, ekosistemalarning biologik mahsuldorligini pasayishi, iqlimning o'zgarishi, suv, havo, tuproq sifatlarining salbiy tomonga o'zgarib ketishi va texnikaning ekologik asoslanmaganligi tufayli yuzaga kelgan ekologik tahdidlar tushuniladi. «Ekologik inqirozning oldini olish, - deb yozadi nemis ekologi B.Grijimek, - unga qarshi kurashdan ko'ra doimo bir necha chandon arzonroqdir». Masalan, paxta yakkahokimligidan O'zbekistonda olingan daromad (1960-1987yillar), Orol dengizi va uning atrofidagi ekologik inqirozni tugatishga ketadigan sarf-xarajatdan ko'ra 7-10 baravar kamdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfغا duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish - o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir... Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan

chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosobatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlariga olib keladi», deb ko'rsatgan edi.

O'zbekistonning dastlab chor Rossiyasi, keyinchalik «qizil imperiya» mustamlakasi bo'lib qolishi mintaqadagi ekologik vaziyatning keskinlashishida muhim siyosiy omil bo'ldi. Xususan, mustamlakachilik, totalitarizm, sub'ektivizm, volyuntarizm, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan markazlashgan davlat siyosatiga ko'ra, respublikamizni qishloq xo'jaligi, asosan texnika ekinlari xom ashyo bazasiga aylantirilishi - ekologik ziddiyatlarining kuchayishiga olib keldi.

O'zbekistonda qishloq, xo'jaligini rivojlantirish uchun tabiatni ekspluatatsiya qilish tadbirlari "kapitalizm bosqichini chetlab o'tgan", "qoloq" o'lkalami ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy rivojlantirish uchun ko'rsatilgan g'amxo'rlik namunasi", deb baholandi. Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishguncha bo'lgan davrning keyingi 10-15 yil ichida sug'orib dehqonchilik qilinadigan yangi er maydonlarining intensiv o'zlashtirilishi "ekologik qashshoqlik" darajasini g'oyat oshirib yubordi.

1975-1990 yillar mobaynida respublika dehqonchiligida foydalanilgan er fondi 1,4 martaga o'sdi, lekin har 100 gektar erdan olinadigan yalpi mahsulot hajmi, ya'ni mehnat unumdorligi 1975 yil darajasida qolib ketgani xolda, aholi jon boshiga hisoblaganda 1990 yilda 1980 yilga nisbatan 14,8 foizga qisqarib, 632 so'mdan 542 so'mga tushib ketdi».

Iqtisodiy ehtiyojlar va manfaatlarining mutlaqlashtirilishi, tabiatni ekspluatatsiya qilish, ekologik beqaror vaziyatni vujudga keltirdi. O'zbekiston hududida 1,0 mln. gektar er maydonining sho'rlanish jarayoni kuchaydi. Qorakalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Sirdaryo viloyatlarida 90-95, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida 60-70 foiz er maydoni kuchli sho'rlanish darajasiga etdi. Respublikaning agrar sohasida xo'jalik yuritishidagi "paxta yakka xokimligi" 1986 yilga kelib, sug'orib dehqonchilik qilinadigan erning 73,4 foizini tashkil qildi. (Jahon ilmiy jamoatchiligi, etakchi mutaxassislar xulosalariga, tajribalariga ko'ra, bu ko'rsatkich 50,0 foizdan oshsa, er qashshoqlanib, hosildorlikkeskin kamayishi, keyinchalik esa, uning madaniy dehqonchilik uchun yaroqsiz holga kelishi isbotlangan). Natijada, O'zbekistonda erlarning gumus miqdori 0,4-1,0 foizga tushib qoldi.

O'zbekistonda sug'oriladigan er maydonlarining kengaytirilishi, muqarrar ravishda, biosfera muvozanatida suv resurslari balansidagi o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. hozirgi kunda respublika xalq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish ehtiyoji 61-65 kubkilometrni tashkil qiladi. Shundan 85 foizi — qishloq xo'jaligida, 12 foizi — sanoatda, 3 foizi — kommunal xo'jalikda foydalanishga sarflanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Orol dengizi suv zahiralarning keskin kamayishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik ziddiyatlarni kuchaytirib, orolbo'yi xududida barqaror taraqqiyotni izdan chiqarmoqda.

1932-1960 yillarda Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga taxminan 50 kub km. suv oqib kelardi. Keyinchalik daryolar suvining kamayishi oqibatida Orol dengizida suv hajmi keskin pasaya boshladi, ya'ni Orol dengiziga etib kelayotgan suv miqdori 1970 yilda 35,2 km. kub, 1980 yilda 10 km. kub, 1983 yilda 3,25 km.

kubni tashkil qilgan bo'lsa, 1986 yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryo suvlari dengizga deyarli etib kelmayapti.

Dengizning umumiy hajmi 65%ga kamaydi. Suvning sho'rliigi 3 marta ortdi, uning qurigan maydoni 26 ming kv. km. hududni egallagan bo'lib, chang va tuz manbai hisoblanadi. Undan shamol bilan yiliga 70 mln. tonna tuz va chang havoga ko'tariladi. Umuman olganda, Orol dengizining tubi tuz yig'iladigan yirik manba bo'lib, tabiiy atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, dengiz va uning atrofida jonli mavjudotlar halok bo'lmoqda, iqlim sharoitlari 100-150 km radiusda keskin o'zgarimoqda. Xorijiy ekologik xaritalarda bu hudud «o'lim uchburchagi» yoki «Tinch Chernobil» deb atalmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimi vakillarining ma'lumotlariga ko'ra, og'ir ekologik vaziyat ota-onalar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida 89% bolalar turli irsiy kasalliklar bilan tug'ilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy va ekologik omillar o'zaro bog'lanib, bolalar sog'ligiga, hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. 14 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida yuqumli kasalliklar bilan kasal bo'lish ancha yuqori bo'lib, 30% holatlarda, ularning o'limiga olib kelmoqda.

Oxirgi 20 yil davomida bu hududda aholining o'lim darajasi 2 martaga ko'paydi. Qozog'istonning Orol shahrida, har yili tug'ilgan 1000 boladan bir yoshgacha 100 tasi nobud bo'lyapti. Bu ko'rsatkich Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumanida 110 bolaga to'g'ri kelmoqda. Taxminan 90% bolalarning organizmida zararli tuzlarning ko'p miqdorda to'planganligi aniqlangan.

Atrof muhitning ifloslanishi boshqa ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik omillar bilan mushtaraklashib, inson salomatligiga, hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida, respublika aholisining o'rtacha yashash davri 69,3 yilni tashkil qilmoqda. Ekologik vaziyati og'ir hududlarda o'pka sili, oshqozon-ichak raki, qon aylanish sistemasi, nafas yo'llari, buyrak va boshqa "ekologik kasalliklarning" ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasiga ega. Umuman, olimlarning xulosalariga ko'ra, respublika aholisining 20 foizdan ortiqroq kasallanishi bevosita ekologik vaziyatning yomonlashuvi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida tabiiy atrof muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha keskin choralar qabul qilindi. Yangi erlarni keng miqyosda o'zlashtirish to'xtatildi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibiy tizimi ijtimoiy va ekologik talablar asosida o'zgartirildi. Atrof muhitni qo'riqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha 2050 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, «O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni tozaligi bo'yicha ishlar Milliy rejasini», «Tabiiy xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha Milliy strategiya rejasini» ishlab chiqilmoqda. Bularda atrof muhitni qo'riqlash davlat siyosatining maqsadlari ko'rsatib o'tilgan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, kishilar yashashi uchun qulay tabiiy sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan strategiyasining asosiy tamoyil va yo'nalishlari belgilangan. Ekologik muammoning turli yo'nalishlari bo'yicha xalqaro hamjamiyat va xalqaro tashkilotlar bilan ham samarali hamkorlik ishlari olib borilmoqda.

2. Resurslar muammosi. Insoniyat o'z tarixi davomida o'zining turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarishni tashkil etish va

rivojlantirishga, uni doimo tabiiy resurslar bilan ta'minlashga harakat qilib kelgan. Hozirgi paytda insoniyatning ishlab chiqarish taraqqiyoti juda katta tezlik bilan bormoqda. XX asrning 75 yili mobaynida dunyoda sanoat ishlab chiqarishi 16 marta, energiyani iste'mol qilish 11 marta, neft iste'mol qilish esa 100 martadan ortiq, po'lat ishlab chiqarish 25 marta, alyuminiy ishlab chiqarish 2000 martadan ortiqqa oshdi. Ko'rinib turibdiki, bu holat oshsa-oshadiki, kamaymaydi. Ana shunday holatda insoniyat o'ziga zarur bo'lgan tabiiy resurslarni topa oladimi, ular tugab qolmaydimi, degan savollar tug'iladi.

So'nggi paytlarda insoniyatning mineral xom ashyo va energiya bilan ta'minlanish muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Foydali qazilmalar, jumladan an'anaviy energiya manbalari tezlik bilan qimmatlashmoqda, ulardan ba'zilar esa tugab qolish mumkinligi xavfi paydo bo'lmoqda. Foydali qazilmalar, yoki minerallar tabiatning tiklanmaydigan resurslari qatoriga kiradi, ya'ni ularning hosil bo'lish tezligi ulardan foydalanish tezligiga nisbatan juda pastdir. Ularning bir marta foydalaniladigan (masalan, uglevodorodlar) va ko'p marta foydalaniladigan (masalan, metallar) turlari mavjud. Ishlab chiqarishning taraqqiyoti, xom ashyolardan foydalanishning tezlashuvi bois ularning kamayishi ham tezlashmoqda. Masalan, yaqin-yaqinlargacha neftni global darajada yangilanuvchi resurs hisoblash mumkin edi, chunki u XIX asrning o'rtalarigacha, ya'ni neft mahsulotlaridan sanoat, energetika, transport va maishiy sohalarda foydalanish ommaviy foydalanish tezlashguncha tiklanuvchi tabiat resursi sanalardi. Hozir esa uning tabiiy hosil bo'lish jarayoni uning qazib olinishidan ancha orqaga qolib ketdi, demak u tiklanmaydigan resurslar qatoriga kirdi. Turli metallar borasida ham shu fikrni aytish mumkin. Er yuzi miqyosida tabiiy resurslarning tugab qolish xavfi prinsipial jihatdan hozircha yo'q. Lekin masala ularning qaerda, qancha miqdorda joylashganligida, ularning qazib olinishi va foydalanish uchun texnologik jarayonlarning qanchalik takomiliga etganligi, ularni qayta ishlashning maqsadga muvofiqligi, bu qayta ishlashning iqtisodiy jihatdan o'z-o'zini oqlashi darajasi kabi masalalarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Demak, hozirgi paytda energiya va xom ashyoning absolyut tugashi xavfi yo'q. Ammo bu holat er yuzining u yoki bu hududida, muayyan mamlakatlarda u yoki bu xom ashyoga, u yoki bu turdagi energiyaga ishlab chiqarishdan kelib chiquvchi ehtiyojlarni qondirish masalasida muammolar bo'lmaydi, deyishga asos bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida dunyo iqtisodiyoti, siyosati, texnik jarayonlar va texnologiyalar, ilm-fanlar oldiga ko'plab murakkab muammolarni qo'yadi. Hozirgi paytda AQSh, Buyuk Britaniya, Yaqin Sharq davlatlari, Iroq va boshqa mamlakatlar tortilgan murakkab jarayonlar mantig'i ham ana shundan dalolat bermoqda.

Energiya va xom ashyo muammosining keskinlashuviga mineral resurslar va ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashtirilishi qanday ekanligi ham ta'sir ko'rsatadi. Odatda xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi va xalqaro xo'jalik aloqalarining jipslashuvi u yoki bu mamlakatni o'z tabiiy resurslariga bog'lanib qolishdan ozod qiladi. Ayni holda moddiy resurslardan foydalanishda tashqi iqtisodiy munosabatlarning – savdo, investitsiya, ilmiy-texnik, valyuta-moliyaviy va shu kabilarning ahamiyati keskin oshadi. Bu esa davlatlarning dunyo xo'jalik

aloqalarida tobora ixtisoslashib borayotganidan, ularning o'zaro aloqalari kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Hozirgi paytda bu sohada ilgari bo'lganidek, sotsialistik va kapitalistik mamlakatlar orasida sun'iy o'rnatilgan to'siqlarning olib tashlanayotgani ham ijobiy ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada mazkur muammoning keskinligini hozirgi paytda tabiiy resurslar o'rnini bosuvchi sun'iy materiallardan foydalanish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, muqobil energetika manbalaridan foydalanishga o'tish kabilar ancha yumshatishi mumkin. Bular esa jamiyatdagi boshqa muammolar echimi bilan uzviy bog'lanib ketgan.

3. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi. Insoniyatni tabiiy resurslar bilan ta'minlash va tabiiy muhitni saqlash muammolari bilan bir qatorda juda boy, afsuski haligacha imkoniyatlaridan juda oz darajada foydalanilayotgan Dunyo okeani bilan bog'liq muammolar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat tarixida "Okean bosqichi" buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlanadi. Hozirgi kunda okean muhitining nafaqat kishilar va yuklarni bir joydan boshqa joyga tashishdagi transport ahamiyati, balki biologik, geologik, oziq-ovqat, energetik ahamiyati ham beqiyosligi tobora to'liqroq tushunilmoqda. Shu bilan birga okean nafaqat neft, tabiiy gaz kabi mineral xom ashyolarning, balki ko'plab ximiyaviy moddalar, qora va rangli metallarning bitmas-tuganmas manbaidir.

Bu erda shunga e'tibor qaratish kerakki, yuqoridagilar bilan bir qatorda okean ayni holda tobora ifloslanib borishi bilan tozaligini saqlashga ham muhtojdir. Shu ma'noda okean boyliklaridan foydalanish, ularni insoniyat manfaatlarini qondirishga yo'naltirishni yo'lga qo'yish, ayni holda uning ob-havo va muhitni boshqaruvchi asosiy manba sifatida, xalqaro xo'jalik munosabatlarining muhim elementi va kelajakdagi asosiy "oziq-ovqat ombori" sifatidagi o'ziga xosligini saqlab qolish va uning ifloslanishiga qarshi kurashish – bularning barchasi mazkur masalalar haqiqatan ham uninumumbashariy muammo sifatida e'tirof etishimizga imkon beradi.

Dunyo okeani foydali qazilmalar, biologik resurslar, energiya manbalari, farmatsevtika va ximiyaviy sanoat uchun xom ashyolarning bitmas-tuganmas manbaidir. Bu fikr shuning uchun keltirildiki, hozirgi paytda haddan ortiq tezlik bilan yuz berayotgan industrial taraqqiyot natijasida quruqlikdagi ana shunday manbalarning kamayib ketishi xavfi okeandagi shu kabi manbalardan foydalanish imkoniyatlarining ochilishi bilan bartaraf etilsa ajab emas. Buning isboti sifatida quyidagilarga e'tiboringizni qaratamiz. Okean bag'ridagi neft va gaz zahiralari haqidagi bilimlarimiz kundan kunga oshib bormoqda. Masalan, XX asrning 40-50 yillarida ular 55 mlrd. tonna deb hisoblangan bo'lsa, 1966 yilda 207 mlrd. tonna, 1975 yilda 400 mlrd. tonnaligi aniqlangan. 1954 yilda dengizlar tubidan suyuq va gaz holidayi 0,8 mln. tonna uglevodorodlar olingan bo'lsa (bu dunyo bo'yicha umumiy olingan miqdorning 0,12 foizi), 1977 yilga kelib bu ko'rsatgich 556,7 mln. tonnaga etgan (ya'ni, dunyo bo'yicha umumiy olingan miqdorning 23,4 foizi). Sirkoniy, magnetit, oltin, platina, olmos kabilarning Dunyo okeanidagi zahiralari miqdori mutaxassislar tomonidan ularning quruqlikdagi zahiralari bilan barobar deb hisoblanmoqda. Qurilish materiallari (masalan, qum, tosh va rakushkalar) manbalari bo'yicha esa okean bitmas-tuganmasdir. Bu ro'yxatni

ancha davom ettirish mumkin. Bunga okean suvida erigan holda mavjud bo'lgan minerallar zahirasini ham qo'shish mumkin (shu jumladan, 4-5 mlrd. tonna uran, 170-200 mlrd. tonna litiy va boshqalar). Hisob kitoblarga ko'ra uning har bir kub kilometrida 37,5 mln. tonna minerallar mavjud.

Okeandagi ko'tarilish-pasayish to'lqinlari, oqimlar katta energetik ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, faqatgina La-Manshning pasayish-ko'tarilish to'lqinlari energiyasi butun Evropaning energiyaga bo'lgan ehtiyojlar "cho'qqisida"gi talablarini qondirishga qodir.

Dunyo okeani planetada yaratiladigan yillik biomassaning 43 foizini beradi. Insoniyat an'anaviy ravishda dengizda yaratiluvchi biologik ishlab chiqarishning so'nggi zvenosini (ya'ni, umuman "nekton" nomi ostida ifodalanuvchi baliqlar, sut emizuvchilarni) iste'mol qiladi, xolos. Dunyo okeanining bir yilda nekton organizmlarini "ishlab chiqarish" imkoniyati 200 mln. tonnaga teng. XX asr boshida ana shuladan 7 mln. tonnasi ovlangan bo'lsa, asrning 70 yillariga kelib bu ko'rsatgich 73,5 mln. tonnaga etdi. Okean tom ma'noda hayot manbaidir. Uni adolatli ravishda Er yuzidagi ob-havoning "oshxonasi" hisoblashadi. Undagi fitoplankton barcha tirik organizmlar iste'mol qilayotgan kislorodning 50-70 foizini yaratadi.

Albatta, ana shularning barchasidan adolatli foydalanishga er yuzidagi hamma mamlakatlar birday qodir emas. Bu borada dengiz va okeanlar bilan chegaradosh mamlakatlarning katta imkoniyatlari mavjud. Ammo ularning barchasi ham murakkab dengiz texnikasi va texnologiyalariga, zaruriy moliyaviy mablag'larga, etuk kadrlarga ega emas. Bunga ko'plab dengizbo'yi mamlakatlarining dengizlarning ular hududiga birlashgan joylari ustidan suvereniteti o'rnatish, kontinental shelflardan foydalanishni nazorat qilish kabi masalalarning mavjudligi ham qo'shilmoqda. Bularning barchasi Okean va dengizlardan foydalanish masalasi jigal muammolardan biri ekanligini ko'rsatadi.

4. Oziq-ovqat muammosi. Er yuzi aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosining echimi ham juda qiyin kechadi, bu ayniqsa aholi sonining muttasil ko'payib borishi bilan yanada murakkablashishi mumkin. XXI asrning dastlabki uch yilining nihoyasiga kelib dunyo aholisi 6,2 mlrd. kishiga etdi. Bu albatta insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini yanada oshiradi. BMTning Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti (FAO)ning "Qishloq xo'jaligi 2000 yilda" dokladiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj defitsiti qiymati 1975 yilgi 4 mlrd. dollardan 25 mlrd. dollarga ko'tarilishi kutilmoqda. Bu o'sha paytda ochlikdan azob chekayotgan 500 mln. b'lgan kishilarning XXI asr boshiga kelib 800 mln. kishiga etishini bildiradi (uning 500 mln. dan ortig'i rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga to'g'rikeladi). XX asrning 70-yillarida rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi ocharchilik balosiga giriftor bo'ldilar. 1972 yilda 49 mamlakatda, 1974 yilda 46 mamlakatda qurg'oqchilik yuz berib, millionlab kishilarning yostig'ini quritdi. Ocharchilik kishilar mehnat qobiliyatining jismoniy tomondan qoniqarli emasligi, og'ir kasalliklar, axloqiy tubanlashuv va psixik kasalliklarning eng asosiy sabablaridan biridir.

Ko'pincha oziq-ovqat muammosining keskinligi rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga to'g'rikelishi aytiladi. Bu narsa ushbu mamlakatlardagi

umumiy rivojlanish, texnologik, moliyaviy, qishloq xo'jaligi, ma'naviy-ma'rifiy va shu kabilarning past darajasi bilan izohlanadi. Ammo, shunga qaramay, mazkur mamlakatlarda etishtirilgan hosilning ko'paytirilishi, uning saqlanishi tizimi etarli emasligiga e'tibor qaratish kerak. Masalan, BMTning Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti (FAO) mutaxasislari fikricha rivojlanayotgan mamlakatlarda etishtirilayotgan don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmining 20-40 foizi saqlash, tashish va sotish jarayonida yo'qolar ekan. Mazkur tashkilot vakillarining fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlar ko'pincha faqat tashqi insonparvarlik yordamiga ko'z tikishga moyildirlar. Lekin bu masalaning echimi emas, chunki tashqi yordam qanchalik bo'lganda ham muammoni echib berishga qodir emas. Har bir mamlakat uni o'z kuchi va ichki imkoniyatlari hisobiga echishi kerak.

Shu ma'noda keyingi paytda qo'shilmaslik harakati mamlakatlarining tashabbusini tabriklash kerak. Ularning bir necha konferensiyalarida milliy, mintaqaviy oziq-ovqat dasturlari ishlab chiqildiki, ularda aholini ish bilan ta'minlash, ersizlarga ishlov berish uchun er ajratish, kichik va o'rta dehqonlar manfaatlarini himoya qiluvchi choralarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Albatta mazkur dasturlarda chetdan olinuvchi yordamga o'rin ajratilgan bo'lsa-da, asosiy e'tibor qishloq xo'jaligini tez yuksaltirishga qobil rayonlarni aniqlash, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini yaratish (ko'pincha chet el yordamida) va ulardan foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiluvchi davlatlar bilan qishloq xo'jalik va irrigatsiya sohasida qo'shma korxonalar tuzish, bu sohaga zarur bo'lgan kimyoviy o'g'itlar va qishloq xo'jalik texnikasi ishlab chiqarish va sotish orqali ularning bahosini pasaytirish, sahralar kengayishining oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish, bu yo'nalishdagi ilg'or bilimlarni egallash va ularni o'zaro ayirboshlash, turli ekinlardan yuqori hosil etishtirish, ularni yig'ib olish, tashish va saqlash bo'yicha ilg'or texnologiyalarni egallash bo'yicha xalqaro hamkorlik qilish va shu kabilarga qaratilishi kerak. Mazkur yo'nalishlarning ko'pchiligi hozirgi paytda mustaqillikka erishgan MDH davlatlarida ancha muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Bizning mamlakatimizda ham bu borada qator rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, XX asrning 80-90 yillaridan boshlab qudratli rivojlangan davlatlarning oziq-ovqat masalasiga e'tiborida ancha o'zgarishlar yuz berdi. Bu mamlakatlarda ozodlikka erishgan davlatlarning "asosiy ehtiyojlari" konsepsiyasi keng tarqaldi. Bu qiyin intensiv xarakterdagi sanoat tarmoqlarini mazkur mamlakatlarga joylashtirish orqali ularning sanoatini rivojlantirish, ayni paytda ularni o'z ishlab chiqarish tizimiga bo'ysundirib olishga intilishdan ham dalolat beradi. Bu yangi strategiya qudratli rivojlangan davlatlarning rivojlanayotgan mamlakatlardagi oziq-ovqat, agrar sohalaridagi muammolarni echishga hissa qo'shish orqali ulardagi keskin ijtimoiy va siyosiy vaziyatga ta'sir qiluvchi sabablarni echishga qaror qilganini, ayni holda ularni o'z ta'siriga olishga intilayotganini bildiradi. Buni G'arb davlatlarining etakchi iqtisodchilari

rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirishni taklif etayotgan agrar, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalaridagi islohotlar mazmunida kuzatish mumkin.

Oziq-ovqat muammosi – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jihatlariga ega bo'lgan keng qamrovli murakkab muammodir. U yoki bu mamlakatning oziq-ovqat bilan ta'minlanishi ko'p jihatdan tabiiy omillarga, qishloq xo'jaligining ob-havo va iqlim sharoitlariga bog'liq. Qurg'oqchilik, suv toshqinlari, epidemiya va chorvaning kasallanishi hodisalari nafaqat rivojlanayotgan, balki qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarning ahvoriga ham katta ta'sir qiluvchi faktorlardir. Bular bilan bir qatorda oziq-ovqat muammosiga iqtisodiy, siyosiy sabablar ham belgilovchi ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida tilga olingan va tilga olinmagan umumbashariy ahamiyatga molik muammolar vujudga kelishining sababchisi eng avvalo insonning o'zidir, Konkret inson emas, Er yuzida yashagan va yashayotgan kishilarning barchasidir. Unda kimlarningdir roli nihoyatda kam bo'lsa, kimlarningdir, ayniqsa boshqarish va muayyan qarorlar qabul qilish imkoniyati bor kishilarning roli ancha-muncha kattadir. Ana shunday kishilarda eng avvalo qabul qilinajak qarorlarining ijtimoiy oqibatlari, ularning kelajakka ta'siri haqida etarli axborot bo'lganda edi (ehtimol, ularda ana shunday axborotlar bo'lgandir ham) ular o'zlarining oyoqlariga urilishi mumkin bo'lgan boltani ko'tarmagan bo'lardilar. Shu ma'nodo XX asrda ana shunday umumbashariy muammolar echimini topish, ularni bir qadar yumshatish yo'llarini qidirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni tashkil etishni maqsad qilib qo'ygan, ammo bir paytlar sotsialistik mamlakatlar olimlari tomonidan tanqid qilingan "Rim klubi"ning tashkilotchisi Aurelio Pechcheining inson haqida aytgan quyidagi fikrlari bilan so'zimizni tugatamiz. "Biz sportchilar, kosmonavtlar va astronautlarning ba'zi xususiyatlarini mukammallashtirishga, mashinalarni, jihozlarni, materiallarni, tovuq, cho'chqalar zotini, makkajuxori sortini yaxshilashga erishdik, mehnatning samaradorligini oshirdik, insonning tez o'qish imkoniyatlarini kuchaytirdik, kompyuterlar bilan muloqotga kirishni o'rgandik. Ammo biz hech qachon o'zimizning dunyodagi yangi holatimizni his qilish, o'zimiz ega bo'lgan kuchning qanchalik qudratli ekanini anglash, umumbashariy mas'uliyat hissini va o'z hatti-harakatimiz oqibatlarini baholash qobiliyatimizni rivojlantirish uchun hech narsa qilmadik... Oldimizda inson sifatlarini yaxshilashning ochilmagan cheksiz imkoniyatlari mavjud".

2. Xalqaro terrorizm va diniv ekstremizm – xalqlarning tinchligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi jahonshumul muammo sifatida

Tinchlik-totuvlik, barqarorlik barcha zamonlarda dolzarb ahamiyat kasb etgan. Chunki osoyishtalik, tinchlik barqaror bo'lgan joydagina bunyodkorlik va taraqqiyot yuzaga keladi. Odamlar ko'nglidagi xotirjamlik, ro'zg'ordagi qut-baraka, jamiyat hayotidagi barqarorlik ham ana shu omilga ko'p jihatdan bog'liq. Shu bois tinchlik uchun butun tarix davomida muttasil kurash olib borilgan. Ko'rinib turibdiki, tinchlik hamma vaqt himoyaga muhtoj bo'lgan. Chunki tinchlik va barqarorlikka turli-tuman tahdidlar xavf solgan. Bugungi kun ham bunday tahdidlardan xoli emas. Bu tahdidlarning eng xavflilaridan biri terrorizm balosidir.

Terrorizm begunoh odamlarni qurbon qilish evaziga jamiyatda beqarorlikni yuzaga keltirish, fuqarolar qalbida qoʻrquv va vahima oʻygʻotish, davlatlararo munosabatlarni murakkablashtirish, xalqaro va mintaqaviy darajadagi xavfsizlik tizimlariga putur etkazish, xalqaro hamjamiyatning tinchligiga ziyon etkazishni koʻzlovchi jirkanch qilmish va ayni holda xalqaro jinoyat sanaladi.

Terrorizm ijtimoiy hodisa sifatida paydo boʻlish davriga ega. U XVIII-XIX asrlardagi alohida terrorchilardan iborat kichik guruhlar qiyofasidan XX asr oxiri-XXI asr boshlarida butun insoniyatga tahdid soluvchi qudratli uyushgan kuchga aylandi. Uning koʻrinishlari turli-tuman boʻlishi mumkin. Jumladan, hozirgi paytda shartli ravishda u a) jangari terrorchilik, b) milliy terrorchilik, v) ijtimoiy-siyosiy terrorchilik, g) xalqaro terrorchilikka ajratilmoqda. Jangari terrorchilikning tayanchi yaxshi qurollangan jangari toʻdalar, guruhlar va tuzilmalardir. Ijtimoiy-siyosiy terrorchilik ichki ijtimoiy-siyosiy nizolar asosida shakllanib oʻng va soʻl terrorchilik shaklida namoyon boʻladi. Bularga misol tariqasida Buyuk fransuz inqilobi davrida (1789-1794 yillar) siyosiy muxoliflar oʻrtasida terror amalga oshirilganini, Rossiyadagi fuqarolar urushi davrida (1918-1920 yillar) "oq" va "qizil" terrorlar boʻlganini eslash kifoya.

Milliy terrorchilik etnik belgilarga asosiy eʼtiborni qaratishi bilan ajralib turadi va kam sonli milliy guruhlariga tazyiq oʻtkazishga qaratilgan boʻladi. Koʻpincha ana shuning natijasida kam sonli etnik guruh ham javob tariqasida oʻz terroristik guruhlarini tuzadi.

Xalqaro terrorchilik esa diniy, madaniy, geografik va davlat chegaralarini bilmaydi. U hozir narkobiznes bilan oʻzaro chirmashib borayotir hamda yirik moliyaviy va boshqa imkoniyatlarga ega boʻlgan xalqaro markazlar tomonidan eng zamonaviy vositalar va qurollar bilan taʼminlanib, yoʻnaltirilmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda 500 dan ortiq terroristik tashkilotlar va ekstremistik yoʻnalishdagi guruhlar mavjud boʻlib, ularning aksariyati narkobiznes bilan bevosita yoki bilvosita bogʻliqdir. Oxirgi oʻn yil davomida ular tomonidan dunyoda 6 mingdan ziyod terrorchilik akti amalga oshirilishi natijasida 25 mingga yaqin odam halok boʻldi.

Terrorchilik qanday shaklda va koʻrinishda boʻlmasin uning mazmun va mohiyati bevosita zoʻravonlik, inson hayotiga tahdid bilan bogʻliq boʻlib oʻzidan mudhish asorat qoldiradi. Eng dahshatlisi shundaki, bu harakat sodir etilganda qon toʻkiladi. Qurbonning kim boʻlishi terrorchini qiziqitirmaydi, unga qon toʻkilsa, odamlar yuragiga qoʻrquv, vahima solinsa bas.

Shu jihatdan olganda uning xalqaro xavfga aylangan shakllari mavzuning boshida taʼkidlaganimizdek, boshqa umuminsoniy muammolar kabi belgilarga ega boʻlgani uchun – u umumbashariy muammoga aylandi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri boʻlib qoldi. Negaki, XX asr va XXI asr boshida insoniyat terrorchilik faoliyatining misli koʻrilmagan jihatlar bilan toʻqnash keldi. Aksariyat hollarda diniy ekstremizm va fundamentalizm xalqaro terrorizmning niqobi boʻlsa, giyohvand moddalar, qurol-yarogʻ va odam savdosi uning moliyaviy manbasi hisoblanadi. Shu bois ekstremizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorizmga qarshi yalpi kurash olib borish zarur.

O'ri kelganda butun dunyoda terrorizmga qarshi keng qamrovli kurash olib borilayotganligini ta'kidlash joiz. Buning uchun eng avvalo xalqaro huquqiy poydevorlar yaratilganiga e'tibor berish kerak. BMT doirasida "Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilinishi terrorizm tusidagi jinoyatlarni davlatlar tomonidan milliy qonunchilikda tasniflash imkonini yaratdi. Bundan tashqari terrorizmning barcha ko'rinishlariga qarshi kurash olib borilishini ta'minlovchi xalqaro shartnomalar borligiga e'tibor qaratish zarur. "Havo kemalarini noqonuniy egallashga qarshi kurash to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi, "Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida"gi Monreal konvensiyasi, "Kishilarni garovga olishga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyalar shular qatoriga kiradi.

Shu o'rinda Xitoy, Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 2001 yil 15 iyundagi "Terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurash to'g'risida"gi Shanxay konvensiyasi mintaqamizda alohida ahamiyatga ega. Chunki bu hujjatda terrorizm, separatizm va ekstremizm xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishga, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishga tahdid solayotgani qayd etilgan. Bu hujjatda ekstremizm jinoyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: *"Ekstremizm - hokimiyatni kuch ishlatib egallash yoki hokimiyatni kuch ishlatib ushlab turish, shuningdek, davlatdagi konstitutsiyaviy tuzumni kuch ishlatib o'zgartirish, shunga o'xshab jamoat xavfsizligiga kuch ishlatib tajovuz qilish, shu jumladan, yuqorida qayd etilgan maqsadlar uchun qurolli uyushma tashkil etish va ularda ishtirok etishga qaratilgan milliy qonun bilan tegishlicha jinoyat deb belgilangan har qanday qilmish tushuniladi"*.

Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm xavfini istiqloqlning ilk yillaridayoq birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ko'rsatib o'tgan edi. BMT, EXHT va boshqa tashkilotlar minbarlaridan nutq so'zlab, jahon hamjamiyati e'tiborini xalqaro terrorizm va ekstremizmning globallasuviga, ayrim mamlakatlarning xalqaro terrorchi va ekstremistlarni tayyorlash inkubatoriga aylanib borayotganiga qaratdi.

Shuningdek Islom Karimov bundan o'n yillar oldinroq diniy ekstremizm va fundamentalizm, nakobiznes, qurol savdosidek uyushgan jinoyatchilikning xalqaro terroristik tashkilotlarga ko'mak berayotgani, xalqaro uyushgan jinoyatchilikning mamlakatimiz xavfsizligiga ochiqdan-ochiq tahdid solayotganiga dunyo hamjamiyatining e'tiborini qaratgan edi.

Davlatimiz rahbari jahon hamjamiyatini ogohlantirar ekan, qanchalar qudratli bo'lmasin, hech bir davlat bu ofat xurujidan xoli emasligini ta'kidladi. Ammo bu ogohlantirishlarga unchalik e'tibor berilmadi. Bu borada jahon hamjamiyatining ko'zi ochilishiga 2001 yilning 11 sentyabrida AQShda bo'lgan eng dahshatli terrorchilik harakati sabab bo'ldi. Natijada terrorga qarshi koalitsiya tashkil etilib, O'zbekiston uning faol qo'llab-quvvatlovchilaridan biriga aylandi. 2001 yil 13 sentyabrdayoq O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar fazirligi BMT Bosh kotibiga bayonot yo'llab, terrorizmga qarshi xalqaro markazni zudlik bilan yaratish zarurati yuzaga kelganini bildirdi.

Nyu-York va Vashingtonda amalga oshirilgan terrorchilik harakatlaridan keyin terrorizmga qarshi koalitsiya kuchlari va eng avvalo AQSh tomonidan Afg'onistondagi toliblarga va "Al-Qoida" terrorchilariga zarba berildi. Shundan so'ng Iroqdagi rejim bartaraf etildi. Bu bilan betun er yuzidagi tinchliksevar xalqlarga xavf tug'dirib turgan xalqaro terrorchi va ekstremistlarga jiddiy zarba berildi. Biroq ular hali uzil-kesil yo'q qilingan emas. Ancha yillardan buyon Rossiya, Fransiya, Turkiya, Indoneziya, Ispaniya, Isroil, Livan, Hindiston, Pokiston va boshqa mamlakatlar terrorizmning jabrini tortib kelmoqdalar.

2001 yil dekabrda Evropa Ittifoqi ilk bor terrorchi tashkilotlar va terorchilikda gumon qilinayotgan kishilar ro'yxatini e'lon qildi va u vaqti-vaqti bilan to'ldirib borilmoqda. Ularga qarshi kurashning dastlaki qadamlari sifatida Evropa Ittifoqi tomonidan Umumevropa qamoqqa olish orderi, terroristlarga moliyaviy ko'mak berilishining oldini olish kabi tadbirlar Rejasini ishlab chiqdi. Ammo ko'pchilik ekspertlarning fikricha bular etarlicha samara bermadi va yaqinda Madridda yuz bergan fojiali voqealarning oldini ololmadi. Yhqinda Bryusselda Evroitifoq tomonidan e'lon qilingan Deklaratsiyaga muvofiq 2004 yil 30 iyungacha ushbu ittifoqqa a'zo davlatlarning barchasida qamoqqa olish bo'yicha yagona Evropa orderi qabul qilinadi. Bu narsa terrorizmga gumon qilinayotgan shaxsni ekstraditsiya qilishda ko'zda tutilgan amallarni bajarmasdan bir-biriga avtomatik tarzda berishni anglatadi. Yangi tadbirlar orasida chegaralarda pasport nazoratini kuchaytirish, Evroitifoq doirasida bir-birini axborotlar bilan xabardor qilish tizimini takomillashtirish, bu yo'nalishda razvedka xabarlarini almashishni takomillashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Terrorizmning jirkanch mantiqi shunda namoyon bo'ladiki, ular kuch ishlatish, ya'ni portlatish, o't qo'yish, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy, shuningdek, zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo'rqitish, er usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish yoki bunday transport vositalariga portlovchi moddalarni joylashtirish yo'li bilan portlatish, eng dahshatlisi, bunday harakatlarni faqat aholi gavjum va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotgan joylarda amalga oshirish orqali vahima ko'tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish bilan o'zlarining g'alamislarcha maqsadlariga erishimiz, deb o'ylaydilar. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarning radio va televidenie xabarlarida yangi va yangi jinoyat usullari haqida, ya'ni yondirish, qo'poruvchilik, kishilarni ommaviy o'ldirish, ularni garovga olish, erda, suvda va havodagi terrorchilik harakatlari, shaharlarda, qishloqlarda, transportda, xullas hamma erda, umuman vahshiylarning nosog'lom xayoli qaerni xohlasa, o'sha erda amalga oshirilayotgani haqida axborotlar berilmoqda. Ularning eng asosiy maqsadi – ommaviy qotillik – aholining himoyaga muhtoj bo'lgan qatlarni bo'lmish bolalarni, ayollarni, keksalarni o'ldirish. Ular uchun inson hayoti hech narsa emas.

2004 yil mart oyida Madridda bo'lgan bir qator terrorchilik harakatlaridan so'ng ko'p Evropa mamlakatlarining fuqarolari shunday jinoyatlar ularning davlatida ham bo'lishi mumkin, deb o'ylamoqdalar. Bugungi kunda xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm butun insoniyatga – Vashingtondan Moskvagacha, Bali orolidan Toshkentgacha, Hindistondan Afrikagacha, Yaqin Sharqdan Filippingacha xavf tug'dirmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan voqealar tufayli, ya'ni AQShdagi portlashlar, Rossiyadagi terrorchilik harakatlari va boshqa shunga o'xshash hodisalardan keyin ikki yil o'tgach, 2004 yil apreliga kelibgina Evropa Ittifoqi doirasida terrorchilikka qarshi kurash Evropa koordinatori lavozimi joriy etildi. Mazkur lavozimni egallagan shaxs (Gijs de Vries – Niderlandiya Ichki ishlar vazirining sobiq o'rinbosari) va uning idorasi yaqin vaqt ichida Evroittifoq davlatlari aholisini terrorchi tashkilotlar tomonidan ehtimol tutilgan xurujlar xavfidan himoyalashning yagona strategiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Terrorizm va ekstremizmni engish uchun chuqur, puxta ishlab chiqilgan va doim rivojlanishda bo'lgan strategiya kerak. Bu borada barcha mamlakatlarning uyushgan harakatlari lozim. Bunday ittifoqqa uyushgan davlatlar undagi har bir davlatning muammosini o'z muammolaridek qabul qilishi va uni sherikchilikda hal qilishning yo'llarini ishlab chiqishlari kerak.

Terrorchilik hodisalarining yuz berayotgani turli mamlakatlarda ana shu xavfli hodisaga nisbatan qabul qilingan qonunchilik hujjatlari qabul qilinishi tajribasi qandayligini o'rganishni taqazo etadi. Bu narsa mamlakatimizda shu kabi qonunchilik aktlari ishlab chiqilishiga namuna sifatida xizmat qilishi mumkinligi jihatidan ahamiyatlidir. Masalan, AQShda terrorizmga qarshi kurash haqidagi qonun 1996 yilda qabul qilingan bo'lib, unda 30 dan ortiq hatti-harakat terrorizm sifatida ko'rsatilgan. Unda jumladan, AQSh hukumati tomonidan terrorizmni qo'llab-quvvatlovchi deb tan olingan davlatlarga yordam ko'rsatilmagligi aniq ko'rsatilgan.

Peruda 1992 yilda qabul qilingan "Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar" normativ hujjat davlatning mazkur tipdagi xavfga qarshi kurashiga namuna bo'la oladi. Bu hujjatda terroristik faoliyatda qatnashgani uchun qattiq javobgarlik joriy etilgan. Bu mazkur davlatda mavjud bo'lgan faol terroristik tashkilotlar, guruhlar, harakatlar tarixi va amaliyotining natijasi hamdir. Terroristik tashkilotlar rahbarlari va dohiylari uchun ushbu hujjatga muvofiq umrbod qamoq, oddiy qatnashchilarga esa – 30 yil qamoq muddati ko'zda tutilgan. Peru qonunchiligiga muvofiq terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar uchun sudlangan kishilar Jinoyat kodeksi va Jazoni o'tash Kodeksida ko'zda tutilgan imtiyozlarning hech biridan foydalana olmaydi.

Ispaniya qonunchiligida asosan terroistik voqealar bilan kurashishga emas, ularning profilaktikasiga e'tibor berilgan. Unga muvofiq qurol va o'q-dori saqlash, portlovchi, yondiruvchi, bo'g'uvchi moddalar va vositalar saqlash, ularni ishlab chiqarish, sotish, etkazib berish, shuningdek, ularni o'rnatish va foydalanish terroristik tashkilotga a'zo bo'lgan kishilar tomonidan yoki ular bilan hamkorlik qiluvchi kishilar tomonidan sodir etilsa uzoq yillik ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Fransiyada ham 1986 yilda terrorizmga qarshi kurash va davlat xavfsizligiga xavf tug'dirish haqida qonun qabul qilingan. Boshqa davlatlardagidan farqli ravishda unda terrorizmga ta'rif berilmagan. Bu mamlakat Jinoyat kodeksi tomonidan u yoki bu harakatni terrorizm deb atash uchun ikki shart mavjud. Birinchidan, bu jinoyat jamoat tartibini xavfli ravishda buzish maqsadida amalga oshirilsa. Ikkinchidan, uni amalga oshirish paytida terror usullari qo'llanilsa.

Yurtimizning mustaqil siyosati, uning taraqqiyoti sur'atlari kimlargadir xush kelmayotgan bo'lishi mumkin. Mustaqillik – bu bizning hayotimiz, taqdirimiz, dunyoqarashimiz. Hech narsa – na terrorchi va ekstremistlarning g'alamislarcha harakati, na tinch aholi va sadoqatli yurt himoyachilari bo'lmish askarlarimiz va huquq-tartibot organlari xodimlarining 1999 yil fevraldagi va 2004 yil martdagi voqealarda bevaqt halok bo'lishi mustaqillik ishining to'g'riligiga bo'lgan ishonchimizni so'ndira olmaydi. Mazkur mavzu so'ngida birinchi Prezidentimizning O'zbekiston televideniesiga 2004 yil 28-30 mart voqealari munosabati bilan bergan maxsus intervyusidagi quyidagi so'zlarni keltirmoqchimiz: "Xalqimiz bunday sinovlarni ilgari ham boshdan kechirgan va ularni mardona engib o'tgan. Shuning uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, qat'iyat bilan harakat qilishimiz, bizga atalgan go'zal va betakror yurtimiz tinchligini saqlashimiz zarur".

3. O'zbekiston Respublikasining olamshumul muammolar vechimiga qo'shavotgan hissasi

Yuqorida tilga olingan va olinmagan hamda jahonshumul muammolar qatoridan o'rin olgan masalalar, aslini olganda hayotimizga tashqaridan kirib kelgan emas. Ular asta-sekinlik bilan vujudga kelishib, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bilan birga kengayib, rivojlanib kelishgan. Ularning dolzarb ahamiyat kasb etishiga esa har bir mamlakat, har bir inson "baholi qudrat o'z hissasini qo'shgan va hamon hissa qo'shishni davom ettirmoqda". Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, ularning echimi, ular keskinligini kamaytirishning yo'llari ham mamlakatlar va insonlar qo'lidadir. Buning uchun har bir davlat va barcha kishilardan, eng avvalo mazkur muammolarning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etganligini tushunish talab etiladi. Agarda har birimiz dunyodagi har qanday u yoki bu jihatdan olamshumul ahamiyat kasb etgan muammolarga shaxsan daxldorligimizni anglasak, ularning echimiga har qanday hatti-harakatimiz ta'sir etishini tushunsak, shaxsiy, ishlab chiqarishga oid faoliyatimizni shunga muvofiq tashkil etsak ularning yanada chuqurlashib ketmasligiga, qolaversa ularning echimiga baholi-qudrat hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Chunki bizning atrofimizda, shaxsiy turmushimizda ana shu muammolarga bog'liq voqealar, ta'sirlar faqat bizga va bizning ularga faol munosabatimizga bog'liq. Ancha tumtaroq bo'lsada, buni shunday ifodalash mumkin: kunu tun yopilmaydigan vodoprovod jumragini yopib qo'yish, qurigan xazonlarni yoqmasdan axlatxonaga tashlash yoki ko'mib qo'yish va shu kabilar uchun har bir kishi kuyina olsa, bunga befarq bo'lmasa, butun mahalla, tuman, mamlakat, qolaversa dunyo miqyosida yuqorida tilga olingan muammolarga echimi tomon dastlabki qadam qo'yilgan bo'lardi.

Tilga olingan ekologik muammolarni echish uchun eng avvalo qonuniy asoslar bo'lmog'i lozim. Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartib solishga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilindi. Ular orasida "Tabiatni muhofaza qilish haqida", "Alohida himoya qilinuvchi tabiiy hududlar haqida", "Suv va suvdan foydalanish haqida", "Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish haqida", "Davlat

sanitar nazorati haqida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish haqida", "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi haqida", "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish haqida", "O'simliklar dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish haqida", "Er kodeksi", "O'rmon haqida"gi va boshqa qonunlar mavjud.

Ana shu qonunlarda belgilangan tadbirlar atmosferaning ifloslanishini, asosiy suv havzalarining tozaligini oshirish, ishlatilayotgan zaharli pestitsidlar qo'llanilishini qisqartirish, ekin maydonlarining ahvolini yaxshilash va bu sohalarga xalqaro tashkilotlar e'tiborini tortishga imkon berdi. 1991-2003 yillar mobaynida respublika bo'yicha atmosferaga zaharli chiqindilarni tashlash 2 marta, iflos oqova suvlarni suv havzalariga tashlash esa 2,2 marta kamaydi. 1998 – 2003 yillar orasida pestitsidlardan foydalanish 4 martaga kamaytirildi.

Mamlakatimiz ekologik muammolarni umuminsoniyat kuchi bilan hal qilish zaruriyatini his etgan holda mavjud xalqaro shartnomalarga qo'shilmoqda. Jumladan, mustaqillik yillarida O'zbekiston quyidagi xalqaro shartnomalarga qo'shildi:

- Ozon qatlamini muhofaza qilish haqida Vena konvensiyasi (18.05.93):
- Ozon qatlamini buzuvchi moddalar haqidagi Monreal protokoli (18.05.93):
- Tabiiy muhitga xarbiy yoki boshqa har qanday dushmanlaracha ta'sir etuvchi vositalarni taqiqlash haqidagi konvensiya (26.05.93):
- Muhitning o'zgarishi haqidagi konvensiya (20.06.93):
- Jiddiy cho'llashuv va/yoki qurg'oqchilikni boshidan kechirayotgan mamlakatlarda, ayniqsa Afrikada, cho'llashishga qarshi kurash bo'yicha konvensiya (31.08.95):
- Biologik turli-tumanlik haqidagi konvensiya (06.05.95):
- Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish haqidagi konvensiya (22.12.95):
- Yo'qolish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish haqidagi konvensiya (01.07.97):
- Ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni saqlash bo'yicha konvensiya (01.05.98):
- Ozon qatlamini buzuvchi moddalar haqidagi Monreal protokoliga London qo'shimchasi (01.05.98) va boshqalar.

O'rta Osiyo mintaqasidagi, xususan, O'zbekistondagi ekologik muammolar echimida ushbu mintaqa mamlakatlarining hamkorligi katta ahamiyatga ega. 1993 yi mart oyida O'rta Osiyo mamlakatlari davlat boshliqlarining Qizil O'rdadagi uchrashuvida Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini echish, Orol mintaqasining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlar haqida Kelishuv imzolandi. Ushbu uchrashuvda Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va Orolni qutqarish Xalqaro jang'armasi tuzildi. 1995 yil Nukusdagi O'rta Osiyo davlat rahbarlari uchrashuvida qabul qilingan Nukus deklaratsiyasida Orol dengizi havzasining barqaror rivojlanishi bo'yicha xalqaro konvensiya ishlab chiqish haqida qaror qabul qilindi. 1998 yil ushbu davlatlar rahbarlarining Ashxobod uchrashuvida

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Bu sa'y-harakatlar so'nggi 10-12 yil ichida amalga oshirilgan ba'zi ishlardan darak beradi. Ammo respublikamizdagi ekologik vaziyat baribir keskinligicha qolmoqda. So'nggi 35-40 yil mobaynida Orol dengizi 21 metrga pasaydi, uning akvatoriyasi 3,5 martadan ortiq qisqardi, suv hajmi esa 8 marta kamaydi, suvning sho'rliigi 70 g/l. ga etdi. Respublikamizda har yili 100 mln. tonnadan ortiq ishlab chiqarish chiqindilari hosil bo'lmoqda, atmosferaga yiliga 2 mln. tonnadan ortiq chiqindilar chiqarib yuborilmoqda, ochiq suv havzalariga yiliga 138 mln. kub metr zararli chiqindilar oqizilmoqda. Sug'oriluvchi er maydonlarining yarmi eroziya va ikkilamchi sho'rlanishga uchrarmoqda.

Mintaqada suv havzalari kimyoviy ifloslanishini kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilishi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarini hamda uy-joy kommunal xo'jaliklarda ifloslangan oqova va chiqindi suvlarni tozalovchi qurilmalarning o'rnatilishi bo'yicha ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasida 1990 yildan boshlab mavjud holatni yaxshilashga qaratilgan Davlat dasturi amalga oshirilmoqda. O'tgan yillarda mamlakatimizda 13,5 ming km. suv quvurlari ishga tushirildi. 1998 yilda Qoraqalpog'iston bo'yicha 229,9 km suv quvurlari tarmoqlari, 1999 y. yanvar-aprel oylarida 13,7 km suv quvur tarmoqlari o'tkazildi. SHuningdek, shaharlarda, shahar tipidagi posyolkalarda, tuman markazlarida yashayotgan aholining kanalizatsiya sistemasi bilan ta'minlanishi 1997 yil respublika bo'yicha 53,3%, Qoraqalpog'istonda - 38,8%, Xorazm viloyatida - 37% ni tashkil etadi.

Ayni holda oziq-ovqat muammosini echish tomon dastlabki sezilarli qadamlar qo'yildi. Respublikamizda paxtaga ajratilgan ekin maydonlarining kamaytirilishi hisobiga donli va dukkakli ekinlar, poliz va kartoshka ekinlari maydonlari keskin ko'paydi. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan umumiyqisodiy qayta qurish, bozor munosabatlarini shakllantirish va mulkdorlar tabaqasini shakllantirish bilan birga qo'shib olib borilmoqda. Bunda ilgari kolxoz-sovхозlar o'rniga tashkil etilayotgan fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. Umumbashariy muammolarning qanday belgilari mavjud?
2. Qanday muammolar umumbashariy muammolar qatoriga kiradi?
3. Ekologik muammolar vujudga kelishining sabablari nimada?
4. O'zbekistondagi ekologik muammolar mavjud hududlar haqida so'zlab bering.
5. Nima uchun xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm umumbashariy muammo hisoblanadi?
6. O'zbekistonning xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashga qo'shayotgan hissasini qanday baholaysiz?
7. Ekologik muammolarni echishga mamlakatimiz qo'shayotgan hissa nimada?

GLOSSARIY

Borliq – inson ongidan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan reallik.

Aparteid – irqiy kamsitishga asoslangan holda mamlakat aholisini kuch bilan bo'lish siyosati.

Institutsiyalar – kishilarning turli birlashmalari (oilalar, kasaba tashkiloti, partiya, davlat).

Ijtimoiy tartibot – barqarorlik, uyg'unlik, ijtimoiy munosabatlarning, kishilar hatti-harakatlarining muvofiqligi kabi jamiyatdagi tartibot, uning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi zaruriy shartlar.

Qadriyat – 1) borliqdagi muayyan hodisalarning ijtimoiy, madaniy va insoniy mazmunini ko'rsatish uchun falsafiy va sotsiologik adabiyotlarda keng foydalaniladigan ibora. Odatda guruhga oid (ijtimoiy) va shaxsga oid qadriyatlar, shuningdek moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlar bir-biridan farqlanadi. 2) inson uchun ahamiyatli, uning uchun qimmatli va muhim bo'lgan, uning faoliyatida mo'ljallanib hisoblanuvchi narsa-hodisa. Inson faoliyatining muayyan mo'ljallari.

Ijtimoiy munosabatlar – birgalikdagi amaliy va ma'naviy faoliyat jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keluvchi munosabatlar.

Umuminsoniy qadriyatlar – butun insoniyatning tarixiy ma'naviy tajribasini aks ettiruvchi va har qanday shaxsning to'laqonli hayot kechirishi va rivojlanishi, umuminsoniy manfaatlarining amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratuvchi dunyoqarash ideallari, axloqiy va huquqiy normalar.

Ijtimoiy muhit – kishilarning yashashi, kamol topishi, rivojlanishi va faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy (moddiy va ma'naviy) sharoitlarni o'z ichiga olgan va uni qurshab turgan ijtimoiy dunyo (sotsium).

Ijtimoiy o'zaro ta'sir – ikki yoki undan ortiq individlar yoxud kishilar birlashmalari o'rtasida amalga oshuvchi turli-tuman ta'sirlar.

Ijtimoiy ko'rsatma – turli darajada amal qiluvchi jamiyat (oilalar, kasbiy, siyosiy, diniy va shu kabi birlashmalar) tomonidan individ yoki jamoaning ijtimoiy ahamiyatli ob'ektga nisbatan muayyan tarzda munosabatda bo'lishga moyilligi va tayyorligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar; shaxsning jamiyatdagi qadriyat mo'ljallari tizimi.

Mojaro (nizo) – tomonlar, kuchlar, manfaatlar, fikrlar, qarashlar to'qnashuvi sifatida amal qiluvchi o'ziga xos ijtimoiy hodisa; murakkabliklar va kurashni ko'zda tutuvchi jiddiy kelishmovchilik, keskin tortishuv.

Muomala, qiliq – insonning axloqiy o'z-o'zini anglashining natijasi sifatida baholanuvchi ongli harakati, bunda u o'zining o'z-o'ziga, boshqa kishilarga, kishilar guruhiga yoki jamiyatga, umuman tabiatga munosabatida o'zini muayyan shaxs sifatida ko'rsatadi.

Avtoritet (hurmat) – u yoki bu shaxs, qarashlar tizimi yoki tashkilotning muayyan sifatleri, xizmatlari uchun umum tag olingan ahamiyati, ta'siri.

Xalqaro munosabatlar – dunyo xalqlarining va davlatlarining turli shakl va darajadagi o'zaro munosabatlari. Tarixiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida bunday munosabatlarning asosini davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tashkil qiladi.

Repressiyalar – nizodagi tomonlardan birining boshqasiga nisbatan qasos sifatida qo'llayotgan majburiy harakatlari.

Suverenitet – (fransuzcha *souverain* - oliy) davlatning ichki siyosatda ustivorligi va tashqi siyosatda mustaqilligi.

Huquqiy kafolatlar – kishining unga nisbatan qo'yilayotgan ayblovning mazmuni bilan unga tushunarli tilda tanishishga haqliligi; ishning beg'araz odil sud tomonidan ko'rib chiqilishiga haqliligi; aybi sudda isbot qilinguncha aybsiz hisoblanishga haqliligi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi – individ tomonidan uning butun umri davomida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy normalari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqarish jarayoni hamda uning natijasi, insonning o'zini shaxs sifatida anglashi, uning jamiyatda o'z o'rnini topishi. Ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish tizimi ijtimoiylashuvning zaruriy asosini tashkil etadi.

Ijtimoiy birlashma – fuqarolarning erkin va ongli xohish-istaklari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma, uning asosida a'zolarining umumiy manfaatlari turadi. Bunday birlashmalarning maqsadlari ularning nizomlari va qoidalarida belgilanadi.

Ijtimoiy ong – ijtimoiy birliklar (guruhlar, millatlar) tomonidan atrof-dunyoni turli shakl va darajada anglash; jamiyatning ma'naviy hayoti. Ijtimoiy ong sohalariga mafkura va ijtimoiy psixologiya, uning shakllariga – siyosiy, huquqiy, axloqiy, ilmiy, diniy ong va boshqalar kiradi.

Hatti-harakat – jonli organizmlarning muhit bilan unga moslashish va (insonda) uni faol o'zgartirish maqsadida amalga oshiriluvchi o'zaro ta'sirlashuv jarayoni.

Huquqiy munosabatlar – davlat tomonidan himoya qilinuvchi va huquq normalari vositasida boshqarib turiladigan istak-iroda bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar.

Huquqdorlik – huquq normalarida ko'zda tutilgan huquqlarga ega bo'lish va undagi majburiyatlarni bajarishga layoqatlilik.

Ijtimoiy nazorat – jamiyat, undagi guruhlar yoki tashkilotlar tomonidan cheklashlar (sharoitlar) tizimi bajarilishini ta'minlash mexanizmi; boshqarishning tarkibiy elementi. Bunday cheklashlarning buzilishi ijtimoiy tizimning amal qilishiga zarar keltiradi. Ijtimoiy nazoratning asosiy ob'ektlari – huquqiy va axloqiy normalar, odatlar, ma'muriy qarorlar.

"Shaxs va jamiyat" fani bo'yicha testlar

- 1) Homo sapiens – bu ...
 - a) o'yinga tushuvchi odam
 - b) kulayotgan odam
 - *v) aqlli odam
 - g) hissiyotga tayanuvchi odam

- 2) Kishilar ba'zi guruhlarining irqiy, milliy, etnik, diniy belgilarga ko'ra qirib yuborilishiga... deyiladi.
 - a) aparteid
 - *b) genotsid
 - v) diniy fundamentalizm
 - g) agressiya

- 3) Kishilar ba'zi guruhlarining muayyan hududlarda saqlab, ularning siyosiy, iqtisodiy, fuqaroviy va boshqa huquqlarini cheklash siyosati.... deyiladi.
 - *a) aparteid
 - b) genotsid
 - v) terrorchilik
 - g) agressiya

- 4) Nikoh yoki qondoshlik belgisiga ko'ra hosil bo'lgan kishilar birligi... deyiladi
 - a) nikoh
 - *b) oila
 - v) jamoa
 - g) jamiyat

- 5) Parlament organi hisoblanadi
 - a) sudlov
 - b) ijro etuvchi
 - *v) qonunchilik
 - v) yuqoridagilarning hammasini birvarakayiga amalga oshiruvchi

- 6) Yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan boshqariluvchi insoniy munosabatlarga ... sohasi deyiladi
 - a) huquq
 - b) mehnat
 - *v) axloq
 - g) estetika

- 7) Davlat tomonidan o'rnatilgan va kishilarning hatti-harakatini majburiy boshqarish sohasiga ... deyiladi
 - a) axoq

- b) madaniyat
 - * v) huquq
 - g) din
- 8) Tirik organizmlar, shuningdek insonning atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorliklari haqidagi fan ... deyiladi
- a) anatomiya
 - b) zoologiya
 - *v) ekologiya
 - g) geologiya
- 9) Insonni tushunishdagi nuqtai nazarlar tarixiy ketma-ketligi to'g'ri ko'rsatigan javobni toping
- a) teotsentrizm – kosmotsentrizm – antropotsentrizm
 - *b) kosmotsentrizm – teotsentrizm – antropotsentrizm
 - v) antropotsentrizm – kosmotsentrizm – teotsentrizm
 - g) teotsentrizm – antropotsentrizm – kosmotsentrizm
- 10) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?
- a) 1945 yil 9 may
 - b) 1946 yil 6 avgust
 - *v) 1948 yil 10 dekabr
 - g) 1949 yil 12 avgust
- 11) Inson va jamiyatni tushunishga qaratilgan eng qadimiy dunyoqarash nima deb ataladi?
- a) diniy,
 - *b) afsonaviy
 - v) falsafiy
 - g) ilmiy
- 12) Xalqaro hujjatlarning barchasida taqiqlangan ijtimoiy holat – bu...
- *a) qullik
 - b) hamkorlik
 - v) urush
 - g) yollanma mehnat
- 13) Shaxsning siyosiy maqomi (statusi) quyidagilarni anglatadi:
- a) insonning siyosiy qarashlari
 - b) xalq hokimiyati
 - *v) insonning siyosiy munosabatlar tizimidagi o'rni
 - g) ko'pchilik kishilarning siyosatga tortilganligi

14) Jamiyat taraqqiyotiga formatsiyaviy yondoshuv qachon va qanday g'oya asosida vujudga kelgan?

- * a) XIX asrda, iqtisodiy determinizm
- b) XIX asrda, materializm
- v) XIX asrda, klassitsizm
- g) XIX asrda, texnokratik yondoshuv

15) Nemis mutafakkiri I.G.Gerder fikricha insoniyat o'z taraqqiyotida qonuniy ravishda ...ga keladi.

- a) tubanlikka
- *b) insonparvarlikka
- v) kommunizmga
- g) boshboshdoqlikka

16) Hozirgi zamon xalqaro insonparvarlik huquqi (XIH)ga asos bo'lgan 1864 yilgi xalqaro shartnoma qanday nom bilan atalgandi?

- a) Yarador va kasallarni dala ospitalarida saqlashni yaxshilash haqidagi konvensiya
- b) Harbiy asirlar bilan muomala haqidagi konvensiya
- *v) Quruqlikdagi urush paytida yaradorlarning qisimatini yaxshilash haqidagi konvensiya
- g) Urush paytida fuqaro aholini himoya qilish haqidagi konvensiya

17) Fin olimi P.Kuusi evolyusion jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratadi

- *a) kosmik, biologik, madaniy
- b) ximiyaviy, biologik, insoniy
- v) antropologik, madaniy
- g) biologik, texnik, kibernetik

18) Nima uchun xalqaro insonparvarlik huquqining bir qismi «Gaaga huquqi» deb ataladi?

- a) Chunki uni Gaaga shahrida yashovchi kishi ishlab chiqqan
- b) Chunki uning loyihasi Gaaga shahri ma'muriyati tomonidan taklif qilingan
- *v) Chunki uning asoslari Gaaga shahrida ishlab chiqilgan
- g) Chunki Gaaga shahrida xalqaro sud joylashgan

19) Qadimgi Misrda dunyoning yaratuvchisi deb hisoblangan xudoning nomi

- a) Seta
- *b) Ra
- v) Osiris
- g) Isida

20) "Xo'jayinning qul bilan suhbat" nomli asar qaysi xalqqa mansub?

- a) Qadimgi misrliklarga
- b) Qadimgi xitoyliklarga

- v) Qadimgi hindlarga
 - *g) Qadimgi mesopotamiyaliklarga
- 21) «Gaaga huquqi»...
- a) harbiy harakatlarda qatnashishga ruxsat berilgan eng kichik va eng katta yosh chegarasini belgilab beradi
 - *b) urush usullari va vositalarini tanlash erkinligini cheklaydi
 - v) xalqaro havo tashuvlarini boshqaradi
 - g) harbiy asir maqomining asoslarini aniqlaydi
- 22) Buddizm ta'limoti markazida yotuvchi 4 haqiqatga mos kelmaydigan javobni ko'rsating
- a) hayot azob-uqubat chekishdan iborat, azob-uqubatlarning ildizi esa orzu-istaklardir
 - b) orzu-istaklardan voz kechish, ularni yo'qotish azob-uqubatlardan qutilishga olib keladi
 - v) azob-uqubatlardan qutilish yo'li mavjud
 - *g) barkamol va odil podshoh bu yo'lning kalitidir
- 23) 1949 yilgi Jeneva konvensiyalarining asosiy maqsadini ko'rsating
- a) insonning huquqi va erkinliklarini ta'minlovchi huquqiy normalarni belgilab beradi
 - b) qochoqlar uchun minimum kafolatlar belgilab beradi
 - *v) qurolli mojaro sharoitida kishilarning ba'zi guruhlarini urush oqibatlaridan himoya qiladi
 - g) harbiy-tibbiy muassasalar rivoji uchun sharoitlar yaratib beradi
- 24) Qaysi mamlakat XX asrga qadar "Osmon ostidagi mamlakat" deb ham atalgan?
- a) Misr
 - b) Yaponiya
 - *v) Xitoy
 - g) Hindiston
- 25) «Men ... qonunlarni qudratli zarfaiylarni zabun etmasin, deya joriy qildim», degan fikrning muallifi kim ?
- a) Buyuk Kir II (? –e.o. 530)
 - *b) Xammurabi (e.o. 1792-1750)
 - v) Gay Yuliy Sezar (e.o. 102/100-44)
 - g) Amir Temur (1336-1405)
- 26) Platon ta'limotiga ko'ra davlat qanday vujudga kelgan?
- a) xususiy mulkni himoya qilish ehtiyoji tufayli
 - b) erkin kishilarning huquqiy mavqeini mustahkamlash uchun

- *v) kishilar o'z ehtiyojlarini qondira olmaganliklari uchun
g) ilohiy istak tufayli
- 27) Dialemma – bu...
a) matematik amallardan biri
b) kasal va yaradorlarga yordam ko'rsatuvchi punkt
*v) bir-biriga teng ikki imkoniyatdan birini tanlashdagi qiyin holat
g) tibbiyotdagi muolaja turi
- 28) "Avesto"da axloq-odob qoidalari qanday uchlikda ifodalangan?
a) ezgu axloq, ezgu fikr, ezgu niyat
*b) yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ish
v) adolatlilik, ziyolilik, insonparvarlik
g) beg'arazlik, nafsni tiyish, uzlatga chekinish
- 29) Forobiyning fozil jamoa qurish haqidagi ta'limotiga asos qilib olingan g'oya
*a) adolat
b) insonparvarlik
v) hurfikrlilik
g) mehr-muruvvat
- 30) "Shaxs va jamiyat" o'quv qo'llanmasida tilga olingan quyidagi hukmdorlarning qaysi biri «xazina...ni talaydi, madrasadagi kitoblarni qilich bilan tilka-pora qilib, olovga tashlaydi»:
a) Aleksandr Makedonskiy
b) Ismoil Somoniy
v) Muhammad Ali (Madalixon)
*g) Amir Nasrullo
- 31) "Utopiya" asarining muallifi kim?
a) Sh.Fure
b) T.Kampanella
*v) T.Mor
g) R.Ouen
- 32) Xalqaro insonparvarlik huquqi bolalarni... bilan ta'minlaydi.
a) faqat umumiy himoya
b) faqat maxsus himoya
*v) umumiy va maxsus himoya
g) diplomatik himoya
- 33) T.Kampanellaning "Quyosh shahri" asarida oliy hokimiyatni boshqaradi
a) qudrat
b) muhabbat
v) donishmand

*g) metafizik

34) Dunyodagi barcha ishbilarmonlik faoliyatining falsafasi bo'lmish pragmatizmning asosiy g'oyalari kim tomonidan ishlab chiqilgan?

a) U.Djeyms

*b) Ch.Pirs

v) F.Shiller

g) J.Dyui

35) "Urush – odamlar orasidagi emas, balki davlatlar orasidagi munosabatdir va kishilar tasodifan bir birlariga dushman bo'lib qoladilar", degan fikr kimga tegishli:

a) Al Forobiy (870-950)

b) Gugo Grotsiy (1583-1645)

v) Anri Dyunan (1828-1910)

*g) Jan-Jak Russo (1712-1778)

36) "Har bir inson bir dunyodir. Bir shaxsning vafoti bilan butun bir olam yo'q bo'ladi", degan fikr kimga taalluqli?

*a) nemis mutafakkiri Gyote

b) Markaziy Osiyolik mutafakkir Abu Nasr Forobiy

v) Gretsiyalik faylasuf Platon

g) Rimlik faylasuf Seneka

37) Indivud nima?

a) noyob xislatga ega bo'lgan insonni bildiruvchi tushuncha

b) ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli

v) bioijtimoiy mavjudot

*g) har qanday kishining odam turining alohida vakili sifatida aks etishi

38) Ma'lumki Abu Ali ibn Sino (980-1037) fakih bo'lgan. Bu so'z nimani anglatadi?

a) falsafa bo'yicha mutaxassis

*b) musulmon huquqi bo'yicha mutaxassis

v) astronomiya mutaxasisi

g) shoirtabiat tabib

38) Huquq normalarining axloq normalaridan farqi shundaki, ular...

a) ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi

b) jamoatchilik fikri kuchi bilan yo'lga solinadi

v) yaxshilik va yomonlik haqida hamma tomonidan qabul qilingan tasavvurlarga mos keladi

*g) rasmiy hujjatlar shaklida ifodalanadi

- 39) Moddiy olamning tabiatdan ajralib chiqqan, hayot faoliyati jarayonida odamlar o'rtasida shakllanadigan munosabatlarning tarixiy ravishda rivojlanib boruvchi qismi – bu...
- a) biosfera
 - b) hokimiyat
 - *v) jamiyat
 - g) davlat
- 40) "Implementatsiya" atamasining mazmuni nimadan iborat?
- a) inson tanasi a'zolarini ko'chirib o'tqazish usuli
 - *b) xalqaro huquq normalarini ijro etish uchun milliy qonunchilikka joriy etish
 - v) minalardan tozalash jarayoni
 - g) milliy qonunchilikdan eskirgan huquq normalarini chiqarib tashlash
- 41) Konvensiya – bu...
- a) xalqaro tashkilot
 - b) xalqaro konferensiya
 - *v) xalqaro shartnoma
 - g) gumanitar bosqinchilik
- 42) Konkret bir insonga xos takrorlanmas, noyob xususiyatlarni, xislatlarni bildirish uchun qanaqa ibora ishlatiladi?
- a) individ
 - b) arbob
 - v) ijodkor
 - *g) individuallik
- 43) Ijtimoiy ong sohasiga nimalar kiradi?
- a) ta'lim muassasalari
 - b) ijtimoiylashuv
 - *v) ijtimoiy psixologiya va mafkura
 - g) ijtimoiy kafolatlar
- 44) Sotsiologiyada inson yoki guruhning jamiyatdagi ko'chishini ifodalaydigan tushuncha
- a) ijtimoiy adaptatsiya
 - *b) ijtimoiy mobillik
 - v) ijtimoiy differentsiatsiya
 - g) ijtimoiy stratifikatsiya
- 45) "Zo'ravonlik bilan hech kim obro'-e'tibor qozonmagan.
Dunyo o'zboshimchalari ma'raka maydonida obro' qozonmaganlar..." degan misralarning muallifi kim?
- a) Abu Ali ibn Sino (980-1037)
 - b) Ibn Rushd (1126-1198)

v) Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530)

*g) Nodira (1792-1842)

46) Jamiyatning qaysi sohasi odamlarning hokimiyatga taalluqli munosabatlarini o'z ichiga oladi?

a) iqtisodiy

b) ijtimoiy

*v) siyosiy

g) ma'naviy

47) Quyidagi fikrni tugating: Xalqaro insonparvarlik huquqi... maqsadiga xizmat qiluvchi hatti-harakat qoidalarini o'z ichiga oladi.

a) fuqarolarga siyosiy huquq va erkinliklar berish

*b) qurolli mojaro paytida insonparvarlikning minimal darajasini saqlash

v) xalqaro va ichki nizolar vaziyatida davlat chegaralarini saqlash

g) tabiiy ofatlardan aziyat chekkanlarga yordam ko'rsatish

48) "Diskriminatsiya" tushunchasi nimani anglatadi?

a) kishilarning huquqbuzarlikka moyilligi haqidagi nazariya

b) "kriminal politsiya" atamasining sinonimi

*v) diniy, irqiy, etnik va shunga o'xshash boshqa belgilariga ko'ra kishilar huquqlarining kamsitilishi

g) xalqaro insonparvarlik huquqi normalariga nomuvofiq barcha xatti-harakatlar

49) Qaysi badiiy asar toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning rafiqasi Bahrinisoning jasoratiga bag'ishlangan?

a) B. Polevoyning "Chin inson haqida qissa"si

b) P. Levining "Agar u inson bo'lsa" asari

v) H. G'ulomning "Toshkentliklar" asari

*g) R. Fayziyning "Hazrati inson" asari

50) Quyida keltirilayotgan chaqiriq qaysi asardan olingan:

"... Respublikamizga kelgan birorta bola joylashmay qolmasligi lozim. Agar ochlikdan holdan toygan bolalarni ko'rsangiz, garchi ular boshqa respublikalarga ketayotgan bo'lsa-da, eshelonlarni Toshkentda qoldiring. O'zbekiston ularni qabul qiladi, joylashtiradi, tarbiyalaydi, beistisno barchasini o'qitadi..."

a) A. Neverovning "Toshkent – non shahri" asaridan

b) R. Fayziyning "Hazrati inson" asaridan

*v) E. Arifovning "Harbiy komendantning qaydnomalari" asaridan

g) H. G'ulomning "Toshkentliklar" asaridan

51) «Shaxs va jamiyat» o'quv qo'llanmasida tilga olingan XIX asrning taniqli tarixchisi Muhammad Hakimxon To'raning (1802-1870) o'sha davrdagi harbiy harakatlar aks ettirilgan asarining nomini ko'rsating:

- a) «Tarixi jahonnomoi» («Dunyoni ko'rish tarixi»)
- *b) «Muntaxab ut-tavorix» («Tanlangan tarixlar»)
- v) «Tavorixi manzuma» («She'rlardagi tarix»)
- g) «Tazkirai shuaro» («Shoirlar antologiyasi»)

52) Shaxs...

- a) faqat axloqiy munosabatlarni amalga oshiruvchi va ongli siyosiy faoliyat yurituvchi sub'ekt
- b) o'z shaxsining muhimligini ta'kidlovchi inson
- *v) emotsional, irodaviy, ijtimoiy xususiyatlarning bir butunligini mujassam etgan, ijtimoiy taraqqiyot mahsuli bo'lgan individ
- g) noyob xislatlarga ega bo'lgan insonni bildiruvchi tushuncha

53) Inson va jamiyatning vujudga kelishi muammolari ilmiy tilda qanday ataladi?

- a) antropogenez
- b) sotsiogenez
- v) antropologiya
- *g) antroposotsiogenez

54) Bolalar huquqlari haqidagi 1989 yilgi Konvensiyaga 2000 yilgi Fakultativ protokol unda qatnashuvchi davlatlarga quyidagi majburiyatlarni yuklaydi:

- *a) 18 yoshdan kichik bo'lganlarni qurolli kuchlar va guruhlariga yollashga yo'l qo'ymaslik
- b) maktabgacha tarbiya muassasalaridagi barcha bolalarni issiq ovqat bilan ta'minlash
- v) maktablarda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini albatta o'qitishni yo'lg'a qo'yish
- g) barcha fuqarolarning o'rta ma'lumot olishini tashkil qilish

55) "Repressaliy" tushunchasining to'g'ri ta'rifini ko'rsating

- a) boshqa davlat territoriyasini qandaydir da'volarni amalga oshirish maqsadida egallab olish
- b) mojaroning asta-sekin kengayishi, kuchayishi, keskinlashuvi
- *v) o'zaro nizoda bo'lgan tomonlardan birining boshqa tomondan o'ch olish maqsadida majburiy ravishda amalga oshiradigan hatti-harakatlari
- g) axborot xizmatlariga tashkiliy jihatdan qarshi-turish

56) "Ratifikatsiya" – bu...

- a) ikki tomonning o'zaro foydali hamkorlik bo'yicha kelishuvi
- *b) biror mamlakat nomidan imzolangan xalqaro shartnomaning ushbu davlat oliy organi tomonidan tasdiqlanishi
- v) harbiy mojarolarning (kodifikatsiya qilinishi) tasnif qilinishi
- g) davlat boshlig'iga ishonch yorliqlarining topshirilishi

57) Fransuz mutafakkiri J.J.Russo fikricha...

- *a) xalq hokimiyat shaklini o'zgartirishga, ijtimoiy shartnomani bekor qilishga va o'z tabiiy erkinligiga qaytishga haqli
 - b) barcha kishilar jamiyatda o'z ixtiyoriga ko'ra yashashga haqli
 - v) davlat kishilar hayotini istagan paytida o'zgartirishga haqli
 - g) inson peshonasiga yozilgan taqdirga ko'nikishi shart
- 58) Shaxsning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar qaysi javobda to'liqroq ko'rsatilgan?
- a) oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi, shaxsiy tirishqoqlik, genetik omil
 - *b) ijtimoiy qurshov, shaxsiy tajriba, genetik xususiyatlar, madaniyatning ta'siri
 - v) ta'lim va tarbiya, taqdir, oilaviy imkoniyat, insonning maqsadi,
 - g) taqdir, muayyan darajadagi boylik, tirishqoqlik, saxovatli kishilar ta'siri
- 59) Olamning Olohdan yaratilganligini himoya qiluvchi qarash quyidagi konsepsiyalarning qaysi birida o'z ifodasini topgan?
- a) evolyusiyaviy konsepsiya
 - b) boshqa olamdan keltirilganlik konsepsiyasi
 - v) doimiylik holati konsepsiyasi
 - *g) kreasionizm konsepsiyasi
- 60) Erdagi hayot kootservat moddalardan boshlanadi, degan fikrni kim aytgan?
- a) ingliz olimi A.Uolles
 - b) fransuz olimi P.Laplas
 - *v) rus olimi A.Oparin
 - g) amerika olimi S.Myuller
- 61) Bu mamlakatning o'ziga xosligi shundaki, unda ruhoniyluk hech qachon katta ahamiyatga ega bo'lmagan. Bu mamlakat....
- a) qadimgi Rim
 - *b) qadimgi Xitoy
 - v) qadimgi Hindiston
 - g) qadimgi Gretsiya
- 62) Insoniylik – oliy, deyarli etishib bo'lmaydigan idealdir, u barcha konkret etuklik va takomilliklarning yig'indisi bo'lib, unga faqat o'tmishda yashaganlar erishganlar, degan fikr kimga tegishli?
- *a) Konfutsiy
 - b) Sitseron
 - v) Forobiy
 - g) Gegel
- 63) Insonning, ijtimoiy guruhlarning va umuman jamiyatning xatti-harakati anglanmagan psixik faoliyat, instiktlarga bog'liq, degan fikrni kim aytgan?
- a) Karl Yaspers
 - b) Ogyust Kont

- *v) Zigmund Freyd
- g) Nikolay Berdyaev

64) Qaysi bir javobda faqatgina siyosiy-sotsial institutlar ko'rsatilgan?

- a) banklar, davlat, mulk, oila
- *b) partiya, davlat, kasaba uyushmalari
- v) davlat, kasaba uyushmalari, biznes, oila
- g) ta'lim, din, madaniyat, oila.

65) Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaning qaysi vazifalari ko'proq ahamiyat kasb etadi?

- *a) xo'jalik, tarbiyaviy, iqtisodiy
- b) avlodlarni etishtirish, regulyativ (tartibga solish), iqtisodiy
- v) bo'sh vaqtdan unumli foydalanish, avlodlarni etishtirish
- g) iqtisodiy, xo'jalik-maishiy, avlodlarni etishtirish

66) Qadimgi Hindistonda jamiyat qanday ijtimoiy tabaqalarga bo'lingan?

- a) braxmanlar, savdogarlar, plebeylar, dehqonlar
- b) patriitsiyalar, braxmanlar, shudralar, mulkdorlar
- v) braxmanlar, harbiylar, boshqaruvchilar, faylasuflar
- *g) braxmanlar, kshatriylar, vayshlar, shudralar

67) Quyida shaxsga berilgan ta'rifning qaysi biri mukammalroq hisoblanadi?

- a) shaxs tabiatdan yuqori turuvchi sotsial mavjudot.
- b) shaxs alohida yarq etgan individuallik.
- v) shaxs tarixni harakatga keltiruvchi kuch.
- *g) shaxs sotsial mavjudot, sotsial hayotning ongli sub'ekti bo'lgan har bir inson.

68) Quyidagi javoblarning qaysi birida sotsial-demografik guruhlar ko'rsatilgan?

- *a) yoshlar, xotin-qizlar, erkaklar, keksalar.
- b) shahar va qishloq aholisi, malakali ishchilar, yoshlar.
- v) ijarachilar, xotin-qizlar, ilmiy-texnik xodimlar.
- g) dehqonlar, mulkdorlar, muxandis-texnik xodimlar.

69) O'zbekistonda nikohlanish yoshi qanday?

- a) ayollar 18 yoshdan, erkaklar 19 yoshdan.
- b) ayollar 16 yoshdan, erkaklar 17 yoshdan.
- *v) ayollar 19 yoshdan, erkaklar 20 yoshdan.
- g) ayollar 16 yoshdan, erkaklar 18 yoshdan.

70) Shaxs ijtimoiy maqomining o'zgarishiga nima deb ataladi ?

- a) mansab pog'onasi
- *b) sotsial mobillik
- v) reyting
- 5) ko'rsatkich

71) Quyidagilardan qaysi biri madaniyat elementi hisoblanmaydi ?

- a) til
- b) belgilar
- v) qadriyatlar
- *g) atrof-muhit

72) Aynan o'rtabaqalar jamiyatni boshqaruvchi kuch, chunki ular jamiyatning qarama qarshi qutblari (juda boyib ketganlar va haddan ortiq kambag'allashganlar) o'rtasidagi ziddiyatni engib o'tishga qodir, degan fikr qaysi mutafakkirga tegishli?

- a) Platon
- b) Konfutsiy
- *v) Aristotel
- g) Sokrat

73) O'zbekistonda fuqarolarning o'zini -o'zi boshqarish organlari (mahalla) raislari (oqsoqollari) qancha muddatga saylanadilar?

- a) 1,5 yilga
- b) 2 yilga
- *v) 5 yilga
- g) 3 yilga

74) Sotsial stratifikatsiyaning mohiyati nimani anglatadi?

- *a) ijtimoiy tabaqalanish, guruhlar, ijtimoiy tengsizlik.
- b) past, o'rtabaqalar, yuqori sinflar, kiyinish odati, so'zlashuvning o'ziga xosligi.
- v) daromad, boylik, obro'.
- g) kasb mahorati, tabaqalanish, boylik.

75) Diniy sohadagi tolerantlik tushunchasi nimani anglatadi?

- a) turli sinflar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar bilan hamjihatlik
- b) turli dinlar o'rtasiga nizo, adovat urug'larini sochish
- v) dindagi turli yo'nalishlar, mazhablarni bir-biriga qo'shib yuborishga urinish
- *g) boshqa dindagilarning odatlari, his tuyg'ulari, fikr mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan sabr-toqatli bo'lish

76) Urbanizatsiya haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- a) sovuq muhitda yashovchi kishilarning mo'tadil muhitdagi joylarga ommaviy ko'chib o'tishi
- b) shaharda yashovchilarning shahardan tashqariga ko'chishi
- *v) shaharlarning kengayishi, shahar aholisining o'sishi va shaharga xos turmush tarzining kuchayishi
- g) shahar aholisining jinsiy va yoshga oid ko'rsatkichlari

77) Fuqarolik jamiyatining mohiyati qaysi javobda to'liqroq aks etgan?

- a) bir mamlakat fuqarolarining jamiyati

- *b) ko'ngilli birlashmalarning nosiyosiy yig'indisi bo'lib, ular orqali individlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojlari amalga oshiriladi
 v) davlatning iqtisodiy asosi
 g) jamiyatning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi qismi
- 78) Qaysi javobda ijtimoiylashuv o'zining to'la ifodasini topmagan?
 *a) bolani tarbiyalash jarayoni
 b) kishilarning birgalikda samarali faoliyat yuritishni o'rganish jarayoni
 v) insonning butun umri davomida jamiyatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni
 g) individning ijtimoiy hayotga kirishi jarayoni
- 79) Ijtimoiylashuv zaruriyati nima bilan belgilangan?
 a) insonning biologik xususiyatlari bilan
 *b) ijtimoiy sabablar bilan
 v) u bilan ham, bu bilan ham belgilangan emas
 g) ham biologik, ham ijtimoiy sabablar bilan
- 80) Hech kim va hech qanday hokimiyat xalqqa ixtiyoriy ravishda ozodlik bermaydi, degan fikrni jadidlarning qaysi biri aytgan edi?
 a) Abdurauf Fitrat
 b) Abdulhamid Cho'lpon
 v) Munavvarqori Abdurashidxonov
 *g) Mahmudxo'ja Behbudiy
- 81) Hukmdor qanday masalani hal qilmasin, eng avval o'zini fuqaro o'rnida, ularni esa o'z o'rnida tasavvur qilmog'i lozim, bu adolatni ta'minlashga imkon yaratadi, degan fikr kimga tegishli?
 a) Furqat
 b) Berdaq
 *v) A. Donish
 g) Navoiy
- 82) Qaysi bir davlat arbobining fikricha, davlat ishlarini boshqaradigan kishilar hukmdorga sodiq, axloqiy sof, haqqoniy va tashabbuskor bo'lishi kerak?
 *a) Amir Temur
 b) Alisher Navoiy
 v) Ulug'bek
 g) Lenin
- 83) O'z hokimiyatini saqlash maqsadida hukmdor har qanday usullarni qo'llashga haqli, degan g'oya qanday nom bilan ataladi?
 a) konformizm
 *b) makiavellizm
 v) russoizm

g) marksizm

84) Bu orolda er ijtimoiy mulk, ishlab chiqarilgan barcha mahsulot jamiyatniki, barcha

kishilar mehnat qiladilar, ish vaqti 6 soatdan iborat. Gap qaysi orol haqida ketyapti?

a) Atlantida

b) Kipr

v) Saxalin

*g) Utopiya

85) Hokimiyatning bo'linishi tamoyiliga ko'ra quyidagi hokimiyatlar amal qiladi:

a) matbuot hokimiyati, ommaviy hokimiyat, saylangan hokimiyat

b) harbiy hokimiyat, qonuniy hokimiyat, markaziy hokimiyat

*v) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati

g) markazdan qochuvchi, markazga intiluvchi, neytral hokimiyat

86) Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi quyidagi javoblarning qaysi birida to'g'ri ifodalangan?

*a) o'zaro bog'langan va o'zaro aloqada bo'lgan ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutsiyalar va ular o'rtasidagi munosabatlarning yig'indisi

b) o'zaro ta'sirdagi ijtimoiy birlik va guruhlarining yig'indisi

v) o'zaro ta'sir qilayotgan etnoslar yig'indisi

g) jamiyatda mavjud turli madaniyatlarning yig'indisi

87) Javoblarning qaysi biri siyosiy munosabatlarni ifodalamaydi:

a) sinflar, yirik ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabatlar

*b) shaxslararo munosabatlar

v) siyosiy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar

g) hokimiyatni amalga oshirishga taalluqli munosabatlar

88) Aristotel va Platonning qulchilikka munosabati qanday bo'lgan?

a) qulchilik inson huquqlariga zid holat deb hisoblashgan

b) qulchilikka qarshi kurashish kerak deb hisoblashgan

v) barcha odamlar erkin bo'lib tug'iladilar, qulchilik notabiiy holat deb hisoblashgan

*g) qulchilik normal va tabiiy holat deb hisoblashgan

89) Quyidagi mutafakkirlarning qaysi biri hokimiyat faylasuflarga tegishli bo'lishi kerak, deb hisoblagan?

a) T.Mor

b) Sitseron

*v) Platon

g) Marks

90) Javoblarning qaysi birida ijtimoiy shartnoma nazariyasini rivojlantirgan kishilar

ko'rsatilgan?

- a) Aristotel, Kont, Rassel
- *b) Gobbs, Lokk, Russo
- v) Gegel, Kant, Shelling
- g) Forobiy, Beruniy, Navoiy

91) Ijtimoiy shartnoma nazariyasining mazmuni nimadan iborat?

*a) muayyan kishilar jamoasi a'zolari o'zaro "o'zlaridan yuqori turuvchi" davlat tuzish haqida kelishib oladilar

b) ikkita davlat uchunchi bir davlatni tuzish haqida qaror qiladilar

v) bosqinchi davlatlar o'zlari bosib olgan hududda ularnga bo'ysunuvchi davlat tuzish haqida kelishib oladilar

g) qabila boshliqlar qabilalarning bitta yagona davlatga birlashishi haqida qaror qiladilar

92) Millatlarning vujudga kelish davri:

a) qadimgi dunyoda

b) o'rta asrlarda

*v) kapitalizm davrida

g) sotsializm davrida

93) Insonning milliy mansubligini ... belgilaydi.

a) davlat

*b) ota onasi

v) insonning o'zi

g) xalqaro shartnoma

94) Keng ma'noda jamiyat – bu...

a) davlat

b) jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichi

v) xalq

*g) moddiy dunyoning tabiatdan ajralib chiqqan qismi

95) Echimi insoniyatning ijtimoiy taraqqiyoti va sivilizatsiyalarning saqlanib qolishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-tabiiy muammolar yig'indisi ... deyiladi

a) futurologiya

b) ijtimoiy muammolar

*v) umumbashariy muammolar

g) texnologik muammolar

96) Inson - ijtimoiy mavjudot, davlat – jamoalar ittifoqining rivojlangan shakli, jamoa esa – rivojlangan oiladir, degan fikrni kim aytgan?

a) Platon

- *b) Aristotel
- v) Geraklik
- g) Pifagor

97) Insonni tushunishda kosmotsentrizm nuqtai nazari hukmronlik qilgan davr:

- a) ibtidoiy dunyo
- b) yangi davr
- v) o'rta asrlar
- *g) qadimgi dunyo

98) Insonni tushunishda teotsentrizm nuqtai nazari hukmronlik qilgan davr:

- a) ibtidoiy dunyo
- b) yangi davr
- *v) o'rta asrlar
- g) qadimgi dunyo

99) Insonni tushunishda antropotsentrizm nuqtai nazari hukmronlik qilgan davr:

- a) ibtidoiy dunyo
- *b) yangi davr
- v) o'rta asrlar
- g) qadimgi dunyo

100) Insonning jinsi, yoshi, mutaxassisligi, kelib chiqishi, qon-qardoshlik aloqalari, oilaviy ahvoli, mulkiy darajasi va shu kabi belgilariga ko'ra jamiyatda tutgan o'rnini...

deyiladi.

- a) ijtimoiy guruh
- b) ijtimoiy sinf
- v) ijtimoiy tuzilish
- *g) ijtimoiy mavqe

ADABIYOTLAR

- 1.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-j., T., O'zbekiston, 1998.
- 2.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-j., T., O'zbekiston, 1999.
- 3.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-j., T., O'zbekiston, 2000.
- 4.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-j., O'zbekiston, 2001.
- 5.Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-j., O'zbekiston, 2002.
- 6.Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., O'zbekiston. 2000.
- 7.Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T.: 2001.
- 8.Murodov X., Muxammadiev N., Jamolov G'. O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. T., 2000.
- 9.Xurram Baraka. Tasavvuf va Xoja Ahrori Valiy. Samarqand, 1997.
- 10.Choriev A. Inson falsafasi. I kitob. Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. Qarshi, 1998.
- 11.Choriev A. Tasavvuf falsafasida inson qiyofasi. Qarshi, 1997.
- 12.Choriev A. Millatlararo munosabat madaniyati. Qarshi, 1993.
- 13.Choriev A. Inson falsafasi. II kitob. Mustaqil shaxs. T., 2002.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. "Shaxs va jamiyat" kursining mazmuni va vazifalari.....	4
2-mavzu. Inson bioijtimoiy mavjudot.....	11
3-mavzu. Qadimgi dunyoda ijtimoiy fikrlar.....	17
4-mavzu. O'rta Osiyo mutafakkirlarining inson va jamiyathaqidagi ta'limotlari.....	30
5-mavzu. Evropada inson va jamiyatning mohiyati to'g'risidagi g'oyalar.....	55
6-mavzu. Hozirgi davrda shaxs va jamiyat taraqqiyoti masalalariga doir fikrlar va qarashlar.....	78
7-mavzu. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi masalalari.....	93
8-mavzu. Jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimi. O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyat qurilishining asosiy yo'nalishlari.....	104
9-mavzu. Inson va jamiyatning ma'naviy hayoti. O'zbekistonda ma'naviy yangilanishning asosiy masalalari.....	120
10-mavzu. XXI asr va insoniyatning rivojlanish istiqbollari.....	132
11-mavzu. Zamonamizning olamshumul muammolari va O'zbekistonning kelajagi.....	141
Glossariy.....	160
"Shaxs va jamiyat" fani bo'yicha testlar.....	162
Adabiyolar.....	178

the 1990s, the number of people in the world who are undernourished has increased from 600 million to 800 million. The number of people who are malnourished has increased from 1.2 billion to 1.5 billion. The number of people who are obese has increased from 100 million to 300 million.

There are a number of reasons for this. One is that the world population has increased from 5 billion to 6 billion. Another is that the world has become more urbanized. A third is that the world has become more affluent. A fourth is that the world has become more industrialized. A fifth is that the world has become more developed.

There are a number of ways in which we can address these problems. One is to increase the number of people who are undernourished. Another is to increase the number of people who are malnourished. A third is to decrease the number of people who are obese. A fourth is to decrease the number of people who are undernourished. A fifth is to decrease the number of people who are malnourished.

There are a number of ways in which we can address these problems. One is to increase the number of people who are undernourished. Another is to increase the number of people who are malnourished. A third is to decrease the number of people who are obese. A fourth is to decrease the number of people who are undernourished. A fifth is to decrease the number of people who are malnourished.

There are a number of ways in which we can address these problems. One is to increase the number of people who are undernourished. Another is to increase the number of people who are malnourished. A third is to decrease the number of people who are obese. A fourth is to decrease the number of people who are undernourished. A fifth is to decrease the number of people who are malnourished.

There are a number of ways in which we can address these problems. One is to increase the number of people who are undernourished. Another is to increase the number of people who are malnourished. A third is to decrease the number of people who are obese. A fourth is to decrease the number of people who are undernourished. A fifth is to decrease the number of people who are malnourished.

There are a number of ways in which we can address these problems. One is to increase the number of people who are undernourished. Another is to increase the number of people who are malnourished. A third is to decrease the number of people who are obese. A fourth is to decrease the number of people who are undernourished. A fifth is to decrease the number of people who are malnourished.

There are a number of ways in which we can address these problems. One is to increase the number of people who are undernourished. Another is to increase the number of people who are malnourished. A third is to decrease the number of people who are obese. A fourth is to decrease the number of people who are undernourished. A fifth is to decrease the number of people who are malnourished.

There are a number of ways in which we can address these problems. One is to increase the number of people who are undernourished. Another is to increase the number of people who are malnourished. A third is to decrease the number of people who are obese. A fourth is to decrease the number of people who are undernourished. A fifth is to decrease the number of people who are malnourished.